

**B.B. BERKINOV, D.S. ASHUROVA,
M.K. ABDULLAEVA, G.E. ZAHIDOV**



**MINTAQALARNI
IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI
PROGNOZLASH**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAHSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**B.B. BERKINOV, D.S. ASHUROVA,
M.K. ABDULLAEVA, G.E. ZAHIDOV**

**MINTAQALARNI
IJTIMOIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINI PROGNOZLASH**

(O'quv qullanma)

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta mahsus ta'lim vazirligi
oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmila faoliyatini
muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan oliy o'quv yurtlarning iqtisodiy
ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun o'quv qullanma
sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT - 2010

B.B. Berkinov, D.S. Ashurova, M.K. Abdullaev. "Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlash" - (o'quv qo'llanma) - T.: TDIU, 2010 yil. - 216 bet.

Ushbu o'quv qo'llanmada iqtisodiy ijtimoiy prognozashtirish fanini mohiyati ochib berilib, bu fan hozirgi zamonning rivojlanish qonuniyatlari, tendensiyalariga asoslangan holatda kelajakni oldindan ilmiy bilish va istiqboldagi rivojlanish maqsadlarini va vazifalarini aniqlash masalalari ko'rib chiqiladi.

O'quv qo'llanma iqtisodiyotda o'rganilayotgan fan yutuqlari, jahon amaliyoti hamda xalqaro moliya institutlarini talabiga asoslangan.

Ushbu o'quv qo'llanmada iqtisodiy yo'nalishlarning bakalavrlari, magistrleri, professor-o'qituvchilari va iqtisodiy integratsiya sharoitida makroiqtisodiyot oldidagi prognoz muammolari bilan qiziqadiganlar uchun mo'ljallangan.

Ma'sul muharrir:

Taqrizchilar: i.f. d. prof. B.T.Salimov, i.f.n., dos. M.T. Xaydarov

Беркинов Б.Б., Ашурова Д.С., Абдуллаева М.К. «Прогнозирование экономического и социального развития региона». – Т.: ТГЭУ. 2010г.

В учебном пособии рассматривается современное состояние прогнозирования социально-экономических процессов, выделяются методологические основы излагаемых вопросов, определяются принципиальные положения и проблемные подходы, используемые в процессе функционирования экономики, приобретение практических навыков прогнозирования в условиях перехода к рынку.

Учебное пособие предназначено для бакалавров, магистров, профессоров-преподавателей экономических специальностей занимающихся проблемой макроэкономического анализа и прогнозирования.

Ответственный редактор доц.

Рецензенты: д.э.н ,проф.Б.Т. Салимов , к.эн., доц. М.Т.Хайдаров

Berkinov B.B., Ashurova D.S., Abdullaeva M.K. « A subject of the theory of economic and social forecasting of region » - – T.: TDIU, 2010 year. – 216 p.

In the manual is considered the modern state of forecasting socio-economic processes are given the methodological bases of stated questions, are defined, the principle states and problem ways are used during functioning of economy, taking of practical skills of forecasting in conditions of transition market.

The manual is intended for the bachelors, ministers, professors of the teachers of economic specialties engaged by a problem macroeconomics analysis and forecasting of region.

Editor in chief:

Reviewers: p.h.d., prof. B.T.Salimov, p.h.d.M.T.Xaydarov

KIRISH

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotgan hozirgi sharoitda mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlash asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni real holatiga baho berib, kelgusi holatini rivojlanishiga ko'mak beradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy-ijtimoiy prognozashtirish-bu, o'tmishni, hozirgi zamonning rivojlanish qonuniyatlari, tendensiyalariga asoslangan holatda kelajakni oldindan ilmiy bilish va istiqboldagi rivojlanish maqsadlarini va vazifalarini aniqlashdan iborat. Prognozashtirish mamlakat iqtisodiyoti mintaqalari holatiga to'g'ri baho berib, kelgusidagi rivojlanish yo'nalishlarini ko'rsatib beradi va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega.

"Prognozlash" - bu, iqtisodiyotni tartibga solish jarayonining yana bir bosqichi yoki mamlakat iqtisodiy - ijtimoiy rivojlanish dasturini ishlab chiqishning bir qismidir. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'sirida narx-navoning keskin o'zgarishi, eksport import operiyalardagi nobarqarorlik sharoitida prognozashtirishni amalga oshirish bu murakkab vaziyatni echimiga ega bo'lishni ta'minlaydi. Prognozashtirishni amalga oshirishda ko'plab uslublardan foydalaniladi va modellarni tuzish, aniq funksiyani ko'rsata bilish prognozning sifat darajasini ta'minlab beradi. Ba'zida miqdor baholari asosan ehtimollik harakteriga ega, ular ko'proq darajada sodir bo'lgan rivojlanish muamolarini aniqlashga va ularni echish yo'llarini izlashga qaratilgan. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: 2008 yilda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 9,0 foizni, sanoatda 12,7 foizni, jumladan, iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda 17,7 foizni tashkil etdi, xizmat ko'rsatish hajmi 21,3 foizga o'sdi".¹ Iqtisodiyotimizda erishilayotgan tendensiyalarni saqlab qolish ychun prognozlash usullari va prognozlashni o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

"Mintaqalarni iqtisodiy - ijtimoiy rivojlanishini prognozlash" fanining predmeti - prognozashtirish ob'ektining rivojlanish qonuniyatini o'tmishi asosida o'rganib, butun bir iqtisodiy majmua va uning tarkibiy qismlari ob'ektiv asoslangan rivojlanish holatlari va tendensiyalarining vaqt va fazodagi miqdor va sifat darajalarini aniqlashdir.

"Mintaqalarni iqtisodiy - ijtimoiy rivojlanishini prognozlash" ning asosiy vazifasi mintaqaning iqtisodiy - ijtimoiy rivojlanish yo'llarini real baholash, bu rivojlanishning maqbul boshqaruv echimlarini ilmiy asoslash uchun ustivor variantlarni aniqlashdir. Bundan tashhari, u iqtisodiyotning

¹ I.A. Karimov "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari"
- T.:O'zbekiston-2009.-56 b.

rivojlanish yo'nalishlarini miqdor va sifat jihatdan tahlil qiladi, muamolarni, yangi jarayon va qolatlarni o'rganadi, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning ehtimoli yo'nalishlarini belgilaydi, imkoniyatlarni baholaydi, ijtmoiy, iqtisodiy, ilmiy-tehnika va boshqa chora - tadbirlarni hayotga tatbiq etadi, samarasini aniqlaydi, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-tehnika bosh yo'nalishlarni asoslaydi.

"Mintaqalarni iqtisodiy - ijtimoiy rivojlanishini prognozlash" fanining maqsadi - prognozashtirishning asosiy usullari va tamoyillarini mintaqada sodir bo'layotgan ijtimoiy - iqtisodiy jarayonlarga moslashgan holda o'rganishdan iborat.

I BOB. IQTISODIYOTDA PROGNOZLASHTIRISHNING MOHIYATI VA O'RNI.

1.1. Prognozlash tarihi va uning bozor munosabatlaridagi o'rni.

Mintaqalarni prognozashtirish mamlakat iqtisodiyotini boshharish nazariyasi va amaliyotida katta ahamiyatga ega. Bu fan boshqaruv echimlarni tanlashda asos bo'lib hizmat qiladi, kelajak maqsadlariga erishish uchun qozirgi paytda iqtisodiy jarayonlarga ta'sir etish yo'llarini aniqlaydi va mintaqa saloqiyatidan optimal foydalanishga ko'mak beradi.

"Prognozlash" - bu, iqtisodiyotni tartibga solish jarayonining yana bir bosqichidir. SHu bilan birga bu nisbatan mustaqil fan bo'lib, o'ziga hos bir qancha belgilari bilan farqlanadi: prognozlar direktiv harakterga ega emas, ularning miqdor baholari asosan ehtimollik harakteriga ega, ular ko'proq darajada sodir bo'lgan rivojlanish muamolarini aniqlashga va ularni echish yo'llarini izlashga qaratilgan.

"Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozlash" fanining asosiy vazifasi mintaqaning rivojlanish yo'llarini real baholash, bu rivojlanishning maqbul boshqaruv echimlarini ilmiy asoslash uchun ustivor variantlarni aniqlashdir. Bundan tashhari, u iqtisodiyotning rivojlanish yunalishlarini miqdor va sifat jihatdan tahlil qiladi, muammolarni, yangi jarayon va qolatlarni o'rganadi, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning ehtimoli yo'nalishlarini belgilaydi, imkoniyatlarni baholaydi, ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy-tehnika va boshqa chora - tadbirlarni hayotga tatbiq etadi, samarasini aniqlaydi, ijtimoiy iqtisodiy va ilmiy-tehnika bosh yo'nalishlarni asoslaydi.

Kelajakni oldindan ko'rmasdan, uning rivojlanish yo'llarini prognoz qilmasdan jamiyat qayoti taraqqiyotiga erishish mumkin emas. Ohirgi yillarda prognozlash halq xo'jaligi maqbul darajada ishlashini ta'minlashning asosiy vositalaridan biriga aylanmoqda. Iqtisodiyot va ishlab chiqarishni boshharish maqbul harorlar tanlash va ularning ijrosini ta'minlashi zarur, chunki bugungi kunda jamiyat uchun asoslanmagan haror qabul qilishdan ko'riladigan zarar darajasi ko'p marotaba o'sib bormoqda. SHuning uchun zamonaviy xo'jalik yuritish prognozlash ko'lami kengaytirilishini uning usul va uslubiyatlari takomillashtirilishini talab etmoqda.

Ijtimoiy rivojlanish jarayonini prognozlash darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, jamiyatdagi jarayonlarni boshharish va rivojlantirish shunchalik samarali kechadi. Prognozlarni ishlab chiqish jarayoni prognozlash

deyiladi. Prognozlashning asosiy yo'nalishlaridan biri iqtisodiy prognozlash hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzasida 2009 yilning g'oyat murakkab bo'lganligiga qaramay mamlakatimizda erishilgan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar salmoqli bo'lganini ta'kidlab o'tdi.

Mintaqalarni ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishini prognozlashda asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning ahamiyati juda katta. 2010 yilda O'zbekiston Respublikasida Yalpi ichki mahsulotining 8–9 % doirasida o'sishi ko'zda tutilmoqda. Bu albatta ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda Yalpi ichki mahsulotning xattoki pasaygani sharoitida prognoz qilinishi mamlakatimizda Inqirozga qarshi Dasturlarni ishlab chiqilganligi bilan bog'liq.

2009 yilda global iqtisodiyotning o'sishi taxminan 1 foizga qisqargan bo'lsa, joriy yilda dunyoda iqtisodiy rivojlanish 3 foiz atrofida oshishi mumkin, bu esa inqirozgacha bo'lgan davrdagi ko'rsatkichlardan ancha pastdir.


Shu bilan bir qatorda asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning asosiysi inflyatsiya darajasi 7,4 foizni tashkil etib, 2009 yil uchun belgilangan prognoz ko'rsatkichlaridan oshmadi. Bu esa o'z navbatida inflyatsiyani o'sish tempiga ta'sir etuvchi omillarning o'rganilganligi bilan bog'liq. 2009 yilda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,2 foiz miqdorda profitsit bilan bajarildi.

O'zbekiston Respublikasi 2010 yilda iqtisodiy rivojlanishining maqsadli ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	qo'shimcha o'sish, oldingi yilga nisbatan, foizda
Yalpi ichki mahsulot	8,3
Sanoat mahsuloti	8,3
qishloq xo'jaligi	5,0
Asosiy kapitalga investitsiyalar	22,1
Investitsiya kiritish hajmini YaIMga nisbatan	30,0
Eksport hajmi	8,5
Inflyatsiya darajasi	7-9
Mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi	40,0
Ish haqi darajasining o'sishi	30,0
Xizmatlarning YaIMdagi ulushi	49,0
Kichik biznesning YaIMdagi ulushi	52,5

Albatta ushbu prognoz ko'rsatkichlariga erishishda birinchi navbatda Yalpi ichki mahsulot tarkibining O'zbekiston Respublikasida tarkibiy o'zgarishi yuz berayotgani, ya'ni yalpi ichki mahsulot tarkibida qishloq xo'jaligining ulushi pasayib, sanoatning ulushi oshib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda esa mintaqalarning spetsifik holatiga asosiy e'tiborimizni qaratishimiz, mintaqalardagi mos sanoat tarmoqlarini rivojlantirish zarur. Hozirgi sharoitda o'z navbatidan investitsiyalarga bo'lgan talab yuqori bo'lgan sharoitda investitsion loyihalarni mintaqalar darajasida teng taqsimlanishi bir mintaqaning o'ta sanoatlashuvi va boshqa mintaqada esa sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi ulushining past darajada ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida hudud investitsion loyihalarining prognoz yo'nalishlari quyidagilardan iborat:



1-расм.¹

¹ B.Xodiev va boshqalar. «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalhimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzasini yrganish b'yyicha y'quv q'yllanma. – T.: Iqtisodiyot, 2010. B.– 78.

1.2. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni prognozashtirishning o'ziga hos hususiyatlari.

"Iqtisodiy prognozlash" - bu, ilmiy - iqtisodiy fan bo'lib, uning ob'ekti kengaytirilgan ishlab chiqarish jarayoni, predmeti esa ishlash mumkin bulgan iqtisodiy ob'ektlarning qonuniyligi va iqtisodiy prognozlarni ishlab chiqish yo'lidagi izlanishlardir.

"Iqtisodiy prognozlash" jamiyat rivojlanishi qonuniyligi sohasidagi iqtisodiy fan yutuqlariga va bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy va fan - tehnika taraqqiyoti tendensiyalarining aniqligiga asoslanadi.

"Iqtisodiy prognozlash"ning rivojlanishida, ishlab chiqilayotgan prognozlarning ishchanligini oshirishda. har hil ob'ektlarning prognozlarni tuzish qonun-qoidalarini o'rganadigan fan- "Prognostika", uning bir qismini tashkil etadigan "Iqtisodiy prognostika" fani katta rol o'ynaydi. SHundan kelib chiqib, iqtisodiy prognozlarga quyidagicha ta'rif berish mumkin.

Iqtisodiy prognozlash - bu, iqtisodiy jarayonlarni bilishning ilmiy usullari hamda prognozlashning barcha usul va yo'llari yig'indisini qo'llash orqali iqtisodiy prognozlarni ishlab chiqishdir.

Mintaqadagi takror ishlab chiqarish jarayonining o'rganilayotgan jihatiga harab, mazkur jarayoning har hil elementlari: ishlab chiqarish kuchlari, moliyaviy saloqiyat, Mehnat resurslari, aholining turmush darajasi va qokazolar iqtisodiy prognoz qilinishi mumkin.

Iqtisodiy prognozlashning nazariy muhim muammolaridan biri prognozlarni turlarining tuzilishi hisoblanadi. Turlar - har hil mezonlar va belgilariga asoslanib ko'rilishi mumkin. Bulardan eng muhimlariga quyidagilar kiradi: prognozlash ko'lami; prognozlash muddati; ob'ekt harakteri; prognoz funksiyalari (funksiional belgi).

1.3. Prognozlashning asosiy yo'nalishlari.

Prognozlash ko'lami bo'yicha quyidagilar ko'rsatib o'tilgan:

a) makroiqtisodiy (halq xo'jaligi) va tarkibiy (tarmoqlararo va regionlararo) prognozlash;

b) halq xo'jaligi majmualarining prognozlari (yoqilqi, energetika, agrosanoat, ishlab chiqarish infratuzilmasi, aholiga hizmat ko'rsatish sohalari va boshqalar);

v) tarmoq va regional prognozlarni;

g) halq xo'jaligi tizimining boshlanqich bo'qinlarini prognozlash (korhonalarda ishlab chiqarish uyushmalarini va qokazo). Prognozlarning izlanilayotgan ob'ekt harakteriga ko'ra bo'linishlari har hil qayta ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'liq. SHunga ko'ra, prognozlash quydagilarga ajratiladi: ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi; ilmiy-teqnik jarayonlarni ijtimoiy-iqtisodiy harakterlari va oqibatlari; iqtisodiyot dinamikalari (sur'atlari, faktlari va tuzilishlari); bandlik, Mehnat resurslari va kadrlarni qayta tayyorlash; tabiiy resurslardan oqilona foydalanish; tadqiqotning yashash sharoiti.

Qisqacha xulosalar

Iqtisodiy prognozlash - bu, iqtisodiy jarayonlarni bilishning ilmiy usullari hamda prognozlashning barcha usul va yo'llari yig'indisini qo'llash orqali iqtisodiy prognozlarni ishlab chiqishdir.

Mintaqadagi takror ishlab chiqarish jarayonining o'rganilayotgan jiqatiga harab, mazkur jarayoning har hil elementlari: ishlab chiqarish kuchlari, moliyaviy saloqiyat, Mehnat resurslari, aholining turmush darajasi va qokazolar iqtisodiy prognoz qilinishi mumkin.

Nazorat uchun savollar

1. Prognozlash deganda nimani tushunasiz?
2. Mintaqalarni ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishni prognozlashning asosiy hususiyatlari nimadan iborat?
3. Iqtisodiy prognozlash va prognozlashning farqi qanday?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. I.A.Karimov Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari-T.: O'zbekiston, 56 b.
2. Abdullaev A.M., Abdurahmanov O.K., Zokirova N.K. Prognozirovaniye i modelirovaniye nasiionalnoy ekonomiki. Uchebnik. - T.: Fan va tehnologiya, 2007. - 576 s.
3. Abdullaev A.M., Irmatov M.M., Haydarov M.T., Ashurova D.S. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni prognozashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2006. - 249 b.
4. Irmatov M.M., Haydarov M.T. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning prognozashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004.

5. Li A.N. Maqalliy tuzilmalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni prognoz qilish. O'quv qo'llanma. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamharmasi nashriyoti. - T.: 2004.

II BOB. IJTIMOYIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI PROGNOZLASHTIRISH METODOLOGIYASI VA USULLARI.

2.1. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozashtirish tizimlari.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozashtirishda iqtisodiyotning davlat sektorini prognozashtirish alohida ajratiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognoz qilish demografik, ekologik, ilmiy-tehnikaviy, tashqi iqtisodiy, ijtimoiy, tarmoqlar va hududlar tizimlariga, shuningdek qiymat va material balanslarga asoslanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozashtirish ichki va tashqi siyosat, iqtisodiy va boshqa omillar ta'sirini hisobga olgan holda bir qancha variantlarda ishlab chiqiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozashtirish mamlakatning makroiqtisodiy holatini aks ettiruvchi sifat va son ko'rsatkichlarini, ilmiy-tehnikaviy rivojlanishi, tashqi iqtisodiy faoliyat, ishlab chiqarish va iste'mol, aholi turmush darajasi va farovonligi, ekologik vaziyat, ijtimoiy struktura, ta'lim tizimi, sog'liqni saqlash va aholini ijtimoiy ta'minlash ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozashtirish butun mamlakatning iqtisodiyot tarmoqlari, hududlari bo'yicha ishlab chiqiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozashtirish uzoq, o'rta va qisqa muddatlar uchun ishlab chiqiladi.

2.2. Uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozashtirish uslubiyati asoslari.

Uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozashtirish besh yildan o'n yil muddat ichida amalga oshiriladi. Uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozashtirish asosida hududning uzoq davr mobaynidagi rivojlanish istiqbollari belgilanadi. Uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozashtirish konsiepsiyasida hududning uzoq muddatli davr uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish variantlari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadlari va maqsadga etish yo'llari ko'rsatib beriladi. Uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozashtirish chora-tadbirlari Respublika hukumati tomonidan hududning uzoq muddatli davrga rivojlantirish konsiepsiyasiga mos ravishda amalga oshiriladi. Uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozashtirish asosida hududning rivojlanishini prognoz qilishdagi o'rta muddatli prognoz qilishda foydalaniladi.

2.3. O'rta muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozlashtirish uslubiyati asoslari.

O'rta muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozlashtirish uch yildan besh yilgacha davrni o'z ichiga oladi. O'rta muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozlashtirish O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozlashtirish asosida amalga oshiriladi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozlashtirish asosida hududning o'rta muddatli konsiepsiyasi ishlab chiqiladi, uning asosida mamlakat iqtisodiyoti, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari, respublikaning o'rta davr ichidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tavsiflovchi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida amalga oshiriladi. hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsiepsiyasi asosida o'rta muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognoz qilish amalga oshiriladi. hududlarni o'rta muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognoz qilish quyidagilarni o'z ichiga olishi zarur:

- o'tgan davrdagi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlari va iqtisodiyotni holatining tavsifi;

- o'rta davrdagi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlari konsiepsiyasi;

- makroiqtisodiy siyosat;

- institusiional o'zgarishlar;

- investisiion va tarkibiy siyosat;

- agrar siyosat;

- ekologik siyosat;

- ijtimoiy siyosat;

- iqtisodiy hududiy siyosat;

- tashqi iqtisodiy siyosat.

2.4. Qisqa muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozlashtirish uslubiyati asoslari.

Qisqa muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozlashtirish yillik ko'rsatkichlar asosida, kelgusi davr ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognoz qilish asosida ishlab chiqiladi. qisqa muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozlashtirish quyidagi qujjat va materiallarni o'z ichiga oladi:

- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni o'tgan davrning joriy yil yakunlari;

- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni joriy yil prognozlari;
- umumlashtiruvchi moliyaviy balans;
- kelgusi yil uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognoz qilish muammolari, hukumatning siyosati yo'nalishlari asosida prognozlash asoslari;
- maqsadli programmalar tarkibi, kelgusi davr uchun davlat byudjetining moliyalashtirish asoslari;
- davlat iste'moli uchun asosiy tovarlar hajmi va tarkibi;
- iqtisodiyotning davlat sektorini rivojlantirishni loyihalashtirish; hududlarning qisqa muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozashtirishda zarur bo'lganda joriy yilda qabul qilinadigan qonunlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Qisqacha xulosa

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozashtirish mamlakatning makroiqtisodiy holatini aks ettiruvchi sifat va son ko'rsatkichlarini, ilmiy-tehnikaviy rivojlanishi, tashqi iqtisodiy faoliyat, ishlab chiqarish va iste'mol, aholi turmush darajasi va farovonligi, ekologik vaziyat, ijtimoiy struktura, ta'lim tizimi, sog'liqni saqlash va aholini ijtimoiy ta'minlash ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozashtirish uzoq, o'rta va qisqa muddatlar uchun ishlab chiqiladi. Uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozashtirish besh yildan o'n yil muddat ichida amalga oshiriladi. O'rta muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozashtirish uch yildan besh yilgacha davrni o'z ichiga oladi. qisqa muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozashtirish yillik ko'rsatkichlar asosida, kelgusi davr ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognoz qilish asosida ishlab chiqiladi.

Nazorat uchun savollar

1. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognoz qilish qanday tizimlarga asoslanadi?
2. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozashtirish mamlakatning makroiqtisodiy holatini aks ettiruvchi qaysi ko'rsatkichlariga asoslanadi?
3. Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozlash muddatiga ko'ra qanday turlarga ajratish mumkin?
4. Uzoq muddatli prognozlashning uslubiyati qanday?
5. O'rta muddatli prognozning uslubiyati asoslari nimadan iborat?

6. Qisqa muddatli prognozlar deganda nimani tushunasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A.Karimov Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari-T.: O'zbekiston, 56 b.
2. Abdullaev A.M., Irmatov M.M., Haydarov M.T., Ashurova D.S. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni prognozashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2006. - 249 b.
3. Irmatov M.M., Haydarov M.T. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning prognozashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004.
4. Li A.N. Maqalliy tuzilmalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni prognoz qilish. O'quv qo'llanma. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamharmasi nashriyoti. - T.: 2004.
5. Vasileva O.V. Prognozirovaniye i planirovaniye v usloviyah rinka. Uchebnoe posobie. - M.: 2005.

III BOB. IJTIMOYIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI PROGNOZLASHTIRISHNI TASHKIL ETISH TARTIBI VA YO'NALISHLARI.

3.1. Davlat va mintaqa miqyosida prognozashtirish va uni tashkil etish tartiboti.

Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozashtirish-tizimlashtirilgan ilmiy asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlari va bozor iqtisodiyoti qonunlariga asoslanadi. O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish prognozashtirishda uzoq, o'rta, qisqa muddatli prognozlarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozashtirish:

— asosiy iqtisodiyotni strukturasiining umummilliy qiziqishlarini bajarilishiga yo'naltirilgan davlat dasturlari.

— demografik qolat tahlili, ilmiy-tehnikaiviy saloqiyat, milliy boylik, ijtimoiy struktura, tashqi qolatlar, tabiiy resurslarning kompleks tahlili dasturlari.

Prognoz jarayonini shakllantirish teskari aloqa tamoyiliga asoslanadi: iqtisodiy siyosat yo'nalishlari va xo'jalik sub'ektlari faoliyatlarini hisobga olgan holda hudud strategiyasini ishlab chiqiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozashtirish tizimi quyidagi asosiy talablarni qondirishi lozim:

— maqsadga erishish uchun barcha xo'jalik tarmoqlari va sektorlarini hamrab olib yahlit iqtisodiyotni boshharish.

— bozor mehanizmlaridan foydalanib xo'jalik sub'ektlari faoliyatini balanslashtirish.

— ishlab chiqarish qolatiga ko'ra tartibga solishni tabaqalashgan usulidan foydalanish.

Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozashtirish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1) ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik maqsad va bosh vazifalarni prognozashtirishning yo'naltirilganligi;

2) prognozning uzluksizligi;

3) makroiqtisodiy balanslashtirishni ta'minlash maqsadida jami talab prognozlarni va ishlab chiqarishni raqbatlantirishni hisobga olish;

4) echimlarni qabul qilishda kompleks yondoshuv;

- 5) prognozning elastikligi va egiluvchanligi, tashqi va ichki sharoitlarga ta'sirini hisobga olish;
- 6) ustuvor yo'nalishlarda nazoratni ta'minlash;
- 7) pronozlarning ilmiy asoslanganligi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognoz qilishni ishlab chiqishda quyidagilardan foydalanish talab etiladi:

- 1) makroiqtisodiy tahlil usullari, qaysiki ularni predmeti bo'lib, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, proporsiyalar, iste'mol va jamharmalar, iqtisodiy o'sish omillari, iqtisodiyot sektorlari va rivojlanish tarmoqlari hisoblanadi;

- 2) prognozning optimal variantlarini hisobga olishda ekonometrik tahlil va iqtisodiy-matematik modellashtirish usullardan foydalanish;

- 3) statistik ahborotlarni zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda statistik tahlil usullariga asoslanish;

- 4) statistik tahlilning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari omili dinamikasiga ta'sirini ekspert baholash usuliga asoslanish.

Asosiy iqtisodiy proporsiyalar o'zgarishlarini prognoz qilishda qiymat va natural balanslar tizimi o'z ahamiyatini saqlab qoladi, iqtisodiyotda iste'mol nisbatlari va resurslarni baholash, iqtisodiyot tarmoqlari va sektorlari rivojlanishini maqsadlilikini ta'minlashda dasturlarni ishlab chiqish va ularni tartibga solish instrumenlari tizimi asosiy hisoblanadi.

3.2. Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozashtirish tizimi va uning aloqadorligi.

Prognozlar tizimi o'rta, qisqa, uzoq muddatli pronozlar tizimidan iborat. Uzoq muddatli prognozlar 10-15 yil uchun tuziladi va u strategiya, maqsad, yo'nalishlar, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, aniq maqsadga erishida iqtisodiy siyosat o'zgarishlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi.

Uzoq muddatli prognozlar joriy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish qolati tahliliga asoslanib, quyidagilarni aniqlaydi:

- istiqboldagi maqsad va vazifalar tizimini;
- rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari va ularni amalga oshirishda bosqichlilikligi;
- asosiy makroiqtisodiy paramertlar va proporsiyalar va iqtisodiy o'sish templari imkoniyatlari;

- resurs saloqiyati, ulardan foydalanishning yo'nalishlari va foydalanishning samaradorligi;
- iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar;
- iqtisodiy siyosatdagi tashqi va ichki asosiy yo'nalishlar;
- iqtisodiyot tizimidagi asosiy institutsional o'zgarishlarni qayta tashkil etish.

O'rta muddatli pronoz iqtisodiyot rivojlantirishni pronoz qilishda makroiqtisodiy parametrlar va strukturalarni o'z ichiga olib, tavsiyalar va yo'nalishlar shaklida amalga oshiriladi. O'rta muddatli pronoz aniq makroiqtisodiy parametrlarini aniq reja asosida prognoz qilishga asoslanib aniq maqsad va vazifalar doirasida amalga oshiriladi.

Iqtisodiyot vazirligi boshqa iqtisodiyot boshharmalari va ilmiy tashkilotlar bilan birga asosiy iqtisodiy, ilmiy-tehnikaviy, ijtimoiy siyosat yo'nalishidagi tavsiyalar bilan o'zaro kelishgan holda muvokama qilinadi. Muvokamadan so'ng esa ommaviy ahborotda barcha asosiy makroiqtisodiy parametrlar e'lon qilinadi. hududiy va tarmoq boshharmalari o'z rejalarini umumlashtirishadi va prognoz ko'rsatkichlarini Iqtisodiyot vazirligiga yuborishadi. Barcha boshharmalarning prognoz ko'rsatkichlari asosida Iqtisodiyot vazirligi makroiqtisodiy parametrlarni prognoz parametrlarini o'rta muddatli davr uchun ishlab chiqadilar.

Qisqa muddatli prognoz bir yil davr uchun quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

Iqtisodiyot vazirligi moliya vazirligi va boshqa boshharmalarning iqtisodiy siyosat yo'nalishlariga asosan kelgusi yil uchun iqtisodiyotning asosiy ko'rsatkichlarini prognoz variantlarini ishlab chiqishadi.

Ishlab chiqarish va bozor kon'yunkturasini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar milliy dasturlar, davlatning investisiion dasturlari bilan birga aniqlashtiriladi. Korhona va tashkilotlar olingan ahborotlar asosida mustaqil ravishda prognoz va bir yil davr ichidagi o'zlarining asosiy istiqboldagi rejalarini maqalliy hududiy boshharmalarga Iqtisodiyot vazirligining boshharmalariga o'z ahborotlarini etkazishadi. Iqtisodiyot vazirligi va moliya vazirligi boshqa vazirliklar bilan birga davlat byudjeti loyihasini va pronoz parametrlari bilan o'zaro bog'liqlikni, davlat eqtiyoji uchun resurs va iqtisodiyotni tartibga solishni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognoz qilish davlat byudjeti bilan birga mamalakat hukumatiga topshiriladi. Vazirlar Maqkamasi Oliy Majlisni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozi va davlat byudjeti

loyihasi bilan tanishtiradi. Davlat eqtiyojlari uchun moddiy-tehnikaviy va moliyaviy prognoz parametrlarini amalga oshirishda davlat mablag'lari ajratiladi, imtiyozli kreditlash siyosatini, asosiy iqtisodiyot ob'ektlari uchun qaytarib olish shartisiz kreditlar beriladi.

Davlat eqtiyoji uchun mahsulotlar va hizmatlar, mudofaa ahamiyatiga ega bo'lgan tovarlarni prognozini tuzish majburiy hisoblanadi.

Qisqacha xulosa

Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozashtirish quyidagi tamoyillarga asoslanadi: ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik maqsad va bosh vazifalarni prognozashtirishning yo'naltirilganligi; prognozning uzluksizligi; makroiqtisodiy balanslashtirishni ta'minlash maqsadida jami talab prognozlarini va ishlab chiqarishni raqbatlantirishni hisobga olish; echimlarni qabul qilishda kompleks yondoshuv; prognozning elastikligi va egiluvchanligi, tashqi va ichki sharoitlarga ta'sirini hisobga olish; ustuvor yo'ralishlarda nazoratni ta'minlash; prognozlarning ilmiy asoslanganligi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognoz qilishni ishlab chiqishda quyidagilardan foydalanish talab etiladi: makroiqtisodiy tahlil usullari, qaysiki ularni predmeti bo'lib, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, proporsiyalar, iste'mol va jamharmalar, iqtisodiy o'sish omillari, iqtisodiyot sektorlari va rivojlanish tarmoqlari hisoblanadi; prognozning optimal variantlarini hisobga olishda ekonometrik tahlil va iqtisodiy-matematik modellashtirish usullardan foydalanish; statistik ahborotlarni zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda statistik tahlil usullariga asoslanish; statistik tahlilning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari omili dinamikasiga ta'sirini ekspert baholash usuliga asoslanish.

Nazorat uchun savollar

1. Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozashtirish qaysi tamoyillarga asoslanadi?
2. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognoz qilishni ishlab chiqishda nimalardan foydalanish talab etiladi?
3. Uzoq muddatli prognozlar joriy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish qolati tahliliga asoslanib nimani aniqlaydi?

4. Qisqa muddatli prognoz bir yil davr uchun qanday tartibda amalga oshiriladi?

5. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognoz qilish tugagandan so'ng qaysi vazirlikka topshiriladi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A.Karimov Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari-T.: O'zbekiston, 56 b.

2. Abdullaev A.M., Irmatov M.M., Haydarov M.T., Ashurova D.S. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni prognozlashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2006. - 249 b.

3. Irmatov M.M., Haydarov M.T. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning prognozlashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004.

4. Li A.N. Maqalliy tuzilmalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni prognoz qilish. O'quv qo'llanma. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamharmasi nashriyoti. - T.: 2004.

5. Vasileva O.V. Prognozirovaniye i planirovaniye v usloviyah rinka. Uchebnoe posobie. - M.: 2005.

IV BOB. MINTAQALARNI IJTIMOIIY IQTISODIY RIVOJLANISHI PROGNOZLASHTIRISH MAQSADI VA VAZIFALARI.

4.1. Mintaqaviy xo'jalik va mintaqaviy iqtisodiyot

Mintaqaviy xo'jalik butun bir xo'jalik, iqtisodiy, ishlab chiqarish va ijtimoiy kompleks bo'lib, u respublika, viloyat, avtonom okrug hududida joylashgan korhona, tashkilot, uyushmalarning bo'ysunish va tarmoqlarining tarkibidan qat'iy nazar shakllanadi. Barcha sanoat va qishloq xo'jalik ishlab chiqarish, qurilish, transport, aloqa va madaniy-maishiy xizmat ko'rsatadigan korhona va tashkilotlarni quyidagi guruqlarga ajratish mumkin:

- 1) Respublika;
- 2) Mintaqaviy;
- 3) Munisiipial.

Bir tomondan mintaqaviy boshqaruv tizimining asosi bo'lgan, ikkinchi tomondan korhona va tashkilot bo'lgan maqalliy organlar o'rtasidagi munosabat maqalliy organlarga to'liq bo'ysinishdan to shu organlar tomonidan alohida funksiyalarning boshharilishigacha farqlanadi.

Boshqaruv shakli va bo'ysunish shaklidan qat'iy nazar ma'lum mintaqada joylashgan hamma korhona va tashkilotlar er, o'rmon va suv resurslaridan foydalanish, tabiat muhofazasi, sanitariya, yonqinga harshi, ququqiy, ijtimoiy, maishiy me'yor qoidalari masalalari bo'yicha maqalliy boshqaruv organlari raqobati ostida bo'ladi.

Hududiy boshqaruv organlari shu hududda joylashgan barcha korhonalar tomonidan amalga oshiriladigan uy va ijtimoiy-madaniy qurilish, maqalliy yo'llar qurilishi, halq iste'moli mollari va oziq-ovqat ishlab chiqarish ustidan nazorat olib boriladi. Mintaqa darajada tartibga solishning ob'ektlari quyidagilar hisoblanadi: davlat mulkini hususiyashtirish jarayoni, aholi va korhonalarni soliqqa tortish, maqalliy byudjetlarni shakllanishi, aholining ijtimoiy himoyasi va boshqalar.

Mintaqaviy iqtisodiyotning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- 1) O'zbekiston Renspublikasida yagona iqtisodiy hududni yaratish.
- 2) Mintaqalar iqtisodiy imkoniyatlaridan qat'iy nazar yagona minimal ijtimoiy standart va aholini ijtimoiy himoyalanishini ta'minlash;

- 3) Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sharoitlarni tenglashtirish;
- 4) Mintaqalarni kompleks ekologik muhofazalash;
- 5) Juda muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan mintaqalarni ustuvor rivojlantirish;
- 6) Mintaqalarning tabiiy-iqlim hususiyatlaridan maksimal foydalanish;
- 7) Maqalliy o'z-o'zini boshharishni shakllantirish va kafolatlarni ta'minlash.

4.2. Mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni prognozlash uslubiyati.

Ohirgi yillarda mintaqalar darajasida qisqa va o'rta muddatli iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish prognozlarini tuzish bo'yicha ish olib borilmoqda. Bunday prognozlashning uslubiy shart-sharoitlari bo'lib quyidagi qolatlari hisoblanadi:

1) mintaqa-umumiy jamiyat ishlab chiqarish tizimining bir alohida bo'lagi bo'lgan va bir necha miqdor maqsot va hizmatlarni ishlab chiqarish vositasida aniq bir halq funksiyasini bajaradigan kichik bir tizimni ifodalaydi;

2) mintaqaning iqtisodiy faoliyat ko'rsatkichlarining pasayishi butun jamiyatning ishlab chiqarish tizimi yoki ijtimoiy-iqtisodiy tizimi faoliyatida negativ o'zgarishlarga olib keladi.

3) Ma'lum muddatgacha berilgan mintaqa iqtisodiy tizim faoliyati natijasining zarur darajasini mintaqa rivojlanishida qosil bo'lgan inersion tendensiyalar sharoitida ta'minlash mumkin emas.

4) Mavjud hududiy boshqaruv tizimi doirasidagi mintaqa iqtisodiy tizimi faoliyat rejimini berilgan muddatga yahshilab bo'lmaydi. Bu qolatlardan kelib chiqqan holda mintaqaviy-iqtisodiy rivojlanish prognozning ishlab chiqarilish shemasi, tarkibi va asosiy bosqichlari aniqlanadi. Prognozni tuzish jarayoni o'z ichiga uchta blokni oladi: analitik, konsieptual va prognozli.

Analitik blok doirasida berilgan hududning ichki bog'liqligini o'rganish, tizimning butun faoliyat samarasini aniqlovchi mintaqa tizimi iqtisodiy yadrosi va ishlab chiqarishni ahamiyatli tuzilmaviy aloqalarni aniqlash zarur.

Bu mintaqaning Mehnat taqsimoti tizimida asosiy funksiyani bajaruvchi mintaqa xo'jaligining halqlarini aniqlash imkoniyatini beradi.

Undan tashhari, butun mamlakat iqtisodiyot tarkibida mintaqaning rivojlanishi tendensiyalarini ko'rib chiqish lozim. Bu umumiy ishlab chiqarishni ayni vaqtdagi bog'liqlik darajasini va kelajakdagi mintaqaviy iqtisodiyot faoliyatiga bog'liqligini ko'rsatadi.

Konsieptual blok doirasida izlanishlarning asosiy tarkibi mintaqada oldida turgan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishni hisobga olgan holda mintaqaviy iqtisodiy tizimini rivojlantirish konsiepsiyasini ishlab chiqishdir. Mintaqaviy rivojlanishining konsiepsiyasini ishlab chiqarishda ikkita asosiy bosqichni ajratish mumkin:

2) mavjud muammolar echimiga yo'naltirilgan maqsadlarni shakllantirish va ularni aniq masalalar ko'rinishida konkretlashtirish;

3) iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning ustuvor maqsad va yo'nalishlarini aniqlash va shu asosda mintaqaviy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqarish.

Ayni mintaqada rivojlanishning maqsad, konkret muammolar, omillarning, o'ziga hosligi bu masalalarning echimini umumlashtirishga yo'l qo'ymaydi, shu bilan bir qatorda mintaqalarga hos bo'lgan qator maqsad va vazifalar mavjud. Bular:

1) ishlab chiqarishni barharorlashtirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash;

2) bozor munosabatlarini shakllantirish;

3) kompleks ijtimoiy masalalarni echish;

4) atrof-muhitni himoyalash va boshqalar.

Prognozli blok doirasida asosiy masala bo'lib kelajakda mintaqaviy iqtisodiy tizim rivojlanishining ko'rsatkich va miqdor parametrlarini aniqlashdir. Bunda 3 hil prognozlar ishlatiladi: umuman mintaqaviy tizim rivojlanishning umumiqtisodiy alohida ishlab chiqarish va tarmoqlar rivojlanishining prognozlari; mintaqalarning alohida ma'muriy hududiy birliklarning rivojlanish prognozlari.

Ko'rsatilgan prognozlarni tuzishning asosiy usuli bo'lib-bu kelajakdagi rivojlanish ssienariylarda mintaqaviy iqtisodiy tizim va uning tuzilmalarining kelajakdagi rivojlanishi, tizimning boshqa tizimlar bilan o'zaro aloqalari ehtimolliligini ko'rsatiladi, turli hil omil va sharoitlarning mosligi sharoitida mintaqaviy iqtisodiyotning rivojlanish ko'rsatkichlari aniqlanadi.

Ssienariylarning butun yig'indisi 3 hil guruhga ajratiladi:

1) umumiqtisodiy rivojlantirish ssienariysi;

2) alohida ishlab chiqarish va tarmoqlar rivojlanishining ssienariysi;

3) mintaqaning alohida ma'muriy-hududiy rivojlanishining ssienariysi.

Mintaqaning umumiqtisodiy rivojlanish ssienariylaridan 3 ta guruqini ajratish mumkin:

1) mintaqada tizimda ishlab chiqarish tarmoqlariga ta'sir ko'rsatuvchi hamda mamlakat iqtisodiyoti rivojlanish sharoitlari bilan aniqlanadigan ssienariylar;

2) ishlab chiqarish rivojlanishining ichki mintaqaviy omillar bilan aniqlanadigan ssienariylar bo'lib, ular orasida eng muhimlari: tuzilmaviy o'zgarishlar, moliyaviy va tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik, ishlab chiqarishning samaradorligi ko'rsatkichlari va boshqalar;

3) alohida mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishini prognozlashda tarmoqli yondashuvni rivojlanishini prognozlashda tarmoqli yondashuvni saqlagan holda shakllanadigan sharoitlarni o'z ichiga oluvchi mintaqaning umumiqtisodiy rivojlanish ssienariylari.

Alohida ishlab chiqarish va tarmoqlarning rivojlanish ssienariylarini tuzishda shuni unutmaslik kerakki, turli hil tarmoq guruqlari uchun rivojlanish sharoit va omillarining mosligi har hil bo'ladi.

Moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining butun yig'indisi kelajakdagi rivojlanish omillari va sharoitlarining mosligi nuqtai nazaridan bir hil tarkibdagi guruqlarga ajratish zarur:

1) halq xo'jalik ixtisoslashuvi tarmoqlari;

2) mintaqaviy ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlar;

Ikkala tarmoq guruqlari uchun rivojlanishning ikki variant ssienariy yoki prognoziri ishlab chiqarish lozim: qidiruv va me'yoriy.

Birinchi turdagi prognozga mos holda ikkala tarmoq guruqlarining rivojlanishi bazali davrning shakllangan tendenssiyalari bilan aniqlanadi.

Qisqacha xulosa

Mintaqaviy iqtisodiyotning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat: O'zbekiston Respublikasida yagona iqtisodiy hududni yaratish, mintaqalar iqtisodiy imkoniyatlaridan qat'iy nazar yagona minimal ijtimoiy standart va aholini ijtimoiy himoyalashini ta'minlash; mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sharoitlarni tenglashtirish; mintaqalarni kompleks ekologik muhofazalash; juda muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan mintaqalarni ustuvor rivojlantirish; mintaqalarning tabiiy-iqlim xususiyatlaridan maksimal foydalanish; maqalliy o'z-o'zini boshharishni shakllantirish va kafolatlarni ta'minlash. Analitik blok

doirasida berilgan hududning ichki bog'liqligini o'rganish, tizimning butun faoliyat samarasini aniqlovchi mintaqa tizimi iqtisodiy yadrosi va ishlab chiqarishni ahamiyatli tuzilmaviy aloqalarni aniqlash zarur. Konsieptual blok doirasida izlanishlarning asosiy tarkibi mintaqa oldida turgan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishni hisobga olgan holda mintaqa iqtisodiy tizimini rivojlantirish konsiepsiyasini ishlab chiqishdir.

Nazorat uchun savollar

1. Barcha tarmoqlarni qaysi guruqlarga ajratish mumkin?
2. Mintaqaviy iqtisodiyotning asosiy maqsadlari nimadan iborat?
3. Mintaqaning umumiqtisodiy rivojlanish ssienariylari qanday tuziladi?
4. Moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining butun yig'indisi kelajakdagi rivojlanish omillari va sharoitlarining mosligi nuqtai nazaridan qaysi guruqlarga ajratish lozim deb hisoblaysiz?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A.Karimov Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari-T.: O'zbekiston, 56 b.
2. Abdullaev A.M., Irmatov M.M., Haydarov M.T., Ashurova D.S. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni prognozlashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2006. - 249 b.
3. Irmatov M.M., Haydarov M.T. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning prognozlashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004.
4. Li A.N. Maqalliy tuzilmalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni prognoz qilish. O'quv qo'llanma. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamharmasi nashriyoti. - T.: 2004.

V BOB. IQTISODIY PROGNOZLASH MODELLARI.

5.1. Iqtisodiy -ijtimoiy prognozlash masalalarining mohiyati.

Iqtisodiy va ijtimoiy prognozlashda turli modellardan keng foydalaniladi.

Jamiyatdagi va iqtisodiyotdagi ob'ektlarni matematik modellar yordamida kuzatish mumkin. Bu tushuncha modellashtirish deyiladi. «Model» so'zi lotincha modulus so'zidan olingan bo'lib, o'lchov, me'yor degan ma'noni anglatadi.

Iqtisodiy model-iqtisodiy ob'ektlarning soddalashtirilgan nuxasidir. Bunda modelning hayotiyliigi, uning modellashtiriladigan ob'ektga aynan mos kelishi muhim ahamiyatga egadir. Lekin yagona modelda o'rganilayotgan ob'ektning xamma tomonini aks ettirish mumkin emas. Shunda jarayonning eng xarakterli va eng muhim belgilari aks ettiriladi.

Model iqtisodiy prognozlashni, o'rganilayotgan jarayonni ilmiy anglashning muhim vositasi bo'lib hisoblanadi. Modellashtirish jarayoni, ob'ektni yoki jarayonni boshlang'ich o'rganish, uning amalga oshadigan xususiyatlari va belgilarini ajratish, modelning nazariy va tajribaviy tahlili, modellashtirish natijalarini ob'ekt haqidagi haqiqiy ma'lumotlar bilan solishtirish, modelni korretirovkalash hamda oydinlashtirish kabilar asosida model qo'rishni tashkil etadi. Iqtisodiy-matematik modellar va usullarning iqtisodiy tizimlarga tadbiiq etuvchi tarmog'i, murakkab iqtisodiy tizimlarni boshqarish uslublarini nazariya, ya'ni umumkibernetik ishlab chiqarish vositalari yordamida o'rganadi. Bunday vositalarga, avvalo, ishlab chiqarish jarayonlarini matematik modellashtirish va o'zaro iqtisodiy aloqalarni modellar yordamida tekshirish, murakkab tizimlarni oddiy tizimlarga keltirib tahlil qilish, turli ob'ektlardagi o'zaro bog'lovchi axborot aloqalarini o'rganish hamda iqtisodiy tizimlarni rostdash uslublari kiradi. Kuzatilayotgan ob'ektlarni chuqur va har tomonlama o'rganish maqsadida tabiatda va jamiyatda ro'y beradigan jarayonlarning modellari yaratiladi. Buning uchun ob'ektlar hamda ularning xossalari kuzatiladi va ular to'g'risida dastlabki tushunchalar hosil qilinib, turli xil shakldagi modellar yaratiladi. Keng ma'noda model biror ob'ektni yoki ob'ektlar sistemasini na'munasidir.

Modelning hayotiyliigi uning modellashtiriladigan ob'ektga qanchalik mos kelishiga bog'liq. Bitta modelda ob'ektni hamma tomonini aks ettirish qiyin bo'lganligidan unda ob'ektning eng xarakterli va muhim belgilarigina aks ettiriladi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, ortiqcha

soddalashtirilgan model qo'yilgan talablarga yaxshi javob bera olmaydi, o'ta murakkab model esa masalani yechish jarayonida qiyinchiliklar tug'diradi.

Demak, modelning haqiqiyliги to'plangan ma'lumotlar hajmiga, aniqlik darajasiga, tadqiqotchining malakasiga va modellashtirish jarayoniga, aniqlanadigan masalaning xarakteriga bog'liq ekan.

5.2. Iqtisodiy- ijtimoiy prognoz modellarini turlari.

Iqtisodiy va ijtimoiy modellar optimallashtirish mezonlari yoki kutilayotgan eng yaxshi natijaga qarab tasniflanishi mumkin.

Vaqt omili hisobga olinganda modellar statistik (ya'ni, model chegarasi ma'lum bir vaqt bo'lagi deb o'rnatiladi va harajatlar minimallashtiriladi) yoki dinamik (bunda model chegarasi bir necha vaqt kesmalari uchun o'rnatilib, harajatlar minimallashtiriladi, yoki yakuniy natija maksimallashtiriladi) bo'lishi mumkin.

Iqtisodiy modellarni quyidagicha turlarga ajratish qabul qilingan: omilli (omilli), tarkibiy (strukturaviy) va aralash, xalq xo'jaligi rivojlanish ko'rsatkichlarini yig'ish darajasiga qarab makroiqtisodiy, tarmoqlararo, rayonlararo, tarmoqli, regional modellar bo'lishi mumkin. Xalq xo'jaligining rivojlanish jihatlariga qarab modellar asosiy fondlar, mehnat resurslari, moliya tizimi hamda narx shakllanishi kabi turlarga bo'linishi mumkin.

Omilli modellar u yoki bu iqtisodiy ko'rsatkichli darajasi va dinamikasining unga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar - sabablar darajasi va dinamikasiga bogliqligini tavsiflaydi.

O'zgaruvchan iqtisodiy modellar ekzogen (tashqi) va endogen (ichki) kabi turlarga ajratiladi. Masalan, omil bo'lsa mehnat resurslarining borligi endogen omilidir.

Omilli modellar turli o'zgaruvchilarni va ularga mos keladigan parametrlarni o'z tarkibiga oladi. Omilli modellarning eng oddiy ko'rinishi - bu, bir omilli model bo'lib, unda istalgan vaqtinchalik parametr omil hisoblanadi. Mazkur holda biror ko'rsatkich tahlili va prognoz vaqti xronologik katorga bogliq ravishda amalga oshiriladi va shu yo'l bilan trendlar (qaysi bir dinamik qator o'zgarishining umumiy tendensiyasini xarakterlovchi bogliqlik) aniqlanadi.

Chiziqli va nochiziqli (nelineynoye) tipidagi ko'p omilli modellar prognozashtirilayotgan ko'rsatkich dinamikasini va darajasiga ta'sir etuvchi bir necha omillarni bir vaqtning o'zida hisobga olish imkonini

beradi. Bunda modellarga makroiqtisodiy ishlab chiqarish funksiyalarini tavsiflovchi modellar, aholi daromadi va narxga bogliq ravishda ayrim iste'mol tavarlariga talabni tahlil etish modellari misol bo'la oladi.

Tarkibiy modellar ikkita - butun yoki agregatni tahlil etuvchi alohida elementlar orasidagi aloqa va bogliqlikni tavsiflaydi. Bunday modellar tarkibiy balans tipidagi modellar bo'lib, bunda biror qatorda uning elementlari orasidagi bogliqlik ko'rib chiqiladi.

Mahsulot hom-ashyo nomenklaturasiga qarab modellar bir natijali va ko'p natijali kabi turlarga bo'linadi.

Birinchi guruhga tarmoqda ishlab chiqariladigan yoki shu tarmoqda is'temol qilinadigan boshqa resurs yoki hom-ashyo miqdoriga bitta chegara qo'yilgan modellar kiradi.

Ikkinchi guruhga hom-ashyo yoki boshqa resurs iste'moli uchun butun tarmoq bo'yicha ishlab chiqariladigan mahsulot talabiga ikki yoki undan ko'p cheklanishlar quyilgan modellar kiradi.

Transport omilining ta'sir etish darajasiga ko'ra, tarmoqli, optimal rejalashtirish modellari ikki turga bo'linadi: ishlab chiqarish – transport modeli (transport omili e'tiborga olinmaydi) va ishlab chiqarish –transport modeli (transport omili e'tiborga olinadi).

5.3. Tarmoqlararo dinamik balans modeli.

Tarmoqlararo dinamik balans (TAB)- iqtisodiyotdagi asosiy model bo'lib, unda xalq xo'jaligidagi turli natural va qiymat aloqadorligi ko'rsatiladi. U sanoat, kapital qo'yilmalar, mehnat resurslari va tarmoqlar bo'yicha mahsulot hajmining o'zaro boglanganligini hisobga olgan holda reja davri qator yillari uchun xalq xo'jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarilish va taqsimlanish ko'rsatkichlarini aniqlash imkonini beradi. Yaqin-yaqingacha TAB ikki ko'rinishda - qiymat va nato'ral shaklda shakllantiriladi. Mamlakat bo'yicha qiymat ko'rinishidagi TAB nomenklaturasini 120 ta tarmoq nomenklaturasini o'z ichiga oladi va u barcha moddiy ishlab chiqarish sohasini qamrab oladi. Natural ko'rinishdagi TAB shu bilan birga mahsulotlarni 80 % ni tashkil etuvchi asosiy mahsulotlarni qamrab oladi. Ushbu balansda 600 ga yaqin zaruriy mahsulot turlari aks ettiriladi.

Natural - qiymat balans modelini xalq xo'jaligining kompleks tavsifini aks ettiradi. Moddiy qiymat TAB modeli balanslashtirilgan reja uchun boshlangich ma'lumotlar: MD hajmi, tarkibi ko'rsatkichlari, eksport, import va kapital ta'mirlash hajmi ma'lumotlaridir.

TAB modeli bo'yicha ikki tipdagi hisob - kitoblar amalga oshiriladi:

Bunda berilgan yakuniy iste'mol darajasi bo'yicha mahsulotlarni ishlab chiqarish va taqsimlanishining balanslashtirilgan rejasi hisoblab topiladi.

Aralash hisob – kitoblarni o'z ichiga oladi. Bunda ba'zi tarmoqlarda ishlab chiqarish hajmi to'grisidaga ma'lumotlar va boshqa tarmoqlarga yaquniy iste'molga berilgan mahsulotlar bo'yicha ishlab chiqarish va taqsimlash balansi tuziladi.

5.4. Iqtisodiy variatsiyalar.

Ikkinchi alomat bo'yicha modellarni tasniflash, iqtisodiy ko'rsatkichlar variatsiyasi bo'yicha tasniflashga mos keladi. Quyidagi uch xil iqtisodiy variatsiyalar mavjud:

- a) vaqtdagi ayrim ob'ektlar;
- b) makonda ob'ektlar majmui;
- s) vaqt va makonda ob'ektlarning to'plam ko'rsatkichlarining umumiy variatsiyasi.

Birinchi xil variatsiyani davrlar oralig'i izchilligida, iqtisodiy ko'satkichlar fazasida ma'lum ob'ekt holatining o'zgarishi sifatida tasavvur qilish mumkin. Iqtisodiy ko'rsatkichlardan birinchi modellashtirayotgan vaqtda, makon tekislikka aylanadi. Nuqtaning harakat trayektoriyasi esa dinamik qatorni tashkil etadi.

Variatsiyaning ikkinchi turi vaqt oralig'ida ma'lum vaziyatda belgilangan nurli ob'ektlarga, ya'ni fazoda perpendikulyar vaqtdan qo'llashga mos keladigan nuqtalar joylashishiga o'xshash bo'ladi. Iqtisodiy ko'rsatkichlardan biri modellashtirilayotgan hollarda - bu taqsimot qatori hisoblanadi.

Variatsiyaning uchinchi umumiy turi oldingi ikki shaxsiy turlarning qo'shilgan variatsiyasi bo'lib, diskret tasodifiy jarayon sifatida talqin qilinishi mumkin.

Ko'rsatkich umumiy variatsiyalarining shakllanishini quyidagi ikki xil usul bilan ifodalash mumkin:

-majmuaga kiradigai ob'ektlar ko'rsatkichi vaqtli qatorlarning umumiyliqi sifatida;

-majmuaga kiradigan ob'ektlar ko'rsatkichi taqsimot qatorlarining harakati sifatida.

Korxonalar ko'rsatkichlarini iqtisodiy modellashtirish jarayonida, odatda, dinamik qatorlar qisqa, ob'ektlar soni majmuida vaqtli qatorlar

sonidan birmuncha ortiq bo'lganda tavsiflashning ikkinchi turi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Variatsiyaning yuqorida qayd etilgan turlariga muvofiq ravishda iqtisodiy ko'rsatkichlarning uchta statistik modellarini ko'rsatib o'tish mumkin:

Xususiy dinamik model. Ayrim korxonalarining xususiy dinamik modeli makonda iqtisodiy ko'rsatkichlar ma'lum nuqtasi vaqtli harakatini makonda mazkur ob'ektning ishlab chiqarish omillari bilan bog'laydi. Bunday model ko'pchilik hollarda korxonalar ichki tahlili, normallashtirish va boshqarish uchun qo'llaniladi.

Xususiy dinamik model. Xususiy dinamik model iqtisodiy ko'rsatkichlari xususiy fazoviy modeli korxonalar iqtisodiy ko'rsatkichlarining fazodagi turli holatini tushuntiradi. Odatda bu model korxonalar (sehlar) darajasi uchun qo'llaniladi hamda yanada yuqoriroq darajada (vazirlikda) analitik maqsadlar uchun foylaniladi.

3. Umumiy dinamik model. Ob'ektlar majmui iqtisodiy ko'rsatkichlar nazariyasining umumiy dinamik modellari ixtiyoriy o'zgaruvchan iqtisodiy ko'rsatkichlarga ishlab chiqarish omillarining ta'sirini baholaydi. Mazkur modellardan o'rganilayotgan ob'ektlar guruhini tahlil va prognoz qilish hamda qarorlar qabul qilishda foydalaniladi.

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni o'rganishda uch xil masala mavjud. Bu masalalarni yechishda statistik modellashtirish usullarini muvaffaqiyatli qo'llash mumkin.

- iqtisodiy jarayon tarkibini o'rganish;
- iqtisodiy hodisalar dinamikasini o'rganish;
- iqtisodiy hodisalar o'rtasidagi aloqa va bog'lanishlarni o'rganish.

Iqtisodiy jarayonlar tarkibini o'rganishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- a) tarkibni baholash va ularning qismlarini o'zaro taqqoslash;
- b) bir xil turdagi turli tarkiblarni taqqoslash;
- s) amaldagi tarkibni iormallashtirilgan tarkib bilan taksoslash va chetlanish sabablarini aniqlash;
- d) mazkur tarkibning eng muvofiq ekanligini baholash;
- ye) makon va vaqtning konkret sharoiti uchun eng qulay tarkibni loyihalashtirish.

Hodisalar o'rtasidagi bog'lanishni ifoda etuvchi statistik modellarni tuzish vaqtida korrelyatsion va regression tahlil usuliga katta e'tibor

beriladi. Mazkur usullar turli statistik mezonlar yordamida o'rganilayotgan ko'rsatkichga har bir omilning ta'sir darajasini aniqlash va baholash imkonini beradi. Agar tuzilgan model real tizimni to'g'ri tavsiflasa, bu holda u bir tomondan modellashtirilayotgan ob'ekt ko'rsatkichlar miqdor xarakteristikasini, ular dinamikasining o'zgarishini aniqlaydi, ikkinchi tomondan, jarayonni maqsadga muvofiq boshqarish imkonini beradi. Agar o'rganilayotgan tizimning tavsiflanayotgan holatlar omili guruhidan boshqarish omillari ajratilsa, shu omillarga faol tagsir yetish jarayonini boshqarish va qo'yilgan maqsadga yerishish bo'yicha asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni modellashtirish masalasi faqat bog'lanish shakllarini va uning intensivligini aniqlash bilan chegaralanmay, balki mana shu bog'lanishlarni vujudga keltiradigan omillarning joylashishini ham tahmin qiladi. Bu masalaning yechilishi o'lchab bo'lmaydigan, ya'ni miqdoriy ifoda yetib bo'lmaydigan hamda tarkib korrelyatsion matritsalarini o'rganishga qaratilgan omillar ta'sirini baholash bilan bog'liqdir. Bunda so'z omillar tahlili, uning ko'p o'lchovli statistik tahlil yo'nalishlaridan biri yekanligi ustida bormoqda. Ma'lumki, omillar tahlili tufayli umumiy kuzatilmaydigan omillarning mavjud alomatlari o'rtasidagi korrelyatsion tushuntirish imkoni vujudga keladi.

Korrelyatsion matritsalar tarkibini tahlil qilishda ikki usul, ya'ni K.Rirson tomonidan ishlab chiqilgan bosh komponentalar usuli va Ch.Spirmen tadqiqotlarida vujudga kelgan omillar tahlili usuli eng ko'p tarqalgan usul hisoblanadi.

Korrelyatsion usul yordamida quyidagi imkoniyatlar vujudga keladi:

- a) alomatlar o'rtasidagi bog'lanishning analitik shakllarini topish;
- b) bog'lanish zichligini, ya'ni o'rganilayotgan omillar variatsiyasi

qay

darajada natijoli alomat variatsiyasi kelib chiqishiga ta'sir etishini aniqlash.

Korrelyatsion tahlil usulini nazariy jihatdan qo'llash sabablari quyidagilardir:

a) kuzatish natijalari tasodifiy qiymatlarga ega bo'lib, normal taqsimot qonuni bilan majmuadan tanlab olingan;

b) ayrim kuzatishlar stoxastik ravishda mustaqil bo'lsa;

s) omilli alomat o'zgarishida shartli dispersiyaning o'zgarmasligi;

d) omilning ma'lum qiymatida natijali alomatni matematik qutilishiga nisbatan parametrlar chiziqli funksiya ko'rinishida namoyon bo'lishi mumkin.

Korrelyatsion tahlilni to'g'ri qo'llashning muhim shartlaridan biri, beriilayotgan majmuaning bir tekisligidir.

Korrelyatsion tahlilning asosini o'rtachalash usuli tashkil etib, o'rtacha qiymat faqat majmuaning bir jinsli doirasida ba'zi bir umumiy xususiyatlarni aks ettiradi. O'rganish ob'ekti sifatida majmuaning bir jinsliligi ishlab chiqarilayotgan mahsulot harakteri, qo'llanilayotgan asbob-uskunalar turlari, texnologik jarayonning harakteri va boshqalar bilan izohlanadi.

Har bir alomat bo'yicha majmuaning bir jinsliligi variatsiyalar koeffitsiyenti bo'yicha baholanishi mumkin. Variatsiya koeffitsiyentlari qiymatini normal taqsimlaganda, tengligi 33% bo'lsa, alomatlarning bir jinsliligi yoki bir jinsli emasligi o'rtasidagi chegara hisoblanadi.

Berilgan alomat ma'lumotlari bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti 33% dan oshmasa, majmua bir jinsli bo'ladi. Variatsiya koeffitsiyenti 33% dan oshib ketgan hollarda, majmuaga korrelyatsion tahlilni qo'llash mumkin bo'lgan bir jinsli qismlarini ajratish lozim.

5.5. Makroiqtisodiy prognozlash modellari.

Makroiqtisodiy darajada iqtisodiy prognozlarni tuzishda iqtisodiy – matematik modellar keng qo'llaniladi. Bularga bir va ko'p omilli iqtisodiy o'sish modellari, MD ni taqsimlash modellari, tarkibiy tarmoq va asosiy fondlarni qayta tiklash modellari, investitsion oqim harajati modeli, turmush darajasi va iste'mol tarkibi modellari, kengayib borayotgan eko siyosat modeli, ish haqi va daromadlarni taqsimlash modellari kiradi.

Xalq xo'jaligi balansini prognozlashtirishni mukammallashtirishning muhim yo'nalishi iqtisodiy o'sishning asosiy parametrlarini prognozlashtirishni verifikatsion- statistik yondashish dinamik vaqt qatori ma'lumotlaridan maksimal foydalanishga asoslangan holda ularning haqiqiy iqtisodiy jarayonlar bilan mosligini va baholanayotgan sharoitlar ma'nosini tekshirishni ko'zda tutadi. Iqtisodiy prognozlashtirish makroiqtisodiy modellar tizimida bu usuldan foydalanish xalq xo'jaligining balanslashtirilganligi, tarkibiy va omilli jihatlarini o'rganish va ularning optimallik prinsipi asosida sintezlash bilan bogliq.

Xalq xo'jaligi balanslashtirilgan omili jihatidan mahsulotni chiqaruvchi ob'ekt hamda ishlab chiqarish omillari harajatlari (asosiy fondlar va mehnat resurslari) orasidagi bogliqliqqa asoslanadi. U ishlab chiqarish omillari orasida ma'lum miqdorda mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlab turuvchi proporsiyani aniqlashga borib taqaladi.

Balanslashtirilganlik (vaqt oraligi) jihatida ishlab chiqarish omillari sarflarini vaqt bo'yicha taqsimlash va ular o'zaro bog'liqligida erishiladigan samaraga asoslanadi. Asosiy vaqt oralig'i xususiyatlari asosiy fondlarni qayta tiklash bilan bog'liq. Vaqt oraligida balanslashishga erishish uslubi harajatlar va ular keltiradigan samaraning kechikib kelishini hisobga oladigan tenglamalardan foydalanishga asoslangan hamda asosiy fondlarni, takror ishlab chiqarish jarayonini aniqlovchi vaqt oralig'iga bog'liq ko'rsatkichlarning o'sish suratini hisobga olish bilan bog'liq. Ushbu usul asosiy fondlarning qayta ishlab chiqarish jarayonini, vaqt oralig'i xususiyatlarini ifodalovchi, narx indekslarini, kapital quyilmalar va asosiy fondlarning tushish va chiqib ketish manbalari va miqdorini hisoblash va kechikish usullari bilan farqlanuvchi modellar guruhini tuzish imkonini beradi.

Balanslashtirilganlikning tarkibiy jihatidan ijtimoiy qayta ishlab chiqarishni birinchi va ikkinchi bo'limlari orasidagi proporsiyalar hamda tarmoqlararo tarkibiy modellar ishlab chiqarish fondlari, ishlab chiqarish qo'yilmalari va mehnat resurslarining tarmoq strukturasi prognozlash tizmidan keng foydalaniladi.

5.6. Iqtisodiyotda qo'llaniladigan optimallashtirish modellari.

Har bitta ishlab chiqarish jarayonini matematik fomulasini bilan yozib chiqish mumkin. Masalan, bir nechta tarmoqlarda ($j = 1, 2, \dots, n$) korxonalar bor ($i = 1, 2, \dots, m$). Ularning har biri turli xildagi mahsulotlar ishlab chiqaradilar X_{ij} . Mahsulotdan oladigan daromadni C_{ij} bilan begilaymiz. Undan keyin yalpi daromad $\sum C_{ij} X_{ij}$ teng bo'ladi. U daromadni albatta iloji boricha ko'p olish kerak. Ya'ni $\sum C_{ij} X_{ij} \rightarrow \max$ intilishi lozim.

Bu maqsad funksiyasi:

$$\sum_{i=1}^m \sum_{j=1}^n c_{ij} x_{ij} \rightarrow \max$$

Bu maqsada yetish uchun bir nechta shartlar bajarilishi kerak. Ya'ni:

- 1) ishlatirishgan resuslar korxonada resuslarni bor zaxirasidan ko'p bo'lishi kerak emas.

$$\sum_{i=1}^m \sum_{j=1}^n a_{ij} x_{ij} \leq b_i$$

Bu yerda a_{ij} har bita mahsulotga i -korxonodan j -tarmoqda ketadigan xarajat normativlari .

2) o'zgaruvchilarning nomanfilik sharti: $X_{ij} \geq 0$

Bularni hisobga olib, ushbu chiziqli dasturlash usulining umumiy masalasini yozib chiqamiz:

$$\sum_{i=1}^m \sum_{j=1}^n c_{ij} x_{ij} \rightarrow \min(\max)$$

$$\sum_{i=1}^m \sum_{j=1}^n a_{ij} x_{ij} \leq b_i$$

$$X_{ij} \geq 0$$

Qisqacha xulosalar.

Model iqtisodiy prognozlashni o'rganilayotgan jarayonni ilmiy anglashni muhim vositasi hisoblanadi. Ijtimoiy va iqtisodiy prognozashtirish modellari ayrim turlari optimallashtirish kriteriyasi yoki qutilgan yuqori natijasi bilan tasniflanadi.

Tarmoqlararo balans– iqtisodiyotdagi asosiy model bo'lib, unda xalq xo'jaligidagi turli natural va qiymat aloqadorligi ko'rsatiladi.

Natural qiymat balansini modeli xalq xo'jaligini kompleks tavsifini aks ettiradi.

Iqtisodiy matematik modellar makroiqtisodiy darajada iqtisodiy prognozlarni tuzishda keng qo'llaniladi.

Tarmoqlararo balansda sanoat, kapital qo'yilmalar, mehnat resurslari va boshqa resurs yetkazib beradigan tarmoqlar orasidagi o'zaro bog'liqliklar hisobga olingan holda reja davri qator yillar uchun xalq xo'jaligi mahsulotining ishlab chiqarilishi va taqsimlanishi ko'rsatkichlarini hisoblash imkonini beradi. Xalq xo'jaligi balansi prognozashtirishni mukammallashtirishning muhim yo'nalishi-iqtisodiy o'sishning asosiy parametrlarini prognozashtirishni vertifikatsion-statistik yondashish dinamik vaqt qatori ma'lumotlaridan maksimal foydalanishga asoslangan holda ularning haqiqiy iqtisodiy jarayonlar bilan moslangan va baholanayotgan sharoitlar ma'nosini tekshirishni ko'zda tutadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Modellashtirish usullari?
2. Prognozlash modellarining turlari?
3. Mahsulot nomenklaturasiga qarab modellarni qanday turlarga bo'lish mumkin?
4. Tarmoqlararo balans modellarini o'ziga xos xususiyati nimadan iborat?
5. Ko'p omillik modellarni xususiyati nimadan iborat?
6. Eko siyosat modellar to'g'risida nimalarni bilasiz?
7. Prognozlash modellarining roli?
8. Makroiqtisodiy modellarning mohiyati?

Asosiy adabiyotlar.

1. I.A.Karimov Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari-T.: O'zbekiston, 56 b.
2. Abdullaev A.M., Abdurahmanov O.K., Zokirova N.K. Prognozirovaniye i modelirovaniye natsionalnoy ekonomiki. Uchebnik. - T.: Fan va texnologiya, 2007. - 576 s.
3. Abdullaev A.M., Irmatov M.M., Haydarov M.T., Ashurova D.S. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni prognozashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2006. - 249 b.
4. Irmatov M.M., Haydarov M.T. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning prognozashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004.
5. Li A.N. Maqalliy tuzilmalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni prognoz qilish. O'quv qo'llanma. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamharmasi nashriyoti. - T.: 2004.

VI BOB. MINTAQA SANOATI KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASHTIRISHNING USLUBIY ASOSLARI

6.1. Sanoat tarmoqlari tarkibi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni prognoz qilish uchun birinchi navbatda sanoat tarkibi va uning asosiy ko'rsatkichlarining moqiyatini tushunib olishimiz lozim.

Sanoat tarmoqlari tarkibi mamlakatning rivojlanish darajasiga ko'ra oshib boradi. Mamlakat qanchalik industrial rivojlangan bo'lsa, mamlakatdagi sanoat tarmoqlari izchil rivojlanib boradi va bir sanoat tarmog'i boshqa qo'shni tarmoqni rivojlanishiga qulay sharoit yaratib beradi. Masalan, rangli metallurgiya sanoatini rivojlanishida, kimyo sanoatining ta'siri sezilarli va kimyo sanoati rivojlanishi metallurgiya sanoatida rangli metall resurslaridan foydalanish samaradorligi yuqori bo'ladi. SHuning uchun ham sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni prognoz qilishda sanoatning qaysi tarmog'i kengayadi va aksincha qaysi tarmog'ida qisharish bo'lishini hisobga olish muhimdir. qisqa ko'rinishda sanoat tarkibini quyidagi jadvalda ifodalashimiz mumkin:

1-jadval

Sanoat tarmoqlari tarkibi

Tarmoqlar	Tarmoqlar ichiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlar
Elektroenergetika	Issiqlik va gidroelektrostansiyalar, elektr va issiqlik tarmoqlari, qozonxonalar
Yoqilqi	Neft qazib olish, neftni qayta ishlash, gaz, ko'mir ishlab chiqarish, qora metallurgiya Madan va nomadan hom ashyolarni qazib olish va boyitish, qora metallar, quvurlar ishlab chiqarish va boshqalar.
Rangli metallurgiya	Alyumin, mis, qalay, siink, nikel, kobalt, qimmatbaqo metallar va olmos ishlab chiqarish va boshqalar.
Kimyo va neft kimyo	Minerat o'qitlar ishlab chiqarish, soda sanoati, kimyoviy tola va ip, sintetik smola, lok bo'yoq, plastik qorishma hamda xo'jalik kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish va boshqalar.
Mashinasozlik va metalni qayta ishlash	Oqir, energetik va ko'tarma transport mashinasozligi, engil avtomobillar, kabel, elektr lampa, akkumulyator ishlab chiqarish. Nasoslar, uskunalar ishlab chiqarish va boshqalar.
O'rmonchilik, yog'ochni qayta	Yoqochni tayyorlash, yoqochni qayta ishlash, o'rmonkimyo sanoati. Parmalash metallari, faner, gugurt. Mebel, siellyuloza,

ishlash va qog'oz siellyuloza ishlab chiqarish	qog'oz ishlab chiqarish va boshqalar.
Qurilish materiallari	Siement, temir beton qurilmalari, asbestsiement buyumlari, engil va qoplama, noruda mahsulotlarini ishlab chiqarish va boshqalar.
Engil sanoat	To'qimachilik(pahta tozalash, pahta ipak, jun, trikotaj, mahsulotlarini o'z ichiga oladi), teri, mo'yna va poyabzal sanoati va boshqalar.
Oziq ovqat	Konserva, non va non mahsulotlari, shakar, qandolatchilik, makaron, yoq moy, parfyumeriya kosmetika, spirt, vino aroq, pivo, meva sabzavot, choy tamaki, go'sht va sut sanoati va boshqalar.
Boshqa tarmoqlar	CHinni fayans, shisha, mikrobiologiya, un va kombikorma, poligrafiya va boshqa sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

6.2. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlari.

Umumiy va alohida tarmoqlar bo'yicha sanoat mahsulotlari hajmi yuridik shahslar va xo'jalik yuritish shaklidan qat'iy nazar ularning bo'linmalarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari ko'rinishida bo'lgan ishlar va ko'rsatilgan hizmatlarning jami hajmini hisoblash orqali aniqlanadi.

Sanoat mahsulotlari bo'yicha yig'ma ma'lumotlarga yirik va o'rta sanoat korhonalari, qo'shma, kichik, shuningdek, nosanoat tashkilotlari balansiga kiritilgan yordamchi ishlab chiqarish korhonalari ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari(bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan hizmatlar) bo'yicha ma'lumotlar kiritiladi.

Yirik va o'rta mahsulot korhonalari kichik va qo'shma tadbirkorlik sub'ektlaridan tashhari asosiy faoliyati sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga yo'naltirilgan barcha yuridik shahslar kiradi.

Yordamchi xo'jaliklar shaklida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoat-ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan asbob-uskunalar va dastgoqlarga ega bo'lgan, nosanoat tashkilotlari balansiga kiritilgan, ishchilar(doimiy yoki mavsumiy) birlashtirilgan, o'zining nosanoat tashkilotlari hamda boshqa korxonalar uchun sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi va sanoat ko'rinishidagi hizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar hisoblanadi. Sanoat mahsulotlari(bajarilgan ish va ko'rsatilgan hizmatlar) hajmiga o'zining hom ashyosidan hamda buyurtmachilarning hom ashyosidan, o'zining yarim tayyor mahsulotlaridan tayyor mahsulotlarning baqosi, bajarilgan

ishlar va sanoat harakteriga ega ko'rsatilgan hizmatlarning narxi, sanoat korhonalari ishlab chiqilgan fan-tehnika mahsulotlari kiritiladi.

Sanoat ko'rinishidagi ishlarga quyidagilar kiradi: uskunalar va transport vositalarini, mehanizmlar va boshqa mahsulotlarni ta'mirlash va modernizasiyalash; boshqa korhonalardan tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni tayyor qolga keltirish uchun materiallarga qisman ishlov berish; tashkilotdan olingan mahsulotlarni qadoqlash va quyish; ishlab chiqarish personalini Mehnat yordamida buyurtmachilarning uskunalarini ta'mirlash, ishga tushirish. Sanoat mahsulotlari hajmiga tashqi buyurtmachilar yoki nosanoat tashkilotlari va korhonalarning o'zi uchun bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan hizmatlar kiritiladi.

Sanoat mahsulotlari (bajarilgan ish va ko'rsatilgan hizmatlar) zavodning ichki aylanmasi qiymatini hisobga olmagan holda zavod uslubi bilan aniqladi.

Korhonaning zavod ichki aylanmasi, bu - shahsiy sanoat-ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun ishlab chiqarilgan va korxonaning ichida foydalaniladigan tayyor mahsulotlar va yarim tayyor mahsulotlar hisoblanadi. Sanoat o'rmonchilik, yoqochni qayta ishlash va qog'ozsiellyuloza, engil sanoat kabi alohida tarmoqlari bundan mustasno.

3. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning asosiy prognoz ko'rsatkichlari.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda prognoz istiqboldagi talab va taklifni oldindan bilish va u orqali samarali hudud strategiyasini belgilash uchun muhim hisoblanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning asosiy ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

- Joriy narxlardagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi;
- Taqqoslama narxlardagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi;
- Taqqoslama narxlardagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sur'atlari;

Joriy narxlardagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi deyilganda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining jami hajmi joriy narxlarda hisoblanishi ko'zda tutiladi.

Prognoz qilinadigan davrga mahsulot hajmi (bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan hizmatlar) prognoz qilinayotgan davrdagi joriy narxlarda (oy, chorak, yil) va qo'shilgan qiymat va aksiyiz soliqsiz taqqoslama narxlarda aniqlanadi.

Sanoat mahsulotlari hajmini joriy narxlarda prognoz qilish sanoat mahsulotlarining ulgurji baqosi indekslarini prognoz qilish orqali aniqlanadi.

Taqqoslama (belgilangan) narxlardagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sur'atlari hamda mahsulotlarni natural va qiymat ko'rinishida ishlab chiqarishning o'zaro bog'liqligini hisoblash uchun foydalaniladi hamda hisobot yili boshiga korhonalarning ulgurji narxlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Sanoat mahsulotlari hajmiga quyidagi ma'lumotlar kiradi:

- Yirik korxonalar bo'yicha
- qo'shma korxonalar bo'yicha
- Kichik korxonalar bo'yicha
- Nosanoat tashkilotlarining yordamchi xo'jaliklari bo'yicha
- Uy xo'jaliklarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish.

Sanoat mahsulotlari (tovar mahsulotlari) ishlab chiqarish sur'atlari o'sishini aniqlash korhonalarning ishlab chiqarish faoliyatini monitoring qilish uchun mo'ljallangan. Sanoat mahsulotlari taqqoslama narxlarda ishlab chiqarishni prognozlashni hisoblash uchun biz misol tariqasida ko'rib chiqamiz. Buning uchun bizga quyidagi asosiy ma'lumotlar zarur hisoblanadi: mahsulotlarning o'lchov birligi, 01.01 joriy davrga narxlar, joriy davrda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining miqdori. Misolni 2-jadval orqali ko'rishimiz mumkin:

2-jadval

Sanoat mahsulotlari taqqoslama (belgilangan) narxlarda ishlab chiqarishni prognozlash

Maxsulot nomi (bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar)	O'lchov birligi	01.01 Joriy davrga narxlar	Joriy davr (yil, chorak, oy)		Prognoz qilinadigan davr (yil, chorak, oy)	
			Miqdori	Bahosi, ming so'm	Miqdori	Bahosi, ming so'm
	1	2	3	4=2 ustun *3 ustun	5	6=2 ustun *5 ustun
1 mahsulot	dona	10	5	50	6	60
2 mahsulot	dona	15	6	90	7	105
3 mahsulot	dona	20	4	80	4	80
				220		245
Taqqoslama narxlarda prognoz sur'atlari = $245 / 220 * 100\% = 111,3\%$						

Yuqorida keltirilgan javdal ma'lumotlariga ko'ra shu ma'lum bo'ladiki, prognoz qilinadigan davr uchun joriy davrdagi narxlar va prognoz qilinadigan davr uchun uning miqdorini bilish zarur hisoblanadi.

Tannarx ko'rinishida hisobga olinadigan (eqtiyot qismlar, uskunalari, dastgoqlar va boshqalar) sanoat mahsulotlarining alohida turlari bo'yicha maxsulot ishlab chiqarish to'g'risidagi ma'lumotlar ma'lum maxsulotga narx indeksi bo'yicha taqqoslama narxlarda qayta baqolanadi. O'sish (kamayish) sur'atlarini prognozlash yagona taqqoslama narxlarda aks etgan va 100 %gaosibligi ko'paytirilgan joriy va bazaviy davrdagi qiymat hajmining mutanosibligiga teng. Prognoz qilinayotgan yilda ishlab chiharilgan, lekin bazaviy yilda ishlab chiharilmagan sanoat mahsulotlari, o'tgan yilda ham joriy yilda ham hisobga olinmoqi lozim. qayta hisoblashning turli usullari mavjud. Masalan: joriy yildagi ishlab chiqarish haqidagi ma'lumotlar shartli ravishda o'tgan yilning huddi shu davrida ishlab chiharilgan mahsulotlarning narx indeksi bo'yicha qayta baqolanadi.

Mamlakatimizdagi etakchi tarmoqlarning barharor va mutanosib ravishda rivojlanishini ta'minlash, ularning iqtisodiyot boshqa sohalari bilan bog'liq muammolarini kompleks qal etish, tarmoq ishlab chiqarish imkoniyatlaridan samarali foydalanish va yanada o'stirish maqsadida turli muddatlarga mo'ljallangan maqsadli Davlat dasturlari ishlab chiqilgan (3-jadval). Ushbu Davlat dasturlarining amalga oshishi birinchi navbatda maqalliy homashyo negizida tayyor maxsulot ishlab chiqarish va maqalliyashtirish dasturlarini izchil rivojlantirish natijasida har bir hududning ijtimoiyqiyqisodiy rivojlantirishning rejalashtirilayotgan prognoz ko'rsatkichlariga erishishdan iborat. Maqsadli Dasturlarni amalga oshirishda 2011 yilga qadar mo'ljallangan sanoat tarmoqlari bo'yicha asosiy yo'nalishlarni ko'rishimiz mumkin. Maqsadli dasturlarga quyidagi sanoat tarmoqlari kiritilgan: kimyo sanoati, neft-gaz, qurilish materiallari sanoati, yoq-moy sanoati, ko'mir sanoatini, pahta tozalash sanoati, mashinasozlik sanoatini o'z ichiga oladi.

3-jadval

O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan maqsadli Davlat dasturlari

Maqsadli dasturlar nomi	Bajarish muddati
2010 yil davriga vinochilik korxonalarini modernizatsiya va tehnika qayta jihozlash dasturi	2007-2010 y.
2002-2010 yillarda O'zbekiston Respublikasi ko'mir sanoatini rivojlantirish dasturi	2002-2010 y.

2006-2010 yillar davriga qishloq xo'jaligi mashinasozligini texnik qayta qurollantirish va rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar	2006-2010 y.
2006-2010 yillarda neft-gaz tarmog'ini rivojlantirish dasturi	2006-2010 y.
2008-2009 yillarda avtomobil sanoati korxonalarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta ta'mirlash dasturi	2008-2009 y.
2007-2011 yillarda qurilish materiallari sanoati korxonalarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta ta'mirlash dasturi	2007-2011 y.
2007-2011 yillarda pahta tozalash sanoati korxonalarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta ta'mirlash dasturi	2007-2011 y.
2007-2011 yillarda kimyo sanoati korxonalarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta ta'mirlash dasturi	2007-2011 y.
2007-2011 yillarda yoq-moy sanoati korxonalarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta ta'mirlash dasturi	2007-2011 y.
2011 yilgacha farmasievtika sohasini modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta ta'mirlash dasturi	2011 yilgacha

Bundan ko'rinadiki, respublikamizda etakchi tarmoqlarni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta qurollantirish jarayonlari kompleks, har tomonlama va izchil tarzda amalga oshirilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, modernizatsiyalash jarayonlari natijalarining salmoqli bo'lishiga imkon yaratmoqda.

Umuman olganda, mamlakatimizdagi etakchi tarmoqlarni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini ishlab chiqishda har bir tarmoqning o'ziga hos xususiyatlari, jumladan, iqtisodiy saloqiyati, milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni, texnik va texnologik jihatdan rivojlanganlik darajasi, davlatning strategik rivojlanishidagi roli, mahsulotlarga milliy va Jahon bozorlarida tarkib topgan ehtiyojlar darajasi, mavjud homashyo bazasi, ishchi kuchi resurslarining zamonaviy bilim va ko'nikmalarga egaligi va boshqa omillar e'tiborga olingan. Bu esa, har bir tarmoqdagi modernizatsiyalash jarayonlarining muvaffaqiyati va natijasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. SHunga ko'ra, mamlakatimiz etakchi tarmoqlaridagi modernizatsiyalash jarayonlarining maqsad va vazifalari, ular bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Qisqacha xulosalar

Umumiy va alohida tarmoqlar bo'yicha sanoat mahsulotlari hajmi yuridik shahslar va xo'jalik yuritish shaklidan qat'iy nazar ularning bo'linmalarida ishlab chiqirilgan sanoat mahsulotlari ko'rinishida bo'lgan ishlar va ko'rsatilgan hizmatlarning jami hajmini hisoblash orqali aniqlanadi. Sanoat mahsulotlari bo'yicha yiqma ma'lumotlarga yirik va o'rta sanoat korhonalari, qo'shma, kichik, shuningdek, nosanoat tashkilotlari balansiga kiritilgan yordamchi ishlab chiqarish korhonalari ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari (bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan hizmatlar) bo'yicha ma'lumotlar kiritiladi.

Joriy narxlardagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi deyilganda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining jami hajmi joriy narxlarda hisoblanishi ko'zda tutiladi. Prognoz qilinadigan davrga mahsulot hajmi (bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan hizmatlar) prognoz qilinayotgan davrdagi joriy narxlarda (oy, chorak, yil) va qo'shilgan qiymat va aksiiz soliqlisiz taqqoslama narxlarda aniqlanadi.

Nazorat uchun savollar

1. Qanday sanoat tarmoqlari tarkibini bilasiz?
2. Sanoat mahsulotlari qanday aniqlanadi?
3. Sanoat tarmog'ini prognoz qilishda nima asosiy o'rinni egallaydi?
4. O'zbekiston Respublikasining qaysi mintaqalarida sanoat tarmog'i yahshi rivojlangan ?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A.Karimov Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari-T.: O'zbekiston, 56 b.
2. Abdullaev A.M., Irmatov M.M., Haydarov M.T., Ashurova D.S. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni prognozashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2006. - 249 b.
3. Irmatov M.M., Haydarov M.T. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning prognozashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004.

VII BOB. MINTAQADA QISHLOQ XO'JALIGI RIVOJLANISHI KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASHTIRISH USULLARI

7.1. Asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlari ko'rsatkichlarini prognozashtirish va qishloq xo'jalik mahsulotlari hajmi.

Asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlari ko'rsatkichlarini prognozashtirish uchun quyidagi ko'rsatkichlarni aniqlashtirish lozim:

- qishloq xo'jalik mahsulotlari hajmi.
- qishloq xo'jalik mahsulotlari hajmini hisoblashning fizik indeksi.
- qishloq xo'jalik mahsulotlarini prognoz narxlaridagi hajmi.

Qishloq xo'jaligi mahsuloti – qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumlashtiruvchi ko'rsatkichi hisoblanib, hisobot yilida joriy narxlarda ifodalangan o'simliklar, chorvachilik va parrandachilik mahsulotlari summasini bildiradi.

O'simlik mahsulotlari – hisobot yilida hirmondan olingan hom pishar mahsulotlari qiymati, yosh ko'p yillik o'simliklarni hosilga kirguncha davrdagi o'stirish qiymati va o'simliklarni o'stirish uchun tugallanmagan ishlab chiqarish yil boshidan yil ohirigacha davrdagi harajatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

Chorvachilik va parrandachilik mahsulotlari–tayyor bo'lmagan mahsulotlar qiymati bo'lib, qishloq xo'jalik chorva va parrandalaridan foydalanish natijasida joriy yilda yaratilgan chorva va parranda, asalari va baliq mahsulotlari kiradi.

Ekin maydonlari – ekin maydonining qishloq xo'jalik mahsulotlarini ekish uchun ajratilgan qismi. Ekin maydonini ishlab chiqarish texnik o'ziga hosligiga ko'ra qishloq xo'jaligi mahsulotlarini quyidagi turlarga bo'linadi: buqdoy va boshqalar

(buqdoy, guruch, grechka va boshqalar); texnik(pahta, kanakunjut, pista, shakar lavlagi va boshqalar); kartoshka, poliz ekinlari(bodring, pomidor, piyoz, karam va boshqalar) va bahchevoy (tarvuz, qovun); em ekinlari(ko'p yillik va bir yillik o'tlar va boshqalar).

Qishloq xo'jalik mahsulotlarining yalpi yiqimi – bir guruq yoki alohida qishloq xo'jalik mahsulotlarini barcha ekin maydonidagi yiqilgan real olingan qismi.

Statistika amaliyotida qishloq xo'jaligi mahsuloti dastlabki qabul qilingan oqirligida hisobga olinadi.

Chorva va parranda boshi – xo'jalikda foydalanish taqsimotiga ko'ra turi, yoshi, jinsi, ishlab chiqarish iqtisodiy(asosiy va aylanma) tarkiblarga ajraladi.

Qishloq xo'jalik hayvonlari miqdori – ma'lum davrga fizik birlikda(bosh hisobida) hisobga olinadi. Bir qancha ko'rsatkichlarni hisoblash va tahlil qilish uchun davrdagi(oy, kvartal, yil) o'rtacha miqdori hisoblanib, kunlik boqim summasining davrdagi kunlarga nisbatiga teng.

Sut ishlab chiqarish –sigir, echki, qo'y va tuyadan soqilgan sutning amaldagi hajmi va emganini qo'shilgani bilan aniqlanadi.

Qishloq xo'jalik mahsulotini realizatsiya qilish– qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari tomonidan to'qridan to'qri davlat haridi, bozorlarda, birja, auksiionlarda va savdo setlari orqali sotilgan mahsulotlar kiradi.

7.2. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining fizik hajmi indeksini hisoblashni prognozlash.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari hajmini prognoz qilish dinamikasini baholash va uning qiymatini taqqoslama narxlarda ifodalash uchun qishloq xo'jalik hajmini fizik indeksi ko'rsatkichidan foydalaniladi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini o'rtacha yillik narxini aniqlash uchun amaldagi yalpi qiymatni fizik hajmda ishlab chiqilgan hajmiga nisbati bilan aniqlanadi. YAlpi qiymatni taqqoslama narxlarda hisoblash uchun o'rtacha yillik narxni fizik hajmdagi ishlab chiqarilgan mahsulotga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

Prognoz davr uchun qosil haqidagi manba asosan davlatning buyurtmasi hisoblanadi va o'simliklar yiqimi, chorvachilik, parrandachilik, qishloq xo'jalik korhonalari, fermer xo'jaliklari haqidagi ma'lumotlar hisoblanadi.

Aholining qishloq xo'jalik mahsulotlari yiqimining prognozi jamoa va individual xo'jaliklarning tanlanma tadqiqoti asosida aniqlanadi.

Prognoz narxlarida qishloq xo'jalik mahsulotlari hajmi dinamikasini baholashda taqqoslama narxlardagi narxlarning o'rtacha o'zgarish indeksi qishloq xo'jalik mahsulotlariga ko'paytmasiga teng.

7.3. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini holati taxlili

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan respublika hukumatining 2009 yil 13 fevraldagi majlisida belgilab berilgan 2009 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturining ustuvor vazifalari amalga oshirilishini so'zsiz ta'minlashga qaratilgani holda global moliyaviy-iqtisodiy inqirozning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish yuzasidan "2009-2012 yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar" hamda "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" Davlat dasturlari doirasida qator tizimli tadbirlar amalga oshirilishi natijasida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi quyidagi ko'rsatkichlarga erishildi:

amaldagi baholarda 12 trln 642,6 mlrd so'mlik yalpi qishloq xo'jalik mahsuloti ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan qiyoslama baholarda 5,7 foiz o'sish ta'minlandi, o'z navbatida vazirlik tizimida qiyoslama baholarda 76,6 mlrd so'mlik (o'sish darajasi - 53,0%) sanoat mahsuloti hamda 7,2 mlrd so'mlik (29,0%) xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarildi;

Manzilli dasturlar doirasida umumiy qiymati 148,9 mlrd. so'mlik davlat kapital qo'yilmalari o'zlashtirilib, 84,8 mlrd. so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarildi va 31,8 mlrd. so'mlik asosiy fondlar ishga tushirildi, shu jumladan 12 ta xorijiy investitsiya loyihasi doirasida 36,88 mln. dollar yoki 2009 yil 10 dekabrda qayta taqsimlangan prognozga nisbatan 100,9 foiz hajmida mablag' o'zlashtirildi.

Namangan viloyati Pop tumanida 33,6 mln kub metr sig'imga ega bo'lgan Jidalisoy suv ombori kompleksi qurilib, to'liq foydalanishga topshirildi;

Andijon viloyati Izboskan tumanida 0,2 metr kub sekund quvvatiga ega bo'lgan nasos stantsiyasi ishga tushirilib, 150 gektar maydonda kafolatli suv etkazib berish ta'minlandi;

Mamlakat eksport dasturi doirasida eksport tarkibini diversifikatsiyalash va eksport bozorlari geografiyasini kengaytirish bo'yicha ko'rilgan tashkiliy va amaliy choralar natijasida vazirlik bo'yicha 5611,9 ming dollar miqdorida mahsulot va xizmatlar eksportga chiqarilib, yillik prognoz 171,3 foizga oshirib bajarildi;

Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallarni ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi doirasida tizimdagi korxonalar tomonidan 9 mlrd 205,2 mln. so'mlik (108,9%) mahsulot ishlab chiqarildi;

To'lov intizomini mustahkamlash masalasi qat'iy nazoratda bo'lib, o'tgan yilga nisbatan tizim bo'yicha debitor qarzlari 48,6 mlrd. so'mga hamda kreditor qarzlari 39,8 mlrd. so'mga kamaytirildi;

Hisobot yilida qishloq xo'jalik korxonalariga davlat buyurtmasi bo'yicha paxta xom ashyosi va boshhoqli don etishtirish uchun 1 trln. 108 mlrd. so'mlik imtiyozli kredit mablag'lari yo'naltirildi;

Sohada bozor printsiplarini bosqichma-bosqich joriy etilishi, shartnomaviy va hisob-kitob tizimining takomillashtirilishi hamda mavjud resurslardan samarali foydalanishga bo'lgan e'tibor natijasida o'tgan 2008 yilga nisbatan 34 ming tonna yoki 33 mlrd so'mlik dizel yonilg'isi va suv xo'jaligida foydalaniladigan elektr energiyasidan 19,5 mlrd. so'm mablag' iqtisod qilindi;

Fermerlik harakati samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar izchil davom ettirildi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 6 oktyabrdagi F-3077-son hamda 2009 yil 22 oktyabrdagi F-3287-son farmoyishlari doirasida fermer xo'jaliklarining er uchastkalarini maqbullashtirish bilan bog'liq vazifalar deyarli yakuniga etkazildi.

Bugungi kunda mamlakat yalpi qishloq xo'jalik mahsulotida fermer xo'jaliklarining ulushi 34,5 foizni tashkil etib, ishlab chiqarilgan jami paxta xom ashyosining 99,2 va g'allaning 81,4 foizi ular hissasiga to'g'ri keldi.

Jami 6 million 839 ming tonnadan ziyod g'alla ishlab chiqarilib, uning 3 mln 203,3 ming tonnadan ortig'i davlatga sotildi. Mavsumda 23 ming 972,4 tonna pilla xom ashyosi tayyorlandi;

Mamlakat aholisini oziq-ovqat tovarlariga bo'lgan ehtiyojini to'laroq qondirish va ichki iste'mol bozorini barra va sarxil qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash choralari ko'rildi, natijada jami 10 mln 770,7 ming tonna yoki o'tgan yil ko'rsatkichlariga nisbatan 10,0 foiz yoki 979,8 ming tonna ko'p mahsulot tayyorlandi, bunda 5704,7 ming tonna sabzavot (yoki 2008 yilga nisbatan Q487,3 ming tonna), 1523.5 ming tonna kartoshka (Q124,8 ming tonna), 1100.0 ming tonna poliz (Q118,7 ming tonna), 1542.9 ming tonna meva (Q140,2 ming tonna) va 899,6 ming tonna uzum (Q108,8 ming tonna) ishlab chiqarilgani holda kuz-qish mavsumi uchun ularning 521,7 ming tonna zahirasi yaratildi;

"Mevasabzavottayyorlovsavdo" ixtisoslashgan kompaniyalarini tashkil qilish va issiqxonalar qurish hamda ular faoliyatini yo'lga qo'yish borasidagi ishlar qat'iy grafik asosida olib borilgani holda muqobil issiqlik manbalaridan foydalanuvchi 585,8 gektar maydonda 1029 ta engil konstruktsiyali issiqxona qurildi;

barcha toifa xo'jaliklarida jami qoramollar bosh soni 8510,8 ming boshni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 6,0 foizga ko'paydi, shundan sigirlar 3535,6 ming bosh (6.2%), qo'y va echkilar 14438,3 ming bosh (6.5%), parrandalar 33025,8 ming bosh (11,9%) va o'z navbatida uning mahsuldorligi ham oshib, tirik vaznda jami 1367,7 ming tonna go'sht, 5778.9 ming tonna sut, 2715.9 mln. dona tuxum, 24.9 ming tonna jun va 897,9 ming dona qorako'l teri ishlab chiqarildi;

Yangidan 165 ta zooveterinariya va 94 ta sun'iy urug'lantirish punktlari tashkil etilib, ularning umumiy soni 3446 taga etkazildi.

Aholi va fermer xo'jaliklaridagi chorva mollariga mavjud 2443 ta zooveterinariya punktlari tomonidan 6,2 mlrd so'mlik servis xizmatlari ko'rsatilib, bunda bir shartli chorva moliga ko'rsatilgan xizmat bahosi respublika bo'yicha o'rtacha 819 so'mni tashkil qildi;

Chorva mollari naslini yaxshilash maqsadida xorijiy davlatlardan 37,5 mlrd so'mga jami 6651 bosh naslli mollar keltirilib, bir bosh naslli hunajinning o'rtacha bahosi 5,6 mln so'mga to'g'ri keldi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 26 yanvardagi PQ-1047-son qarori doirasida go'shtni qayta ishlaydigan 39 ta va sutni qayta ishlaydigan 58 ta hamda sutni qabul qiluvchi 43 ta servis markazlari tashkil etildi.

Parrandachilikka ixtisoslashgan 372 ta fermer xo'jaligi tashkil etish hamda tizimdagi sanoat korxonalarida kasanachilikni rivojlantirish hisobiga jami 2670 ta yangi ish o'rinlari yaratilib, aholining ish bilan bandligida o'tgan yilning shu davriga nisbatan tizim bo'yicha 75,3 foiz o'sish ta'minlandi;

“Sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash” Davlat dasturi doirasida jami 130,0 mlrd. so'm ajratilgan bo'lib, shu hisobdan hisobot yilida 102 ta loyiha bo'yicha 702 kilometr uzunlikda kollektor-drenaj tarmog'i, 136 kilometr yopiq-yotiq drenaj, 195 dona tik quduqlar, 6 dona meliorativ nasos stantsiya hamda 485 dona kuzatuv quduqlari qurildi va rekonstruktsiya qilindi.

Bundan tashqari 263 ta loyiha bo'yicha 12 ming 696 kilometr kollektor-drenaj tarmog'i tozalandi, 1311 kilometr yopiq-yotiq drenaj yuvildi, 1249 dona vertikal drenaj, 57 dona meliorativ nasos agregatlar ta'mirlanib, 48 mlrd. 142 mln so'mlik (101,8%) mablag' o'zlashtirildi;

Soha ilm-fanini rivojlantirishdagi sa'yi-harakatlarda va ilmiy izlanishlarda natijadorlikka ustuvorlik berilib, ular ko'lami yanada kengaytirildi, Davlat dasturi doirasida qishloq va shaharlar atrofini ko'kalamzorlashtirish va sof ekologik muhitni yaratishga bo'lgan e'tibor

yanada kuchaytirildi va tizimdagi o'rmon xo'jaliklarida 42,2 ming gektarda yangi o'rmonzor barpo etildi, jami 29,5 gektarda "Yapon soforasi" hamda 10,7 gektar maydonda "Kashtan" daraxti ko'chatlarini etishtiruvchi ko'chatxonalar tashkil qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 22 oktyabrdagi "Fermer xo'jaliklari tasarrufidagi er uchastkalari maydonlarini yanada maqbullashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoyishi ijrosini ta'minlash maqsadida birmuncha ijobiy ishlar amalga oshirildi, jumladan, er maydonlari to'liq inventarizatsiyadan o'tkazilib, fermer xo'jaliklarining faoliyatini tanqidiy baholash asosida ularning er maydonlarini maqbullashtirish bo'yicha keng ko'lamli, shu bilan birga puxta o'ylangan ishlar amalga oshirildi.

Asoslangan holda o'tkazilgan maqbullashtirish jarayoni natijalariga ko'ra, 26 ming 753 ta (24,9 foiz) fermer xo'jaliklari tugatilib, bugungi kunda fermer xo'jaliklarining jami soni 80 ming 628 tani, shundan 41 ming 827 tasi (51,8 foiz) paxta va g'allachilik, 4 ming 36 tasi (5 foiz) sabzavot va polizchilik, 22 ming 159 tasi (27,4 foiz) bog' va uzumchilik, 6009 tasi (7,5 foiz) chorvachilik hamda 6 ming 597 tasi (8,2 foiz) boshqa yo'nalishlardagi fermer xo'jaliklaridir.

O'rtacha bir fermer xo'jaligiga to'g'ri kelgan er maydoni 62,4 gektarga etdi. Fermer xo'jaliklarining o'rtacha er maydonlarini tarmoqlar bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, paxtachilik va g'allachilikda 70,3 gektardan 84,5 gektargacha, sabzavotchilikda 14,8 gektardan 19,1 gektargacha, chorvachilikda 142,8 gektardan 162,2 gektargacha ko'paydi.

Muxtasar qilib aytganda, bugungi kunda yurtimizda qishloq mulkdorlarining rivojlanishi uchun har tomonlama sharoitlar yaratilgan bo'lib, ular mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirish, xalqimizning qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini yanada to'laroq qondirishga munosib hissa qo'shmoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan keng miqyosli iqtisodiy islohotlar agrar sohada tub o'zgarishlarga olib keldi. Eng avvalo, paxta yakkahokimligi barham topdi, agrar ishlab chiqarishni tashkil etishning o'zbek xalqining mentalitetiga mos va jahonning ilg'or tajribasiga asoslangan shakllari – dexqon va fermer xo'jaliklari tashkil etildi. Mahkamaviy boshqaruv tizimi bartaraf etilib, o'rniga bozor usullari tatbiq etila boshlandi. Bu esa o'z navbatida qayta ishlovchi tarmoqlarni qishloq xo'jaligi xomashyosi bilan, aholini esa oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'la ta'minlashga asos yaratdi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi eksport borasida ham etakchi sohalardan biriga aylandi.

Eng asosiysi qisqa muddatda mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligiga erishildi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini qayta tashkil qilish jarayonida qishloqda xususiy mulk sinfi shakllandi. Bundan tashqari, sho'rolar davrida iste'molining 80 foizi import hisobidan ta'minlab kelingan mamlakatimiz o'ta qisqa fursat ichida g'alla mustaqilligiga erisha oldi. Natijada, g'alla etishtiriladigan maydonlar salkam ikki baravar yoki 703,6 ming gektarga, sug'oriladigan erlarda esa bevosita 2,8 baravar yoki 875,6 ming gektarga oshdi. Paxta ekin maydonlari 268,1 ming gektarga qisqardi. Sug'oriladigan erlarda qishloq xo'jaligi ekinlarini etishtirish ilmiy asoslangan parametrlarga yaqinlashtirildi: ekin maydonlari tarkibida g'alla ekinining ulushi 40,6 foizga, paxta maydonining ulushi esa 43,6 foizga etkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 20 oktyabrdagi "Oziq-ovqat ekinlari ekiladigan maydonlarni optimallashtirish va ularni etishtirishni ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni mazkur jarayonni yana davom ettirishni nazarda tutadi. Unga binoan paxta etishtiriladigan maydonlar qisqartirilib, boshoqli don ekinlari maydonini qariyb 50 ming gektarga, shuningdek, sabzavot, moyli o'simliklar va boshqa oziq-ovqat ekinlari maydonini yanada kengaytirish ko'zda tutiladi.

Demografik jarayonlar hamda er-suv resurslari taqchilligi yanada murakkablashib borayotgan bir sharoitda, hosildor ekin maydonlari tarkibining bozor munosabatlari talablaridan kelib chiqib o'zgartirilishi sabzavot, kartoshka mahsulotlari miqdorining ko'payishi bilan bir qatorda, don va dukkakli o'simliklar, sabzavot, poliz, meva va uzum mahsulotlarining turlari hamda assortimenti kengayishiga asos bo'lib xizmat qildi.

Mustaqillik sharofati bilan moyli ekinlarga bo'lgan munosabat ijobiy tomonga o'zgardi. Ya'ni, paxta yakkahokimligi sharoitida ilgari mamlakatimizda etishtirilmagan yoki etarli e'tibor berilmagan kungaboqar, saflor, soya va qand lavlagi kabi moyli ekinlar maydonlari sezilarli darajada ko'paydi. Ushbu ekinlarni qayta ishlovchi maxsus ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etildi.

Erishilgan natijalarni rahamlar bilan aytadigan bo'lsak, istiqlol yillarida don mahsulotlarini etishtirish 5,3 baravar, kartoshka - 2,1 baravar, sabzavot, meva, uzum - 1,2 baravar, chorvachilik mahsulotlarini etishtirish o'rtacha 1,2-1,3 baravarga ko'paydi.

Hukumatimiz tomonidan ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan siyosat natijasida don mahsulotlari importi 2,5 baravarga qisqardi, aholi jon boshiga don ishlab chiqarish esa o'rtacha 1,9 baravarga oshdi.

Yurtimiz asrlar davomida Oziq-ovqat mahsulotlari bilan nainki o'zini o'zi to'la boqib kelgan, balki qo'shnilarimizga ularni eksport ham qilib kelgan. Lekin mustamlaka davrida O'zbekiston sobiq tuzum engil va to'qimachilik sanoatini arzon va sifatli paxta xomashyosi bilan ta'minlovchi bazaga aylantirildi. Shu bois, yurtimizga Oziq-ovqat mahsulotlarining muayyan qismi boshqa respublikalardan olib kelina boshlandi. 2001 yilga kelib O'zbekiston yana don eksport qilish darajasiga eta oldi.

O'zbekiston tashqi savdo aylanmasining umumiy eksporti hajmida Oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 1997 yilda atigi 3,2 foizni tashkil etgan bo'lib, 2007 yilda u 8,5 foizga etdi. Va aksincha, davlatning Oziq-ovqat importiga qaramlilik darajasi qisqarishi kuzatilmoqda. Ya'ni 1997 yilda Oziq-ovqat mahsulotlari importi 12,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2007 yilda mazkur ko'rsatkich 7,9 foizga tushdi. Bunday natijaga nafaqat meva, sabzavot-poliz, konserva kabi mahsulotlarni keng hajmda ishlab chiqarilishi hisobiga, balki un-non, go'sht va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish hisobiga ham erishildi.

Mamlakat agrar sektori ertapishar va kechpishar meva hamda sabzavot, poliz, yong'oq, pista-bodom kabi mahsulotlarni ishlab chiqarishda katta salohiyatga ega. Ular bo'yicha takliflar ichki talabdan yuqori bo'lib, eksport hajmini oshirish uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Qisqacha xulosa

Qishloq xo'jalik mahsulotlari ko'rsatkichlarini prognozlashtirish uchun qishloq xo'jalik mahsulotlari hajmi, qishloq xo'jalik mahsulotlari hajmini hisoblashning fizik indeksi, qishloq xo'jalik mahsulotlarini prognoz narxlaridagi hajmi kabi ko'rsatkichlar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishimiz lozim.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari hajmini prognoz qilish dinamikasini baholash va uning qiymatini taqqoslama narxlarda ifodalash uchun qishloq xo'jalik hajmini fizik indeksi ko'rsatkichidan foydalaniladi.

Nazorat uchun savollar

1. Qishloq xo'jaligi mahsuloti deganda nimani tushunasiz?
2. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining yalpi yiqimi nima va uning qishloq xo'jalik mahsulotlarini prognozlashdagi ahamiyati qanday?
3. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini prognoz narxlaridagi hajmi qanday aniqlanadi?
4. Qishloq xo'jalik mahsulotlari O'zbekiston Respublikasi mintaqalarida teng etishtiriladimi?
5. 2009 yilning qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili deb e'lon qilingan undagi ustuvor yo'nalishlar qanday?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A.Karimov Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari-T.: O'zbekiston, 56 b.
2. Abdullaev A.M., Irmatov M.M., Haydarov M.T., Ashurova D.S. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni prognozashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2006. - 249 b.
3. Irmatov M.M., Haydarov M.T. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning prognozashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004.
4. Li A.N. Maqalliy tuzilmalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni prognoz qilish. O'quv qo'llanma. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamharmasi nashriyoti. - T.: 2004.

VIII BOB. KAPITAL QO'YILMALAR HAJMINI PROGNOZLASH USLUBIYOTI.

8.1. Kapital qo'yilmalar tushunchasi.

Kapital qo'yilmalar asosiy fondlarni qayta tiklash va o'stirish uchun sarflanuvchi moddiy, Mehnat va pul resurslaridir. Ular asosan bir vaqtning o'zida amalga oshiriladigan harakterga ega bo'lib, ishlab chiqarish harajatlari yoki maxsulot tannarxi shaklidagi, joriy harajatlardan farq qiladi. Kapital qo'yilmalar maqsadli harakterga ega bo'ladi hamda hodimlarga mukofot to'lash, hizmat safari harajatlari va qokazolarga sarflanishi mumkin emas.

Kapital qo'yilmalardan foydalanishning asosiy shakllari quyidagilar hisoblanadi:

- yangi qurilish;
- korhonani kengaytirish va qayta tiklash;
- ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish va texnik jiqtadan qayta qurollantirish;
- harakatdagi quvvatlarni takomillashtirish.

YAngi qurilishga yangi maydonlarda mahsus ishlab chiqilgan loyihalar asosida quriluvchi korhona, bino, inshoot va qurilmalar mansubdir.

Faoliyat yuritayotgan korhonani kengaytirish qo'shimcha ishlab chiqarish majmualarining navbatdagi qismlarini yangi loyiha asosida qurish yoki asosiy, qo'shimcha, yordamchi va hizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarishning amaldagi siehlarini kengaytirish yoki qurilishini anglatadi. U asosan, faoliyat yuritayotgan korhona hududida yoki unga tutash maydonlarda amalga oshiriladi.

Qayta tiklash - bu, faoliyat yuritayotgan korhonani ma'naviy va jismoniy eskirgan qurilma va asbob-uskunalarni ishlab chiqarishni mehanizasiyalashtirish va avtomatlashtirish, texnologik bo'qinlar va yordamchi hizmatdagi nomutanosibliklarni yo'qotish yo'li bilan almashtirish yordamida to'liq yoki qisman o'zgartirishni anglatadi. qayta tiklashda eski siehlar o'rniga yangi siehlarni qurishga ruhsat beriladi.

Texnik qayta qurollantirish alohida ishlab chiqarish turlarini zamonaviy talablarga asosan yangi texnika texnologiyalarni kiritish, ishlab chiqarish jarayonlarini mehanizasiyalashtirish va avtomatlashtirish, eskirgan qurilma va uskunalarni yangilash va almashtirish, ishlab chiqarish tuzilmasi va tashkil etilishini yahshilash yo'li bilan, korhonaning texnik

darajasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasidir. U ishlab chiqarish intensivligini kuchaytirish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan.

Moliyaviy resurslar va er tanqisligi sharoitlarida, ikkinchi tomondan esa, mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan unumliroq foydalanish uchun yangi qurilishni nisbatan cheklangan holatdai, asosan juda zarur qollardagina amalga oshiriladi. SHu sababli bugungi kunda kapital qo'yilmalarning eng ko'p tarqalgan yo'nalishlari sifatida, umuman olganda yangi turdagi maxsulot ishlab chiqarishni ham ko'zda tutuvchi mavjud ishlab chiqarishini kengaytirish, qayta tiklash va tehnik jiqtadan qayta qurollantirishni ko'rsatish mumkin.

8.2. Mintaqaning kapital qo'yilmalar manbalari tuzilmasi.

Investisiiya siyosati mustaqillikning dastlabki yillaridanoq yoqilqi energetika va don mustaqilligini ta'minlash, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, eksport saloqiyatini oshirish va import o'rmini bosuvchi maxsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun ustuvor sohalarni qo'llab-quvvatlash, chet el investisiyalarini jalb qilish uchun ochiq eshiklar siyosatini olib borish kabilarga haratildi.

Investisiiya dasturlarini shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizomga quyidagilar Dasturni moliyalashtirish manbalari hisoblanadi:

A) markazlashtirilgan investisiyalar, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Davlat byudjeti mablag'lari;

Davlat byudjetdan tashhari fondlar mablag'lar;

hukumat kafolati ostida beriladigan horijiy kreditlar;

hukumat harorlariga ko'ra belgilanadigan boshqa manbalar;

B) Markazlashtirilmagan investisiyalar, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Mulkchilikning barcha shakllaridagi korhonalarni mablag'lari;

Tijorat banklarining, shu jumladan horijiy tijorat banklarining kreditlari;

Jismoniy shahslar, shu jumladan horijiy jismoniy shahslar mablag'lari;

qonun qujjatlariga zid bo'lmagan boshqa manbalar.

Davlat investisiya faoliyati doirasida davlat byudjeti va byudjetdan tashhari fondlar mablag'i hisobidan to'qridan-to'qri moliyalash yo'li bilan amalga oshiriladigan investisiya, O'zbekiston Respublikasi hukumati

kafolati ostida chet el investisiyalari va kreditlarini jalb etgan holda amalga oshiriladigan investisiya markazlashtirilgan investisiya hisoblanadi.

Markazlashtirilgan investisiyalar faqat quyidagi yo'nalishlarga ajratiladi:

- respublika iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlariga davlat maqsadli dasturlarini va davlatlararo bitimlarini amalga oshirishga;

- aholining ehtiyojmant qatlamlarini davlat tomonidan ijtimoiy muhofaza qilishni ta'minlash uchun uy-joy qurilishiga;

- suv xo'jaligi qurilishiga;

- aholi yashaydigan joylarning muxandislik infratuzilmasini rivojlantirishga;

- fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va ijtimoiy infratuzilmalarning boshqa tarmoqlari ob'ektlari qurilishiga;

- umumdavlat tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishga va tabiiy ofatlardan himoya qilish inshootlari qurilishiga.

Investisiion maqsadlarga yo'naltirilgan mablag'lar tanqisligi sharoitida lizing investisiion faoliyatni faollashtiruvchi muhim vosita bo'lib hizmat qiladi.

Lizing-moliyaviy kredit munosabatlarining shakllaridan biri bo'lib, korhonalarning qurilma va asbob- uskunalarini ishlab chiharuvchi korhona yoki mahsus tashkil qilingan lizing kompaniyalaridan uzoq muddatga ijaraga olinishini anglatadi. Lizing bitimida ko'rsatilgan tomonlardan tashhari investisiion loyihalarni moliyalashtirish hamda ularni buning uchun zarur bo'lgan mablag'lar bilan ta'minlash imkoniyatiga ega bo'lgan tijorat yoki investisiion banklar ham ishtirok etishi mumkin.

8.3.Kapital qo'yilmalar bo'yicha sur'atlarni prognozlash.

Investisiya dasturi respublikani ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish prognozlarining tarkibiy qismi hisoblanadi va davlat investisiya siyosatining ustuvor yo'nalishlarinin aks ettiradi. SHu bilan birga loyiha qidiruv ishlaridan boshlab mamlakatni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning umumdavlat dasturlari bajarilishini ta'minlash uchun ob'ektni foydalanishga topshirishgacha bosqichlarni hisobga olgan holda, investisiya loyihalarini amalga oshirish muddatlarini va moliyalashtirish manbalarini hisobga olib, har yili Dasturning asosiy ko'rsatkichlari

aniqlashtirilgan va aniq ro'yhati yangilangan holda uch yillik davrga shakllantiriladi.

Prognozlash jarayonida prognozlash ob'ekti har tomonlama tahlil etilishi lozim. Bu ob'ektning ta'rifi va predmeti, prognozlash vazifalari, uning tashqi muqitga bog'liqligi, uning tuzulmasi, faol qilish mehanizmini va boshharishni o'rganishni taqozo etadi. Formal mazmun tahlili uning modellarini tuzishni, ob'ektga ta'sir doirasini va optimal boshharish usulini talab etadi.

Kapital qo'yilmalarning o'sish sur'ati tempini prognozlash bu qo'yilmalarni qaysi tarmoq, soha, yoki yo'nalishga mo'ljallanganligidan kelib chiqadi. Shuning uchun ham dastavval bashorat qilish ob'ekti har tomonlama o'rganib chiqib, uning o'zgarish tendensiiyalari tahlil qilanadi va o'sish sur'atlari o'rganiladi. Buning uchun iqtisodiy statistika usullaridan biri tanlab olinadi.

Tadqiqot uslubiyotining hususiyati tahlilda funksional yondoshishdan foydalanishdir. Tizim tashqi muqit bilan kirish va chiqish signallari orqali bog'liq. Prognozlash usullarini ikkita guruqqa ajratish mumkin:

Mantiqiy evristik usullar va modellashtirish usullari. Mantiqiy usullar haqiqatni mantiq asosida topishga bog'liq. Bu guruqqa to'rtta usullar: formal mantiq, analogiya, ekspert baholash va evristik usullar kiradi.

Modellashtirish usullari matematik va statistik tadqiqotlarga, kompyuter yordamida rivojlanish omillari va qonunlarini topishga va eksperiment o'tkazishga asoslangan. quyi guruq sifatida ekstrapolyasiya, ekonometrik modellashtirish, normativ maqsadli va imitasiya usullarini ajratish mumkin.

Kompleks usullar mantiqiy evristik va modellashtirishni birgalikda qo'llashni taqozo etadi.

8.4. Kapital qo'yilmalar hajmini prognozlash.

Kapital qo'yilmalar hajmini investisiya dasturiga kiritilgan investisiya loyihalari qiymati orqali aniqlashtiriladi.

Investisiya dasturlarini shakllantirishning asosiy tamoyillari quyidagilar hisoblanadi:

investisiya jarayonlarini boshharish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, jumladan zarur hajmlarda, maqbul shartlarda horijiy investisiyalarni va kreditlarni jalb etish, shuningdek loyihalarni tanlab olishning amaliy mehanizmini shakllantirish va ularning amalga

oshirilishini monitoringini olib borish asosida ulardan samarali foydalanish mehanizmini yaratish;

belgilangan davlat ustuvorliklari asosida eng muhim tarmoqlarni, ishlab chiqarishlarni va faoliyat sohalarini qo'llab quvvatlash;

ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlarni aholi turmush darajasi va sifatini oshirishni, iste'mol talabini faollashtirishni ta'minlovchi hajmlarda birinchi navbatda investisiyalash;

mineral hom ashyo resurslarini va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni, tayyor maxsulotni tashqi bozorda raqobatbardoshli darajaga etkazishni ta'minlashga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlarni jadal rivojlantirishga qaratilgan investisiya loyihalarini qo'llab quvvatlash;

transport infratuzilmasini rivojlantirish va takomillashtirish, shu jumladan transkontenental transport yo'laklariga integrasiyalash, logistika komplekslarini shakllantirish;

investisiya loyihalarini Dasturning aniq ro'yhatiga oldindan belgilangan mezonlari asosida shartnomalar tuzish amaliyotini joriy etish;

ilgari boshlangan ob'ektlarni tugallash uchun markazlashtirilgan investisiyalarni birinchi navbatda ajratish. Dasturlarni ishlab chiqishda yirik va o'ta muhim loyihalar alohida, katta bir tipdagi loyihalar yahlit kiritilishi mumkin.

Dastur yiqma jadvallari bilan tahliliy qismdan, aniq dasturdan va ustuvor investisiya takliflarining yiqma ro'yhatidan iborat bo'ladi.

Dasturni ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha barcha ishlarni O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi muvofiqlashtiradi.

Dasturning barcha hisob kitoblari tadrijiy tarzda, respublikaning uch yillik davrda ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish prognozlari va investisiya loyihalarining aniq dasturi asosida ishlab chiqiladi.

Aniq dasturga iqtisodiy jiqatdan samarasiz loyihalarni, shuningdek ilgari jalb qilingan kreditlar bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan harzi bo'lgan korxonalar loyihalarini kiritish taqiqlanadi.

quyidagilar birinchi bosqichda loyihaning ustuvorligini belgilashning mezonlari hisoblanadi:

Loyihaning tarmoqni rivojlantirish strategiyasiga muvofiqligi;

Moliyaviy va iqtisodiy samaradorlik;

Maqalliy hom ashyodan va butlovchi buyumlardan foydalanish darajasi;

Tayyorlangan mutahassislarning mavjudligi;

Loyihalarni amalga oshirishga tayyorlanganligi darajasi;

Ishga tushirilgandan keyin foydalanish harajatlari.

har bir mezonning muhimligi darajasi tarmoqni rivojlantirish strategiyasini hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi tomonidan belgilanadi.

Ikkinchi bosqichda uch yillik davrda respublika iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar prognoziga muvofiq qo'shimcha ravishda quyidagi mezonlar hisobga olinadi:

- Tarmoqning istiqboldagi prognoz o'sish sur'atlari;
- Eksport saloqiyatining prognoz o'sish sur'atlari;
- Tarmoqning umuman respublika bo'yicha makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini o'zgarishi;
- Tarkibiy omillar;
- Ilgari qo'yilgan investisiyalar samaradorligi;
- Asosiy fondlar aqvoli va quvvatlardan foydalanish darajasi;
- Loyihaning ijtimoiy ahamiyati.

Ikki bosqichda tanlab olish natijalariga ko'ra Dasturga kiritiladigan ob'ektlarning aniq dasturi shakllantiriladi.

Dasturni va investisiya loyihalarini amalga oshirishning birinchi yili ko'rsatkichlari mavjud moliyaviy resurslar va boshqa resurslar bilan o'zaro boqlangan bo'lishi kerak hamda birinchi moliyaviy yilda o'zgartirilmaydi.

Dasturlarni va investisiya loyihalarni amalga oshirishning ikkinchi va keyingi yillari ko'rsatkichlari har yili aniqlashtirilishi kerak, bunda boshlanmagan loyihalarning bir qismi yangi loyihalarga almashtirilishi mumkin.

Qisqacha xulosalar

Kapital qo'yilmalar asosiy fondlarni qayta tiklash va o'stirish uchun sarflanuvchi moddiy, Mehnat va pul resurslaridir. Davlat investisiya faoliyati doirasida davlat byudjeti va byudjetdan tashhari fondlar mablaqi hisobidan to'qridan-to'qri moliyalash yo'li bilan amalga oshiriladigan investisiya, O'zbekiston Respublikasi hukumati kafolati ostida chet el investisiyalari va kreditlarini jalb etgan holda amalga oshiriladigan investisiya markazlashtirilgan investisiya hisoblanadi.

Kapital qo'yilmalarning o'sish sur'ati tempini prognozlash bu qo'yilmalarni qaysi tarmoq, soha, yoki yo'nalishga mo'ljallanganligidan kelib chiqadi. Shuning uchun ham dastavval bashorat qilish ob'ekti har tomonlama o'rganib chiqib, uning o'zgarish tendensiyalari tahlil qilanadi va o'sish sur'atlari o'rganiladi.

Nazorat uchun savollar

1. Kapital qo'yilmalarni prognoz qilishda iqtisodiy havfsizlik omillari hisobga olinishi zarurmi?
2. Kapital qo'yimlardan foydalanishning asosiy shakllariga nimalar kiradi?
3. Markazlashtirilgan investisiyalar qaysi yo'nalishlar uchun ajratiladi?
4. Lizing deganda nimani tushunasiz va uning mintaqalardagi qozirgi qolati qanday?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A.Karimov Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari-T.: O'zbekiston, 56 b.
2. Abdullaev A.M., Irmatov M.M., Haydarov M.T., Ashurova D.S. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni prognozlashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2006. - 249 b.
3. Irmatov M.M., Haydarov M.T. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning prognozlashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004.
4. Li A.N. Maqalliy tuzilmalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni prognoz qilish. O'quv qo'llanma. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamharmasi nashriyoti. - T.: 2004.

IX BOB. QURILISH TARMOG'INI TAHLIL QILISH VA PROGNOZ QILISH.

9.1. Hududdagi qurilish ishlari bajarilishining tuzilishi

Umumiy tushuncha bo'yicha qurilish kompleksi- buyurtmachilar, asbob uskunalarni, mehanizmlarni, qurilish materiallarini etkazib beruvchilar, moliya-kredit tizimi, ilmiy-izlanish va loyiha tashkilotlari va bevosita aholi ko'rinishida namoyon bo'ladigan barcha korhona va halq xo'jaligi tarmoqlarini o'z ichiga oladi.

Tor tushuncha bersak, qurilish kompleksi o'z ichiga faqatgina qurilish industiriya tarmoqlarini va sanoat harilish materiallarini, loyiha va ilmiy tashkilotlarni o'z ichiga oladi. qurilish kompleksiing potenssiiali deganda iste'molchilarning qurilish mahsulotiga bo'lgan eqtiyoj va talablarini berilgan muddat va sifatli qondirish imkoniyatlarini aniqlovchi ko'rsatkichlarning yig'indisi tushuniladi. Bu ko'rsatkichlardan quyidagilarni ajratish mumkin:

1) kadruga oid ko'rsatkichlar, ularga ishchi kuchi va mutahassislarning sifati va miqdori, ya'ni qurilish-montaj ishlarida qatnashuvchilar kiradi;

2) qurilish-montaj tashkilotlarning material-tehnika qurollanganligi ko'rsatkichlari;

3) moliyaviy, iqtisodiy va ilmiy-tehnika o'z-o'zin rivojlantirish ko'rsatkichlari;

4) qurilish tashkilotlarining bozor munisabatlariga moslashish imkoniyatini harakterlovchi, tashkiliy-boshqaruv ko'rsatkichlari;

5) qurilish sohasidagi loyiha muqitining rivojlanish darajasi ko'rsatkichlari;

6) investisiyalar, pudrat ishlari bozori, Mehnat bozori saqifalarida ahborot tizimining ko'rsatkichlari.

O'tish davrining dastlibki davri ichida qurilish ishlari qisqarishi yuz berdi. qurilish ishlarining hajmi qisqarishi munosabati bilan ko'pchilik qurilish tashkilotlari o'zining asosiy funksiiyalarini barjara olmay, ta'minlovchi-ayirboshlovchi va tijorat tashkilotlariga aylanib qoldi. Qurilish tarmog'ida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar pirovard natijada prognoz parametrlariga erishishi uchun quyidagilarni hisobga olish zarur:

1) Yaqin kelajakdagi va istiqbolda milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda qurilish kompleksi rivojlanishini investisiion siyosat bilan mos ravishda uzviy boqlangan holda amalga oshirish. Ma'lumki, qurilish va

sanoat ishlab chiqarish o'rtasida yaqin aloqa mavjud: sanoat ishlab chiqarishning pasayishi qurilish yopilishiga olib keladi va aksincha. Undan tashqari investitsion kompleksining asosiy bo'qinlarini faoliyat koordinasiiyasini ancha kuchaytirish talib etiladi; qidiruv ishlarni, loyihalashtirishni, mineral hom-ashyoni qazib chiqarish va qayta ishlashni, transport va asbob-uskunalar bilan ta'minlashni, ob'ektlar qurilishini.

2) Markazlashgan kapital qo'yilmalarining cheklangan resurlaridan foydalanishning natijaviy yo'nalishlarini asoslash.

3) Bozor mehanizmlarining intensivlashtirish, ularning infratuzilmasining tarkibi (bank, sug'urt kompaniyalari, investitsion fondlar).

4) Qurilish ishlab chiqarishda ilmiy-tehnika taraqqiyotning templarini tezlashtirish, izlanish va kashfiyotlarning hajmini oshirish, qurilish mashinalar parkini texnik qayta qurollantirish va yangilash, lizing operatsiyalaridan keng foydalanish.

Qurilish ishlarini bajarilishi investitsiya ishlab chiqarish jarayonining asosiy fazasi hisoblanadi. Iqtisodiy mazmuni jihatidan asosiy fondlarni qayta ishlab chiqarish jarayonining o'ziga hos xususiyatlarini ko'rsatib beradi. Yuzaki aytadigan bo'lsak, qurilish ishlarining bajarilishi bu qurilish, montaj, ta'mirlash qurilish va ishlarning boshqa turlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan, tayyor qurilish mahsulotlari (korxonalar, turar joy, maktablar, kasalxonalar va b.) bilan ta'minlashni bildiradi. Bajariladigan yoki qurilish ob'ektlariga harab, ular ishlab chiqaruvchi (sanoat, energetika, transport, qishloq xo'jaligi) va noishlab chiqarish (turar joy, fuqarolik, kommunal) qurilishlarga ajratiladi. Qurilish tarmoqlarini quyidagicha tavsiflasak bo'ladi: (5- jadval)

5- jadval

Qurilish tarmoqlari va unga kiruvchi ob'ektlar

Qurilish tarmoqlari	Tarmoqqa kiruvchi ob'ektlar
Sanoat	Mashinasozlik, metallurgiya, kimyo, neftkimyo, neftni qayta ishlab chiqarish sanoati, avtomobilsozlik, samolyotsozlik va b.
Energetika	Gidroelektrostansiyalar, issiqlik quvvati stansiyalari, elektr uzatish tuzilmalari.
Qishloq xo'jaligi	Pahta zavodlari, elevatorlar, parrandachilik fabrikalar, don saqlash omborlari, qishloqdagi ishlab chiqarish binolari.

Suv xo'jaligi	Suv omborlari, kanallar, dambalar, irrigasiion inshootlar.
Transport	Yo'llar, ko'priklar, gaz quvurlari, neft quvurlari, port.
Turar joy	Turar joy va binolar
Fuqarolik	Muzeylar, teatrlar, ma'muriy binolar, sport inshootlari.
Kommunal	Issiq suv va vodoprovod tarmoqlari, qozonhonalar, obodonlashtirish

Qurilish ishlarini bajarish soha tizimida hududda olib borilayotgan qurilishning u yoki bu tarmog'idagi ustunligi(qoloqligi) haqida xulosa chiqarishga imkon beradi. Bunda investisiion (zahira) imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda istiqbol rejalarini tuzish imkoniyati bo'ladi. Tarmoq bo'linishidan tashhari, qurilish ishlari bajarilishining tuzilishi bajarilayotgan, bajarilgan yoki bajarilishi qanday kechayotganligini bajarilayotgan ishlarning turiga harab aniqlash mumkin.

Shunga asosan pudratchi tashkilotlarning, ya'ni ular ihtisoslashgan ko'p sohani o'z ichiga olgan(universal) tasnifi amalga oshiriladi. Aniq ish turini bajaruvchi tashkilotni ihtisoslashgan, turli hil ishlarni bajarilishining shakli(Us)bajarilayotgan ishlar turiga harab quyidagi formula bo'yicha aniqlash mumkin:

$Us = Q_{sp} / Q_{ob}$

bunda: Q_{sp} -mazkur turning ishlar hajmi(masalan, strelka ishlari, montaj ishlari va b.); so'm.

Q_{ob} -barcha ishlarning umumiy hajmi(bajarilgan, bajarilishi mo'ljallangan); so'm.

Ushbu ko'rsatkichdan nafaqat qurilish ishlarini bajarayotgan korxonaga nisbatan ishlatish mumkin, balki iqtisodiy tarmoqlar hamda umuman olganda, hudud miqyosida baqo berilishiida foydalanish mumkin. qurilish ishlari bajarilishining tuzilishi qurilish dasturlarini ishlab chiqish, zarur ishchilar sonini shakllantirish va qurilishda Mehnat haqini to'lash fondini tashkil etishi qmsoblanadi. hududdagi investisiion qurilish siyosati bilan bog'liq bo'lgan qurilish ishlari bajarilishining tuzilishi, nafaqat uning industrial rivojlanish darajasini balki ma'lum darajada qurilish ishlari va bajarilishi hudud iqtisodiyotidagi u yoki bu sohaga yo'naltirilgan mablag'larning samaradorligini ham aks ettiradi. qurilish ishlarning bajarilishi tuzilishi samaradorligini har bir sohada bo'lgani kabi jamoa Mehnati iqtisodiy maxsulot o'lchovi birligiga, ishlab chiqarish unumdorligi o'sishiga yordam beradi.

hududiy qurilish ishlari bajarilishining tahlili va prognoz ko'rsatkichlarini quyidagi jadval orqali umumlashtirish mumkin (6-jadval).

6-jadval

Hududiy qurilish ishlari bajarilishining tahlili va prognoz ko'rsatkichlari

Tarmoq bo'yicha	Hududiy
Alohida sohalarda bajariladigan (masalan, sanoat, energetika, qishloq xo'jaligi va b.) hududda bajarilayotgan umumiy hajmdagi qurilish-montaj ishlari	hududda bajarilayotgan umumiy hajmdagi qurilish-montaj ishlari hududda bajarilayotgan umumiy hajmdagi qurilish-montaj ishlarining ulushi, respublika bo'yicha bajarilayotgan qurilish-montaj ishlarining umumiy hajmi.
qurilishning alohida sohalarida(masalan, sanoat qurilishi, energetika qurilishi va b.) qurilish-montaj ishlarida band bo'lgan ishchilarning soni	hudud qurilish ishlaridagi ishchilar soni. Respublika bo'yicha qurilishda mashqul bo'lganlar soni
Qurilish-montaj ishlarining hududdagi sur'ati.	Respublika va hudud miqyosidagi qurilish-montaj ishlarining sur'ati nisbati.
Asosiy fondlarning va ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirishdan qurilish-montaj ishlari sur'atining o'zishi(orqada qolishi)	Respublikada "kalit bilan" topshirilgan ob'ektlar soni bo'yicha hudud ulushi
Hudud bo'yicha tarmoqlardagi tugallanmagan qurilish ishlarining umumiy hajmi	Respublika bo'yicha tugallanmagan qurilish ishlarining hududdagi hajmi

9.2. Qurilish ishlari sur'atlari bo'yicha tahlili.

Iqtisodiy hisob-kitob va tahlillardagi tezlik yoki u yo bu jarayonning dinamikasini sur'at belgilaydi. Mana, masalan, o'rtacha oylik maoshning iqtisodiy taraqqiyot, Mehnat unumdorligining o'sishi va shu kabilarning o'sish sur'atlari ustidan hisob-kitob qilamiz. O'sish sur'atlari umuman, olganda, ishlab chiqarish hamda iqtisodiyotning rivojlanishi jadallashuvini belgilovchi nisbiy ko'rsatkich hisoblanadi.

Qurilish ishlarini bajarilishdagi o'sish sur'atlari quyidagi qo'rsatkichlar bo'yicha tahlil etilishi mumkin.

- O'zlashtirilgan kapital mablag'lar hajmi, shuningdek, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish qurilishlari sohasidan tashhari.

- Ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy fondlarning harakatga keltiruvchi hajmlar.

- qurilish- montaj ishlari hajmi, shuningdek, ularning turlari bo'yicha.

- Turar-joy qurilishi hajmi bo'yicha.

- Fuqarolik, madaniy-maishiy qurilish va boshqa shu kabilar hajmi bo'yicha.

Foizlarda yoki bo'lmasa koeffitsientlarda ifodalanuvchi o'sish sur'atlari ikki daraja dahldorligini ifodalaydi. Bu mazkur darajaning boshqa darajaga nisbatan qanchalik ko'p yoki necha foiz(ulush, hajmi) ekanligi nisbatini qabul qilingan (nisbat bazasini) ko'rsatib beradi. Nisbat bazasi siqatida har bir daraja uchun doimiy aniq bir daraja (ko'pincha boshlanqich daraja) mazkur darajaning bevosita avvalgisi qabul qilinishi mumkin. SHunday qilib, o'sish sur'atlari doimiy yoki bo'lmasa o'zgaruvchan nisbat bazasi bilan hisoblanishi mumkin. Birinchisi-asosiy, ikkinchisi- zanjirli deb ta'riflanadi. O'sish sur'ati dinamika qatori darajasi miqdorining jadal o'zgarishini vaqt birligida baholaydi. U quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi.

$$T U_i / U_{i-1} - 1 \cdot 100\% \text{ yoki } T U_i / U_1 - 100\%$$

bunda:

U_i - dinamika qatorining darajasi

U_{i-1} - undan avvalgi daraja

U_1 -dinamikaning boshlanqich darajasi(ba'zan U_0).

Bir necha yillik ishlab chiqarish jadalligini umumiy baqosini o'rtacha yillik o'sish(ortishi)sur'atlari beradi. Ular yillik o'sish sur'atidan kelib chiqqan holda o'rtacha geometrik tarzda quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi.

$$K \quad K_1 \quad K_2 \quad \dots \quad K_n \quad \text{yoki} \quad K \quad \overset{m}{I_n : L_0}$$

Bunda:

K - koeffitsientda ifodalangan yillik o'sish sur'atlari;

n - yillar soni

I_n - ohiri, L_0 esa dinamika qatori darajasining mutlaq asosi.

m - o'rganilayotgan vaqt oraliqidagi dinamika darajasining yillar soni(asosiysidan tashhari).

Misol.

a) asosiy davr mobaynida bajarilgan qurilish-montaj ishlarining hajmi 741 mlrd.so'm;

b) qurilish- montaj ishlarining tahlili hajmi -1039 mlrd.so'm;

v) n=5 yil

O'rtacha yillik o'sish (ortishi)hajmi quyidagini tashkil etadi.

5

5

$K = 1039 : 741 = 1,402 = 1,07$ yoki 107

9.3. Qurilish ishlari hajmining tahlili

Tahlil etish-bu ustunlikni, mablaqni aniqlash va ularga erishish yo'llari maqsadini shakllantirish jarayonidir. Bu kelajakni ko'ra bila olishlik maqsadida amalga oshiriladi. qurilish ishlari hajmining tahlil etilishi, birinchidan, aniq buyurmachilarni belgilash ular uchun u yoki bu ishlarning bajarilishi, ya'ni qurilishning titul ro'yhati asosida, ikkinchidan, qurilish-montaj ishlarining bajarilishiga sarflanadigan ulush kelgusida o'zlashtirilishi tahlil etilayotgan mablag'lar hajmidan, tanlib olish, uchinchidan, zaqira, shuningdek, ishlar hajmi, tahlilining moliyaviy ta'minoti. Tahlil etilayotgan qurilish ishlarining hajmi, umuman olganda, hududning investisiion dasturda nazarda tutilgan muvofiq davrdagi qurilishda bor mahsulotlarni hisobga olgan holda maydonlar va quvvatlarni harakatga solishga yordam berilishi kerak.

Qurilish ishlari-ta'mirlash, kengaytirish, kapital ta'mir etishda bajariladigan kompleks ishlar qurilish ishlarining natijasidir. qurilish ishlari narxiga er maydonlarini o'zlashtirish, qurilish maydonini tayyorlash va rejalashtirish, sanitar-tehnika ishlar, suv bilan ta'minlash. Issiqlikni etkazib berish. Kanalizasiyani, fundament solish, devor ko'tarish, binoalarni montaj qilish va konstruksiiyalash va shu kabi boshqa pudrat ishlari kiritaladi.

Kapital remont- ishlab chiqarish hizmati(ishlari) shakldagi qurilish mahsulotining bir ko'rinishidir. Uning ma'nosi bino va inshootlarning ba'zi konstruktiv elementlari va qismlarining eskirishi tufayliyangisiga o'zgartirish demak. Kapital remont asosan maxsulot(ishning)tannarxi hisobiga normativ bo'yicha qosil bo'lgan ta'mirlash fondi hisobiga amalga oshiriladi.

Tugallanmagan qurilish- bu tugallanmagan va harakatga keltirilmagan ob'ekt va qurilishlarning majmuidir. U davriy ko'rsatkich bilan o'zgarib boradi. Uning absolyut hajmi alohida sanaga arab belgilanadi(odatda yil o'hirida). Tugallanmagan qurilish ob'ektlari va qurilishlar soni bilan

belgilanib, narx jihatidan bu boshlanqich o'zlashtirilgan kapital qo'yilmalar, biroq tugallanmagan va ishga tushirilmagan ob'ektlar hisoblanadi.

Tahlil etilayotgan davr boshiga tugallanmagan qurilishlar hajmi ($Q_{n.n}$) quyidagi formulaga asosan belgilanadi:

$Q_{n.n} = (Q_1 + K + Q_2) - (Q_{f+3} + Q_3)$, bunda:

Q_1 - tahlil etilayotgan davr boshidagi tugallanmagan qurilish hajmi (hisobot ma'lumotlari bo'yicha);

K - tahlil etilayotgan davr boshida kutilayotgan kapital qo'yilmalar hajmi;

Q_2 - boshqa buyurtmachilardan qabul qilingan tugallanmagan qurilish hajmi;

Q_3 - boshqa buyurtmachilarga o'tkaziladigan tugallanmagan qurilishlar hajmi;

Q_f - tahlil etilayotgan davr boshidagi asosiy foizlarni harakatga keltirilishi kutilayotgan hajmi (aniq narx bo'yicha);

3- asosiy foizlarni oshirmaydigan sarflar.

Hududdagi qurilish mahsulotining umumiy (yalpi) bunga pudratchi tashkilotlar bajargan qurilish xizmatlarini hisobga olingan holda (yuridik shahslar) va ularning holis bo'linmalari mulkchilik shaklidan qat'iy nazar qurilish-montaj io'larining hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarning jamlanmasi sifatida belgilanadi.

Aniq bajarilgan ishlarning umumiy hajmi (Q) quyidagi formula bo'yicha belgilanadi:

$Q = Q_{n.n}$.

Bunda:

Q_{nr} - bajarilgan ishlar aktlari bo'yicha qabul qilingan qurilish mahsulotlari;

$Q_{n.n}$ - tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqi.

SHundan kelib chiqqan holda qurilish ishlari hajmining (Q_n) tahlilini quyidagi formula bo'yicha aniqlash mumkin:

$Q_n = Q_h - Q_t$ bu yerda:

Q_n - bajarilgan qurilish ishlari hajmi.

Q - narx o'zgarishini hisobga olgan holda ishlar hajmi o'sishining tahlili.

9.4. Ijtimoiy soha ob'ektlari qurilishining tahlili.

Ijtimoiy soha - bu aholining turmush darajasini va sharoitlarini, ya'ni ularning moddiy, ma'naviy va maishiy turmush darajasini belgilovchi davlat miqyosidagi tadbirkorlik, jamiyat munosabatlarining umumlashgan tarmog'i hisoblanadi. Qurilish nuqtai nazaridan haraganda, ijtimoiy sohaga ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash, kommunal xo'jaligi, turar-joy va shu kabilar kiradi. Bunday ob'ektlar qurilishi tahlili, albatta, mamlakat va hududda amalga oshirilayoigan davlatning ijtimoiy siyosati va ijtimoiy sohani isloqot qilish masalalariga mos ravishda qal etiladi.

Ijtimoiy soha uchun ob'ektlar shaharda qanday bunyod etilsa, qishloq joylarda ham quddi shunday.

Ijtimoiy soha tarmoqlarining tavsifini quyidagicha ifodalasak bo'ladi (7-jadval).

7-jadval

Ijtimoiy soha tarmoqlari va uning ob'ektlari va ishlari

Ijtimoiy soha tarmoqlari	Ijtimoiy soha uchun ob'etlar va ishlar
Turar-joy qurilishi	Turar-joy binolari, meqribonlik uylari, hariyalar uylari.
Kommunal-xo'jalik	Gaz ta'minoti, kanalizasiya, vodoprovod tarmog'i, o't o'chirish deposi, ahlat va chiqindilar korhonalari, garajlar, avtomobillar uchun to'htash joyi va b.
Fan va ma'rifat ob'ektlari qurilishi	Kollej, lisiey, gimnaziya, maktab, oliy o'quv yurtlari binolarini ta'mirlash, talabalar yotoqhonasi va oshhonalari, sport komplekslari va b.
Madaniy qurilishlar	Teatr, kinoteatarlar, muzey, kutubhonalar, test maktablari, bilim yurtlari, institutlar va boshqa madaniyat ob'etlari
Sog'liqni saqlash muassasalarining qurilishi	Kasalhonalari, poliklinikalar, qishloq joylardagi ambulatoriyalar, apteka, sanatoriy va b.

9.5. Monitoringni shakllantirish talablari ko'rsatkichlari

Monitoring mutasaddi tashkilotlar tomonidan ma'lum paramertlarda hududlardagi investisiion qurilishni amalga oshirish maqsadida amalga oshiriladi. Buning uchun qurilish ishlarining absolyut va nisbiy ko'rsatkichlaridan foydalaniladi.

Qurilish mahsuloti(ish)ning o'sish sur'atlari buyurtmachilar hamda pudratchilarning faoliyatini monitoring qilish uchun mo'ljallangan.

Qurilish-montaj ishlari hajmi solishtirma narxlarda qurilish ishlarining real sur'atlarini va qurilish mahsuloti(ish,hizmat)ning o'zaro boqlanishini baholashda foydalanib, natural va narx jtqatidan ifodalanib, hisobot yilining boshidagi qolatidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Qurilish ishlari(hizmat)ning narx ifodasida hisobga olingan holda alohida turlarini yaratish bo'yicha ma'lumotlar, ishlar va hizmatlarning muqobil turlariga narxlar indeks bo'yicha solishtirma narxlarga o'tkaziladi.

O'sish(pasayish) sur'ati tahlili joriy va asosiy davrdagi mahsulotlarning va narx hajmlari nisbatiga teng, yagona solishtirma baqoda ifodalanib, yuz foizga ko'paytiriladi.

Oylik, kvartal va yilliy ma'lumot tahlillari pudratchi tashkilotlar va boshqa ularga tenglashtirilgan korhonalarning qurilish mahsulotlari (ish, hizmat) natural qo'rinishda ifodalangan hajmi haqidagi ma'lumotlar informasiya manbai hisoblanadi.

Qisqacha xulosalar

Qurilish kompleksi o'z ichiga faqatgina qurilish industiriya tarmoqlarini va sanoat harilish materiallarini, loyiha va ilmiy tashkilotlarni o'z ichina oladi. qurilish kompleksiing potenssiiali deganda iste'molchilarning qurilish mahsulotiga bo'lgan eqtiyoj va talablarini berilgan muddat va sifatli qondirish imkoniyatlarini aniqlovchi ko'rsatkichlarning yig'indisi tushuniladi. Qurilish ishlari-ta'mirlash, kengaytirish, kapital ta'mir etishda bajariladigan kompleks ishlar qurilish ishlarining natijasidir. Kapital remont- ishlab chiqarish hizmati(ishlari) shakldagi qurilish mahsulotining bir ko'rinishidir.

Tugallanmagan qurilish- bu tugallanmagan va harakatga keltirilmagan ob'ekt va qurilishlarning majmuidir. Uning absolyut hajmi alohida sanaga harab belgilanadi(odatda yil ohirida).

Nazorat uchun savollar

1. Hududiy qurilish ishlari bajarilishining tahlili va prognoz ko'rsatkichlariga nimalar kiradi?
2. Qurilish ishlari sur'atlari bo'yicha tahlili qanday amalga oshiriladi?

3. Ijtimoiy soha ob'ektlari qurilishining tahlili amalga oshirish uchun qanday ko'rsatkichlardan foydalaniladi?

4. Qurilish tarmog'ida aniq bajarilgan ishlarning umumiy hajmi qanday aniqlanadi?

5. Qurilish tarmog'ini prognozlashda tugallanmagan qurilish ham hisobga olinadimi?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. I.A.Karimov Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari-T.: O'zbekiston, 56 b.

2. Abdullaev A.M., Irmatov M.M., Haydarov M.T., Ashurova D.S. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni prognozashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2006. - 249 b.

3. Irmatov M.M., Haydarov M.T. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning prognozashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004.

4. Li A.N. Maqalliy tuzilmalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni prognoz qilish. O'quv qo'llanma. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamharmasi nashriyoti. - T.: 2004.

X BOB. TRANSPORT VA ALOQA TARMOQLARINI PROGNOZLASHTIRISH

10.1. Transport tarmoqlarini prognozlashtirish ko'rsatkichlari

Transport majmuasini tartibga solishda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin:

tashiladigan yuklarning hajmi;
yuk aylanmasi;
yo'lovchi aylanmasi;
yuk tashishning o'rtacha masofasi;
harakatdagi transport vositalaridan foydalanishning texnik ko'rsatkichlari;

Bozor iqtisodiyoti sharoitida transport va aloqa majmualarining asosiy ko'rsatkichlarini balans usuli va ekonometrik modellar yordamida prognozlash mumkin. Transport tarmog'ini prognozlash masshtabiga ko'ra makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy ko'rsatkichlarni prognozlariga ajratiladi. Tuzilish intervali bo'yicha operativ, qisqa muddatli va uzoq muddatli bo'lishi mumkin. qisqa muddatli prognozda faqat miqdoriy o'zgarishlar e'tiborga olinadi. Uzoq muddatli bashorat ham miqdoriy, ham sifat o'zgarishlarga asoslangan bo'lib, o'z o'rnida o'rta muddatli va uzoq muddatli bo'lishi mumkin.

Prognozlash yo'nalishlariga ko'ra izlanishli va normativ bo'lishi mumkin. Izlanish prognoz agar qozirgi tendensiyalar saqlanib qolsa iqtisodiy tizim qanday rivojlanadiq, degan savolga javob beradi.

Normativ prognoz bo'lajak maqsadlarga erishish uchun tizimni rivojlanish yo'nalishlarini va muddatlarini aniqlaydi. Maqsad qilingan qolatga tizim erishish uchun, ta'sir etuvchi omillarga qanday o'zgarishlar kiritish zarurq, degan savolga javob beradi.

Transport tizimi juda katta va murakkab bo'lgani uchun uni o'rganishda tizimli tahlil usuli qo'llanadi.

Bu usulni asosiy prinsiplari quyidagicha:

1. Murakkab tizim juda ko'p elementlardan iborat. Bu elementlar bir biri bilan boqlangan bo'lib, murakkab strukturani tashkil etadi. Transport majmuasida makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bloki, moliya ko'rsatkichlar bloki, ijtimoiy majmua ko'rsatkichlar bloki, eksport import ko'rsatkichlar bloki prognozlanishi mumkin.

2. Murakkab tizim yahtitlik hususiyatiga ega. Bunday tizimlar har doim maqsadga intilgan bo'ladi. Samarali qolatga erishishga harakat qiladi.


3. Tizim kirish va chiqish yo'llari orqali tashqi muqit bilan boqlangan.

4. Har bir murakkab tizimni elementlarga bo'lish mumkin. Masalan: Transport majmuasida makroiqtisodiy ko'rstaikchlar bloki "O'zbekiston temir yo'llari", MAK "O'zbekitson qavo yo'llari"..

5. Murakkab va katta tizimlarni to'liq tasvirlash, izoqlash juda qiyin, shuning uchun ularni boshharishda, prognozlashda ma'lum bir ehtimollik nazarda tutiladi.

Transport majmuasini asosiy ko'rsatkichlarini prognozlashtirishda ekonometrik modellash bosqichlarini ko'rib chihamiz.

10.2. Transport tarmog'ida ekonometrik prognozlash bosqichlari



Birinchi bosqichda omillararo boqlanish zichligi tekshiriladi .

Korrelyasiion boqlanishda turi bo'yicha: to'qri va teskari. SHakli bo'yicha esa to'qri chiziqli va chiziqsiz. Boqlanish zichligi bo'yicha esa sust, o'rtacha, zich. Omillarni hamrab olish bo'yicha ko'plikda va juft boqlanishga ega.

Ikkinchi bosqichda korrelyasiion tahlil asosida tanlangan omillar uchun ekonometrik modellar tuziladi.

Transport majmuasini o'rganishda quyidagi funksiyalardan foydalaniladi:

Chiziqli	$y = a_0 + a_1 x$
Ikkinchi darajali parabola	$y = a_0 + a_1 x + a_2 x^2$
Uchinchi darajali parabola	$y = a_0 + a_1 x + a_2 x^2 + a_3 x^3$
p darajali parabola	$y = a_0 + a_1 x + a_2 x^2 + a_3 x^3 + a_n x^n$
Ikkinchi darajali giperbola	$y = a_0 + a_1 \cdot h$
b ikkinchi darajali giperbola	$y = a_0 + a_1 \cdot x^b$

Logarifmik	$\log y = a_0 + a_1 x$
Yarim logarifmik	$y = a_0 + a_1 \ln x$
Ko'rstakichli funksiya	$y = a_0 a_1^x$
Darajali funksiya	$y = a_0 x^{a_1}$
Logistik funksiya	$\frac{a_0}{1 + a_1 \ln x}$

Biz aniq masalalar orqali o'z bilimimizni mustahkamlaymiz:

MASALA №1

Berilgan ma'lumotlarga ko'ra xalqaro yo'nalish bo'yicha yuk tashishning 2010 yil parametrlarini prognoz qiling.

Ko'rsatkichlar	2007	2008	2009
Tashilgan yuklar, ming t.	150,0	162,4	170,8
Absolyut qo'shimcha o'sish, ming t.	—	12,4	8,4
O'sish tempi, %	—	108,3	105,2
Qo'shimcha o'sish tempi, %	—	8,3	5,2
1% qo'shimcha o'sishning absolyut ahamiyati, ming t.	—	1,49	1,62

YEChILISHI:

■ Biz birinchi navbatda tashilgan yuklarning o'rtacha yillik hajmini aniqlaymiz. BI — tashilgan yuklarning o'rtacha yillik hajmi deb belgilaymiz va quyidagi natijaga ega bo'lamiz.

$$BI = (150,0 + 162,4 + 170,8) / 3 = 161,1 \text{ ming t.}$$

■ Endi esa o'rtacha yillik absolyut o'sishni aniqlaymiz. 3 — o'rtacha yillik absolyut o'sish qilib belgilaymiz va natija quyidagiga teng bo'ladi:

$$3=(170,8-150,0)/(3-1)=10,4 \text{ ming t.}$$

■ Navbatdagi aniqlaydigan ko'rsatkichimiz o'rtacha yillik o'sish tempi. Uni biz— T deb belgilaymiz.

$$T=(\sqrt[3]{170,8/150,0})\cdot 100\%=1,067\cdot 100\%=106,7\%$$

■ Navbatdagi bosqichda ko'rsatkichimiz o'rtacha yillik qo'shimcha o'sish tempi. Uni biz— T_n deb belgilaymiz.

$$T_n=106,7-100\%=6,7\%$$

■ Oxirgi ko'rsatkich o'rtacha 1% qo'shimcha o'sishni aniqlaymiz. B—deb o'rtacha 1% qo'shimcha o'sishni belgilaymiz. Natija esa quyidagiga teng bo'ladi:

$$B=10,4/6,7=1,55 \text{ ming t.}$$

MASALA №2

Toshkent viloyati mintaqasi bo'yicha quyidagi yuklar tashilgan:

Yuk turi	Tashilgan yuk, ming t.		Yuk oboroti, ming km.	
	Oldingi yil Q_0	hisobot yil Q_1	Oldingi yil P_0	hisobot yil P_1
Toshko'mir	12,4	18,9	288,0	415,8
qurilish materiali	12,6	12,6	201,6	195,3
Boshqa yuklar	9,0	10,5	93,6	115,5
Jami	36,0	42,0	583,2	726,6

Quyidagi ko'rsatkichlarni aniqlang:

- ▶ Mintaqa bo'yicha 1 t yukni tashishdagi o'rtacha masofasini;
- ▶ Yuk oboroti o'zgarishi;
- ▶ Yuk oborotining nisbiy o'zgarishining 1 t yuk tashishning o'rtacha masofasi qisobi;
- ▶ Yuk oborotining nisbiy o'zgarishining tashilgan yuk qajmiga ko'ra o'zgarishini aniqlang va qisqa muddatli prognozni amalga oshiring.

Yechilishi:

■ Mintaqa bo'yicha 1 t yukni tashishdagi o'rtacha masofasini hisoblaymiz:

Oldingi yill l_0 , hisobot yili l_1 .1

$$l_0 = \sum P_0 / \sum Q_0 = 583,2 / 36,0 = 16,2 \text{ km}$$

$$l_1 = \sum P_1 / \sum Q_1 = 726,6 / 42,0 = 17,3 \text{ km}$$

■ Mintaqa bo'yicha Yuk oboroti o'zgarishi quyidagiga teng bo'ladi:

$$I_p = (l_1 \sum Q_1) / (l_0 \sum Q_0) = l_1 \cdot I_Q = 1,068 \cdot 1,067 = 1,246$$

■ Yuk oborotining nisbiy o'zgarishining 1 t yuk tashishning o'rtacha masofasi hisobi o'zgarishi:

$$\Delta_L = (j_1 - j_0) \sum Q_0 = (17,3 - 16,2) \cdot 42,0 = 46,2 \text{ ming km}$$

■ Yuk oborotining nisbiy o'zgarishining tashilgan yuk hajmiga ko'ra o'zgarishini aniqlaymiz:

$$\Delta_Q = j_0 (\sum Q_1 - \sum Q_0) = 16,2 (42,0 - 36,0) = 97,2 \text{ ming km}$$

10.3. Aloqa va ahborotlash tizimini prognozlash uslubiyati

Aloqa va ahborotlash tizimi ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasining ajralmas qismi bo'lib, murakkab bo'lgan tashkiliy ishlab chiqarish va iqtisodiyot aloqalari tizimining majmuasidan iborat. Bu tizimini qozirgi kunda ahborot kommunikatsiya texnologiyalari deb ataladi. Ahborot kommunikatsiya texnologiyalari deyilganda rivojlangan programma ta'minoti asosida ahborotlarni yiqish, ro'yhatdan o'tkazish, uzatish, jamlash, qayta ishlash va ahborotni himoya qilish, hisoblash texnikasi va aloqasi asosida, shuningdek ahborotlarni uzatish usullari orqali foydalanuvchiga ahborotning etib borishi tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasida aloqa va va ahborotlash tizimi o'z ichiga quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat:

- elektr aloqasi, o'z ichiga radioeshittirish va televidenie telekommunikatsiya. Elektr aloqasi yordamida tovush signallari qabul qilish va uzatish, radio, optik va boshqa elektromagnit tizimlari amalga oshiriladi.

- pochta aloqasi. Pochta aloqasining asosiy funksiyasi pochta yubormalarini qabul qilish va etkazish, shuningdek, moddiy qiymatliklarni va pul mablag'larini o'z manziliga etkazish tushuniladi.

- ahborotlar texnologiyasi dastur ta'minotini ishlab chiqish va ahborot texnologiyalari bozorida xizmat ko'rsatishni o'z ichiga oladi.

Elektroaloqa mamlakat telekommunikasiya sektorining eng quvvatli komponenti bo'lib, turli ahborotlarni uzatish uchun zarur bo'lgan texnologik tizimlarni birlashtiradi. O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha texnologik elektroaloqalar tizimi umumiy markaz boshqaruvi bilan birlashtirilib, o'zarobog'liq aloqa tarmog'ini o'z ichiga oladi. O'zarobog'liq aloqa tarmog'i mamlakat hududida yuridik va jismoniy shahslar uchun aloqa xizmatlarini ko'rsatish uchun tashkil etilgan. O'zarobog'liq aloqa tarmog'i shuningdek o'z ichiga chegaralangan foydalanuvchilar tarmog'ini ham o'z ichiga olib, ba'zi ministerliklarning alohida vazifalarini bajarishlari uchun muhim hisoblanadi. Tarkiban ular quyidagilarga birlashtiriladi:

- vedomostva tarmoq aloqasi elektroaloqa aloqa tizimi bo'lib, alohida vazirlik va boshqa davlat organlariga tegishli va mahsus vazifalarni va ishlab chiqarish ishlarini bajarish uchun foydalaniladi. Bu tarmoqlar, qoidaga ko'ra umumiy foydalanish tarmog'iga chiqishi mumkin;

- ishlab chiqarish ichidagi va texnologik tarmoq aloqasi davlat tashkilotlari, organlari, korhonalarning ishlab chiqarish faoliyati va texnologik jarayonlarni boshqarish uchun mo'ljallangan elektroaloqa tarmog'idir. Bu guruq tarmoqlar umumiy foydalanishga chiqmaydi;

- ajratilgan tarmoqlar yuridik va jismoniy shahslarning elektroaloqa tizimi.

Aloqa turiga ko'ra(pochta, telegraf, telefon, ovozeshtiri, televidenie) ahborotlarni uzatish xarakteri, uni uzatish usuli va uslublari, ishlab chiqarish texnika va texnologiyasi, kadrlarning professional tarkibiga ko'ra aloqa tarmog'i ikki asosiy faoliyatga bo'linadi: pochta va elektr, qaysiki, o'z ichiga teleradiokompleksni, birlashgan radioaloqa, radioeshittirish, televideniya va kosmik aloqani oladi.

Aloqa va ahborotlash sohasini samarali ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishi davlat boshqaruvi va uni tartibga solish uchun o'z vaqtida to'liq, aniq va rasmiy statistik ahborotlarni olish va tahlil qilish uchun muhim hisoblanadi. Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab ushbu sohada muayyan natijalarga erishildi. qozirgi kunda barcha shahar telefon nomerlari 2 mln., bo'lib, ulardan 66,3%i rahamli hisoblanadi. Mobil aloqa tarmog'i ham qozirgi kunda O'zbekistonda rivojlanib, 5 ta mobil operatori o'z faoliyatini olib bormoqda. Mobil aloqa abonentlari soni har 100 aholiga 6 kishini tashkil etmoqda.

Qisqacha xulosalar

Bozor iqtisodiyoti sharoitida transport va aloqa majmualarining asosiy ko'rsatkichlarni balans usuli va ekonometrik modellar yordamida prognozlash mumkin. Transport tarmog'ini prognozlash masshtabiga ko'ra makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy ko'rsatkichlarni prognozlariga ajratiladi. Transport tarmog'ining qisqa muddatli prognozi faqat miqdoriy o'zgarishlar e'tiborga olinadi. Uzoq muddatli bashorat ham miqdoriy, ham sifat o'zgarishlarga asoslangan bo'lib, o'z o'rnida o'rta muddatli va uzoq muddatli bo'lishi mumkin.

Aloqa va ahborotlash tizimi qozirgi kunda ahborot kommunikatsiya texnologiyalari deb ataladi. Ahborot kommunikatsiya texnologiyalari deyilganda rivojlangan programma ta'minoti asosida ahborotlarni yiqish, ro'yhatdan o'tkazish, uzatish, jamlash, qayta ishlash va ahborotni himoya qilish, hisoblash texnikasi va aloqasi asosida, shuningdek ahborotlarni uzatish usullari orqali foydalanuvchiga ahborotning etib borishi tushuniladi.

Nazorat uchun savollar

1. Transport va aloqa majmualarining asosiy ko'rsatkichlarini qanday prognozlash mumkin?
2. Transport majmuasini tartibga solishda qaysi ko'rsatkichlardan foydalaniladi?
3. Transport tizimi o'rganishda tizimli tahlil usuli qanday prinsiplarga asoslanadi?
4. Transport majmuasining asosiy ko'rsatkichlarini prognozashtirishda ekonometrik modellashtirish qaysi bosqichlardan iborat?
5. Aloqa va ahborotlash tizimining prognozashtirishdan maqsad nima?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. I.A.Karimov Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari-T.: O'zbekiston, 56 b.
2. Abdullaev A.M., Irmatov M.M., Haydarov M.T., Ashurova D.S. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni prognozashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2006. - 249 b.
3. Irmatov M.M., Haydarov M.T. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning prognozashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004.

XI BOB. HIZMAT KO'RSATISH SOHASINING RIVOJLANISH SUR'ATLARINI PROGNOZLASH

11.1. Hizmat ko'rsatish sohasining tarkibi.

Jamiyat ishlab chiqarishining faoliyat yuritish jarayonida iqtisodiyotni boshharishning etakchi bo'qini - ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish (IIR) dasturidir. Hizmat ko'rsatish sohasini va iqtisodiyotning samaradorligi va rivojlanishi ko'p jihatdan aynan shu dasturning qanchalik asoslanganligiga bogliq. Uning dastlabki muhim asosini ko'rsatilayotgan hizmatlarni iqtisodiy prognozlari tashkil qiladi. Ular hizmat ko'rsatishning rivojlanish tendensiyasini va kelajakdagi istiqbolini tavsiflaydi. Hizmat ko'rsatishni iqtisodiy prognozlash ob'ektning o'tmishdagi, qozir va kelajakdagi qolati, rivojlanishning muqobil yo'llari yoki boshqaruv harorlarining oqibatlarini haqida kerakli ahborot beradi va shu orqali iqtisodiyot tarmoqlarini boshharish darajasining oshishiga imkon yaratadi.

Hizmat ko'rsatishni iqtisodiy prognozlash ishlab chiqarish muammolari ko'lamida - tarmoq va tarmoqlararo ko'rib chiqiladi. Ular bir-biridan ham tadqiqot ob'ekti, ham ishlab chiqarishni boshharish maqsadi bo'yicha farq qiladi. Hizmat ko'rsatish ko'lamida unga kiradigan soha birlashmalari va korxonalarining majmuasi sifatida ko'rib chiqiladi. Bu erda prognozning vazifasi hizmat ko'rsatish (unga kiruvchi kichik tizimlar sifatida) faoliyatining turli yo'nalishlari bo'yicha rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va olingan natijalarni sohaning keyingi rivojlanish dasturini ishlab chiqish, undan foydalanish va tizimni hamda uni boshharish tuzilmasini mukammallashtirish bo'ladi.

Hizmat ko'rsatish (halharo) ko'lamda soha sifatida bir butunlikda ko'rib chiqiladi. Bu ko'lamda prognozashtirishda asosiy e'tibor soha prognozlarning o'zaro muvaffaqiyatiga, iqtisodiyot rivojlanishining balanslashtirilgan prognozini ishlab chiqishga karatiladi. SHunday qilib, hizmat ko'rsatish ko'lamda prognozashtirish asosan iqtisodiyotni prognozashtirish vositasi sifatida chiqadi.

Hizmat ko'rsatishni iqtisodiy prognozashtirish ob'ektlari quyidagilar:

- sohada ilmiy-tehnika taraqqiyoti;
- halq xo'jaligining soha mahsulotlariga talablari;
- sohaning ishlab chiqarish resurslariga talabi;
- sohaning ishlab chiqarish imkoniyati, uning shakllanishi va ishlatilishi;

-sohada xo'jalik jarayonlarini tashkil qilish va boshharishni takomillashtirish;

-sohaning halharo aloqalari va ularning rivojlanishi.

Hizmat ko'rsatishni iqtisodiy prognozlashning boshlanqich asosi ilmiy-tehnika taraqqiyot, boshka barcha sohalar va faoliyati turlari rivojlanishining ham sur'atlari, ham yo'nalishlarini ma'lum darajada aniqlab beradi. Prognozlar ilmiy-tehnika tarakkiyotning mahsus yo'nalishlari bo'yicha ishlab chiqiladi: ishlab chiqarishning majmuaviy mehanizasiyalashishi va avtomatizasiyalashishi, elektrlashishi, himiyalashishi.

Hizmat ko'rsatish taraqqiyotini prognozlashda muhim rol, shuningdek, uning funksional yo'nalishlariga, shu jumladan, ilmiy-tehnika yangiliklarni (tehnika va texnologiyalarni, yangi maxsulot va materiallarni, ishlab chiqarishni tashkil qilishni va qokazo) ilmiy-tadqiqot ishlarni (fundamental, amaliy, tajriba-konstruktorlik ishlarni) va boshqalarni prognozlashga tegishli.

Hizmat ko'rsatishni prognozlashning ayniqsa murakkab va mas'uliyatli qismi soha mahsulotiga talabni aniqlash hisoblanadi. Bu sohada prognozlash asosini halq xo'jaligining aniq hizmat turiga bo'lgan talabining ko'rinishi tashkil qiladi. Buning uchun bu sohada ham iqtisodiyotning, ham hizmat ko'rsatishning rivojlanish qonuniyatlari va tendensiyalarini har tomonlama tahlil qilish kerak. SHuningdek, bu erda soha mahsulotiga bo'lgan jamiyat talabining qondirilish darajasi va ishlab chiqarish samaradorligining darajasi belgilanishi lozim. qondirilish darajasi asosan hizmat ko'rsatish haqiqiy iste'molining oqilona me'yoriga nisbati sifatida aniqlanadi. Samaradorlik darajasini baholash uchun soha va hizmat ko'rsatishning eng muhim omillaridan foydalanishni tavsiflaydigan ko'rsatkichlar tizimi qo'llaniladi.

Bular Mehnat unumdorligi siqimi, kapital ko'yilmalar qaytimi ko'rsatkichi va boshqalar.

Keyingi muhim qism hizmat ko'rsatish resurslarining prognozi hisoblanadi. U Mehnat va material resurslarga, asosiy fondlarga va ishlab chiqarish kapital qo'yilmalariga talabni aniqlashni hamrab oladi. Bu prognozlarning qaqqoniylik darajasiga sohada ishlab chiqarishning rivojlanish sur'atlari va masshtablariga bog'liq.

Hizmat ko'rsatishga iqtisodiyot talabining ko'rinishi uning maxsulot ishlab chiqarish imkonitlariga mos kelishi kerak. Buning uchun sohaning ishlab chiqarish imkoniyati va undan foydalanish darajasini bilish zarur. Bu ko'rsatkich prognozlash sohaning ishlab chiqarish quvvatini va undan

ma'lum davrda foydalanishning mumkin bo'lgan darajasini aniqlashga asoslanadi.

11.2. Hizmat ko'rsatishni iqtisodiy prognozlashning asosiy yo'nalishlari.

Hizmat ko'rsatishni iqtisodiy prognozlash quyidagi darajalarga bo'linishi mumkin:

- a) alohida soha rivojlanishini prognozlash;
- b) bir qancha o'zaro bog'liq sohalarni bir vaqtda prognozlash;
- v) barcha hizmat ko'rsatish yo'nalishlarini iqtisodiyotning keng sohasi doirasida bir vaqtda prognozlash.

Prognozlashning umumiy masalasi o'rganilayotgan qodisa yoki jarayonlar (sohalar) rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini va uning amalga oshish muddatlarini aniqlash hisoblanadi. Ilmiy iqtisodiy izlanish sifatida hizmat ko'rsatishni prognozlash asosan amaliy harakterga ega va hizmat ko'rsatish hamda unga kiruvchi ishlab chiqarish birliklari rivojlanishi istiqbolining mikdor va sifat baholarini olishga yo'naltirilgan. Bu baqolardan hizmat ko'rsatishning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda foydalaniladi.

11.3. Aholiga ko'rsatilayotgan maishiy hizmatlarni hisoblash va prognozlash usullari

Ishlab chiqarishga bog'liq bo'lmagan eng muhim sohalardan biri aholiga maishiy hizmat ko'rsatishdir.

Aholiga hizmat ko'rsatish sifatini yahshilash, hizmat turlari va hajmlarining orttirish, buyurtmalarning muddatlarini qishartirish bo'yicha zaruriy tadbirlarni ishlab chiqishda aholi talab etayotgan u eki bu prognozlar muhim rol o'ynaydi.

Maishiy hizmatlar uchun prognozlarni ishlab chiqish uslubiyotida aholi talabini aniqlovchi omillar doirasini aniqlash murakkab masaladir.

Talabga ta'sir etuvchi omillar aniq hizmat ko'rsatish guruqlariga harab qator sabablarga bog'liq. Bu erda, oilaning maishiy hizmatlar, poyabzallar va kiyim-kechaklar, shuningdek, ular tayyorlangan materiallar va boshqalar bilan ta'minlanganligi bo'lishi mumkin.

Maishiy hizmat ko'rsatishni prognozashtirishda turli usullarining qo'llanilishi ma'lum. Eng ko'p tarqalganlari me'yoriy, ekstreyasiion, iqtisodiy matematik modellash usullardir.

Me'yoriy usul asosida ilmiy asoslangan me'yorlar tizimi yotadi va u aniq bir xizmat turlariga kelajakda bo'ladigan talabalarni aniqlashga imkon beradi.

Yanada keng tarkalgan maishiy xizmatga bo'lgan talabni prognozlaydigan usul korrelyasiion-regression tahlil usuli bo'lib, u o'ta ahamiyati qiymat omillariga ega bo'lgan talablarni shakllantiradi.

Bir omilli modellar nisbatan sodda modellar hisoblanadi. Masalan, kimyoviy tozalash xizmatiga bo'lgan talabning daromad turi darajasiga boqlanishi:

$$Y = a_0 + a_1 x_1$$

Bu erda: Y - aholi jon boshiga yillik kimyoviy tozalash hajmi;

$a_0 + a_1$ - tenglama parametrlari;

x_1 - aholi jon boshiga yillik daromad, ming so'mda.

Jon boshiga yillik daromadni va model parametri prognozini bilish orqali prognozlash davridagi izlanayotgan xizmat ko'rsatish hajmini aniqlash mumkin.

Ko'p omilli modellar yanada murakkabroqdir. Ikki omilli modelni misol keltiramiz.

Faraz qilaylik, kimyoviy tozalash xizmatiga bo'lgan talab hajmining o'sishini x_1 ko'rsatkich orqali, jon boshiga kiyim-kechak, trikotaj mahsulotlarining tovar ayriboshlashini (so'mlarda) va aholining umumiy soniga nisbatan ma'lum yoshdagi yashovchilar nisbiy vaznining x_2 o'sish prognozini aniqlash lozim bo'lsin.

Avvalo x_1 va x_2 lardagi bog'liqlikni aniqlash, mezonlar aosida tanlashning qaqqoniyligini baholash, ko'rib chiqilayotgan kattaliklarning o'zaro bog'liqligi darajasini aniqlagan holda prognozini olish lozim.

Chiziqli boqlanishlar koeffisiientlari qiymatlarini e'tiborda tutib tenglamani eng kichik kvadratlar usulida aniqlaymiz.

Natijada model quyidagi ko'rinishga keladi. $Y = 6,18 - 0,23x_1 + 0,64x_2$

So'ngra chiziqli boqlanishlar va modelning adekvatligi mavjudligini ma'lum mezonlar orqali aniqlaymiz. Tahlil chiziqli bo'lmagan boqlanish mavjudligini ko'rsatadi.

Faraz qilamiz boqlanish bosqichli harakterga ega:

$$Y = e^{a_0} x^{a_1} x^{a_2}$$

Olingan modelni yanada qulay ko'rinishga o'zgartirib,

$$Y = -1,045 + 2,073x_1 + 2,671x_2$$

tengligini olamiz.

Hizmatlar sohasini prognozlashning namunaviy uslubiyoti

Turizm hizmatlari bozorining rivojlanishini bashoratlash uchun Microsoft Excel paketidan foydalanish mumkin. Turizm hizmatlari bozorini prognozlash 2 usulda amalga oshirilishi mumkin.

1-usul. Ko'rsatkichning kelajakdagi rivojlanishini baholash.

Prognozlash uchun 1996 yildan boshlab O'zbekistondagi turizm hizmatlarining asosiy qismi taklif etilayotgan Toshkent, Samarqand, Buhoro va Horazm viloyatlarida erishilayotgan ko'rsatkichlar inobatga olindi. Uzbekiston turizm bozorida qancha turistga hizmat ko'rsatilgani, ulardan qanchasi chet eldan kelgani, qancha fuqarolarimiz chet ellarga va mamlakatimiz bo'yicha sayoqatlarga jo'natilgani ko'rsatkichlari bilan birgalikda ko'shib tahlil etilad. Erishilgan daromadga ta'sir etuvchi eng muhim ko'rsatkichlarni aniqlash zarurati tugiladi.

Bundan oldin bu ko'rsatkichlarning bir-biriga qiladigan ta'sirlari darajasini aniqlab olish lozim bo'ldi. Buning uchun korrelyasiion tahlil zarur bo'ladi. Korrelyasiion tahlil o'rganilayotgan ko'rsatkichlarning bir-birini takrorlashini yoki bir-biriga qiladigan ta'sir kuchlarini ko'rsatib beradi.

Ko'rsatkichlar orasida o'zaro ta'sir kuchli bo'lib chikdi. Korrelyasiiya koeffisienti qancha "1" rahamiga yaqin bo'lsa, shu koeffisientga bog'liq ikkala ko'rsatkich orasidagi aloqadorlik shunchalik kuchli bo'ladi. Jadvaldan ma'lum bo'ladiki, sohada erishiladigan natijalarga olingan daromad va hizmat ko'rsatilgan kishilar soni bilan baqo berish mumkin bo'ladi: so'mda olingan daromadlarga qilingan harajatlar eng kuchli ta'sir etar ekan (0,988). SHuningdek, turistik korhonalarimizning so'mdagi daromadlarning oshishiga maqalliy fuqarolarimizni Uzbekiston bo'yicha sayoqatga jo'natish (0,707) va ularni kabul kilib hizmat ko'rsatish (0,648) ham ko'prok ta'sir etar ekan. SHuningdek, maqalliy fuqarolarimizni chet ellarga jo'natish so'mda olinadigan daromadlarning kamayishiga (-0,728) olib kelar ekan (chunki fuqarolarimiz o'z mablag'larini chet ellarda sarflaydilar, natijada hizmat ko'rsatilgan kishilar soni ortganiga haramay, turistik korhonalarimiz tomonidan so'mda olingan daromadlar ortmaydi). Maqalliy fuqarolarimiz qancha ko'p chet ellarga jo'natilsa, Uzbekiston ichida hizmat ko'rsatilgan maqalliy fuharolar soni shuncha kamayar ekan (-0,799 va -0,612) (bunga turistik talabga ega bo'lgan fuharolarning soni chegaralangani sabab bo'lishi mumkin). Hullas, sohada so'mda olinadigan daromadlarni oshirish uchun maqalliy fuqarolarimizga hizmat ko'rsatishga ko'proq urg'u berishimiz lozim ekan; bunday sayoqatlarni tashkil etishga ketadigan harajatlarning oshishidan havotirlanmasa ham bo'ladi. Fuqarolarimizga O'zbekiston ichida hizmat ko'rsatishning oshishi o'z

navbatida umumiy harajatlarning oshishiga olib kelishini "0,758" va "0,638" koeffisientlari ko'rsatib turibdi.

Shuningdek, O'zbekiston fuqarolarini qabul qilish jami qabul qilingan kishilar sonini orttiradi (0,759). Jami qabul qilish ko'rsatkichiga horijdan qabul qilingan kishilar soni ham ta'sir ko'rsatadi (0,868). Natijada, jami hizmat ko'rsatilgan kishilar soni ham ortadi (0,604 0,794 va 0,867). Demak, hizmat ko'rsatilgan kishilar sonini oshirish uchun asosan qabul qilish (ham O'zbekiston fuqarolarini, ham horijiy mehmonlarni) hizmatini rivojlantirish lozim bo'lar ekan.

Hizmat ko'rsatilgan insonlar sonining ortishi o'z navbatida olingan daromadlarni ortishiga olib kelishi aniq. Hizmat ko'rsatilgan kishilarga uzoqroq muddatlarda hizmat ko'rsatish olingan daromadlarni yanada orttirishi mumkin. Hizmat ko'rsatish muddatlarining uzoq bo'lishi uchun ko'proq fuqarolarimizni chet ellarga jo'natish (0,612) va ko'proq horijiy meqmonlarni qabul qilishga intilish lozim bo'lar ekan (0,549). Ya'ni, O'zbek fuqarolari O'zbekiston ichida emas, chet ellarda ko'proq muddatda saeqat qilar ekan, shuningdek, O'zbekiston ichida ko'proq muddatda sayoqat qiluvchilarni horijiy meqmonlar tashkil etar ekan. SHuningdek, fuqarolarimizni Uzbekiston ichida sayoqat qilishga jo'natish o'rtacha hizmat ko'rsatish muddati ko'rsatkichini (muddatining qisqaligi tufayli) kamaytiradi (-0,508).

Hullas, O'zbekiston turizm hizmatlari bozorida ko'proq misidordagi turistlarga hizmat ko'rsatish uchun asosiy e'tiborni O'zbekiston fuqarolariga e'tibor berish kerak bo'ladi. Mabodo, turistlarga hizmat ko'rsatish muddatini oshirish maqsadi qo'yiladigan bo'lsa, halharo turizmga (halharo turizm miqdori - O'zbekistonga kelib ketgan horijiy meqmonlar soni va chet ellarga chiqib kelgan O'zbekiston fuqarolari sonining yig'indisidan iborat) e'tibor berish kerak bo'ladi.

Turizm hizmatlari bozorida so'mda olingan daromadlarga O'zbekiston fuqarolariga mamlakatimiz ichida hizmat ko'rsatish ko'rsatkichlarining ta'sir darajasini aniqlash uchun 1996 - 2002 yillardagi ko'rsatkichlardan foydalanildi.

Natijada quyidagi formula kelib chiqdi:

$$Y = -6089574150 + 43803,16 * X_1 + 44376,08 * X_2 \quad (1)$$

(1) - O'zbekiston madaniy turizm bozorida so'mda olingan daromadlarning regressiya formulasi.

Bu erda,

Y - O'zbekiston madaniy turizm bozorida so'mda olingan daromadlar, so'm;

X_1 - turistik korxonalarimiz tomonidan fuqarolarimizni O'zbekiston bo'yicha sayoqatlarga jo'natilishi miqdori, kishi;

X_2 - turistik korxonalarimiz tomonidan qabul kilingan O'zbekiston fuqarolarining soni, kishi.

Ya'ni, mamlakatimiz bo'yicha sayoqat qilishga jo'natilgan fuqarolarimiz sonining 1 kishiga ortishi olinadigan daromadni 43803 so'mga orttiradi. Turistik korxonalarimiz tomonidan O'zbekiston fuqarolarini qabul qilish ko'rsatkichlari 1 kishiga ortadigan bo'lsa, olinadigan daromad 44376 so'mga ortadi.

Tahlil ko'rsatishicha, mamlakatimiz bo'yicha sayoqat qilishga jo'natilgan fuqarolarimiz sonining 1 kishiga ortishi olinadigan daromadni ko'rsatkichi bashoratdagidan 21119 so'mgacha farq qilishi mumkin. SHuningdek, turistik korxonalarimiz tomonidan O'zbekiston fuqarolarini qabul qilish ko'rsatkichlari 1 kishiga ortadigan daromad bashoratdagidan 24984 so'mga farq qilishi mumkin. Lekin, bunday hatolarning yuz berish ehtimoli ikkala holda ham 0,1 atrofidadir (bunday ehtimol 0,5dan kam bo'lishi etarlidir).

"SS" - kvadrat koldiqlarining yig'indisi ancha kichik.

"MS" - o'rtacha kvadrat hato ham kichik, bu ko'rsatkichlar qancha kichik bo'lsa, shuncha yahshi.

"R kvadrat" - ko'rsatkichi "1" soniga qancha yaqin bo'lsa, shuncha yahshi.

"F" - ko'rsatkichi butun modelning ishonchlilik darajasini ko'rsatmoqda. Erkinlik darajasi "5" ga teng topilganda 5%li hatolik ehtimolida "q" ko'rsatkichi "5,19" dan yuqori bo'lishi kerak.

"t" - ko'rsatkichi alohida olingan ko'rsatkichga bo'lgan ishonch darajasini anglatadi. Erkinlik darajasi "5" ga teng deb topilgan holda "t" ko'rsatkichi 5%li hatolik darajasida "2,015" dan yuqori bo'lishi kerak.

Yuqoridagi 4-jadvaldan kelib chiqadiki, turistik korxonalarimiz tomonidan fuqarolarimizni O'zbekiston bo'yicha sayoqatlarga jo'natilishi ko'rsatkichiga ishonishimiz kerak bo'ladi. Ya'ni, kelajakda ko'proq daromad olish uchun fuqarolarimizni O'zbekiston bo'yicha sayoqat qilishga ko'proq intshishimiz kerak bo'lar ekan.

Hullas, O'zbekiston turizm hizmatlari bozorida so'mda olingan daromadning fuqarolarimizni mamlakatimiz bo'yicha sayoqatlarga jo'natish bilan bog'liq regressiya formulasi quyidagi ko'rinishni oladi:

$$Y=238312126,4 + 54290,22 * X \quad (2)$$

(2) - O'zbekiston turizm hizmatlari bozorida so'mda olingan daromadning fuqarolarimizni mamlakatimiz bo'yicha sayoqatlarga jo'natish bilan boqlik regressiya formulasi.

Bu erda,

Y - O'zbekiston turizm hizmatlari bozorida olingan daromad, so'mda;

X - O'zbekiston bo'yicha sayoqatlarga jo'natilgan fuqarolarimiz soni, kishi.

Ya'ni, O'zbekiston bo'picha sayoqatlarga jo'natilgan fuqarolarimiz sonining 1 kishiga ortishi olingan daromadlarni 54290,22 so'mga ko'paytiradi (haqiqatdagi ko'rsatkich bashoratdagidan 24265,41 so'mgacha farq qilishi mumkin).

Fuqarolarimizning O'zbekiston bo'yicha sayoqatlarga jo'natilish ko'rsatkichlarini trendli bashoratlashga intiladigan bo'lsak, quyidagilar ega bo'lamiz:

Bundan xulosa chiharsa bo'ladiki, O'zbekiston turizm hizmatlari bozorida fuqarolarimizni mamlakatimiz bo'yicha sayoqatga chiqishlari yiliga 14458 kishidan ortib boradigan bo'lsa, aynan shu tufayli olinadigan daromad yiliga 748 million 928 ming so'mga ortib boradi,

Bu quyidagi formula asosida aniqlandi:

$$A*B=C \quad (3)$$

(3) - Uzbekiston turizm hizmatlari bozorida mamlakatimiz bo'yicha sayoqatga jo'natilgan fuqarolarimiz sonidagi o'zgarishning sohada olinadigan yalpi daromadga kiladigan ta'siri formulasi.

Bu erda,

A - O'zbekiston turizm hizmatlari bozorida mamlakatimiz bo'yicha sayoqatga jo'natilgan fuqarolarimiz sonidagi o'zgarish, kishi,

B - fuqarolarimizni O'zbekiston bo'yicha sayoqatga jo'natishning bir kishiga ortishi olib keladigan (ko'shimcha) daromad miqdori, so'm,

C - Uzbekiston turizm bozorida mamlakatimiz bo'yicha sayoqatga jo'natilgan fuqarolarimiz sonidagi o'zgarish olib keladigan (ko'shimcha) daromad miqdori, so'm.

Demak, (3) - formula asosida quyidagicha hisob-kitob amalga oshirildi:

$$14458 * 54290,22 = 748928000,76 \text{ (so'm)}$$

Demak, quyidagicha istiqbol aniqlandi: O'zbekiston turizm hizmatlari bozorida mamlakatimiz bo'yicha sayohatga jo'natilgan fuqarolarimiz sonidagi o'zgarish olib keladigan (ko'shimcha) daromad miqdori bir yilda deyarli 749 million so'mni tashkil etadi. Demak, O'zbekiston turizm hizmatlari bozorini rivojlantirish uchun maqalliy fuqarolarimizni jonajoi

O'zbekistonimiz bo'yicha turistik sayoqatlarga ko'proq jo'natishga intilishimiz lozim bo'ladi.

2-usul. Ko'rsatkichdan kutilayotgan maksimal darajani aniqlash

1. Ma'lum turdagi servis bo'yicha qancha xizmat ko'rsatish imkoniyati

mavjudligi aniqlanadi. Masalan, O'zbekiston meqmonhonalari bo'yicha

14000 honaga hammasi bo'lib 28000 kishi joylashtirish mumkin. Demak,

bir yil mobaynida Uzbekiston meqmonhonalari hammasi bo'lib 10 mln

220 ming kishini joylashtirish mumkin ($28000 \cdot 365 = 10220000$).

2. O'zbekiston bo'yicha meqmonhonada joylashish uchun to'lanadigan qaq ikkiming so'mdan tortib bir necha yuz dollargacha boradi. Narxlarni o'rtacha 10

ming so'm deb oladigan bo'lsak (chunki narxi arzon honalarning soni narxi qimmat honalarga haraganda ko'proq), Uzbekiston bo'yicha

meqmonhonalarga joylashtirishning o'zidan

$10000 \cdot 10220000 = 102200000000$ (so'm). Demak,

O'zbekiston bo'yicha

meqmonhona xizmatlarini ko'rsatish orqali eng ko'pi bilan 102,2 mlrd. so'm daromad olinishi mumkin. Bu sohaga yuklanadigan vazifa eng ko'pi bilan 102,2 mlrd. so'm qilib belgilanishi kerak.

3. Uzbekiston meqmonhonalari yil davomida mart oyining ohiri - may oyining ohirlari, avgust oyining ikkinchi yarmi - noyabr oyining boshlarigacha ko'plab horijiy turistlar keladi. Demak, horijiy turistlarga xizmat ko'rsatish eng ko'pi bilan 130 kunda 3 mln 640 ming kishini tashkil etishi mumkin ($130 \cdot 28000 = 3640000$). O'zbekiston aholisi yozning uch oyida o'zbekiston bo'yicha sayoqatga chiqadigan bo'lsa, meqmonhonalarda eng ko'pi bilan 2 mln 520 ming tasi to'htashi mumkin ($90 \cdot 28000 = 2520000$). Demak, eng qulay sharoitlar yuz berganda Uzbekiston meqmonhonalari 3 mln 640 ming horijiy fuharo hamda 2 mln 520 ming maqalliy aholini jalb etish mumkin (qishki turizmni inobatga olmagan holda). Bu hammasi bo'lib 6 mln 160 ming kishini qabul qilib, bundan 61,6 mlrd so'm daromad olish mumkinligini ko'rsatadi.

O'zbekiston bo'yicha meqmonhonalarda 61,6 mlrd so'm daromad olish uchun real imkoniyat mavjudligi aniqlanishi lozim.

Shu 6 mln 160 ming kishini meqmonhonalarga jalb etishning real imkoniyatlari aniqlanishi kerak. Bunda haqiqatda Uzbekiston meqmonhonalari yiliga 500 ming kishi qabul qilinayotganligini inobatga oladigan bo'lsak, bu aniqlangan saloqiyatning 10 foizidan ham kam darajada foydalanilayotgani aniqlanadi. Hizmat ko'rsatish hajmini 10 barobarga oshirish uchun qancha moddiy-moliyaviy resurslar zarur bo'lishi kerakligi aniqlanadi.

Agar erishilishi istalayotgan ko'rsatkichlar aniqlanganidan ortiqcha bo'lishi kerak bo'lsa, shu ko'rsatkichlarga erishish uchun qancha o'rinlar qurilishi kerakligi aniqlab topiladi.

11.4. Hizmat ko'rsatish sohasini prognozlashda ahborot bazasiga qo'yiladigan talablar.

Ahborot bazasining vazifasi hizmat ko'rsatish sohasi ob'ektlari asosida hududning ahborot tasvirini qurishdan iboratdir. Bunda ahborot bazasi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

kompyuterga kiritilishi lozim bo'lgan barcha ma'lumotlar rasmiylashtirilgan va yagona usulda tasvirlangan bo'lishi hamda

programmalarda to'g'ri talqin etilishi kerak, ya'ni ma'lumotlarni

kompyuter to'g'ri tushunishini ta'minlash kerak;

ma'lumot massivlarini tashkil qilishda kompyuterning texnik imkoniyatlarini hisobga olgan holda samarali ishlashini ta'minlash lozim;

ishlab chiqarish qolati bilan uning ma'lumot massivlaridagi tasvirlari albatta mos bo'lishi kerak.

Demak, ahborot bazasining birinchi doira masalalari ma'lumotlarni kompyuterdan tashhari tayyorlash va ular bilan ishlashga bog'liq bo'lib, ular ahborot bazasining tashqi qismini, ya'ni tashqi ahborot bazani tashkil qiladi. Boshqa masalalar esa ma'lumotlarni kompyuterda ishlash bilan bog'liq bo'lib, ahborot bazasining ichki qismini tashkil etadi.

Tashqi ahborot bazasi quyidagi vazifalarni qal etadi: ob'ekt yoki xodisalarni identifikasiyalash; ob'ekt yoki xodisalarni xarakterlash, tasvirlash; ma'lumotlarni rasmiylashtirish; ma'lumotlarni tegishli qujjatlardi ifodalash.

Identifikasiya hizmat ko'rsatish sohasi ob'ektlarining har birini yagonalik asosida nomlashni o'zida tasvirlab, bir ob'ektni ikkinchisidan

ajratish imkoniyatini berishi kerak. Ob'ektlarning qabul qilingan nomlanish shakllari standartlashmagan va ularni ishlash uchun murakkab programma apparati lozim bo'ladi. Shuning uchun ob'ektlarni nomlashda shaklli belgilar ishlatiladi. Bu belgilar ishlab chiqarish qujjatlarini tegishli sistemaga kiritish bilan bajariladi. Ob'ektlarni tashkilot yoki korxonada qabul qilingan nomenklatura luqatlari va klassifikatorlari yordamida identifikasiyalash ham mumkin. Identifikasiyalashning eng sodda va to'qri shakli qayd qilish nomerlarini ishlatish hisoblanadi.

Ob'ektlarni xarakterlash yoki tasvirlash ob'ekt yoki xodisalar harakterlarini ko'rsatuvchi miqdoriy yoki sifat belgilarini aniqlashdan iborat. Bunda tanlangan o'lchov birliklarida bu hususiyatlar to'plami va o'zgaruvchilarning aniqlanish sohalari topiladi. Bu masalalarning barchasi ma'lumotlarni kompyuterda qayta ishlash va boshharish nuqtai nazaridan hal qilinadi. Bu jarayon ma'lumotlarni shakllantirish deb ataladi.

Ma'lumotlarni shakllantirish asosan kompyuterda ishlash talablari asosida aniqlanadi. Ma'lumotlarning joiz bqlgan tasvirlarini aniqlash shakllantirishning bir elementi hisoblanadi. Sonli ma'lumotlar oddiy shaklda tasvirlanadi. Matnli qiymatlar uchun joiz so'zlar to'plami va kodlashtirish usuli aniqlanadi hamda tegishli luqatlar tuziladi. Barcha ma'lumotlarni yozish uchun qujjatlarning joiz shakllari aniqlanadi.

Ma'lumotlarni tasvirlash yuqoridagi usul bo'yicha qujjatlarni to'ldirishdan iborat bo'ladi. Agar ma'lumotlarni tasvirlash va shakllantirish, harakterlarini aniqlash, identifikasiyalash jarayonida dasturlash tillari ishlatilgan bo'lsa, u holda bu jarayon ahborot bazasining bir bosqichini ifodalashi mumkin.

Ichki ahborot bazasining vazifalari quyidagilardan iboratdir:

- ma'lumotlarning tashqi tasvirini kompyuterda kayta tashkil etish;
- ma'lumotlarni kompyuter massivlarida tashkil qilish;
- ma'lumotlarni kompyuter massivlari orasida taqsimlash;
- kerakli ma'lumotlarni topish va chiqarish;
- ma'lumotlarni ularning tasvirini bosib chiqarish uchun o'zgartirish va boshqalar.

Ma'lumotlarning tashqi tasvirini kopyuter tasviriga o'zgartirish ma'lumotlarni tasvirlash shakllari yordamida bajariladi.

Ma'lumotlarni kompyuter massivlari va ular orasida taqsimlash ihtiyoriy hajmdagi ahborotni chamalab aniklash va ularni to'qri talqin qilishdan iboratdir. Buning uchun u qanday ahborot birligi va qiymatga ega bo'lishini aniqlash lozim.

Kompyuter massivlarini tashkil qilish, ahborotni ichki va tashqi hotiralar orasida almashtirish, ahborot elementlariga murojaat qilish va o'zgartirish samarali bo'lishi lozim.

Ahborot bazasida masalalarni echish - ishning shakli va namunaviy usullarini ishlab chikish hisoblanadi. SHu munosabat bilan tegishli mutahassislar foydalanishlari uchun uslubiy ko'llanmalar tuzib chiqiladi hamda ma'lumotlarni kompyuterda qayta ishlash uchun algoritm va programma apparatlariga ham qo'llanmalar tuziladi. Ahborot bazasini ishlab chiqishda quyidagi tamoyillarga rioya etiladi:

ob'ektlar va xodisalarni yagona identifikasiyalash uslubiyotini ishlab chiqish, bunga nomerlarni qayd qilish usuli asos bo'lishi mumkin;

ob'ektlar to'plamini aniqlash, ularni tartiblashtirish, ahborotning tarkibini aniqlash va uning echilayotgan masalalar bilan aloqalarini aniqlash;

mutahassislar va tizim orasida ma'lumotlarni almashtirishning namunaviy tartibini ishlab chiqish, bunda ma'lumotlarni o'zgartirish, chiqarish va massivlarni tashkil qilish qo'shib olib boriladi;

ma'lumotlarni ishlab chiqish hujjatlarida to'liq tasvirlash, boshlanqich ma'lumotlar bilan masalalarni echishni ta'minlashda va ularni saqlashda yagona tartibni ishlab chiqish;

ma'lumotlarni bir marta kiritishni ta'minlash, bunda echiladigan masalalar soni va echish vaqtiga bog'liq bo'lmaslik muhim ahamiyatga ega;

- ahborot bazasi hajmini uzluksiz va bosqichma-bosqich oshirishni ta'minlash;

- ma'lumotlar bilan ishlashni amalga oshirishni ta'minlovchi tegishli programmali apparatni ta'minlash va boshqalar.

11.5. Hizmat ko'rsatish sohalarining tuzilishi

"O'zstandart" agentligi tomonidan 10.03.2004 da tasdiqlangan 1 - taqrirdagi o'zbekiston respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi hamda 12.05.2006 da tasdiqlangan o'zbekiston respublikasi faoliyat turlari bo'yicha hizmatlarning tasniflagichiga binoan kuyidagicha hizmat turlari bir-biridan ajratilgan:

1. Qurilish hizmatlari: bunda suv - oqava hizmati, elektr-gaz-issiqlik ta'minoti bilan bog'liq faoliyatlar, obodonlashtirish ishlari, qurilish

uskunalarini ijaraga berish, uy-joylarni ta'mirlash xizmatlari inobatga olinadi;

2. Ulgurji va chakana savdo xizmatlari;

3. Mehmonhona va restoranlar xizmatlari: bunda meqmonhonalari-uyalar- lagerlar - kempinglar - turbazalar - kottejlarda o'rin-joylar bilan ta'minlash xizmatlari, restoran- kafeteriy - kafe - oshhona - bufet-bar - tez ovqatlanish korhonalari-tungi klublar va restoran-vagonlarda tayyor ovqat hamda ichimliklar sotish, aviakorhonalari-banketlar-to'ylar-bayram va rasmiy qabul marosimlarini mahsus tayyorlangan ovqatlar bilan ta'minlash xizmatlari inobatga olinadi;

4. Transport, omborda saqlash va aloqa xizmatlari;

5. Moliyaviy vositachilik xizmatlari: bunda sug'urtlash va nafaqa ta'minoti maqsadlaridan tashhari moliyaviy vositalarni ko'lga kiritish va qayta taqsimlash bilan bog'liq bo'lgan barcha faoliyatlar inobatga olinadi;

6. Ko'chmas mulk, ijaraga berish va tijorat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar: bunda ko'chmas mulklarni kelajakda sotish loyihalarini ishlab chiqish, oldi - sotdi operasiiyalarini amalga oshirish, ijaraga berish va ekspluatasiyaga olish faoliyatlari, ko'chmas mulk savdosidagi vositachilik faoliyati, avtomobil - motosiikl - velosiped - furgon-prisep - konteyner va vagonlarni ijaraga berish faoliyatlari, turli ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish uskunalarni ijaraga berish faoliyati, umumiy foydalanish uchun dasturiy ta'minotni loyihalash va yaratish faoliyatlari, ma'lumotlarni kompyuterlarda qayta ishlash, fundamental-amaliy-tajriba tadqiqotlarni amalga oshirish faoliyatlari, ququqiy qujjatlarni tayyorlab berish xizmatlari, sudlarda tomonlarning manfaatlarini himoyalash xizmatlari, notarius va ekspert xizmatlari, ququqiy maslaqat berish xizmatlari, moliyaviy hisobotlarni tayyorlab berish va to'qriligini tekshirib berish xizmatlari, bozor va jamiyatni o'rganish xizmatlarini ko'rsatish, ahborot va maslaqat berish xizmatlarini ko'rsatish, korhonalarning filiallarini boshharish-nazorat etish va rivojlantirish yo'nalishlarini ishlab chiqish xizmatlarini ko'rsatish, geologiya izlanishlari va geodeziya xizmatlari, gidrometereologiya xizmatlari, tehnik uskunalari tekshirish, tehnik ko'rikdan o'tkazish faoliyatlari, reklamalarni tayyorlash va tarqatish (poligrafiya materiallarini ishlab chiqarishdan tashhari) faoliyatlari, hodimlarni tanlash -izlash -yollash xizmatlarni ko'rsatish, ish bilan ta'minlash xizmatini ko'rsatish, hususiy qo'riqlash xizmatlarini ko'rsatish, bino va inshootlarni tozalash-dezinfeksiiyalash xizmatlari, fotosuratga olish - fotoplyonkalarni qayta ishlash fotosuratlarni chop etish

hizmatlarini ko'rsatish, fotoapparatlarni ijaraga olish, sekretarlik hizmatlarini tayyorlash, oqzaki va yozma tarjima qilish hizmatlarini ko'rsatish, brokerlik hizmatlari, mulkni baqolab berish hizmatlari, modellash va dizayn hizmatlari, yaramarka-ko'rgazma-kongresslarni tashkil etish hizmatlari, turli shartnomalarni tuzishdagi agentlik hizmatlarini ko'rsatish faoliyatlari inobatga olinadi;

7. Jamiyat umumiy taqdim etiluvchi boshqaruv va himoya hizmatlari, majburiy ijtimoiy ta'minot hizmatlari: bunda yustisiya va favqulotdagi vaziyatlar bilan bog'liq faoliyatlar ham inobatga olinadi;

8. Ta'lim sohasidagi hizmatlar: barcha turdagi va barcha darajalardagi ta'lim hizmatlarini ko'rsatish va qaydovchilikni o'rgatish hizmatlarini ko'rsatish inobatga olinadi;

9. Sog'liqni saqlash va aholiga ijtimoiy hizmat qilish sohasi bo'yicha hizmatlar: bunda kasalhona va poliklinikalarning faoliyatlari, bemorlarni ko'rikdan o'tkazish - maslaqat - diagnoz - davolash - tashish hizmatlarni ko'rsatish faoliyatlari, veterinariya hizmatlarini ko'rsatish faoliyati, meqribonlik uylari - internatlar - hariyalar uylarining faoliyatlari, muqtojlar va qochqinlarga hamho'rlik qilish hizmatlarini ko'rsatish faoliyatlari inobatga olinadi;

10. Kommunal, ijtimoiy va boshqa shahsiy hizmatlar: bunda oqava suvlarini yiqish va tozalash bo'yicha sanitariya ishlari, savdo palatalari va uyushmalarining faoliyatlari, fan-san'at-ijod kasbi egalari uyushmalarining faoliyatlari, ilmiy jamiyatlarning faoliyatlari, kasaba ittifoqlarining faoliyatlari, diniy tashkilotlarning asosiy faoliyat turlari, partiya, oqimlar va ijtimoiy harakatlarning faoliyatlari, turli klublarning faoliyatlari, qayvonlarni himoya qilish jamiyatining faoliyati, kino-video-qujjatli-multiplikasiion filmlarni yaratish va dublyaj qilish faoliyati, kino-video-qujjatli-multiplikasiion filmlarni tarqatish va odamlarga ko'rsatish faoliyati, tel-radio dasturlarni yaratish va translyasiyalash, teatr-opera-raqs-konsiertlarni namoyishlari va tashkil etish faoliyati, erkin ijodkorlarning faoliyatlari, turli namoyishlarga bilet sotish faoliyati, ijod namunalarini restavrasiyalash, siirk va tirlarning faoliyatlari, jurnalist va fotoreporterlarning faoliyatlari, kutubhonalarning faoliyatlari, muzeylarning faoliyatlari va ularni qo'riqlash hizmatlari, zoopark-qo'riqhona va botanika parklarining faoliyatlari, stadion-basseyn va sportzallarining faoliyatlari, sport musobaqalarini tashkil etish, sport maktablarining faoliyatlari, sport jiqozlari va inshootlarini ijaraga berish faoliyatlari, kiyim va gilamlarni yuvish-tozalash va tuzatish, sartaroshhona va go'zallik

salonlarining hizmatlari, dafn qilish marosimlari bilan bog'liq hizmatlarni ko'rsatish faoliyatlari,

hammom-sauna-solyariy va massaj kabinetlarining hizmatlari, folbin-astrologlarning hizmatlari, shajarani aniqlash hizmatlari, tanishtiruv hizmatlari, yuk tashuvchi hizmatchilar va oyoq kiyimlarini tozalovchilarning faoliyatlari inobatga olinadi;

11. Uy xo'jaliklari hizmatlari: bunda uy xo'jaliklari tomonidan yollanib ishlash hamda uy xo'jaligining o'z manfaatlari uchun hizmatlar ishlab chiqarishlari inobatga olinadi;

12. Eksterritorial tashkilotlar va organlar hizmatlari.

Qisqacha xulosa

Prognozning vazifasi hizmat ko'rsatish (unga kiruvchi kichik tizimlar sifatida) faoliyatining turli yo'nalishlari bo'yicha rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va olingan natijalarni sohaning keyingi rivojlanish dasturini ishlab chiqish, undan foydalanish va tizimni hamda uni boshharish tuzilmasini mukammallashtirish bo'ladi. Hizmat ko'rsatishni iqtisodiy prognozashtirish ob'ektlari quyidagilardan iborat : sohada ilmiy-tehnika taraqqiyot; halq xo'jaligining soha mahsulotlariga talablari;sohaning ishlab chiqarish resurslariga talabi; sohaning ishlab chiqarish imkoniyati, uning shakllanishi va ishlatilishi; sohada xo'jalik jarayonlarini tashkil qilish va boshharishni takomillashtirish; sohaning halharo aloqalari va ularning rivojlanishi.

Hizmat ko'rsatishni iqtisodiy prognozlash quyidagi darajalarga bo'linishi mumkin: alohida soha rivojlanishini prognozlash; bir qancha o'zaro bog'liq sohalarni bir vaqtda prognozlash; barcha hizmat ko'rsatish yo'nalishlarini iqtisodiyotning keng sohasi doirasida bir vaqtda prognozlash.

Nazorat uchun savollar

1. Samaradorlik darajasini baholash uchun soha va hizmat ko'rsatishning eng muhim omillaridan foydalanishni tavsiflaydigan qanday ko'rsatkichlar qo'llaniladi?

2. Maishiy hizmat ko'rsatishni prognozashtirishda qanday usullarni qo'llash mumkin?

3. Turizm hizmatlarini prognozashtirish qanday amalga oshiriladi?

4. Kommunal hizmatlarini prognozlash uchun qanday ko'rsatkichlardan foydalaniladi?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. I.A.Karimov Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari-T.: O'zbekiston, 56 b.

2. Abdullaev A.M., Irmatov M.M., Haydarov M.T., Ashurova D.S. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni prognozashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2006. - 249 b.

3. Irmatov M.M., Haydarov M.T. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning prognozashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004.

4. Li A.N. Maqalliy tuzilmalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni prognoz qilish. O'quv qo'llanma. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamharmasi nashriyoti. - T.: 2004.

XII BOB. MINTAQALARDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASHTIRISHNING USLUBIY ASOSLARI.

12.1. Tashqi iqtisodiy faoliyatni shakllantirishdagi asosiy ko'rsatkichlar.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni prognozlashtirishdan asosiy maqsad O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy integrasiya va milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda qalharo Mehnat taqsimotiga kirishi natijasida rivojlanishning samarali yo'nalishini aniqlash va mamlakatning strategik maqsadiga erishishini amalga oshirish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishni prognoz qilishda milliy tarmoqlarni ko'tarish va birinchi navbatda iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Tashqi savdoni prognoz qilish bojxona xizmatining bojxona statistikasi tahlili asosida, Markaziy Bank tomonidan ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasi to'lov balansini, ichki va tashqi bozorlaridagi talab dinamikasi.

Import sifatida quyidagilar hisobga olinadi:

- ichki iste'mol uchun olib keltirilgan tovarlar;
- bojxona territoriyasiga qayta ishlash uchun olib keltirilgan tovarlar;
- O'zbekiston Respublikasi hududiqa bojxona territoriyasiga olib kelingan va bojxona omborika tushirilgan tovarlar;
- horijiy tovarlar magazinlar uchun bojxona tariflarisiz realizasiya uchun olib keltirilgan tovarlar;
- O'zbekiston hududiqa bir va undan ortiq muddat ichida turish uchun keltirilgan horijiy tovarlar;
- O'zbekiston Respublikasi hududidagi bojxonaga olib keltirilgan tovarlar, qaysiki, horijiy tovarlar favqulotda vaziyatlar uchun olib keltirilgan bo'lsa.

Ko'rsatkichlarni prognoz qilishda quyidagi tamoyillarni hisobga olish zarur:

- barcha harajat va natijalarni to'liq hisobga olish;
- baza variantlari bilan taqqoslash tamoyili;
- harajat va natijalarni hisobga olishda taqqoslama ko'rinish.
- bir hil vaqt oraligida harajat va natijani amalga oshirish tamoyili.

12.2. Tashqi iqtisodiy faoliyatning prognoz ko'rsatkichlari

Prognoz ko'rsatkichlarini amalga oshirishda eksportning iqtisodiy samaradorlik muhim hisoblanadi. Tovarlar, mahsulotlar va xizmatlar eksportining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi quyidagicha hisoblanadi:

$$E_{eks} = Ovf + Vr - X_e$$

bu erda E_{eks} - eksportning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi, so'mda;

Ovf - valyuta tushumi orqali hisobga olinib, valyuta tushumini shu kundagi kursini so'mdagi ifodasi;

Vr - davlatga sotilishi lozim bo'lgan valyutani sotishdan olgan tushumning so'mdagi ifodasi;

X_e - eksport uchun korhona harajatlari, bu o'z navbatida reklama, marketing, transport, sug'urt, bojxona tariflarini o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy mazmuniga ko'ra samaradorlik foyda tushunchasiga mos keladi.

Eksportning iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichi quyidagicha hisoblanadi:

$$E = (Ovf + Vr) / X_e$$

E - Eksportning iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichi, so'm/so'm.

Samaradorlikni iqtisodiy moqiyati shundaki, har bir so'm harajatning foydaliligi qandayligini ko'rsatadi. Eksportning samaradorligi shartiga ko'ra bu ko'rsatkich birdan yuqori bo'lishi lozim.

Maxsulotni qaysi holatdai ichki bozorda va qaysi holatdai tashqi bozorda sotish foydaliligini hisobga olish zarur.

Jadvalda keltirilgan uslubiyatga asoslansak, valyuta kursi 5 so'm/doll. bo'lganida ichki bozorda va aksincha 6 so'm/doll. bo'lganida tashqi bozorda sotish foydalidir. SHunday qilib, milliy valyuta kursining horijiy valyutaga nisbatan pasayishi eksport operasiiyasining samaradorligini oshiradi.

Eksportning samaradorligini aniqlash

№	Ko'rsatkichlar	1 variant	2 variant
1	Sotuvlar hajmi, dona	1000	1000
2	Bir-birlik maxsulot tannarxi, so'm.	4000	1000
3	Maxsulot donasining narxi		
3.1	Ichki bozorda, so'm.	5000	5000
3.2.	Tashqi bozorda, doll.	1000	1000
4	Ichki bozorda sotish uchun	350	350

	tijorat harajatlari, so'm/dona.		
5.	Tashqi bozorda sotish uchun tijorat harajatlari, so'm/dona	200	200
6.	Valyuta kursi, so'm/doll	5	6
7.	harajatlar, ming.so'm		
7.1	Ichki bozorda sotish harajatlari	4350	4350
7.2.	Tashqi bozorda sotish harajatlari	5000	5250
8	Natija, ming.so'm		
8.1.	Ichki bozorda maxsulot sotishdan	5000	5000
8.2.	Tashqi bozorda maxsulot sotishdan	5000	6000
9	Samara ming.so'm		
9.1.	Ichki bozorda sotishdan samara	$5000 - 4350 = 650$	$5000 - 4350 = 650$
9.2.	Tashqi bozorda sotishdan samara	$5000 - 5000 = 0$	$5000 - 4350 = 650$
10	10 Samaradorlik, so'm/so'm		
10.1	Ichki bozorda maxsulot sotishdan	$5000 : 4350 = 1,15$	$5000 : 4350 = 1,15$
10.2.	Tashqi bozorda sotish uchun tijorat harajatlari, so'm/dona	$5000 : 5000 = 1,00$	$5000 : 5000 = 1,00$

1 variant- kurs 5 so'm ./doll., 2 variant- kurs 6 so'm/doll.

Importning iqtisodiy samaradorligi. Importning iqtisodiy samaradorligi importning maqsadiga ko'ra turlicha bo'ladi: o'zi iste'moli uchun va ichki bozorda sotish uchun.

Ichki iste'mol uchun import qilinayotgan tovarning iqtisodiy samarasi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$EE_{imp} = O_{vf} + V_r - Z_{eks}$$

Qisqacha xulosalar

Tashqi iqtisodiy faoliyatni prognoz qilishda asosiy e'tibor import va eksport hajmiga haratilishi lozim. Jahon tajribasiga ko'ra, oziqqovqatlar bozorida import qilingan mahsulotlar hajmi 30,0% foizdan oshmasligi, qayta ishlovchi sanoatda esa eksport hajmi 40,0% foizdan past bo'lmasligi lozim. Tashqi iqtisodiy faoliyatni prognozlashda asosiy vazifasi eksportning iqtisodiy samaradorligiga va importning iqtisodiy samaradorligiga haratilishi lozim. Ko'rsatkichlarni prognoz qilishda

quyidagi tamoyillarni hisobga olish zarur: barcha harajat va natijalarni to'liq hisobga olish; baza variantlari bilan taqqoslash tamoyili; harajat va natijalarni hisobga olishda taqqoslama ko'rinish; bir hil vaqt oraligida harajat va natijani amalga oshirish tamoyili.

Nazorat uchun savollar

1. Tashqi iqtisodiy faoliyatni prognoz qilishda qaysi prognoz ko'rsatkichlaridan foydalaniladi?
2. Eksportning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda qanday usullardan foydalanish mumkin?
3. Tashqi iqtisodiy faoliyatni prognoz qilishning muhim jihatlari nimadan iboart?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. I.A.Karimov Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari-T.: O'zbekiston, 56 b.
2. Abdullaev A.M., Irmatov M.M., Haydarov M.T., Ashurova D.S. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni prognozlashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2006. - 249 b.

XIII BOB. MINTAQADA DEMOGRAFIK O'SISH VA AHOLI BANDLIGINI PROGNOZLASHTIRISH ASOSLARI

13.1. Demografik o'sish ko'rsatkichlari

Globalashuv sharoitida mintaqalarda demografik o'sishni prognoz qilish muhim sanaladi. Demografik vaziyatga quyidagilar o'z ta'sirini ko'rsatadi:

- umrning uzunligi;
- uzoq va yaqin chet elga migrasiya;
- aholining o'sish darajasidagi o'zgarishlar.

Hozirgi kunda qo'llanilayotgan demografik tahlil usullarining murakkabligi va rang-barangligi ularni ahborot bilan ta'minlashga katta talablar qo'yadi. Demografik vaziyatni prognoz qilishda ularning mufassal hususiyatlari haqida ham ma'lumot olish imkonini berish lozim. Masalan, gap tug'ilishni o'rganish haqida ketsa, faqat tuqilgan bolalarning umumiy sonini emas, onalarning yoshini va boshqa bir qator hususiyatlarini bilish muhimdir. Agar gap vafot etishni o'rganish haqida ketsa, ularning jinsi va yoshiga, vafot etish sabablariga, shuningdek, bir qator hususiyatlariga harab taqsimlanishini bilish muhimdir. O'zbekiston Respublikasidagi barcha mintaqalarni ham demografik vaziyatini bir hil deb bo'lmaydi. Aholining zichligi jihatidan, Andijon viloyati mintaqasi birinchi o'rinni egallasa, Qoraqalpoqiston Respublikasi aholi zichligi jihatidan pastki o'rinni egallaydi. Demografik ahborot manbalari nafaqat mamlakat, balki mintaqalar bo'yicha ham zarur ma'lumotlar hajmini olish imkonini berishi kerak.

Aholini ko'payishi jarayonlarini tahlildan o'tkazishda shuni yodda tutish kerakki, aholi ko'payishining u yoki bu turi shakllanishini birinchi navbatda har bir mamlakatda o'ziga hos tarzda namoyon bo'ladigan ijtimoiy iqtisodiy omillar belgilaydi. qo'llaniladigan ko'rsatkichlarning metodik imkoniyatlarini e'tiborga olish, demografik tahlilni turli usullarini kompleks qo'llashigina sodir bo'layotgan jarayonlarning aniq manzarasini olish imkonini berishini yodda tutish kerak. SHuning uchun ham demografik ahborotning ishonchliligi bunday ahborotlarga qo'yiladigan muhim talab hisoblanadi. Boshqacha aytganda, olinagan ma'lumotlar ataylab buzib ko'rsatishlardan ham, ahborot to'plash hususiyatlari bilan bog'liq noaniqliklardan ham holi bo'lishi kerak.

Fan va texnikaning rivojlanishini prognoz qilish mehnat xususiyatidagi o'zgarishlarni, intellektual mehnat sohasidagi inson imkoniyatlaridan foydalanish istiqbollarini aniqlash imkonini beradi.

Demografik prognozlar aholining harakatini va mehnat resurslarining takror ishlab chiqarilishini, mehnatga layoqatli aholining bandlik darajasini, uning malaka va kasbiy tarkibini o'z ichiga oladi. Demografik prognoz aholining dinamikasini uning yosh va jins tarkibini, tugilish va o'lim darajasi, aholining hududiy joylashishi haqidagi ma'lumotlarni tahlildan o'tkazish asosida ko'rib chiqadi. Demografik prognoz kelajakda oilalarning soni, ularning o'rtacha kattaligi, migratsiya jarayonlarining yo'nalishi va jadalligi, faol mehnat faoliyatining uzunligi, mehnat faoliyatini boshlash va tamomlash, pensiyaga chiqishning o'rtacha yoshlari, aholi umrining o'rtacha uzunligi haqida zarur ma'lumotlar olish imkonini beradi.

Demografik prognozlar asosida aholi ehtiyojlarining hajmi va tuzilishi, shaxsiy iste'mol mollari ishlab chiqarish, maorif, sogliqni saqlash va xokazolarni rivojlantirish rejalashtiriladi. Xullas, demografik prognozlar ijtimoiy rivojlanish va turmush darajasini oshirish prognozlari bilan uzviy bogliq.

"Ijtimoiy rivojlanish prognozlari axolining ijtimoiy-iqtisodiy extiyojlarini, turmush tarzining o'zgarishi tendensiyalarini aniqlash soxasidagi murakkab tadqiqotlar kompleksini o'z ichiga oladi. Bu kompleksga quyidagilar kiradi: mexnat resurslarining bandligi va ularning foydalanish, milliy boylikni takror ishlab chiqarish, noishlab chiqarish ehtiyojlarini shakllantirish, axolining turmush darajasi, iqtisod tarmoqlarini rivojlantirish, xududiy o'zgarishlar, iqtisodiy o'sish, iqtisod mexanizm iva boshqaruv tizimini rivojlantirish, jaxon xo'jaligi va tashki iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish prognozlari ishlab chiqish.

Jumladan, ijtimoiy rivojlantirish va aholining turmush darajasi prognozlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: aholining oziq-ovqat mahsulotlari va nooziq-ovqat mahsulotlari iste'mol qilishi, chakana tovar aylanishi; ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarining rivojlanishini prognoz qilish; uy-joy-kommunal ho'jaligi, aholiga maishiy hizmat ko'rsatish, ta'lim, madaniyat, san'at va ommaviy axborot vositalari; sogliqni saqlash, dam olish, turizm, jismoniy tarbiya va sport; atrof-muhitni muhofaza qilish. Demografik prognozlash barcha kompleks dasturlar uchun kup qirrali asos bulib hizmat qiladi. Aholining kelajakdagi miqdori prognozi yaxlit xalq ho'jaligini dinamikasini prognozlashning muhim elementi hisoblanadi. Demografik prognozlar aholi harakati va mehnat

resurslarining qayta ishlab chiqarishi mehnatga layoqatli aholi bandligining darajasi, uning moliyaviy va kasbiy tarkibini qamrab oladi. Demografik prognozlar aholi dinamikasini uning jinsiy yosh strukturasi, tugilish, hududiy harakati tugrisidagi ma'lumotlarni tahlil qilish asosida kurib chiqdi. Demografik prognozlash oilalarning kelajak sonini ularning urtacha kattaligi, aholi kuchma oqimlarining intensivligi, yunalishlari, faol mehnat faoliyati, davomiyligi va boshqalar tugrisida prognoz axborot olish imkoniyatini beradi.

Demografik prognozlar asosida jamiyat ehtiyojlari hajmi va strukturasi, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, xalq ta'limi, sogliqni saqlash tizimi taraqqiyoti va boshqalar rejalashtiriladi. Shu tahlil demografik prognozlar ijtimoiy taraqqiyot va hayot darajasini oshirish prognozlari bilan izchil boglangan.

Demografik prognozlashni amalga oshirishda usullarni tanlash muhim jihat hisoblanib, ularning yordamida aholining kelajakdagi sonini yanada aniqroq belgilash mumkin.

Aholi sonini prognozlashning asosiy usullaridan biri komponentlar usuli hisoblanib, uning mohiyati asosiy komponentlarning kelajak dinamikasi, ya'ni tugilishlar va ulishlar soni, hududga kuchib kelishlar va kuchib ketishlar sonini jamlashdan iborat. Butun mamlakat miqyosida aholi sonini prognoz qilishda dastlabki ikki komponent yetarlidir. Biroq alohida respublikalar buyicha aholining kelajakdagi sonini hisoblashda ichki migratsiya soldosini hisoblash muammosi muhim ahamiyat kasb etadi.

13.2. Aholi tarkibini hamda sonining dinamikasini ifodalovchi ijtimoiy demografik ko'rsatkichlar

Demografik holatni o'rganish ob'ekti ma'lum hududda yashovchi odamlar yig'indisi hisoblanadi va aholining turmush darajasini oshirishda eng asosiy ko'rsatkichlar hisoblanadi.

Har qanday mamlakatning aholisi o'z tarkibi bo'yicha bir xil emas va u vaqt bo'yicha o'zgaruvchan, shuning uchun aholining yashash qonuniyatlari, turmush darajasi, uning tarkibiy o'zgarishi va boshqalar aniq shart-sharoitlarni hisobga olgan holda o'rganiladi.

Qishloq xo'jaligida band oilalarning demografik tarkibi o'ziga xos bo'lib, ularda bir oilaga to'g'ri keladigan kishilar soni o'rtacha 7,1 nafarni tashkil etadi. Ma'lum bir mintaqada misolida olib qarasaq, Qashqadaryo viloyati qishloq joylarida o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, u erda

istiqomat qiluvchi oila a'zolarining 25,0% i ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etishsa, 7,0%i nafaqaxo'rlar bo'lib, 68,0%i ishlamaydigan, ulardan 42%i hali 16 yoshga etmagan bolalar hisoblanadi. Bu shundan dalolat beradiki, viloyat qishloqlarida demografik vaziyat borasida hali ko'p ish o'rinlarini yaratish lozim bo'ladi.

Demografik jarayonlarni o'rganish hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atlari aholining o'sish sur'atiga mos kelishi yoki kelmasligini, uning mehnatga layoqatli qismini iqtisodiyot tarmoqlarida samarali bandligini bilish uchun ham muhimdir.

Akademik Ubaydullaeva R.A. ta'kidlaganlaridek, demografik jarayonni kuzatish ob'ekti bo'lib esa turli xil yig'indilar: butun aholi, aholining alohida guruhlari, mehnat resurslari va hokazolar bo'lishi mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va aholi sonining o'sishi o'ratsida ziddiyat yoki nomuvofiqlik yuzaga kelganda demografik muammolar keskinlashadi.

Deyarli barcha mamlakatlarda davlat siyosati iqtisodiy o'sishning quyidagi muammolarni hal etishga yo'naltirilgan:

aholi o'sishini tartibga solish;

iste'mol darajasi yuqori bo'lgan iqtisodiyotning barqaror holatini ta'minlashga qaratilgan omonat jamg'arish me'yorlarini tanlash;

innovatsiya yutuqlaridan foydalanish va mehnat unumdorligini oshirish;

Mintaqa darajasida olib qaralganda, demografik siyosatning vazifasi tug'ilishni optimallashtirish, bolalar o'limini pasaytirish va shu yo'l bilan aholining ko'payishining optimal darajasini shakllantirish uchun sharoit yaratish hisoblanadi.

Aholi o'sishini tartibga solish uchun eng avvalo aholining demografik ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. Chunki aholining turmush darajasining ijtimoiy tushunchasi bevosita aholiya. Uning tumush tarzi va darajasi hamda intellektual salohiyati bilan bog'langan. Shu nuqtai nazardan ijtimoiy salohiyat deganda aholi soni, tarkibi, dinamikasi va uning intellektual miqdorini tushunamiz.

Aholini o'sishi va uning mintaqaviy xususiyatlari ko'plab iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan, jumladan, prof. A.S.Soliev respublika hududlarining o'sish ko'rsatkichlarini 3 guruhga bo'ladi:

Aholi soni tez o'sayotgan hududlar: Qashqadaryo, Surxandaryo viloyatlari.

O'rtacha ko'rsatkichga ega bo'lgan hududlarga Namangan, Buxoro, Xorazm, Jizzax, Samarqand va Andijon viloyatlari kiradi.

Aholi nisbatan sust o'sayotgan hududlar guruhi Farg'ona, Navoiy Toshkent viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahridan tashkil topadi.

Bundan ko'rinib turibdiki, aholi turmush darajasini rivojlantirish uchun xalx iste'mol mollarini ishlab chiqarishni rivojlantirish va hududiy tashkil qilish nafaqat aholi soniga, balki uning yoshi, jinsi, milliy tarkibi va mintaqaning urbanizatsiya darajasiga bog'liq.

Har qanday hududning aholisi o'z tarkibi bo'yicha bir xil emas va u vaqt bo'yicha o'zgaruvchidir. Shuning uchun ham aholining tarkibiy o'zgarishi va boshqalar aniq shart-sharoitlarni hisobga olgan holda o'rganiladi.

Demografik jarayonlarni o'rganish hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atlari aholining o'sish sur'atlariga mos kelishi yoki kelmasligi, uning mehnatga layoqatli qismini iqtisodiyot tarmoqlarida samarali bandligini bilish uchun ham muhimdir. Demografik jarayonni kuzatish ob'ekti bo'lib esa turli xil yig'indilar: butun aholi, aholining alohida guruhlari, mehnat resurslari va hokazolar bo'lishi mumkin. U holda ma'lum v -guruhdagi aholining t -vaqtdagi umumiy soni quyidagicha ifodalasa bo'ladi:

$$A_t = \sum_{v=1}^n A_t^v \quad (1)$$

Bu erda: A_t – jami aholi soni t -yilda.

Aholini yoshi bo'yicha prognoz qilish esa quyidagi tadbirlarni amalga oshirishga yordam beradi:

Bolalar bog'chasi va maktab qurilishini rejalashtirish va prognozlash;

Iste'mol buyumlarni ishlab chiqarishda aynan yosh guruhiga qarab yo'naltirishni rejalashtirish;

Mintaqadagi mehnat resurslar sonini aniqlash uchun;

Nafaqaxo'rlar sonini aniqlash va ularga ajratiladigan nafaqalarni hisoblash;

Maktab yoshidagi aholi soni uchun darsliklarni chop etish, maktab formalarini tikish va boshqalar.

Shu bilan bir qatorda har qanday joyning aholisi yil davomida o'zgarib turadi, shuning uchun umumiy ko'rsatkichlarni hisoblash uchun statistikada aholining yil mobaynidagi harakati e'tiborga olinadi. Doimiy aholi soni quyidagicha hisoblanadi:

$$DA=MA+VY-VYA$$

Mavjud aholi soni quyidagicha aniqlanadi:

$$MA = DA - VY + VYA$$

Bunda: DA– doimiy aholining soni;

MA– mavjud aholi soni;

VY–vaqtincha yo'q bo'lgan aholi soni;

VYA– vaqtincha yashayotgan aholi soni.

Aholini o'sishini tartibga solish uchun birinchi navbatda aholining demografik ko'rsatkichlari tahlil qilinadi.

Demografik jarayonlarni o'rganish mintaqalarning ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanish sur'atlari aholining o'sish sur'atlariga mos kelishi yoki kelmasligini, uning mehnatga layoqatli qismini iqtisodiyot tarmoqlarida samarali bandligini aniqlash uchun zarurdir.

Mintaqa kesimida iqtisodiy faol aholini tahlil qilish quyidagilar uchun muhim sanaladi:

- mehnat resurslarini hududlar miqyosida hay darajada joylashganligi va shunga binoan ishlab chiqarish yo'nalishlariga qanday o'zgartirishlar kiritish;
- mintaqa bo'yicha ishsizlar sonini aniqlash.
- mintaqadagi bitta iqtisodiy faol aholi qancha nafaqaxo'r to'g'ri kelishi va h.k.z.

13.3. Mehnat bozorlarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari

- Mehnat resurslari bilan ko'p ta'minlangan respublikamiz mehnat bozorini rivojlanish kontseptsiyasining asosiy maqsadi -mehnatga layoqatli aholi bandligini kamayishi, ishsizlikning o'sishi, yangi ish joylarini yaratilishi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi xajmining qisqarishi, mehnat unumdorligining pasayishi, inflyatsiyaning mavjudligi, mulkchilikning turli shakllarini sekinlik bilan vujudga kelishi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarning juda sekinlik bilan amalga oshirilishi, haqiqiy mehnat daromadlarining kamayishi kabi sharoitlarda ishchi kuchiga talabni oshirish va uning taklifini kamaytirish bo'yicha kompleks tadbirlar ishlab chiqarishdan iboratdir. Ular o'tish davri O'zbekiston milliy iqtisodiyotini chuqur tarkibiy, isloh qilishning strategik maqsadlariga asoslanib ishlab chiqiladi.

- Buni hisobga olgan holda mazkur kontseptsiyasining strategik maqsadlari qilib quyidagilarni belgilash mumkin:
 - Ijtimoiy yo'naltirilgan mehnat bozorini bosqichma-bosqich shakllantirish;
 - Mehnatga layoqatli ish bilan band bo'lmagan aholini ish bilan ta'minlovchi hamda ishchi kuchiga talab va taklifni tartibga soluvchi mustahkam rivojlangan mahalliy va xorijiy bandlik xizmati tashkilotlari tizimini takomillashtirish;
 - Yangi ish joylarini tashkil etishga, aholini bandlik darajasini oshirishga va ishlab chiqarish salohiyatidan umumiy foydalanishga asos bo'luvchi chuqur iqtisodiy-tarkibiy isloxlarni amalga oshirish;
 - Aholini oqilona bandligini shakllantirish;qayta ishlash sanoati, xizmat sifat va shaxsiy mehnat sektorlarida yangi ish joylarini yaratish va o'smirlar ko'p bolalik ayollar, pensionerlar va nogironlar uchun mehnatni kafolatlashtirilgan mintaqalarini tashkil qilish;
 - Ishchi kuchiga talabning oshishi va ishsizlikning kamayishini ta'minlovchi kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish;
 - Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni mahalliy va xorijiy samarali texnologiya va texnika bilan ta'minlash;
 - qishloq xo'jalik, sanoat korxonalarini hamda ishlab chiqarish-ijtimoiy infrastruktura ob'ektlarini vujudga keltirish;
 - Mahalliy kadrlar malakasini, raqobatbardoshligini va chet elga yuborishni amalga oshirish va ularda yangi iqtisodiy ma'naviy va mafko'raviy tafakkurni shakllantirish;
 - har bir ishsiz uchun ixtiyoriy va mustaqil ish joyini tanlash va mehnat qilish imkoniyatlarini yaratish;
 - Mehnat bozori, ishsizlik va aholi bandligi jarayonlarini tartibga soluvchi iqtisodiy tashkiliy va xuquqiy mexanizmlarni takomillashtirish.
 - Mazkur maqsadlarga uzluksiz erishish uchun mehnat bozori rivojlanishining asosiy bosqichlari va vazifalarini aniq belgilash zarur.
 - Mehnat bozori rivojlanishining birinchi bosqichida quyidagi vazifalar bajarilgan. Mehnat birjasi va bandlik xizmatining boshlanqich tashkilotlari tashkil etilib, ular ishsizlik va bo'sh o'rinlar miqdori va tuzilishining hisob-kitobi, tahlili va kelajagi, band bo'lmagan aholini ishga joylashtirish va qayta o'qitish bandlikka ko'maklashish jamg'armasini tashkil qilish va sarflash ishlari bilan shuqullandilar, kichik va o'rta biznes hamda xususiy tadbirkorlik doirasida imtiyozli kreditlarni ajratish yo'li bilan yangi ish joylarini yaratishga muayyan moliyaviy yordam ko'rsatilmadi. Iqtisodiyot tarmoqlarida, ayniqsa qishloq xo'jaligida

tarkibiy isloxotlar amalga oshirilib, xodimlar va ish beruvchilar o'rtasida ijtimoiy-mehnat munosabatlarini tartibga solishning huquqiy asoslari yaratiladi va boshqalar.

- Bu davrda aholining ish bilan bandlik darajasini pasayishi, ishsizlikning oshishi, ishchi kuchiga talab va uning taklifi o'rtasida nomutanosiblikni ortishi sodir bo'ldi.

- Ushbu bosqichning yakuniy natijasi mehnat bozorini shakllantirish uchun ijtimoiy iqtisodiy va tashkiliy- huquqiy shart-sharoitlarini yaratilishi bo'ldi. Ikkinchi bosqichda quyidagi vazifalar bajarildi: mahalliy investitsiyalarni va juda zarur bo'lgan holda xorijiy kreditlarni jalb qilish asosida yangi ish joylarini yaratish yo'li bilan ishchi kuchiga talabni oshirish: mehnatga layoqatli o'smirlar, ko'p bolali ayollar, pensionerlar va nogironlar uchun kvotalangan ish joylarini tashkil qilish va ularning iqtisodiy rag'batlantirishni ta'minlash; band bo'lmagan shaxslarga yangi ish joylarini yaratish bilan shug'ullanuvchi-ish beruvchilarga doimiy moliyaviy yordamlar ko'rsatish.

- Ishchi kuchi taklifini uning malakasini, rakobatbardoshligini va eksportini oshirish yo'li bilan kamaytirish; mulkchilikning turli shakllarini rivojlantirish va milliy iqtisodiyotda chuqur islohotlarni o'tkazish asosida aholini ish bilan bandligi sohasida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish; ish haqi va boshqa mehnat daromadlarning manbalari darajasidan soliq stavkasini kamaytirish; bandlik xizmatining bozor infratuzilmasini tashkil qilish; mehnat shartnomalarini tuzishni takomillashtirish va boshqalar.

- Bularning barchasi bandlikni sezilarli o'sishi ishsizlikni kamayishi, hamda ishchi kuchiga talab va uning taklifi o'rtasidagi farkni qisqarishiga ko'maklashadi.

- Mehnat bozori rivojlanishining uchinchi bosqichida (2001-2005 yy) quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutiladi; ishchi kuchiga talabni oshishi va uning taklifini kamayishiga yo'naltirilgan tadbirlarni amalga oshirishni kuchaytirish; bandlik xizmati va uning infratuzilmasida qudratli va tez rivojlanuvchi tizimni yaratish.

- Aholining okilona bandligini shakllantirish; ishsizlikni yul qo'yiladigan darajasigacha qisqartirish; ish bilan band bo'lmagan mahalliy xodimlarning malakasi, raqobatbardoshligi, ijtimoiy ximoyasi va eksportini oshirish; mehnat bozori, bandlik va ishsizlikni tartibga solishning samarali tashkiliy-iqtisodiy va xuquqiy mexanizmlarini yaratish va hahozolar.

- Qayd etilgan vazifalarni bajarish ijtimoiy yo'naltirilgan mehnat bozorini rivojlanishiga olib keladi.

- Mazkur bozor rivojlanishining keyingi to'rtinchi bosqichida (2006-2010 yy) ishchi kuchi talabi va taklifi o'rtasidagi bozor muvozanatiga erishish mumkin.

- Bularning barchasi mehnat bozorini samarali rivojlanishiga yo'naltirilgan ishchi kuchiga talabni oshishi va uning taklifini kamayishi bo'yicha iqtisodiy, ijtimoiy va tashkiliy tadbirlar majmuasida mujassamlashgan. Ishchi kuchiga talabni oshishi bo'yicha iqtisodiy tadbirlardan eng asosiysi iqtisodiyot tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlashdir. Bunga mulkchilik shakllarini rivojlantirish mehnat unumdorligini oshirish ish joylari moddiy texnika, texnologiya va sarmoyalar ta'minotlarini yaxshilash, yangi mehnat zonalarini tashkil etish, ish vaqtidan unumli foydalanish, ishlovchilarning moddiy manfaatdorligini ko'tarish soliqlarni oqilona belgilash orqali erishish mumkin.

- Muhim iqtisodiy tadbirlar majmuasiga qayta ishlash sanoati va xizmat sektorlarida yangi ish joylarini yaratish, ishlab chiqarishni kengaytirishga davlat tomonidan imtiyozli kreditlar berish, xizmat ko'rsatishni yaxshilash va ilg'or texnologiyalarni tadbiriq etish, o'tish iqtisodiyoti davrida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va qayta ishlash sanoati sektorlarining asosiy mahsulotlariga davlat buyurtmasini belgilash, kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va ijtimoiy ishlarni mablag' bilan ta'minlash kiradi.

- Bu tadbirlardan qo'shimcha ish joylarini yaratuvchi ish joylarini tashkil qilish eng kam investitsiya talab qiladi va ishchi kuchiga talabni oshirishda muhim o'rin tutadi. Kichik biznesni rivojlanishi mablag'lar bilan ta'minlashning manbalari bo'lib mahalliy byudjet, bandlikga ko'maklashish jamg'armasi va biznes fond mablag'lari hamda xususiy tadbirkorlarning shaxsiy jamg'armalari xizmat qiladi.

- Ijtimoiy ishlarni tashkil qilish va mablag'lar bilan ta'minlashga yondashishni o'zgartirish maqsadga muvofiq. Ularni bandlik xizmati tashkilotlarning mablag'lari bilan ta'minlash etarli emas. Ijtimoiy ishlarni mablag'lar bilan ta'minlashning maxsus jamg'armasi va uni amalga oshirishning maqsadli kompleks dasturini tuzish zarur.

- Turli xil iqtisodiy va ijtimoiy imtiyozlar va kvotalashtirilgan ish joylarini taqdim etish yo'li bilan mehnatga layoqatli yosh va ko'p bolali ayollar, o'smirlar, pensionerlar va nogironlar faoliyatlarini moddiy rag'batlantirishning tizimini yanada takomillashtirish ishchi kuchiga talabni oshirishning muhim iqtisodiy tadbirlaridan biri hisoblanadi.

- Yoshlar ishsizligi muammosini maktablarda o'smirlarni kasbiy yo'naltirish bo'yicha faoliyatni yaxshilash hamda daromad keltiruvchi ishlarning turlarini ko'paytirish yo'li bilan hal qilish mumkin.

- Mehnatga layoqatli pensionerlar va nogironlar uchun kvotalashtirilgan ish joyini tashkil etuvchilarga imtiyozli kreditlar berish va ularning daromadlariga pasaytirilgan soliq stavkalarini belgilash lozim. Shu bilan birga ishchi kuchi taklifini rag'batlantiruvchi yoki cheklovchi soliq stavkalari muhim iqtisodiy tadbirlar guruhiga kiradi. Daromad solig'i stavkasining o'sishi yollangan xodimlarni yangi ish joyiga taklifini kamayishiga olib keladi. Shu bilan birga yuqori malakali mutaxassislarning qo'shimcha ishga qiziqishlari kamayadi. Soliq stavkasining oshishi ko'pchilik aholi bandligiga salbiy ta'sir qiladi. Shuning uchun bizning fikrimizcha, bunday tadbirlarni amalga oshirishdan avval uning oqibatlarini tahlil qilish kerak.

- Mehnat bozori, bandlik va ishsizlik holatlarini doimiy tahlil qilish va istiqbolini belgilash bilan shug'ullanuvchi respublika va xududiy boshqaruv idoralarining metodik ko'rsatmalar va axborotlar bilan ta'mini bo'yicha o'zaro hamkorliklarni yaxshilash ham muhim tashkiliy tadbirlarga talluqlidir.

- Xususan, manfaatdor idoralar xududiy mehnat bozoridagi vaziyatlarni doimiy tahlil qilish va istiqbolini belgilashning maxsus formalari va ko'rsatkichlarini ishlab chiqishlari lozim.

- Ular asosida Davlat Statistika qo'mitasi va uning xududiy idoralari bilan hamkorlikda aholining bandligini tartibga solish va mehnat bozoridagi keskin vaziyatlarning oldini olish bo'yicha tegishli chora tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish muammolarini hal qilishlari mumkin. Aholi bandligi va mehnat bozorini tahlil qilish va istiqbolini belgilash mazkur vazirlik tashkilotlarining ishini takomillashtirishni talab etadi. hozir nodavlat korxonalarida va tashkilotlarida ishchi kuchiga talab va undan foydalanish, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, mehnat sharoitlari va ish haqi bo'yicha ishonchli axborotlarning kamchiligi sezilmoqda.

- Shu bilan birga mulkchilikning turli xil shakllarining rivojlanishi, aholining ish bilan bandligi, ish joylarining harakati, ishchi kuchiga talab va taklifning miqdori, ishsizlikning holati qishloq joylarida kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash kabi masalalar bo'yicha ham strategik tadqiqotlar o'tkazishni yaxshilash darkor. Ular mehnat bozoridagi ishchi kuchiga talab va uning taklifi o'rtasidagi nisbatni to'g'ri aniqlash imkoniyatini beradi.

- Mehnat bozorini rivojlantirish tendentsiyalari va samarali bandlikni ta'minlash yo'nalishlari

- Mehnat bozorinining shakllanishi va uni tartibga solish bozor munosabatlari sharoitidagi eng muhim va dolzarb masalalardan biridir. Mehnat bozorini o'rganish quyidagi demografik va ijtimoiyq iqtisodiy vaziyatlar inobatga olinishini taqozo etadi:

- respublikada mehnatga qobiliyatli aholining 60% dan ortig'i qishloq joylarda yashaydi va yalpi ichki mahsulotning 40%dan ko'prog'ini ishlab chiqaradi;

- noqishloq xo'jaligi ishchi joylari etishmasligi sababli ish bilan band bo'lmagan qishloq mehnat resurslari respublikada ish bilan band bo'lmagan aholining salmog'li qismini tashkil qiladi va ularning soni o'smoqda;

- mehnatga qobiliyatli ish bilan band bo'lmagan kishilarning malakasi va safarbarligi pastligi ular yashash joylaridan shaharga va mamlakatdagi mehnat bilan kam ta'minlangan hududlarga hamda horijiy davlatlar ob'ektlariga qarab qarakat qilishlariga asosiy to'siq bo'lmoqda;

- hududlardagi sanoat, qurilish va xizmat ko'rsatish korxonalari hamda xususiy xo'jaliklarda yangi ishchi joylarini yaratish yo'li bilan ishchi kuchi talabi va taklifi o'rtasidagi ratsional nisbatni ta'minlash imkoniyatlari mavjud.

- Aholi soni hududning iqtisodiy salohiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi va ijtimoiy hayotdagi muhim shartlardan biri hisoblanadi.

- Respublikaning ortiqcha mehnat resurslari ko'p bo'lgan hududlari ko'p bo'lgan mintaqalari, jumladan, Andijon, Farg'ona, Namangan, Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo, Surxandaryo, Buxoro va Xorazm viloyatlari uchun ishchi kuchiga bo'lgan talabni oshirish va uning taklifini kamaytirish mehnat bozorini tartibga solishning eng samarali usullaridir. Mintaqa kesimida ushbu usullar quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

- A) ishchi kuchiga bo'lgan talabni oshirish usuli;

- B) ishchi kuchi taklifini kamaytirish usuli.

- Birinchi usulda asosan mintaqa miqyosida ishchi kuchiga bo'lgan talabni oshirishni rag'batlantirish usullarini o'rganish va ishchi kuchini shu mintaqa uchun samarali bo'lgan tarmoqlarni rivojlantirishga yo'naltirish lozim.

- Ikkinchi usulda esa ijtimoiy ishlab chiqarishda band etilganlar o'rtasida ish vaqti va ish joylarini qayta taqsimlash yo'li bilan ishchi kuchi taklifini qisqarishiga olib kelish mumkin.

- Mehnat resurslarini prognoz qilishda quyidagi terminlarga: mehnat resurslarining sof o'sishi, mehnat resurslarining mexanik o'sishi. Shuning uchun ularga ta'rifni keltiramiz.

- Mintaqalar uchun mehnat resurslarining sof o'sishi ko'rsatkichi bu shu mintaqada mehnat resurslarini tabiiy ko'payishi va kamayishi o'rtasidagi tafovut ko'rinishida hisoblanadi.

- Ma'lum mintaqaga kelishlar soni bilan ketishlar soni o'rtasidagi tafovut mehnat resurslarini mexanik o'sishi yoki migratsiya deyiladi.

- Bizga ma'lumki, yangi ish o'rinlarini yaratish asosan xizmat ko'rsatish va servisni, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish, hamda kasanachilikni kengaytirish natijasida 2009 yilda 940 mingta yangi ish o'rinlari yaratildi. Yangi ish o'rinlari yaratishning hududiy dastrurlariga muvofiq 660 mingga yaqin, Inqirozga qarshi chora tadbirlarni amalga oshirish natijasida esa 280 mingdan orti ish joylari barpo etildi. Ushbu yaratilgan ish joylarini mintaqaviy jihatdan tahlil qilsak, quyidagi natijalar qayd etilganligini ko'rishimiz mumkin:

- Samarqand (91,7 mingta), Farg'ona (90,0 mingta), Qashqadaryo (85,7 mingta), Toshkent (85,3 mingta), Andijon (77,3 mingta) viloyatlarda va Toshken shahrida (74, 1 mingta) hissasiga to'g'ri keladi.

- Yangi ish o'rinlarini yaratish dasturlari ijrosi hududlar va va yo'nalishlar kesimida ta'minlangan bo'lsada, biroq kamchiliklar ham mavjud.

- Ishlab chiqarish korxonalarini ishga tushirish, mavjud quvvatlarni rekonstruktsiya qilish va kengaytirish hisobiga yangi ish joylarini tashkil etish Qoraqalpog'iston Respublikasi(2251 ta yoki jamiga nisbatan 4,7%) hamda Jizzax (2017 ta yoki jamiga nisbatan 4,7%), Buxoro (3540 ta yoki jamiga nisbatan 4,9%), Namangan(3185 ta yoki jamiga nisbatan 4,5%) viloyatlarida nisbatan sust kelmoqda.

- Kasanachilik dasturiga kiritilgan 658 ta(9,3%) korxonada 2009 yil reja topshiriqlari ijrosi ta'minlanmagan. Ularning 40 tasi yirik sanoat, 236 tasi boshqa tarmoqlardagi yirik va 382 tasi kichik sanoat korxonalaridir. Ushbu kasanachilik dasturini mintaq kesimida qarab chiqsak, Qashqadaryo (145 ta yoki 34,4%), Namangan (141 ta yoki 24,1%), Toshkent(123 ta yoki 20,5%), Farg'ona (70 ta yoki 14,3%) viloyatlari va Toshkent shahridagi (146 ta yoki 15%) bu kabi korxonalar ko'pchilikni tashkil etgan.

- 2010 yilda 950 mingta yangi ish o'rni yaratish dasturini ishlab chiqishda respublikada amalga oshirilayotgan barcha maqsadli dasturlar, real sektor tarmoqlarini rivojlantirish, investitsiya, lokalizatsiya,

modernizatsiya, infratuzilmani va hududlarni rivojlantirish dasturlari hamda Inqirozga qarshi dasturda belgilangan barcha chora tadbirlar inobatga olingan. Dastur mehnat bozorini holatini baholash hamda 2010 yilda ish bilan bandlikka bo'lgan talabni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Uning tarmoq va hududiy prognoz parametrlari ish o'rinlariga bo'lgan ehtiyoj asosida aniqlangan. Ushbu prognoz ko'rsatkichiga ko'ra 2011 yilda respublikada ish o'rinlariga bo'lgan ehtiyoj 930 mingdan ortig'rog'ni tashkil etishi ko'zda tutilmoqda. Bunda ish o'rinlariga bo'lgan ehtiyoj mehnat bozoridagi quyidagi holatdan kelib chiqib aniqlangan:

- q monitoring natijasiga ko'ra bugungi kunda jami mehnatga muhtoj fuqarolar soni 590 mingdan ortiq. Jumladan Farg'ona viloyatida 76 mingta, Samarqand viloyatida 69 mingta, Andijon viloyatida 67 mingta, Qashqadaryo viloyatida 50 mingta, Namangan viloyatida 49 mingta, Toshkent viloyatida 47 mingta mehnatga layoqatli iqtisodiy faol aholi mehnat bozorida qo'shimcha ishchi kuchi taklifi sifatida namoyon bo'ladi. 2009-2010 o'quv yili yakuniga ko'ra ta'lim muassasalarini 510 ming nafar yosh bitirib, mehnat bozorida o'z ishchi kuchini taklif etishi kutilmoqda;

- yaqin kelgusi yillarda demografik jarayonlar ta'sirida hamda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi natijasida iqtisodiy faol aholi soni 329 ming nafarga o'sishi ko'zda tutilmoqda. Mintaqa kesimida ushbu ko'rsatkich Farg'ona viloyatida 101,2 ming. Samarqand viloyatida 92,5 ming, Andijon viloyatida 87,9 ming, Qashqadaryo viloyatida 76,6 ming, Toshkent viloyatida 73,8 ming, Namangan viloyatida 73,4 ming, Toshkent shahrida 82,2 mingta bo'lishi prognoz qilinmoqda.

- hududiy dasturlar mintaqalarning o'ziga xos quyidagi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda shakllantirilgan:

- hududiy mehnat bozori kon'yunkturasi, ya'ni ishchi kuchiga talab va taklifning o'zaro nisbati, ularning o'zgarish tendentsiyalari, ya'ni kelgusi yil istiqbollari;

- hududlarning iqtisodiy salohiyati;

- hududlarda faoliyat yuritayotgan o'quv muassasalarining joylashuvi va kasb-ta'lim yo'nalishlari hamda ularda tayyorlanayotgan yosh kadrlar salmog'i.

- Ish o'rinlarining nisbatan katta qismi mehnat bozorining bosimli holati mavjud bo'lgan hududlar, Farg'ona (91,2 mingta), Samarqand (92,0 mingta), Toshkent (85,5 mingta), Andijon (77,9 mingta), Qashqadaryo(86,4 mingta), Namangan(71,0 mingta) viloyatlari va Toshkent shahri (80,4 mingta) ulushiga to'g'ri kelmoqda.

- Shu bilan bir qatorda Qoraqalpog'iston Respublikasining Amudaryo, Kegeyli, Mo'ynoq, Andijon viloyatining Ulug'nor, Qo'rg'ontepa. Shahrixon, Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod, Chiroqchi, Farg'ona viloyatining So'x, Rishton, Surxandaryo viloyatining Boysun va Sariosiyo kabi mehnat bozorida keskinlik mavjud tumanlarda ish o'rinlarini ko'paytirish ko'zda tutilgan.

- 2010 yilda ko'zda tutilgan 950 mingta yangi ish o'rinlarini yaratish huyidagilar hisobiga amalga oshirish ko'zda tutilgan:

- investitsiya, lokalizatsiya, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish hisobiga 56 mingta yangi ish o'rinlarini yaratish, shulardan 31 mingtasi hududiy dasturlarni amalga oshirish natijasida qamda 25 mingtasi xo'jalik birlashmalari tizimida yangi ob'ektlarni ishga tushirish hisobiga tashkil etish rejalashtirilgan;

- xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, kichik korxonalar va mikrofirmalarni tashkil etish hisobiga 477 mingta ish joylarini yaratish ta'minlanishi ko'zda tutilgan;

- kasanachilik, oilaviy tadbirkorlikni va milliy unarmandchilikni amda oramolchilikni keng yo'lga qo'yish hisobiga 208 mingta ishsiz fuqarolar ish bilan ta'minlanadi;

- xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga esa 129 mingdan oshiq yangi ish joylarini yaratish asosida erishiladi.

13.4. Mintaqada demografik o'sishni prognozlash

Mintaqada demografik prognoz kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirishning muhim elementidir. Iqtisod va ijtimoiy qayotning biron bir sohasi yo'qki, unda uzoq muddatli rejalashtirishda demografik prognoz ma'lumotlari qo'llanilmasin.

Demografik prognozlar faol hususiyatga ega. Ular aholini kelajakdagi hususiyatlarini aniqlash bilangina cheklanmaydi. Masalan, u yoki bu mintaqada aholining soni, yosh va jins tarkibini istiqboldagi ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarga taqqoslab, demografik jarayonlarda maqbul va mumkin bo'lgan holatlar o'rtasidagi tafovutlarni aniqlash mumkin. Agar bunday tafovutlar katta bo'lsa, jamiyat mazkur jarayonlar o'rtasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish yoki kamaytirish choralarini ko'rishi mumkin.

Demografik prognozlash demografik tahlilning bosh vazifalaridan biri va yakuniy maqsadidir. Ularning yordamida aholining tabiiy va mehanik siljishining kutilayotgan ko'rsatkichlari, aholi qayotining o'rtacha

uzunligi, tuqilish va vafot etish, jinslar nisbati va qokazolar aniqlanadi. Natijada mamlakat yoki uning alohida mintaqalari aholisining kelajakdagi soni, yosh va jins tuzilishi tarkib topadi. Alohida demografik ko'rsatkichlarning o'zgarishiga aholi migrasiyasi jiddiy tuzatishlar kiritadi. Aholining mehanik siljishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'rganish asosidagina mintaqalarning real demografik prognozini ta'minlash mumkin. qayotning o'rtacha uzunligi juda ko'p ijtimoiy-iqtisodiy va demografik omillarni o'zida jamlaydigan demografik vaziyatni asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. Bunday prognozlar boshqa ko'pgina istiqbolli hisob kitoblarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, aholi haqidagi ma'lumotlarni e'tiborga olmasdan ishlab chiqish va iste'mol qilish, ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishi, aholi bandligini ta'minlash va qokazolarning istiqbollari aniqlash mumkin emas.

«Aholi harajati»ni prognozlashda uning komponentlariga ta'sir qiluvchi omillar yoki boshqacha qilib aytganda, tugilish, ulim migratsiyasi darajasiga ta'sir qiluvchi omillarni hisobga olish alohida ahamiyatga ega.

Aholining kelajakdagi soni asosan tugilish darajasiga bogliq. Shuning uchun dastlab unga qanday omillar ta'sir qilishini urganish lozim. Bu yerda tugilishni oshiruvchi va kamaytiruvchi omillarni alohida belgilash mumkin. Tugilish darajasini oshiruvchi asosiy omillar deb odatda, maktabgacha tarbiya muassasalari va uy - joy qurish jarayoni taraqqiyotiga aytishadi.

Tanlanma tadqiqotlar ma'lumotlariga kura, 30% ga yaqin odamlar farzand ko'rishdan o'zini saqlash sabablari sifatida yashash sharoitlarini ko'rsatadi.

Mamlakatda yiliga rekonstruksiyani hisobga olgan holda 2,3 million kvartira qurilmoqda, aholi 2 million kvartiraga ega bo'lmoqda (0,3 million kvartira qaralar talabi hisobiga.) Mamlakat bo'yicha ikkinchi marta nikohga kirayotganlar yiliga 1,8 millionni tashkil qiladi va agarda kengayishlar va boshqa omillar bo'lmaganda edi hozir yosh kelin - kuyovlarga kvartiralar berilar edi. Bevosita bogliqlikning tarafi yo'q. Masalan, Toshkent shahrida maktabgacha tarbiya muassasalariga bo'lgan talab to'laligicha qondirilgan, biroq tug'ilish o'smayapti. Maktabgacha tarbiya muassasalarining rolini baholab turib, shuni aytish mumkinki, ko'p oilalar ulardan deyarli foydalanilmaydi (ularda yoshlar hissasi juda kam), kam bolali oilalarda esa funksional muassasalarning mavjudligi yoki yo'qligi nikoh va tug'ilish o'rtasidagi vaqt oraligida (yoki birinchi va ikkinchi farzand oraligida) ko'rinadi.

Omilar qatoriga moddiy ta'minlanganlikni ham qo'shish mumkin. Bu demografik siyosatning bir omili bo'lib, bu narsa bizning mamlakatimizda tug'ilishni oshirishga qaratilgan (o'ning asosiy sharti bo'lib bolalarni tarbiya qilish harajatlariga davlatning sistematik pullik yordami hisoblanadi.)

Tug'ilish pasayishiga olib kelo'vchi omillar orasida birinchi navbatda aholi moddiy darajasining o'sishi va bunga bogliq tarzda ehtiyojlari o'sishini aytish lozim.

Zamonaviy taraqqiyotning barcha ne'matlarini oshirishga intilish yangi oila qurganlar rejalashtiradigan farzandlar usoni kamayishiga ta'sir qiladi (tug'ilishning «antagonistlari» sifatida avtomobil, televizor va hokazolar hisoblanadi).

Odatda, ayollarning jamoat ishlarida qatnashuviga tug'ilishning kamayish omili sifatida qarashadi.

O'lim omillari – ko'kchadagi va maishiy shikastlar, alkogolizm va chekish, atrof - muhit ifloslanishi, sogliqni saqlashning rivojlanmaganligi va hokazolar.

Biror hudud hholisini prognozlashning muhim komponenti aholi migratsiyasi hisoblanadi. Aholi migratsiyasi asosan ishlab chiqarish joylashuvi bilan izohlanadi. Bu esa, o'z navbatida, mehnat resurslarining hududiy tarqalishini ko'rsatib, u iqtisodiy rivojlanishda aks etadi va ishlab chiqarish samaradorligiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

13.5. Mehnat bozorini prognozlash ko'rsatkichlari

Mehnat bozorini prognoz qilish uchun muvozanat va nomuvozanatli modelni ishchi kuchining talab va taklifi funksiyasini ifodalash uchun qo'yadilar. Bu ikki model ham shu holatdai kelib chiqishdiki, qaysiki, ishchi kuchiga talab korhona va tashkilotlarning ishchilarga bo'lgan miqdor ifodasidan kelib chiqadi. U holda talab (L_s) quyidagi formula orqali ifodalaniladi:

$$L_s = L + V$$

bu erda L_s -real mavjud bandlik;

V -vakansiyalar yoki bo'sh ishchi joylari.

Ishchi kuchiga taklif (L_p) quyidagicha ifodalaniladi:

$$L_p = L + N \cdot K_p$$

bu erda N -birja statistikasi bo'yicha ishsizlar;

K_p -ma'lum interval oraliqida o'zgarishlar koeffitsienti(umumiy ishsizlar sonidan ishga murojaat qilganlar soni, misol uchun har bir sakkizinchi, oltinchi, uchinchi).

Muvozanatli modelda asosiy tartibga soluvchi omil ish haqi hisoblanadi, ishchi kuchining talab va taklif tengligi esa chiziqli shaklda ifodalaniladi:

$$L_s = a_1 (w/p) + a_2 \cdot F_s ;$$

$$L_p = b_1 (w/p) + b_2 \cdot F_p$$

bu erda L_s -ishchi kuchiga talab;

L_p - ishchi kuchiga taklif;

w - nominal ish haqi;

p -narxlar darajasi;

F_s va F_p - ekzogen o'zgaruvchilar vektorlari bo'lib, ishchi kuchi talab va taklifini aniqlaydi;

a va b - noma'lum parametrlar vektorlari.

Ushbu modelda ish haqi talab va taklifni muvozanatga keltiradi, ya'ni $L_s = L_p$ tenglamalar sistemasi orqali esa muvozanatli ish haqi (w/p) va muvozanatli bandlik(L) darajasi aniqlanadi.

Nomuvozanat modelida esa talab va taklif vaqtning turli oraliqida teng emas, bandlik esa berilgan vaqtda real haraladi, talab va taklifning minimal oraliqida ko'riladi: $L = \min \{L_s, L_p\}$. Ushbu ko'rinish shuni ifodalaydiki, har qanday vaqt oraliqida real ishsizlar belgilangandan oshiq bo'lmaydi. Bu o'z holatdai ishchi kuchi bo'lgan korhonalarning talabi taklifdan ortiqcha bo'lmasligini izoqlaydi.

Bozor muvozanatining klassik shartiga ko'ra $dQ/dL = w/p$ (bu shuni anglatadiki, qo'shimcha Mehnat resurslaridan ularning chegaralangan ishlab chiqarishi dQ/dL real ish haqiga teng bo'lgunga qadar foydalanadilar), talab egri chiziqi esa quyidagicha bo'lishi mumkin: $L_s = L_s(w/p, Q)$,

bu erda w/p real ish haqi darajasi,

Q ishlab chiqarilgan maxsulot hajmi, shu bilan birga quyidagi holatdai $d(L_s)/d(w/p) < 0$, $d(L_s)/dQ > 0$

Bandlikni prognoz qilishda quyidagi mantiqiy ketmaqetlik bajariladi:

- mamlakat ishchi kuchisining asosiy manbai Mehnatga layoqatli aholi ekanligini hisobga olgan holda, prognoz qilinayotgan davr uchun aholi sonining yosh tarkibi aniqlanadi. SHu bilan bir qatorda kishilarning demografik va migrasiion qulqini hisobga olish lozim;

- aholining yosh bo'yicha tarkibini aniqlagandan so'ng esa Mehnat resurslari, ya'ni iqtisodiy faol aholi soni prognoz davr uchun aniqlanadi.

Buning uchun aholining umumiy tarkibidan erkaklar 16-59 yosh, ayollar 16-54 yoshdagilari chiharib tashlanadi. Olingan natija shuningdek ishlamayotgan invalidlarga va ishlayotgan o'smir va pensionerlar hisobidan korrektirovka qilinadi. Natija esa Mehnat bozorida ishchi kuchi taklifini anglatadi;

- aniqlangan ishchi kuchi taklifi prognozi quyidagi sifat ko'rsatkichlari: yosh tarkibi bo'yicha, shahar va qishloq, ta'lim darajasi va boshqalar bo'yicha to'ldiriladi.

Yaxlit holdagi aholi prognoz soni va strukturasi dastlab tashqi migratsiyani hisobga olmagan holda amalga oshiriladi, chunki uning hissasi uncha katta emas, biroq regionlar uchun demografik prognozlar aholi migratsiyasini hisobga olgan holda tuzilishi lozim.

Migratsiya nafaqat aholining umumiy soniga ta'sir qiladi, balki uning nisbiy va yosh strukturasi ham o'zgartiradi. Shuning uchun bu omil tugilish bilan bir qatorda asosiy omil hisoblanadi. Migratsiya koeffitsiyentini hisoblash uchun dastlab region hududining har 1000 kishisiga to'g'ri keladigan ko'chib kelishlarning o'rtacha soniga teng bo'lgan ko'chib kelish koeffitsiyentini hisoblash lozim. Har 1000 kishiga hududdan ko'chib ketish va kelishlar koeffitsiyenti beriladi. So'ngra ko'chib ketishlar va kelishlar o'rtasidagi farq hisoblanadi. Bu farq sof migratsiya koeffitsiyentini yoki migratsiya soldosi koeffitsiyenti hisoblanadi. U madaniy yoki musbat ishorali bo'lishi mumkin. Ko'chib keluvchilar va ko'chib ketuvchilar soni hududning jami aholi uchun hisoblangani kabi har bir jinsi yoki guruhlar uchun alohida hisoblanadi. Migratsiyani hisobga olgan holda aholi sonini prognozlash ikki bosqichda amalga oshiriladi.

1 - bosqichda aholi tabiiy o'zgarishi prognozlash usuli asosida amalga oshiriladi. Masalan, ikki omil tugilish va o'limning ta'sirini hisobga olib korrelatsion analiz yordami.

Aholining jinsiy yosh tarkibi uchun yoshning siljishi metodidan foydalaniladi. Ushbu usulning mohiyati shundan iboratki, aholi sonini yuzaga kelgan yosh va jinsiy strukturadan kelib chiqib jins va yosh bo'yicha hisoblashda kutilayotgan tugilish va o'lim darajalari mos ravishda qo'shiladi va ayriladi.

2-bosqichda hosil qilingan aholi soniga (umumiy yoki jinsiy yosh) migratsiya ta'siridan tuzatishlar kiritiladi. Buning uchun aholi soni sof migratsiya koeffitsiyentiga ko'paytiriladi va ishorasiga qarab hisoblangan tuzatma kattaliklar birinchi bosqichda topilgan umumiy aholi soniga qo'shiladi yoki ayriladi.

Demografik prognozlashning yetakchi o'rinlaridan biri mehnat resurslari sonining perspektiv baholanishi hisoblanadi. Uning negizi aholining jinsiy yosh strukturasi bo'yicha sonining prognozi sanaladi, buning asosida mehnatga layoqatli 16—55 (59) yoshdagi aholi soni to'g'risidagi ma'lumotlar olinadi.

Prognozlashda eng avvalo mehnat resurslarini takror ishlab chiqarishning barcha tomonlarini qamrab oluvchi mavjud (yoki yuzaga kelgan) qonuniyatlar va proporsiyalar (ularning shakllanishi, takomilashishi va qo'llanilishi) bo'yicha o'rganish lozim. Bularning barchasi shunga muvofiq statistik yoki boshqa ahborot to'planishini talab qiladi.

Aholi sonini prognozlashda ekstropolyatsiya va matematik modellash usullaridan keng qo'llaniladi.

Immigratsiya usuli asosida dinamik qatorlardan foydalangan holda aholi harakatining turli komponentlari prognozlari aniqlanadi. Bu prognoz o'rta va uzoq muddatli davr uchun yaratiladi. Hozirgi paytda matematik modellash usullari va birinchi navbatda omilli analiz usuli keng qo'llanilmoqda.

Aholi sonini prognozlash modeli tenglamalar tizimi ko'rinishida tuziladi.

$$U = a_0 + a_1 x_1 - a_2 x_2 + a_3 x_3$$

Bu yerda: x_1 – tugilish, x_2 – o'lim, x_3 – migratsiya.

$$X_1 = b_0 + b_1 z_1 + b_2 z_2 + b_3 z_3 \dots$$

$$X_2 = s_0 + s_1 z_1 + s_2 z_2 + s_3 z_3 \dots$$

$$X_3 = d_0 + d_1 z_1 + d_2 z_2 + d_3 z_3 \dots \text{ va hokazolar}$$

Qisqacha xulosa

Demografik vaziyatni prognoz qilishda ularning mufassal hususiyatlari haqida ham ma'lumot olish imkonini berish lozim. Aholini ko'payishi jarayonlarini tahlildan o'tkazishda shuni yodda tutish kerakki, aholi ko'payishining u yoki bu turi shakllanishini birinchi navbatda har bir mamlakatda o'ziga hos tarzda namoyon bo'ladigan ijtimoiy iqtisodiy omillar belgilaydi. Demografik prognoz kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirishning muhim elementidir. Demografik prognozlar faol hususiyatga ega. Ular aholini kelajakdagi hususiyatlarini aniqlash bilangina cheklanmaydi. Mintaqada aholining soni, yosh va jins tarkibini

iyotiqboldagi ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarga taqqoslab, demografik jarayonlarda maqbul va mumkin bo'lgan holatlar o'rtasidagi tafovutlarni aniqlash mumkin.

Nazorat uchun savollar

1. Demografik vaziyatni prognoz qilishda qaysi omillarni muhim deb hisoblaysiz?
2. O'zbekiston Respublikasi mintaqalarida aholi demografik vaziyatini qanday baholaysiz?
3. Demografik prognozning o'ziga hos xususiyatlari nimadan iborat?
4. Aholining tabiiy va mehanik siljishi demografik prognozga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. I.A.Karimov Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari-T.: O'zbekiston, 56 b.
2. Abdullaev A.M., Abdurahmanov O.K., Zokirova N.K. Prognozirovaniye i modelirovaniye natsionalnoy ekonomiki. Uchebnik. - T.: Fan va texnologiya, 2007. - 576 s.
3. Abdullaev A.M., Irmatov M.M., Haydarov M.T., Ashurova D.S. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni prognozashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2006. - 249 b.
4. Irmatov M.M., Haydarov M.T. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning prognozashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004.
5. Li A.N. Maqalliy tuzilmalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni prognoz qilish. O'quv qo'llanma. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamharmasi nashriyoti. - T.: 2004.

XIV BOB. AHOLI TURMUSH DARAJASINING KO'TARILISHI VA IJTIMOY RIVOJLANISHNI PROGNOZLASH.

14.1. Aholi turmush darajasini ko'tarilishi va ijtimoiy rivojlanishni prognozlash tizimlari.

Xalq farovonligini aniqlovchi eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy omil – bu, turmush darajasi bo'lib, u kishilarning jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy talablari darajasini xarakterlaydi. Ehtiyojlar xarakatini baxolash masalasi ijtimoiy-iqtisodiy jamiyat taraqqiyotini prognozlashda salmoqli o'rin tutadi.

Turmush darajasini aniqlovchi rivojlanish talablarini tahlil qilish, talablar tarkibida ularning taraqqiyotiga ta'sir etuvchi sezilarli omillarni aniqlash, sabab-oqibat va ehtiyojlar harakati orasidagi boglanishlarni hamda aks etgan omillarni o'rnatish, o'tmishdagi talab-ehtiyojlar o'zgarishini tahlil qilish, ijtimoiy taraqqiyot va turmush darajasi bilan o'zaro boglangan prognozlanadigan ko'rsatkichlarni aniqlash asosida olib boriladi.

Bu sohada prognozlashning asosiy masalasi eng avvalo aholining kelajakdagi talab-ehtiyojlarini va ularni qondirish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Masalan, yuqori sifatli va turli-tuman oziq-ovqat mahsulotlari, xizmat ko'rsatish, uy-joy va boshqalar.

Ijtimoiy turmush tarzini har tomonlama va tubdan prognozlash muammolarini qamrab olish, umumdavlat turmushi darajasini ko'tarish va ijtimoiy rivojlanish prognozlari tizimini ishlab chiqish sistemaning ijtimoiy turmush darajasini barcha rejalashtirilgan jabhalarda ko'taruvchi kompleks rejalashtirishni ishlab chiqish bazasidir.

Ijtimoiy rivojlantirishni prognozlash va turmush darajasini ko'tarish tizimi, umumiy boglanishni va aqliy ketma-ketlik bo'yicha prognozlar ishlab chiqishni ta'minlovchi kompleks ko'rsatkichlarga asoslanadi. Ularning eng dolzarblari quyidagicha:

-jamiyatning ijtimoiy tuzilishi va aholi tarkibini hamda sonining dinamikasini ifodolovchi (xarakterlovchi) ijtimoiy-demografik ko'rsatkichlar;

-umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar, turmush darajasining ko'tarilishini qiymat nuqtai nazaridan aniqlashga imkon beruvchi iqtisodiy sharoit, har bir jon boshiga to'g'ri keladigan milliy daromad, aholi daromadining strukturasi va dinamikasi, resurslarning iste'moli va ularning milliy daromaddagi hajmi;

- asosiy oziq-ovqat mahsulotlari iste'molining ko'rsatkichlari; nooziq-ovqat tovarlari (mollari), aholi jon bishiga sotiladigan tovarlar hajmi, madaniy-maishiy jihozlar bilan oilaning ta'minlanganligi;

- uy-joy va kommunal qulayliklar bilan ta'minlanganlik, madaniy va maishiy xizmat ko'rsatish, bolalar, o'quv-profilaktik, sanatoriya-dam olish maskanlari, turistik muassasalar ko'rsatkichlari.

14.2. Aholi ehtiyojini va chakana tovar ayirboshlashni prognozlash.

Ehtiyojni va chakana tovar ayirboshlash prognozlari turmush darajasining ko'tarilishi va iste'mol bilan chambarchas bog'liq. Xalq iste'moli mollarining prognozlarini ishlab chiqish jarayonida olingan natijalar, alohida shahsiy ehtiyojlarni aniqlashdagi so'nggi bosqich ishlab chiqarish bo'lib, bu o'z navbatida ishlab chiqarishning jadalligi va proporsiyasini boshqarish imkoniyatiga; iqtisodiy sohalar rivojlanishining optimal dasturlarini va uning guruhlarini ishlab chiqishga; chakana tovar ayirboshlashning shakllanishiga imkon beradi. Talab deganda bozorning tovarlarga bo'lgan ehtiyoji, taklif deganda esa bozordagi yoki bozorga olib kelishi mumkin bo'lgan mahsulot tushuniladi.

Xalqning moddiy farovonligi ogishmay o'sishi, jamiyat va shaxsiy ehtiyojlarning o'sishiga olib keladi va ularni qoniqtirishda chakana tovar ayirboshlash salmoqli o'rin egallaydi. Tovar ayirboshlash deganda xalq ehtiyojlari mollarini sotish orqali shaxsiy pul mablaglariga almashinishi tushuniladi.

Talab va chakana tovar ayirboshlashni prognozlashda, prognozlash yo'nalishi va uning harakteriga ko'ra turli usullar qo'llaniladi (me'yoriy, ekstropolyatsiya, ekspert baholash, korrelyatsion-regression tahlil va boshqalar).

Me'yoriy usul oziq-ovqat mahsulotlari va nooziq-ovqat tavarlarning iste'moldagi ratsional me'yorini qo'llash asosida, shuningdek, uzoq davr qo'laniladigan tavarlarning me'yoriy ta'minlanganligi asosida yotadi.

Modellashtirish usuli chakana tovar ayirboshlashni va ehtimoliy talab tarkibining mikdoriy tavsifsini aniklashda qo'llaniladigan usullardir.

Regression tahlil usulida oziq-ovqat tavarlarining chakana tavar ayirboshlashdagi prognoz uchun qo'llanilishini ko'rib chiqamiz. Boshlangich proporsiyasi sifatida – aholining real daromadini olamiz.

X_2 - 1000 yashovchi uchun do'konlarning savdo maydoni;

X_3 - oziq - ovqat tavarlari uchun narxlar indekisi.

Talab va chakana tovar ayriboshlashni prognozlashda chiziqli va bosqichli modellar qo'llaniladi.

Bizning misolda modellarning umumiy ko'rinishi quyidagicha:

$$Y = a_0 + a_1x_1 + a_2x_2 + a_3x_3$$

$$y = e^{a_0} x_1^{a_1} x_2^{a_2} x_3^{a_3}$$

Misolni EHM yechib, quyidagi modelni olamiz:

$$Y = 47,016 + 1,27x_1 - 0,194x_2 + 0,396x_3$$

$$Y = e^{-2,027} x_1^{1,23} x_2^{-0,193} x_3^{0,399}$$

Ikki model ham adekvat $F_{ras} > F_{tab}$. Bundan tanlab olingan omillar tovar ayriboshlashga nisbatan adekvat ekanligi kurinadi. Prognozlash uchun eng qulay modelni tanlash korrelyatsiya va determinant $R = 0,886$ bilan amalga oshiriladi.

Bosqichli modellashtirishda ular nisbatan katta. Shuning uchun u chakana tovar ayriboshlashni prognozlash uchun tanlangan. Xisoblash uchun ko'proq yaroqli ko'rinish quyidagicha:

$$\ln Y = 2,027 + 1,23 \ln x_1 - 0,193 \ln x_2 + 0,399 \ln x_3$$

Prognozlash qiymatlarining omillarini bilgan xolda x_1, x_2, x_3 lar chakana tovar ayriboshlash prognozini aniqlaydi. Masalan, prognozlash davri so'ngida (yil) x_1 kattaligi 116,5 % ni tashkil etadi, x_2 113,6%, x_3 102%. Bu qiymatlarni modelga qo'yib, $\ln u = 4,819$ yoki $u = 23,3\%$ ni olamiz, shuningdek, prognozlash davrining oxiriga kelib, oziq-ovqat maxsulotlarining chakana tovar ayriboshlashi 23,5%ga ortadi, bundan uning so'ndagi qiymatini aniqlash mumkin.

Aholi talabini aniqlashning boshqa bir usuli modellashtirish usuli hisoblanadi.

$$\sum_j a_{ij} x_j = \theta_i$$

a_{ij} -mahsulot iste'molining miqdori ij- to'liq o'suvchi (polovozrastnoy) guruhi;

x_j -to'liq o'suvchan (polovozrastnoy) guruhining j- qiymati;

v_i - I mahsulotga bo'lgan talab.

14.3. Madaniyatni taraqqiy ettirishni prognozlash.

Madaniyatni taraqqiy ettirish prognozlari va dasturlarida madaniy-ma'rifiy muassasalarni (klublar, kutubxonalar, madaniyat uylari va boshqalar) rivojlantirish masalasi qo'yiladi.

Boshlangich qiymatlar quyidagicha:

– madaniy muassasalar bilan aholining ta'minlanganligi;

- shahar va qishloq aholisining o'sish soni;
- shaharlar sonining o'sishi;
- madaniy muassasalarning moddiy bazasi holati va ulardan foydalanish darajasi.

Ta'minlanganlik me'yorlari, ya'ni saqlanayotgan har ming bog yoki 1 kutubxonaga 700 kishi, 1 klub uchun 1000 kishi, shuningdek, shahar aholisi soniga nisbatan hiyobonlar (boglar) va boshqalar hisobiga ko'ra prognoz amalga oshiriladi.

Nashr mahsulotlarining chiqarilishi soni, o'quv yurtlari, kutubxonalar talablariga va boshqalarga ko'ra, qogoz resurslari hamda nashriyotlarning quvvatini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Bu yerda ishlab chiqarish harajatlarini kamaytiruvchi va ayni vaqtda aholining nashr mahsulotlariga bo'lgan talabini qoniqtiruvchi modelni qo'llash mumkin:

- P_i -maksimal mahsulotdagi tayyor harajatlar;
- X_i -i turdagi mahsulotning ishlab chiqarish hajmi;
- a_{ij} - turdagi qogozning har bir mahsulot uchun sarf;
- B_i -i mahsulotga bo'lgan talab
- $x_i \geq 0$

Qisqacha xulosalar.

Ijtimoiy rivojlanish va turmush darajasini ko'tarishni prognozlashning asosiy masalasi eng avvalo axolining kelajakdagi talab–extiyojlarini aniqlash va ularni qondirish imkoniyatlarini xisoblashdir.

Bu soha prognozlari tizimini umumiy boglanishni va mantiqiy ketma–ketlik bo'yicha prognozlar ishlab chiqishni ta'minlovchi kompleks ko'rsatkichlarga asoslanadi.

Ehtiyojni va chakana toovar ayirboshlash prognozlari turmush darajasining ko'tarilishi va iste'mol bilan chambarchas bogliq. Talab va chakana toovar ayirboshlashni prognozlashda asosan korrelatsion–regression tahlil usulidan foydalaniladi.

Maishiy xizmatni prognozlari ishlab chiqishda murakkab muammo bo'lib aholini talabini aniqlovchi omillar hisoblanadi.

Tibbiyotni prognozlari tuzishda normativ turdagi modellardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Turmush darajasini qanday ko'rsatkilar ifodalaydi?
2. Aholining talab-ehtiyoji?
3. Chakana tovar ayriboshlash prognozi?
4. Maishiy xizmatlarni prognozlash modellari?
5. Oliy maktab taraqqiyotini prognozashtirish?
6. Sogliqni saqlash rivojlanish modellari?
7. Madaniyatning rivojlanish modellari?

Asosiy adabiyotlar.

1. Irmatov M.M., Xaydarov M.T. «Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni prognozashtirish» O'quv qo'llanma T.: TDIU 2004 yil.
2. Тарасевич Л.С., П.И.Гребенников, А.И.Леусский Макроэкономика Учебник 5-е издание М. Юрайт 2004г. 654с.
3. Г.А.Куторшевский «Экономика» основы теория Учебное пособие изд. «Экономика» 2004. 382с.
4. Под редакцией К.А.Хубиева Экономический рост и фактор развития современной России М. ТЕИС 2004. 726с.
5. Б.М.Накрярекий Мировая экономика М. «Международные отношения» 2004. 424с.

XV BOB. MINTAQADA SOG'LIQNI SAQLASH VA TA'LIM TARMOQLARI KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASHTIRISHNING USLUBIY ASOSLARI.

15.1. Sog'liqni saqlash tizimini prognozlash ko'rsatkichlari.

Sog'liqni saqlash tizimini prognozini ishlab chiqishda normativ turdagi modelni qo'llash maqsadga muvofiq. Sog'liqni saqlashni prognozlash uchun asosiy daraja hududdagi aholi sonini va aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish me'yorlari prognozini aniqlovchi tenglama hisoblanadi.

Tibbiy xizmat ko'rsatish darajasini harakterlovchi asosiy ko'rsatkichlar quyidagicha: kasalxonalaridagi o'rinlar soni; vrachlik lavozimlari soni, aholi orasida tibbiy muassasalarga tashrif buyuruvchilari soni, dorihonalar soni, dam olish muassasalarining rivojlanganligi. Masalan, aholining tibbiyot kadrlari bilan ta'minlanganligi prognoz qiymatini aniqlash kerak bo'lsin. Buni murakkab bo'lmagan yo'l bilan hal etish mumkin.

1. Aholi sonining prognozini va 1 ming yoki 10 ming kishiga me'yorlar asosida to'g'ri keladigan vrachlar soni (shuningdek, yillar va mutahassislar bo'yicha) prognozini aniqlash.

2. Mavjud iqtisodiy-matematik modellarni qo'llash orqali.

Dorihonalarning soni amaldagi me'yorlar asosida mamlakat miqyosida 9 ming kishiga 1 dorihona, shaharlarda 7 ming kishiga 1 dorihona, qishloq joylarida va aholi yashash punktlarida ham shaharlarda 10-50 ming aholiga 1-10 ming kishi

50-100 ming aholiga 1-12 ming kishi

100500 ming aholiga 1-13 ming kishi

1 mln. va undan ortiq 1-20 ming kishi

Shuningdek, bu erda me'yorlarni bilishimiz ham zaruriydir.

15.2. Ta'lim tizimining prognoz ko'rsatkichlari.

Zamonaviy sharoitda ta'limning holatini prognoz qilish o'ziga hos xususiyatga egadir. Islohotlar davrida fuqarolarning ta'limga nisbatan konstitutsion huquqlarini amalga oshirish bo'yicha talay ishlar amalga oshirildi. Ta'lim tizimini prognoz ko'rsatkichlari quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim

Maktabgacha ta'limni prognozlash amalga oshirishda quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ishlar hisobga olinadi:

- bozor munosabatlariga asoslangan maktabgacha ta'lim tarkibini optimallashtirish;

- maktabgacha ta'limni mintaqaviy, maqalliy va tarmoq mablag'larinig o'zaro aloqasi asosida moliyalashtirish manbalariga o'tish;

- oilada maktabgacha yoshdagi bolani tarbiya qilishda maktabgacha ta'limning turli tarkiblaridan foydalanish.

Umumiy o'rta ta'lim

Umumiy o'rta ta'lim bo'yicha quyidagilar hisoblanadi:

- davlatning umumiy o'rta ta'lim tizimini saqlash va unda milliy va mintaqaviy jihatlarni hisobga olish;

- umumiy o'rta ta'limda kompleks holda yangi ahborot texnologiyalaridan foydalanish, umumiy ta'limning pedagogik vositalarini kuchaytirish;

- umumiy o'rta ta'limda qobiliyatli bolalarga va chegaralangan imkoniyatli bolalarni ta'lim olishini qo'llabquvvatlash.

Boshlanqich professional ta'lim

- boshlanqich professional ta'limni rivojlantirish va uni saqlab qolish;

- boshlanqich professional ta'limda tarkibiy o'zgarishlar va Mehnat bozorining mintaqaviy jiqatlarini hisobga olgan holda kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlashni shakllantirish;

- boshlanqich professional ta'limda korhona va tarmoqlar bilan o'zaro integrasiiyani kuchaytirish.

O'rta professional ta'lim

- o'rta professional ta'limni rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan ququqiy-normativ asoslarini amalga oshirishni takomillashtirish;

- mintaqaviy Mehnat bozorida talabi yuqori bo'lgan o'rta professional ta'limni rivojlantirish;

- o'rta professional va oliy ta'lim orasidagi har qanday integrasiiyani rivojlantirish.

Oliy ta'lim

- O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini o'rta professional ta'limdan so'ng oliy ta'limga ega bo'lishlari uchun shart-sharoit yaratish;

- Davlatning va alohida shahslarning qiziqishlarini hisobga olgan holda oliy ta'limni rivojlantirishni shakllantirish;

- oliy ta'lim tizimini amaliyot bilan bog'liqligini kuchaytirish va ularning bazasida mintaqaviy o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish kompleksini rivojlantirish;

-oliy ta'lim va undan keyingi ta'lini moliyalashtirishda konsolidlashgan davlat byudjetini barcha darajasidan, nobyudjet mablag'laridan va aholi mablag'laridan davlat tomonidan moliyalashtirishning minimal normativlarini ta'minlash uchun foydalanish.

Qo'shimcha ta'lim

-davlat va nodavlat qo'shimcha ta'lim tashkilotlarini saqlab qolish, rivojlantirish, qo'llab-quvvatlash;

-qo'shimcha ta'limga bo'lgan talabni o'rganish va u asosida qo'shimcha ta'limni faoliyat yuritishini talab darajasida amalga oshirish;

-qo'shimcha ta'lim tizimida taqsil olayotganlarni sifatsiz ta'limdan ijtimoiy muhofaza qilish uchun lisenziyalash, attestasiyalash va akkreditasiyalashni amalga oshirish.

Demak, ta'lim tizimini prognoz qilishda maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, boshlanqich professional ta'lim, o'rta professional ta'lim, oliy ta'lim, qo'shimcha ta'lim ko'rsatkichlari asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini kompleks prognoz qilish ko'rsatkichlari

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini prognoz ko'rsatkichlarini amalga oshirishda iqtisodiy-matematik modellash apparatlaridan foydalanish muhim hisoblanadi. Buning uchun birinchi sinfga qabul qiluvchi o'quvchilar sonini aniqlash muhimdir.

Birinchi sinfga qabul qilinuvchilar soni prognozi

Ushbu prognozda etti yoshdagi bolalarning demografik prognozlari va boshqa faktorlar hisobga olinadi.

Prognozning umumiy usuli sifatida quyidagilar belgilanadi:

X_n – birinchi sinfga qabul n -kalendar yili uchun;

$N_n^{(6)}$ –olti yoshli bolalar soni n -kalendar yili uchun;

$N_n^{(7)}$ –etti yoshli bolalar soni n -kalendar yili uchun, qaysiki, maktabda $(n-1)$ yilda o'qimaganlar;

$N_n^{(8)}$ –sakkiz yoshli bolalar soni n -kalendar yili uchun, qaysiki, maktabda $(n-1)$ yilda o'qimaganlar;

$P_n^{(6)}$ –olti yoshli bolalar soni, umumiy olti yoshga kirganlar tarkibidan n -kalendar yili uchun maktabga qabul qilinganlari;

$P_n^{(7)}$ –etti yoshli bolalar soni, umumiy etti yoshga kirganlar tarkibidan n -kalendar yili uchun maktabga qabul qilinganlari.

O'rta maktab ta'limiga qabul qilingan bolalar soni quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$X_n = P_n^{(6)} N_n^{(6)} + P_n^{(7)} N_n^{(7)} + N_n^{(8)}$
 $N_n^{(6)}$, $N_n^{(7)}$, $N_n^{(8)}$ ko'rsatkichlar demografik prognoz ma'lumotlari orqali hisoblanadi. $P_n^{(6)}$, $P_n^{(7)}$ ko'rsatkichlari esa bir qancha baza davri uchun dinamik qatorlarni qayta ishlash prognozi natijasiga ko'ra aniqlanadi.

Baza davri uchun ko'rsatkichlar asosan quyidagi formula orqali qisoblanadi:

$$P_n^{(6)} = N_n^{-(6)} / N_n^{(6)} ; P_n^{(7)} = N_n^{-(7)} / N_n^{(6)} ; n=(b+1), b+1...+n+m$$

Bu erda m —baza davridagi yil soni, $N_n^{-(6)}$ —olti yoshdan maktabga qabul qilingan bolalar soni; $N_n^{-(7)}$ — etti yoshdan maktabga qabul qilingan bolalar soni.

Ikkinchi yilga qolgan o'quvchilarni prognoz koeffitsienti

O'quvchilarning umumiy sonidan ikkinchi yil o'qishda qolgan o'quvchilar soni maktab kontingentini oshishiga olib keladi.

Ushbu prognozni amalga oshirishda dinamik qatorlar tahlili shuni ko'rsatdiki, qishloq joylarida va shaharlarda ikkinchi yil o'qishda qolgan o'quvchilar soni kamayish tendentsiyasiga ega va u holda vaqtga bog'liq bo'lgan funktsiya sifatida qaraladi. Bu erda ushbu prognoz uchun eng samarali holda prognoz quyidagi funktsiya ko'rinishiga ega bo'ladi:

$$Y=(a_0 + a_1 t + a_2 1/t)^{-1}$$

Bu erda a_0 , a_1 , a_2 ...—regressiya koeffitsientlaridir.

Mintaqa hududida o'quv kompleksini joylashtirish hozirgi sharoitda maktab tizimini yanada rivojlantirish maqsadida ma'lum hududning o'zida rayonlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Istiqbolda mintaqada joylashgan o'quv kompleksini yanada yaxshilashda birinchi navbatda shu hududdagi demografik ko'rsatkichlar, raonlashtirishning geografik va milliy xususiyatlari hisobga olinishi lozim. Shu bilan bir qatorda maktab va boshqa o'quv muassasalarini joylashishi, o'quvchilarning minimal tashish hajmi hisobga olinishi lozimki, ular chiziqli programmalash masalalari bilan taaluqlidir. Prognoz qilinayotgan davrda ta'lim tizimini optimal joylashtirishning matematik modelitni tuzishda quyidagi modeldan foydalanamiz:

i, j –rayonlarning aholi punktlari indekslari ($i, j = 1, 2, \dots, n(t)$), bu erda $n(t)$ –aholi punktlarining t - yildagi soni; K –ta'lim tili indeksi, bu erda asosan o'qishning ikki tili, ya'ni o'zbek va rus tilalri hisobga olinadi va o'z navbatida 1,2 ni qabul qiladi.

Chiziqli dasturlashda o'quvchilarning qisqa vaqt ichida o'z turar joylaridan o'qishlarigacha optimal joylashtirish masalasi turadi.

Matematik masala esa $y_{ij}^{(K)}(t)$

hajmini topish chiziqli funktsionalni minimumga erishtirishi lozim:

$$F(\mathbf{x}) = \sum_i \sum_{k=1}^3 \sum_{j=1}^{n(t)} \phi_{ij} y_{ij}^{(K)}(t) \sigma_{ij}^{K(t)}$$

quyidagi chegaralanishlar hisobga olganda :

1) j aholi punktidan i punktga olib boriladigan o'quvchilarning soni manfiy bo'lmasligi lozim:

$$y_{ij}^{(K)}(t) \geq 0$$

2) barcha punktlardagi barcha o'quvchilar to'liq qamrab olingan bo'lishi lozim:

$$\sum_{j=1}^{K(t)} y_{ij}^{(K)}(t) = 1$$

3) agarda i punktda (K yildat) K til bo'yicha maktablarning umumiy o'rni mavjud bo'lsa, u holda i punktda o'quvchilarning umumiy soni shu o'rinlar sonidan oshmasligi lozim:

$$\sigma_{i \min}^{(t)} < \sum_{k=1}^3 \sum_{j=1}^{n(t)} y_{ij}^{(K)}(t) \sigma_{ij}^{K(t)} \leq \sigma_{i \max}^{(t)}$$

Ushbu masalani echimi natijasida esa aholi punktlari, maktabni qaerga joylashishi lozimligi, K –maktablarga biriktirilgan o'quvchilar soni,

$y_{ij}^{K(t)}$ o'quvchilar ko'lami, $\sigma_{ij}^{K(t)}$ punktda qo'shimcha o'quvchi joyiga ehtiyoj mavjudlagini aniqlaydi:

$$\sum_{k=1}^3 \sum_{j=1}^{n(t)} y_{ij}^{(K)}(t) \sigma_{ij}^{K(t)} - N_i^{(t)}$$

Ushbu sxema orqali umumta'lim maktablarining birinchi sinfdan to'qqizinchi sinfigacha bo'lgan o'quvchilarni joylashishi prognozashtiriladi.

Oliy ta'limdagi talabalar soni, maxsus ta'limdagi o'quvchilar soni ham ko'p omilli regression–korrelyatsion model orqali yuqorida keltirilgan omillar natijasiga ko'ra aniqlanadi.

Umumta'lim maktabidagi o'quvchilar sonini aniqlash modeli:

$$Y_2 = a_0 + a_1x_1 + a_2x_2 + a_3x_3 + a_4x_4 + a_5x_5 + a_6x_6 + a_7x_7 + a_8x_8$$

Kollej va oliy ta'limdagi talabalar sonini aniqlash modeli:

$$Y_3 = a_0 + a_1x_1 + a_2x_2 + a_3x_3 + a_4x_4 + a_5x_5 + a_6x_6$$

Maktabgacha ta'lim muassasalari, aspirant, doktorantlarni soni esa kichik hajmdagi ekstropolyatsiya usuli orqali hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan prognoz usuli orqali O'zbekiston Respublikasining aniq mintaqasi miqyosida ta'lim sohasidagi prognoz ko'rsatkichlarini hisoblash mumkin.

Qisqacha xulosa

Tibbiy xizmat ko'rsatish darajasini harakterlovchi asosiy ko'rsatkichlar quyidagicha: kasalxonalaridagi o'rinlar soni; vrachlik lavozimlari soni, aholi orasida tibbiy muassasalarga tashrif buyuruvchilari soni, dorihonalar soni, dam olish muassasalarining rivojlanganligi.

Ta'lim tizimini prognoz ko'rsatkichlari quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi: maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, boshlanqich professional ta'lim, o'rta professional ta'lim, oliy ta'lim, qo'shimcha ta'lim.

Nazorat uchun savollar

1. Sog'liqni saqlash ko'rsatkichlarini prognoz qilishda mintaqaning qaysi xususiyatlarini hisobga olish zarur?
2. Ta'lim sohasini prognoz qilishda ta'limning qanday turlariga ahamiyat qaratilishi lozim?
3. Ijtimoiy sohani tartibga solishda sog'liqni saqlash va ta'lim ko'rsatkichlarining ahamiyati qanday?
4. Nima uchun ta'lim sohasini prognoz qilishda qo'shimcha ta'limni hisobga olish lozim?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. I.A.Karimov Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari-T.: O'zbekiston, 56 b.

2. Abdullaev A.M., Abdurahmanov O.K., Zokirova N.K. Prognozirovaniye i modelirovaniye natsionalnoy ekonomiki. Uchebnik. - T.: Fan va texnologiya, 2007. - 576 s.

3. Abdullaev A.M., Irmatov M.M., Haydarov M.T., Ashurova D.S. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni prognozlashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2006. - 249 b.

4. Irmatov M.M., Haydarov M.T. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning prognozlashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004.

5. Li A.N. Maqalliy tuzilmalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni prognoz qilish. O'quv qo'llanma. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamharmasi nashriyoti. - T.: 2004.

XVI BOB. YALPI HUDUDIY MAXSULOTNI PROGNOZ QILISH

16.1. Joriy va taqqoslama narxlarda yalpi hududiy maxsulotni hisoblash

Hudud iqtisodiyotining umumlashgan tavsifini namoyon etuvchi asosiy ko'rsatkich -yalpi hududiy maxsulot(YAqM)ning prognozlantirilayotgan darajasini hisoblash bo'yicha yo'riqnomani Iqtisodiyot vazirligining Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni prognozlash va monitoringi bo'limi tomonidan milliy hisobchilikning umumiy tamoyillariga muvofiq tushuvchi metodologiya asosida ishlab chiqiladi.

YAlpi hududiy maxsulot- muayyan davr mobaynida mintaqada hududida ishlab chiqarilgan tarmoqlar yalpi qo'shilgan qiymatining yig'indisini namoyon etadi. Yalpi hududiy maxsulot yahlit holdagi mamlakat iqtisodiyoti uchun hisoblanuvchi yalpi ichki maxsulot(YAIM) ko'rsatkichining hudud darajasidagi ko'rinishi hisoblanadi, biroq u bilan aynan bir hil bo'lmaydi. Barcha hududlardagi Yalpi hududiy mahsulotning yig'indisi butun iqtisodiyot bo'yicha YAIMni tashkil etmaydi. Ular o'rtasida ma'lum uslubiy tafovutlar mavjud. Bu tafovutlar YAIM tarkibida hududlar bo'yicha taqsimlab bo'lmaydigan unsurlarning mavjudligi bilan bog'liq.

Yo'riqnoma real sektor hamda iqtisodiy indikatorlarning rivojlanishi monitoringi asosida YAqM(yalpi hududiy mahsulot)ning prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqarish usuli orqali hisoblash uchun tuzilgan. Hududlar uchun hisoblashning ushbu usulini qo'llash ma'lumotlar bilan ta'minlanganlik hamda etarli darajada ishonchli natijalarni berish nuqtai nazaridan nisbatan maqbul hisoblanadi.

16.2. YaqMni hisoblashda tarmoqlarni prognozlash yo'llari

Sanoat. Tarmoqlarning qo'shilgan qiymati prognozlash tovar mahsuloti yalpi ishlab chiqarishi va hajmlari prognozi asosida amalga oshiriladi.

"Tovar mahsuloti" va "yalpi ishlab chiqarish" ko'rsatkichlari aynan bir hil emas. SHuning uchun hisobot davridagi maxsulot ishlab chiqarishni baholashda tovar mahsuloti ko'rsatkichlariga quyidagi tuzatishlar qo'llaniladi:

- ilmiy-tehnikaviy maxsulot chegirib tashlanadi;
- yoqoch tayyorlash qiymati chegirib tashlanadi;

- baliq xo'jaligi mahsulotlari(konserva mahsulotlaridan tashhari) qiymati chegirib tashlanadi;

- tugallanmagan ishlab chiqarish, yarimfabrikatlar va asbob-uskunalarining qiymatidagi o'zgarishlar qo'shiladi;

- mahsus muassasalar tomonidan tayyorlangan EqM uchun dasturiy mahsulotlar qiymati chegirib tashlanadi;

- bitta korxonaning turli bo'linmalari o'rtasidagi ichki zavod aylanmasining bir qismini namoyon etuvchi har qanday tovar va hizmalarni etkazib berish qiymatlari qo'shiladi.

Prognoz darajasida yalpi ishlab chiqarish hajmini hisoblash uchun bunday tuzatishlarni bir qator o'tgan yillarda tarkib topgan tarmoq

$$\text{Sanoat yalpi ishlab chiqarish hajmi prognozi} = \frac{\text{Tovar mahsulot prognozi} \cdot \text{Yalpi ishlab chiqarish va tovar mahsuloti nisbati}}{100}$$

yalpi ishlab chiqarish va tovar mahsulotlari hajmi nisbati dinamikasi bo'yicha amalga oshirish lozim.

Tovar mahsuloti(amaldagi narxlarda) prognoz hajmlarining hisob-kitobi tarmoq korhonalari tomonidan mavjud uslubga muvofiq amalga oshiriladi.

Prognoz darajasidagi oraliq iste'mol hajmi qator yillar davomida tarkib topgan oraliq mahsulotning ishlab chiqarish hajmidagi ulushi bo'yicha hisoblab topiladi.

$$\text{Prognoz davridagi oraliq iste'mol} = \frac{\text{Prognoz davridagi yalpi ishlab chiqarish hajmi}}{\text{Oraliq mahsulotning yalpi ishlab chiqarish hajmidagi ulushi}}$$

Qo'shilgan qiymat yalpi ishlab chiqarish hamda oraliq iste'mol o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

$$\text{Prognoz davridagi qo'shilgan qiymat} = \frac{\text{Prognoz davridagi yalpi ishlab chiqarish hajmi}}{\text{Prognoz davridagi oraliq iste'mol}}$$

Yalpi ishlab chiqarish va qo'shilgan qiymatni taqqoslama narxlarda qayta baholash o'tgan yilning (hisobot, baza davri) tegishli davridagi qiymat ko'rsatkichlarini ishlab chiqarilgan mahsulot fizik hajmi indeksi bo'yicha ekstropolyasiya qilish orqali amalga oshiriladi:

Baza davridagi yalpi narxlaridagi ishlab chiqarish fizik hajmi

Sanoat mahsulotining / prognoz davri yalpi indeksi

Baza davridagi (taqqoslama narxlarda) hajmi ishlab chiqarish hajmi

Baza davridagi yalpi qo'shilgan qiymat

Sanoat mahsulotining / fizik hajmi indeksi

Baza davridagi narxlaridagi (taqqoslama narxlarda) prognoz davri qo'shilgan qiymati

Sanoat mahsulotining fizik hajmi indeksining prognoz hisob kitoblari quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

Maxsulot nomi	l. bir.	Baza davrida tarkib topgan o'rtacha yillik narx	Baza davri		Prognoz davri		
			miqdori	qiymati	miqdori	qiymati	Fizik hajmi Indeksi
		1	2	3 4 2	4	5 4 4	6
1-mahsulot							
2-mahsulot							
.....							
				Jami		Jami	645/3 100 %

Prognoz davridagi joriy narxlarda sanoatdagi qo'shidgan qiymatni hisoblash uchun indeks deflyatorning prognoz qiymatlaridan foydalaniladi.

Mazkur indeksi siqatida sanoat korhonalari ulgurji narxlarining o'rtacha indeksi bo'yicha prognoz ma'lumotlaridan foydalanish kerak bo'ladi.

Baza davri narxlaridagi (taqqoslama narxlarda) prognoz davri yalpi ishlab chiqarish hajmi

Sanoat mahsulotining / indeks deflyatori

Joriy narxlardagi prognoz davri yalpi ishlab chiqarish hajmi

Joriy narxlardagi prognoz davri yalpi ishlab chiqarish hajmi

– Prognoz davridagi oraliq iste'moli

Joriy narxlardagi prognoz davri qo'shilgan qiymati

Qo'shilgan qiymat bo'yicha sanoat mahsulotining indeks deflyatori	=	joriy narxlardagi prognoz davri prognoz davri qo'shilgan qiymati	/	Baza davri narxlaridagi (taqqoslama narxlarda) prognoz davri qo'shilgan qiymati
---	---	--	---	---

Qishloq xo'jaligi. Tarmoqning qo'shilgan qiymati prognozi qishloq xo'jaligi yalpi ishlab chiqraishi va yalpi maxsulot ishlab chiqarish prognozi asosida amalga oshiriladi. Tarmoqning yalpi ishlab chiqarish ko'rsatkichi qishloq xo'jaligi mahsulotidan tashhari quyidagilarni ham o'z ichiga oladi:

- o'rmon xo'jaligi;
- baliq xo'jaligi;
- qishloq xo'jaligiga hizmat ko'rsatuvchi tarmoqlardagi ishlab chiqarish.

Shunga ko'ra, tarmoq yalpi ishlab chiqraish hajmini hisoblash uchun prognoz narxlardagi qishloq xo'jalik mahsulotlari qiymatini o'tgan bir qator yillar yoki so'nggi hisobot davridagi yalpi ishlab chiqarish hajmidagi maxsulotning ulushi bo'yicha hisoblab chiqish kerak.

Qishloq xo'jaligining yalpi mahsuloti	∅	qishloq xo'jaligi yalpi ishlab chiqarishi va yalpi mahsuloti hajmi nisbati	/100%	Yalpi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmi
---------------------------------------	---	--	-------	--

Prognoz narxlardagi oraliq iste'mol va qo'shilgan qiymat hisob - kitoblari sanoat bo'yicha hisob-kitoblarga o'hshash tarzda amalga oshiriladi.

Yalpi ishlab chiqarish va qo'shilgan maxsulotni o'tgan yilning tegishli davri taqqoslama narxlarida qayta baholash o'tgan yil qiymat hajmlarini xo'jalikning barcha toifalaridagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish fizik hajmi indeksini hisob -kitob qilishning belgilangan uslubi bo'yicha baza davri narxlarida ekstropolyasiyalash orqali amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jaligi yalpi ishlab chiqarishi indeks deflyatori sifatida qishloq xo'jaligi mahsulotining o'rtacha prognoz narxi indeksidan foydalaniladi.

Qurilish. Tarmoq qo'shilgan qiymatini prognozlash yalpi ishlab chiqarish va qurilish pudrat ishlari hajmining prognozi asosida amalga oshiriladi.

qurilish tarmog'i yalpi ishlab chiqarishini baholash uchun qurilish pudrat ishlari hajmiga quyidagilarni qo'shgan holda hisoblash kerak:

- loyiha qidiruv ishlari qiymati;
- ekspluatatsiyaga oid burg'ulash qiymati;
- boshqa kapital ishlar va sarflar;
- bino va inshootlarni kapital ta'mirlash;
- pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan ishlarining hajmlari o'z ichiga qo'shilgan qiymat soliqini olsa, u holda takroriy hisobning oldini olish maqsadida qqsni hajmlardan chegirib tashlash lozim.

Tarmoq bo'yicha prognozni tuzish darajasida prognoz narxlaridagi qurilish pudrat ishlari hajmini qator yillar yoki so'nggi hisobot davri mobaynidagi yalpi ishlab chiqarish va qurilish pudrat ishlarining tarkib topgan nisbati bo'yicha yalpi ishlab chiqarishga qadar hisoblab etkazish mumkin.

Prognoz Davridagi qurilish pudrat ishlari hajmi	φ	qator yillar yoki so'nggi hisobot davri mobaynidagi yalpi ishlab chiqarish va qurilish pudrat ishlarining nisbati	$/100 =$	Prognoz davri joriy narxlardagi yalpi qurilish ishlab chiqarish
Prognoz davrida joriy narxlardagi yalpi qurilish ishlab chiqarishi	$-$	Prognoz davrida qurilish pudrat ishlarining oraliq iste'moli	$=$	Prognoz davrida joriy narxlardagi qurilish pudrat ishlarining qo'shilgan qiymati

Yalpi ishlab chiqarish va qo'shilgan mahsulotni o'tgan yilning tegishli davri taqqoslama narxlarda qayta baholash prognozlantirilayotgan davridagi qurilish pudrat ishlarining fizik hajmi (o'sish sur'ati) indeksi bo'yicha o'tgan yilgi qiymat hajmlarini ekstrapolyasiyalash orqali amalga oshiriladi.

Tarmoq yalpi mahsuloti va qo'shilgan qiymati indeks deflyatori ushbu ko'rsatkichlarning joriy va taqqoslama narxlardagi, foizda ifodalangan nisbatiga teng.

Transport va aloqa. Transportning yalpi ishlab chiqarishi va qo'shilgan qiymatini prognozlash transport alohida turlarining yuk va passajirlarni tashishdan olinadigan daromadlarining prognozi asosida amalga oshiriladi.

Prognoz yili narxlaridagi tashishdan olinadigan daromadlar(yalpi ishlab chiqarish)ni transport hizmatlari narxlari va tariflarining

prognozashtirilayotgan indeksi hamda yuk va passajirlarni tashish bo'yicha taqdim etilayotgan xizmatlar fizik hajmi indeksidan kelib chiqqan holda aniqlash mumkin.

So'nggi hisobot yili yoki o'tgan bir qator yillar mobaynidagi tashishning alohida turlari bo'yicha oraliq iste'molning yalpi ishlab chiqarishdagi tarkib topgan ulushidan kelib chiqqan holda oraliq iste'mol hisoblanadi.

Qo'shilgan qiymat yalpi ishlab chiqarish hamda oraliq iste'mol o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Hududlardagi tarmoq yalpi ishlab chiqarish va qo'shilgan qiymatining hisob-kitoblari yuk va passajirlarni transportda tashish turlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Tarmoqdagi o'sish sur'atini hisoblash uchun prognoz hajmlari qiymatini transport xizmatlari tariflaridagi o'zgarishlar indeksiga bo'lish orqali yalpi ishlab chiqarish va qo'shilgan qiymatni baza davri taqqoslama narxlariga qayta baholash amalga oshiriladi.

Aloqa. Tarmoqning qo'shilgan qiymatini prognozlash aloqa xizmati yalpi ishlab chiqarishi hamda undan olinadigan daromadlarning prognoz yili narxlaridagi prognoi asosida amalga oshiriladi. Aloqa xizmatidan olinadigan daromadlar tarmoqning yalpi ishlab chiqarishini namoyon etadi.

Daromadlar quyidagi tarzda prognoz qilinishi mumkin:

Baza davrida joriy narxlardagi aloqaning yalpi ishlab chiqarishi	U	Aloqa tarmog'i fizik hajmi indeksi	U	Aloqa xizmati tariflarining o'sish indeksi =	Prognoz davrida joriy narxlardagi aloqaning yalpi ishlab chiqarishi
--	---	------------------------------------	---	--	---

Aloqa tarmog'i fizik hajmi indeksi hisob-kitob miqdor ko'rsatkichlari (abonentlar soni, aloqa tarmog'ining uzunligi va boshqalar to'g'risidagi prognoz ma'lumotlari)ni baholash asosida amalga oshiriladi.

Qo'shilgan qiymat yalpi ishlab chiqarish va oraliq iste'mol o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Oraliq iste'mol o'tgan qator yillar yoki so'nggi hisobot yili mobaynida tarkib topgan ulush bo'yicha hisoblanadi.

Agar aloqa xizmatidan olinadigan daromadlar prognozashtirilgan choqda xizmatning fizik hajmi indeksi to'g'risidagi ma'lumot mavjud bo'lmasa, u holda hisob-kitobni deflyatsiya usuli orqali, ya'ni quyidagi tarzda amalga oshirish lozim bo'ladi:

Baza davrida joriy Narxlardagi Aloqaning yalpi Ishlab chiqarishi	Aloqa xizmati tariflarining o'sish indeksi	$\Psi 100 =$	Prognoz davrida baza davri narxlaridagi aloqaning yalpi ishlab chiqarishi
---	--	--------------	--

Savdo va umumiy ovqatlanish. "Savdo va umumiy ovqatlanish" tarmog'i hududlar kesimida ichki savdo, ijara shaqobchalari xizmatlari va kinofilmlar prokatini o'z ichiga oladi.

Ichki savdo ulgurji savdo, chakana savdo(sabzavotlarni saqlashni qo'shgan holda), umumiy ovqatlanish, mazkur faoliyat turlari ustidan xo'jalik boshqaruvi, halq iste'moli mollari ijarasi, savdoni amalga oshirishdagi barcha turdagi vositachilik faoliyatlarini hamrab oladi. U tashkil etilgan bozor (davlat va nodavlat savdo tashkilotlari) hamda tashkil etilmagan bozor (bozorlar, ko'cha savdosi) sifatida hisobga olinadi.

Tarmoqning yalpi ishlab chiqarishi va qo'shilgan qiymatini prognozlash chakana va ulgurji savdo aylanmasini prognozlash asosida bajariladi. Prognozlash chakana va ulgurji savdolar bo'yicha alohida amalga oshiriladi.

Chakana savdoning yalpi ishlab chiqarishi(ichki savdo) tovarlarni sotib olish hamda sotish qiymatlari o'rtasidagi farqni namoyon etuvchi savdo ustamasi(sotilgan tovar qiymatiga qo'shilgan qaq) miqdori orqali o'lchanadi, ya'ni amaliy jihatdan bu savdo tashkilotlarining yalpi daromadini tashkil etadi. Prognoz davri uchun bu daromad (sotilgan tovar qiymatiga qo'shilgan qaq)nichakana savdo aylanmasi prognozi hamda yalpi ishlab chiqarishning statistik ma'lumotlar bo'yicha so'nggi hisobot yilidagi chakana savdo aylanmasidagi ulushidan kelib chiqqan holda hisoblash mumkin.

Oraliq iste'mol so'nggi hisobot yilida yalpi ishlab chiqarishdagi ulushi bo'yicha prognoz qilinadi. Qo'shilgan qiymat yalpi ishlab chiqarish bilan oraliq iste'mol o'rtasidagi farq sifatida hisoblanadi.

Qator hisobot yillar davomida yalpi ishlab chiqarishdagi oraliq iste'molning ulushi bo'yicha oraliq iste'mol hisoblanadi(respublika bo'yicha o'rtacha 34,6%).

Qo'shilgan qiymat yalpi ishlab chiqarish va oraliq iste'mol o'rtasidagi farqqa teng.

Kinoprokat va ijara shaqobchalari xizmatlari bo'yicha yalpi ishlab chiqarish va qo'shilgan qiymatning prognozi uning so'nggi hisobot yilidagi butun tarmoqning yalpi ishlab chiqarish va qo'shilgan qiymatidagi ulushi bo'yicha amalga oshiriladi.

Ichki savdoning haqiqiy o'sish sur'atlarini aniqlash uchun yalpi ishlab chiqarish va qo'shilgan qiymatning prognozi uning so'nggi hisobot yilidagi butun tarmoqning yalpi ishlab chiqarishi va qo'shilgan qiymatidagi ulushi bo'yicha amalga oshiriladi.

Boshqa hizmat ko'rsatish tarmoqlari. Boshqa hizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlariga qo'llanilayotgan hisob-kitoblar shemasi bo'yicha quyidagi hizmat ko'rsatish tarmoqlari kiritiladi:

Moddiy ishlab chiqarish sohasi hizmat ko'rsatish tarmoqlari:

Moddiy-tehnika ta'minoti va sotish;

Geologiya va er qa'rini kuzatish;

Tayyorlov;

Ahborot-tehnika hizmat ko'rsatish;

Bozorning amal qilishini ta'minlash bo'yicha umumiy tijorat faoliyati;

Ko'chmas mulk operasiiyalari;

Moddiy ishlab chiqarish sohasining boshqa faoliyat turlari.

Nomoddiy soha hizmat ko'rsatish tarmoqlari quyidagilarga ajratiladi:

Uy joy xo'jaligi;

Kommunal xo'jalik;

Aholiga maishiy hizmat ko'rsatish;

Sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport;

Ijtimoiy ta'minot;

Halq ta'limi;

Madaniyat va san'at;

Fan va ilmiy hizmat ko'rsatish;

Moliya, kredit, sug'urt, pensiya ta'minoti;

Boshqaruv;

Jamoat birlashmalari.

Boshqa hizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarining yalpi ishlab chiqarishi va qo'shilgan qiymatini prognozlash pulli va pulsiz hizmat ko'rsatish bo'yicha alohida amalga oshiriladi.

Pulli hizmat ko'rsatish bo'yicha hizmat ko'rsatishdan olingan daromadlarning prognoz ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Bepul hizmat ko'rsatish bo'yicha prognozlash byudjet bajarilishining sarflar qismi ijtimoiy madaniy tadbirlarga, ma'muriy apparat hamda davlat boshqaruv idoralarini ta'minlash sarflarining prognoz ma'lumotlariga asoslanadi.

Olingan yakuniy ma'lumotlarni moddiy ishlab chiqarish sohasi tarmoqlarining so'nggi hisobot yilida tarkib topgan hizmat ko'rsatish

umumiy hajmidagi ulushi bo'yicha ishlab chiqarishi va qo'shilgan qiymati miqdoriga etkazib hisoblab qo'yilishi lozim.

Oraliq iste'mol o'tgan qator yillar yoki so'nggi hisobot davrida tarkib topgan yalpi ishlab chiqarishdagi ulushi bo'yicha hisoblanadi.

Pulli hizmatlar haqiqiy o'sish sur'atini aniqlash uchun yalpi ishlab chiqarish va qo'shilgan qiymatni o'tgan yildagi taqqoslama narxlarda qayta baholash prognozashtirilayotgan davrdagi pulli hizmatlar fizik hajmi indeksi orqali ekstropolyasiyalash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Bepul(nobozor) hizmatlarni qayta baholash Mehnat bo'limi ma'lumotlari bo'yicha prognozashtirilayotgan davrdagi noishlab chiqarish tarmoqlaridagi bandlar soni indeksi orqali ekstropolyasiyalash yo'li bilan amalga oshiriladi.

16.3. Mahsulotlarga solinadigan soliqlar

Prognozini amalga oshirish darajasida bozor narxlaridagi yalpi hududiy maxsulotni hisoblash uchun tarmoqlar qo'shilgan qiymati(asosiy narx) yig'indisiga mahsulotlardan olinadigan soliqlarni qo'shish kerak.

Mahsulotlardan olinadigan soliqlar tarkibiga QQS, aksiiz soliqi, birja bitimlaridan yiqimlar, reklama soliqi va boshqa soliqlar kiradi.

Bir qator uslubiy va tashkiliy texnologik sabablarga ko'ra, hududlar bo'yicha YaQM hisoblash uchun qator muhim jiqatlar tahminiy hisoblanadi, chunki hududiy darajada ishonchli ma'lumotlarning mavjud bo'lmasligi sababli mahsulotlardan olinadigan soliqlarni hisoblash ma'lum qiyinchiliklar tug'diradi.

Mahsulotlardan olinadigan soliqlarni prognozlash quyidagi soliq turlari bo'yicha alohida amalga oshiriladi:

QQS;

aksiiz soliqi.

Prognoz yili narxlaridagi soliqlarni prognozlash hududlar bo'yicha byudjet bajarilishining daromadlar qismini prognozlash ma'lumotlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Taqqoslama narxlardagi qayta baholash ekstropolyasiyalash usuli orqali amalga oshiriladi. QQS bo'yicha fizik hajm indeksi sifatida tarmoqlar(qishloq xo'jaligidan tashhari) qo'shilgan qiymatining fizik hajmi indeksi sifatida tarmoqlar tortilgan indeksi prognozi olinadi. Aksiiz soliqi uchun aksiiz tovarlarini ishlab chiqarish fizik hajmi yiqma indeksi prognozi olinadi.

O'rta yilgi Soliqlar(hisobot)	□	Fizik hajm indeksi prognozi	/	O'tgan yildagi taqqoslama narxlardagi soliq
----------------------------------	---	--------------------------------	---	---

Indeks deflyator narxlardagi soliq qiymati(byudjetning bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlar)ni taqqoslama narxlarda hisoblangan qiymatga bo'lish orqali aniqlanadi va foizlarda ifodalanadi.

Qisqacha xulosalar

Yalpi hududiy mahsulot- muayyan davr mobaynida mintaqa hududida ishlab chiqarilgan tarmoqlar yalpi qo'shilgan qiymatining yig'indisini namoyon etadi. Yalpi hududiy mahsulot yahlit holdagi mamlakat iqtisodiyoti uchun hisoblanuvchi yalpi ichki mahsulot(YAIM) ko'rsatkichining hudud darajasidagi ko'rinishi hisoblanadi, biroq u bilan aynan bir hil bo'lmaydi. Barcha hududlardagi YaQMning yig'indisi butun iqtisodiyot bo'yicha YAIMni tashkil etmaydi. Ular o'rtasida ma'lum uslubiy tafovutlar mavjud. Bu tafovutlar YAIM tarkibida hududlar bo'yicha taqsimlab bo'lmaydigan unsurlarning mavjudligi bilan bog'liq. YaQMni hisoblashda sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va aloqa, qurilish, savdo va umumiy ovqatlanish va boshqa tarmoqlar, jumladan xizmat ko'rsatuvchi, mahsulotlarga soliqlarning jamisi hisobga olinadi.

Nazorat uchun savollar

1. YaQMni prognoz qilishda qaysi tarmoq hisobga olinadi?
2. Joriy va taqqoslama narxlarda yalpi hududiy mahsulotni hisoblashning bir-biridan farqi nimada namoyon bo'ladi?
3. YaQMni prognoz qilishda sanoat yalpi ishlab chiqarish hajmi prognozi qanday aniqlanadi?
4. YaQMni prognoz qilishda qurilish tarmog'i yalpi ishlab chiqarishini baholash uchun nimani hisobga olish zarur?
5. Qaysi nomoddiy soha xizmat ko'rsatish tarmoqlari YaQMni prognoz qilishda hisobga olinadi?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. I.A.Karimov Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari-T.: O'zbekiston, 56 b.

2. Abdullaev A.M., Abdurahmanov O.K., Zokirova N.K. Prognozirovaniye i modelirovaniye natsionalnoy ekonomiki. Uchebnik. - T.: Fan va texnologiya, 2007. - 576 s.

3. Abdullaev A.M., Irmatov M.M., Haydarov M.T., Ashurova D.S. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni prognozlashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2006. - 249 b.

4. Irmatov M.M., Haydarov M.T. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning prognozlashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004.

5. Li A.N. Maqalliy tuzilmalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni prognoz qilish. O'quv qo'llanma. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamharmasi nashriyoti. - T.: 2004.

XVII BOB. EKONOMETRIK MODELLAR

17.1. Ekonometrik modellarga oid umumiy tushunchalar

Bizga ma'lumki ekstrapolyasiya usuli asosan prognoz qilinayotgan ko'rsatkichlarni vaqtga bog'liq holda prognozlashni tavsiflaydi. Lekin ko'p qollarda prognoz qilinayotgan ko'rsatkichlarni faqatgina vaqt omiliga boqlab bo'lmaydi. SHunga ko'ra modellarni aynan prognoz jarayonlarining o'zaro aloqador omillariga bog'liq holda ko'rib chiqishni taqozo etadi. Bu o'z navbatida ekonometrik modellarni tuzushga olib keladi. Ekonometrik modellarning eng keng tarqalgan yo'nalishi bu ishlab chiqarish funksiyalaridir. Ishlab chiqarish funksiyasini tuzishdan maqsad bu ishlab chiqarish jarayoni natijasida turli omillarning ta'sirini baholash hisoblanadi.

Ishlab chiqarishning eng keng tarqalgan yo'nalishi bu ishlab chiqraish resurslaridan samarali foydalanishdir. Ishlab chiqarish funksiyasini tuzish orqali Mehnat resurslari harajatlari, ishlab chiqarish fondlari, tabiiy resurslaridan rasiional foydalanishga yordam beradi. Ishlab chiqarish funksiyalari natijasiga ko'ra ishlab chiqarish natijaviyligini oshiradi. Tuzilgan model orqali milliy daromadning prognoz ko'rsatkichlarini va boshqa natijaviy iqtisodiy ko'rsatkichlarini qisqa va uzoq muddatga prognozashtirish imkoniyatigi hisoblaydi. Ishlab chiqarish funksiyasini faqatgina bitta omilga ta'siri hisobga olingan holda tuzilgan model quyidagicha ifodalaniladi:

$$y=f(x)$$

Ko'p qollarda ishlab chiqarish ko'p faktorli omillar orqali ifodalaniladi. Ko'p faktorli ishlab chiqarish funksiyalarini umumiy ko'rinishi quyidagichadir:

$$y= (x_1, x_2, x_n)$$

17.2. Ishlab chiqarish funksiyalarining asosiy xarakteristikasi

Iqtisodiy-matematik tadqiqotlar ishlab chiqarish funksiyalarining o'zaro bog'liqligi va shakliga ko'ra to'liq tahlil qilishga imkoniyat beradi va tadqiqot bo'yicha xulosalar berishga yordam beradi.

Ishlab chiqarishni eng keng tarqalgan funksiyasidan KobbaqDuglas funksiyasini ko'rib chihamiz.

Tasavvur qilamizki, butun halq xo'jaligi bo'yicha yalpi maxsulotni yaratilishida ikki asosiy faktor: yalpi Mehnat harajati va ishlab chiqraish

fondlariga bog'liq. Bunday bog'liqlikni funktsiya ko'rinishida quyidagicha ifodalasa bo'ladi:

$$y = a_0 x_1^{a_1} x_2^{a_2}$$

Bu erda y , x_1 , x_2 o'zgaruvchi ko'rsatkichlar, x_1 Mehnat harajatlari, x_2 ishlab chiqarish fondlari hajmi. a_0 , a_1 , a_2 o'zgarmas ko'rsatkichlar, ularning aniq sonini statistik ma'lumotlar korrelyatsion usullar orqali aniqlanadi.

Ishlab chiqarish funktsiyalarini prognoz qilishda bitta funktsiya tenglama emas, balki bir necha tenglamalar tizimi orqali ifodalanishi lozim.

Ekonometrik tenglamalar tizimini biz shartli ravishda uch ko'rinishga bo'lishimiz mumkin.

Birinchi shakldagi tenglamalar tizimi mustaqil tenglamalar bo'lib, ular alohida alohida ko'rib chiqiladi. Barcha mustaqil echilgan tenglamalar bitta yagona iqtisodiy matematik modalga birlashadi. Bunday tizimli tenglamalar tizimiga misol qilib, turli resurslar harajatlarini aniq belgilangan proporsiyalarda belgilashni taqozo etadi. Agarda ikki resursdan qaysi birining harajati minimalligini aniqlash lozim bo'lsa, u holda tengsizliklar tizimi quyidagicha bo'ladi:

$$X_1 \geq a_1 y; \quad x_2 \geq a_2 y.$$

Ishlab chiqarish jarayonlari tizimini texnologik xarakteristikasi harajatlar koeffitsienti orqali aniqlanadi:

$$a_1 = X_1 / y \qquad a_2 = X_2 / y$$

Ikkinchi tipdagi tenglamalar tizimi statik xarakterga ega. Bu erda ikki hil o'zgaruvchilar asosiy hisoblanadi. Bular endogen va ekzogen o'zgaruvchilardir. Endogen o'zgaruvchilar bular tizim ichida o'zgaruvchilar hisoblanadi. Ekzogen o'zgaruvchilar esa tashqi o'zgaruvchilar hisoblanadi.

Uchinchi tipdagi tenglamalar dinamik tizimlar hisoblanib, vaqt oralig'idagi qatorlarni hamrab oladi va o'zgaruvchilarni faqatgina har davrga bog'liq bo'lmay balki oldingi davrga ham bog'liq bo'ladi.

17.3. Iqtisodiy o'sishni ekonometrik modeli

Iqtisodiy o'sishni prognozlash ekonometrik prognoz talablarini hisobga oladi.

U yoki bu darajadagi barharor iqtisodiy tizimga ega ko'pchilik davlatlarda iqtisodiy o'sishni prognozlashda qo'yidagi turdagi ko'p omilli ekonometrik modellar keng tarqalgan:

$$Y = f(X_1, X_2, \dots, X_n)$$

Bir omilli modellar ham keng qo'llaniladi. Masalan, iqtisodiy o'sishning vaqtga bogliqligini ifodalovchi modellar yoki o'tgan davrga nisbatan ishlab chiqarish fondlari yoki kapital (K) o'zgarishi kam bo'lgan qisqa muddatli davrda tahlil va prognozashtirishda iqtisodiy o'sish va mehnat resurslari (L) orasidagi bog'liqlik modeli.

Ishlab chiqarish funksiyasi shaklidagi model eng keng tarqalgan:

$$Y = A_0 K^\alpha L^\beta$$

α va β ni miqdoriga qarab iqtisodiy o'sishning 3 turi mavjud:

Agar $(\alpha + \beta) = 1$ bo'lganda milliy maxsulot (daromad) ishlab chiqarish omillari (kapital va Mehnat) sarfiga mutanosib ravishda oshadi, umumiy iqtisodiy samaradorlik o'zgarishsiz qoladi, ishlab chiqarish faqat ekstensiv kengayib, kapitalning past samaradorligi mehnat resurslari oshishi hisobiga qoplanadi.

Agar $(\alpha + \beta) > 1$ bo'lsa, ishlab chiqarish omillari n marta oshganda, ishlab chiqarish n martadan ko'proq oshadi, ya'ni ishlab chiqarishning o'sishi omillar umumiy harajatini aks ettiradi. Lekin bu FTT yutuqlarini, ya'ni yangi texnika va texnologiyalarni kiritib, ishlab chiqarish fondlari samaradorligi oshadi yoki fondlarning o'zgarimas samaradorligida MU oshadi. Birinchi holatda $\alpha > \beta$ va o'sish fondlarni tejaydi, ikkinchisida $\alpha < \beta$ va o'sish mehnatni tejaydi.

Agar $(\alpha + \beta) < 1$ bo'lsa, ishlab chiqarish o'sishi ishlab chiqarish omillari o'sishiga nisbatan sekinroqdir. Bunda umumiy samaradorlik pasayadi, o'sish deintensifikatsiyasi ruy beradi.

Ishlab chiqarish funksiyasi $(\alpha + \beta) = 1$ bo'lgan holatni tasvirlash Kobba-Duglas funksiyasi deb ataladi va uni "Makroiqtisodiyot" kursida ko'rib chiqish kerak.

Ikkinchi holda, FTTning tasviri ostida IGFda $(\alpha + \beta) > 1$ da bu tasvirni aks ettiruvchi miqdorni topish kerak. Agar FTT notekis bo'lsa, ICHF quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$Y = AK^\alpha L^\beta e^{\lambda t}$$

Umumiy samaradorlik o'zgarishida ishlab chiqarish fondlari va jonli mehnatning samaradorlik o'zgarishini alohida ko'rib chiqish mumkin:

$$\lambda = \lambda_K + \lambda_L$$

ICHFning yuqorida ko'rilgan turidan tashhari ishlab chiqarish natijasi (Y) bevosita ishlab chiqarish omillari miqdori orqali emas, balki omillar miqdoriga hamda samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar orqali bilvosita bogliqlikni ko'rib chiqish mumkin.

Ishlab chiqarish omillari (kapital, mehnat, FTT) birlamchi omillar sifatida, ularga ta'sir etuvchi omillar esa ikkilamchi omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Ikkilamchi omillarni 2 tomonlama harab chiqish mumkin.

Bir tomondan ular global omillarning miqdoriga, ikkinchi tomondan ularning samaradorligiga ta'sir etishadi. Omillarni tasniflashda quyidagi misolni keltiramiz:

Ishlab chiqarish sohasida jonli Mehnat:

1.L miqdorga ta'sir etuvchi omillar:

- a) ish kuni, qaftasi, yilining davomi;
- b) ishchi kuchining yosh tarkibi;
- v) ishchi kuchining jins bo'yicha tarkibi.

2.MUga ta'sir etuvchi omillar:

- a) umumiy ta'lim darajasi;
- b) kasbiy ta'lim darajasi
- v) ko'nikma darajasi (kasb bo'yicha ishlagan vaqt);
- g) Mehnatga haq to'lash darajasi va tizimi.

Ishlab chiqarish fondlari (moddiylashgan mehnat):

1.K miqdoriga ta'sir etuvchi omillar:

- a) fondlarning qancha vaqt ishlatilishi va potentsial quvvatlardan foydalanish darajasi;
- b) fondlarning aylanma tezligi.

2.Ishlab chiqarish fondlari baholanishiga ta'sir etuvchi omillar:

- a) fondlar texnologik darajasi va ma'naviy eskirish darajasi;
- b) fondlarning tarmoqlararo taqsimlanishi;
- v) fondlarning hududiy taqsimlanishi;
- g) ishlab chiqarish ko'lami.

Omili yondashuvning rivoji ishlab chiqarish funksiyasi usuli takomillashuvidan ko'ra, iqtisodiy va statistik ishlar chuqurlashuvini ko'zda tutadi.

Omil tahlil va prognozlashda tarmoqlararo nuqtai nazarlarga yondashish maqsadga muvofiqdir. Birinchidan, tarmoqlarning omillar va hususiyatlari roli kuchayadi, oraliq harajatlar (hom ashyo, yoqilgi, elektrenegiya, yarimfabrikatlar) muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan jonli mehnat va ishlab chiqarish fondlarini differensiiyalash imkoni paydo bo'ladi (masalan, ish kuchini kasblar va malaka darajasiga harab guruhlash). Uchinchidan bir tarmoq o'sishi boshqa tarmoq o'sishiga asos bo'lgani uchun, omil tahlil tarkibiy tahlil bilan birikib ketadi.

17.4. Umumiy talabni prognozlash

YAlpi talab - bu, barcha xo'jalik sub'ektlari (hukumat, uy xo'jaliklari, firmalar), tovar va hizmatlar iste'molchilari sifatida turli narx darajalarida bu sub'ektlar qancha tovar va hizmatlar sotib olishlarini ko'rsatuvchi modeldir.

"Makroiqtisodiyot" kursida yalpi talabning narx va narxdan boshqa omillari mavjudligi ma'lum. YAMMni harajat bo'yicha aniqlovchi va yalpi talab- AD ni hisobga oluvchi bahodan tashhari omillar ko'rsatkichlari o'hshashligiga e'tiborni tortadi:

$$YAMM=C+I_g+G+X_n,$$

Bu erda: C-shahsiy iste'mol harajatlari;

I_g-yalpi ichki hususiy investisiyalar;

G- hukumatni tovar va hizmatlar haridi;

X_n-sof eksport.

YAlpi talab iste'mol, investisiion, davlat harajatlari va sof eksport yig'indisidan iborat. Agar bu narxsiz omillarni qo'shsa, narxlardagi (o'rtacha tortilgan narx) tovar va hizmatlarga YATni topamiz. YAMM va AD orasida farq nima? Gap shundaki, iste'mol harajatlari (C)- YAMM elementi sifatida haralganda, sotilgan, ya'ni talab qilingan tovar va hizmatlar tushuniladi. Bu holda tahlil va prognozlanganda shahsiy iste'mol harajatlari va iste'mol harajatlari kabi tushunchalardan foydalanish mumkin. YAMMning iste'molchisini topmagan qismi YAMM hisobida yalpi ichki hususiy investisiyalarga tovar va hizmatlar zahiralari o'zgarishi investisiyasi sifatida kiradi. Zahira oshishi ishlab chiqarish (taklif) sotuvdan (talab) oshganini bildiradi va bo' farq YAMM hisob - kitobida hisobga olinishi kerak.

Agar zahiralar kamaysa, bu yil ishlab chiqarish sotuv hajmidan kamligini, ya'ni o'tgan yil zahiralari sotilganini bildiradi. Bunda YaMMni zahiralar kamayishi miqdoriga kamaytirish lozim. Bundan tashhari uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar harajatlariga faqat ularning amortizasiyasi kiritiladi. Bu ham shu yilda, ham o'tgan davrlarda sotib

olingan tovarlarga tegishli. Uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarning sotilmagan qismi zahiralarga investisiya sifatida kiritiladi.

Qisqacha xulosalar

Ekonometrik modellarning eng keng tarqalgan yo'nalishi bu ishlab chiqarish funksiyalaridir. Ishlab chiqarish funksiyasini tuzishdan maqsad bu ishlab chiqarish jarayoni natijasida turli omillarning ta'sirini baholash hisoblanadi.

Ishlab chiqarishning eng keng tarqalgan yo'nalishi bu ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishdir. Ishlab chiqarish funksiyasini tuzish orqali Mehnat resurslari harajatlari, ishlab chiqarish fondlari, tabiiy resurslaridan rasiional foydalanishga yordam beradi. Ishlab chiqarish funksiyalari natijasiga ko'ra ishlab chiqarish natijaviyligini oshiradi. Tuzilgan model orqali milliy daromadning prognoz ko'rsatkichlarini va boshqa natijaviy iqtisodiy ko'rsatkichlarini qisqa va uzoq muddatga prognozashtirish imkoniyatigi hisoblaydi. Iqtisodiy o'sishni prognozlash ekonometrik prognoz talablarini hisobga oladi.

Nazorat uchun savollar

1. Ekonometrik modellarning keng tarqalganmi?
2. Ekonometrik modellarga misol keltiring?
3. Iqtisodiy o'sishni prognozlashni ekonometrik modellar yordamida amalga oshirsa bo'ladimi?
4. Umumiy talabni prognozlash ham ekonometrik model bo'la oladimi?
5. Ekonometrik modellardan O'zbekistonda ko'p foydalaniladimi?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. I.A.Karimov Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari-T.: O'zbekiston, 56 b.
2. Abdullaev A.M., Abdurahmanov O.K., Zokirova N.K. Prognozirovaniye i modelirovaniye nasiionalnoy ekonomiki. Uchebnik. - T.: Fan va texnologiya, 2007. - 576 s.
3. Abdullaev A.M., Irmatov M.M., Haydarov M.T., Ashurova D.S. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni prognozashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2006. - 249 b.

4. Irmatov M.M., Haydarov M.T. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning prognozlashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004.

5. Li A.N. Maqalliy tuzilmalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni prognoz qilish. O'quv qo'llanma. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamharmasi nashriyoti. - T.: 2004.

XVIII BOB ILMIY-TEXNIKAVIY TARAQQIYOTNI PROGNOZLASHTIRISH.

18.1. ITTning mohiyati va davriyligi.

Fan va texnikaning rivojlanishini prognoz qilish muhim o'rin tutadi, zotan, ishlab chiqarish samaradorligining oshishi, axolining shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish darajasi va usullari, boshqaruv usullari va vositalari tizimi, tabiiy resurslardan foydalanish va atrof muhitni muhofaza qilish, mamlakatning mudofaa qudratini ta'minlash fan-texnika taraqqiyoti sur'atlarini jadallashishiga bog'liq.

Fan-texnika taraqqiyoti prognozlarini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha guruhlariga bo'lish mumkin.

Birinchi yo'nalish-inson faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida fanning, istiqboldagi davrda eng progressiv hisoblangan asosiy fundamental, amaliy tadqiqotlarining rivojlanishi va iqtisodga joriy etilishi prognozlari (yangi texnika, texnologiyalarning joriy etilishi, ishlab chiqarishning tashkil qilinishi, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalaridagi amaliy tadqiqotlar, alohida mahsulot turlari ishlab chiqarish va h). Uchinchi yo'nalish- hayotning turli sohalarida fan-texnika taraqqiyotining ijtimoiy oqibatlarini aniqlash.

Ilmiy-texnikaviy taraqqiyot – bu xo'jalik hayotidagi yangi bilim va erishilgan yutuqlarni ochish va ulardan foydalanishning uzilmas va og'ir jarayonidir. ITT natijasida quyidagi ishlab chiqarish kuchlarining elementining rivojlanishi va mukammallashishi ro'y beradi: mehnat predmetlari va vositalari, ishchi kuchi, texnologiyalar, ishlab chiqarishni tashkillashtirish va boshqarish.

18.2. ITTning prognozashtirish konsepsiyasi.

ITTning bevosita natijasi bo'lib innovatsiya yoki yangiliklar hisoblanadi. Bu ilmiy bilimlar qo'llaniladigan texnika va texnologiyalarning o'zgarishi.

O'z rivojlanish jarayonida ITT bir nechta bosqich etaplaridan o'tgan.

Birinchi bosqich – XVIII asr oxiri va XIX asr boshlaridagi birinchi sanoat inqilobi. Ilmiy asosda mashinali ishlab chiqarishga o'tish.

Ikkinchi bosqich – XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi ikkinchi sanoat inqilobi. Mashina asosidagi ishlab chiqarishni rivojlantirish, ishlab chiqarishning energetik asosining o'zgarishi, texnik baza asosida ilmning

rivojlanishi, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish darajasiga o'tish, yangi tarmoqlarni barpo etish.

Uchinchi bosqich – XX asrdagi uchinchi sanoat inqilobi, u o'z navbatida ilmiy-texnik inqilobga aylanib bordi.

ITI – bu ilmning, ishlab chiqarishning asosiy omili bo'lgan bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylanishi asosida ishlab chiqarish kuchlarining tubdan sifatli o'zgarishidir.

XX asrning oxirgi 10 yilliklarida sanoat inqilobining yangi to'rtinchi bosqichining belgilari shakllana boshladi.

Uning asosiy belgilari:

- elektronika asosida ishlab chiqarish texnologiyasining o'zgarishi;
- biologik jarayon va tizimlarni o'sib boruvchi masshtablar asosida tartibga solish;
- ishlab chiqarishni kompleks avtomatlashtirish;
- energetikaning yangi turlari;
- yangi materiallarni tayyorlash texnologiyasi va boshqalar.

Rivojlanishning barcha bosqichlarida ITT quyidagi shakllarda amalga oshiriladi: evolyutsion, revolyutsion (inqilobiy) va aralash.

ITTning ishlab chiqarish jarayoniga bo'lgan ta'sirining umumiy ko'rinishi bu ekstensiv va intensiv o'sish o'rtasidagi nisbatni ikkinchisining hisobiga o'zgarishidir.

ITTning asosiy natijasi bu – ishlab chiqarishda shakllanadigan va moddiylashadigan iqtisodiy samaraning oshishi.

Ilm va texnika rivojlanishini tartibga solish va prognozlash quyidagi prognoz hujjatlarining tizimi vositasida amalga oshiriladi:

- muddati 15 yilgacha bo'lgan ilmiy-texnikaviy rivojlanishining umumdavlat prognozi;
- 5-10 yilga mo'ljallangan makroiqtisodiy va tarmoq darajasida bo'lgan xususiy ilmiy-texnik prognozlar;
- 10-15 yilga mo'ljallangan davlatning maqsadli ilmiy-texnik dasturlari.

Ko'rsatilgan hujjatlarni davlatning ilmiy-texnikaviy siyosati birlashtiradi.

Ilmiy-texnikaviy rivojlanishning umumdavlat prognozida quyidagilar mavjud:

- mahalliy va jahon ilmiy-texnikasida erishilgan muhim yutuqlarning texnik-iqtisodiy baholanishi;
- ilmiy texnik yutuqlarini xalq xo'jaligida ishlatilishi haqidagi xulosalar;

- ITT bosh yo'nalishlarini va birlamchi tarmoqlararo ilmiy-texnik masalalarni aniqlash;
- bu masalalarni yechish bevosita va yo'llarining variantlari;
- ITTning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini baholash.

18.3. ITTni turli rivojlanish bosqichlardagi vazifalari.

Prognozda ko'rsatilgan yo'nalishlar mamlakat ilmiy-texnik rivojlanishining uzoq muddatli strategiyasi doirasida global xarakterga ega.

Xususiy ilmiy-texnik prognozlarni ishlab chiqarish jarayonida prognozashtirish ob'ekti sifatida ITTning turli yo'nalishlari hamda innovatsion siklning asosiy bosqichlari qatnashishi mumkin. Perspektiv (5-10 yil) va yillik xususiy ilmiy-texnik prognozlar ITTni davlat tomonidan tartibga solishda muhim rol o'ynaydi.

Ular boshqarishning barcha darajalarida ishlab chiqarilishi mumkin (mamlakatning xalq xo'jaligi, respublika, viloyat, tarmoqlararo kompleks, tarmoq, tashkilot). Davlatning maqsadli ilmiy-texnik dasturlari umumdavlat va tarmoqlararo xarakterga ega bo'lgan eng perspektiv ilmiy-texnik yo'nalishlarning muhim muammolari bo'yicha ishlab chiqariladi. Bu dasturlar texnikaning yangi avlodlarini va bazaviy texnologiyalarni yaratishga yo'naltirilgan bo'lib, yangiliklarning butun innovatsion siklini o'z ichiga oluvchi 10-15 yil muddatiga ishlab chiqariladi. Markaziy, tarmoq, region va davlatlararo ilmiy-texnik dasturlari mavjud.

Davlatning ilmiy-texnikaviy siyosati shu davlatning ilmiy va ilmiy-texnik faoliyatiga bo'lgan munosabatni ifodalaydi hamda ilm, texnika va ilmiy-texnik yutuqlarini amalga oshirish sohasida O'zbekiston davlat hukumat organlar faoliyatining shakli, yo'nalishi va maqsadlarini aniqlab beradi.

Uning asosiy maqsadlari quyidagilar:

1) Ilmiy-texnik potensialni rivojlantirish, ratsional joylashtirish va samarali foydalanish.

2) Moddiy ishlab chiqarish sohasida progressiv tuzilmaviy o'zgarishlarni ta'minlash, uning samaradorligini va mahsulot raqobatbardoshligini oshirish.

3) Davlat iqtisodiyotini rivojlantirishda ilm va fan- texnikaning hissasini oshirish, muhim ijtimoiy masalalarni amalga oshirish.

4) Mamlakat mudofaa kuchlarini mustahkamlash.

5) Ekologik muhitni yaxshilash va boshqalar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida asosiy masalalardan biri, ilmiy-texnik faoliyatni moliyalashtirish prinsip va omillaridir.

O'zbekistonda ilmiy va ilmiy-texnik faoliyatni moliyalashtirish qonunchilik asosida uning maqsadli mo'ljaliga va moliyalashtiruvchi omillarning ko'pligiga asoslanadi.

Fundamental ilmiy izlanishlar asosan, markaziy byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi. Markaziy ilmiy-texnik dasturlar, asosiy izlanishlar va eksperimental yangiliklar, markaziy byudjet mablag'lari, ilmiy-texnik faoliyatni qo'llab-quvvatlash fondi mablag'lari hamda qatnashish ulushiga qarab tashkilotlar, uyushmalar, banklar va boshqa xo'jalik sub'ktlar hisobidan moliyalashtiriladi.

Regional ahamiyatga ega bo'lgan ishlar O'zbekiston sub'ektlarining byudjeti, mahalliy byudjet, regional fondlar va qatnashish hissasiga qarab tashkilotlar, uyushmalar, banklar va boshqa xo'jalik sub'ktlari mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.

Shuningdek, O'zbekistonda davlat, nodavlat va xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik faoliyatni qo'llab-quvvatlaydigan fondlar faoliyat ko'rsatadi. Ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat grantlar hisobiga ham amalga oshirilishi mumkin.

18.4. ITTni prognozlash usullari.

Ekstropolyatsiya usullarida turli xil miqdor ko'rsatkichlari va xarakteristikalar prognozlash jarayonida qo'llaniladi. Bunda ko'pchilik hollarda prognozchilar muvaffaq qatorlar ekstropolyatsiyasi bilan ish ko'radilar. Bunda iqtisodiy ma'lumotlarni tahlil qilish bosqichida dinamik qatorlarning qonuniyatli xarakterini aniqlash, empirik formulalarni tanlash, bu formulalar parametrlarini hamda belgilangan bog'liqliklarni to'g'ri aniqlanganligini baholash kabilar asosiy vazifa hisoblanadi.

Ekstropolyatsiya hodisalar yoki jarayonlarning kelgusidagi holati qonunlar, nazariyalar yohud tajribasini keng yoyishni taqozo qiladi. Ekstropolyatsiya usullarini prognozlanadigan ob'ektni rivojlantirishning barqaror sharoitida qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Ozgina vaqt uchun prognozlashda shu narsa ko'zda tutiladiki, kelgusidagi sharoitlar mavjud konunlar, nazariyalar va tajribalar taalukli bo'lgan sharoitlardan umuman farq qilmaydi yoki ozgina farq qiladi, ya'ni bu holda ekstropolyatsiya sistemani rivojlantirishning ilgarigi tendensiyalariga tayanadi.

Ekstropolyatsiya quyidagi bir nechta metodlari mavjud: funksional va korrelyatsion aloqalar asosidagi ekstropolyatsiya; taqqoslama metodlar yordamidagi ekstropolyatsiya. Bularning hammasi to'ppa-to'g'ri ekstropolyatsiya usullaridandir. Ular butun davr uchun doimiy bo'lgan taraqqiyot sur'atlari va xususiyatlaridan kelib chiqadi hamda ob'ektni rivojlantirishga ta'sir qiladigan ko'p tomonlama aloqalarni hisobga olishga qodir emas. Ilgarigi ob'ektni rivojlantirish dinamikasini aniq aks ettiradigan, aproksimatsiya qiladigan funksiyani belgilash va miqdor jihatdan baholash yo'li bilan olingan matematik modellar ekstropolyatsiyaning asosini tashkil etadi.

18.5. ITTni rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari.

Ilmiy-texnik taraqqiyot innovatsion sikl doirasida oqib o'tadi, ya'ni yangiliklarni yaratish, o'zgartirish, foydalanish va eskirish jarayonida.

Innovatsion sikl qator bosqichlardan iborat: fundamental va qidiruv izlanishlar, amaliy izlanishlar, texnik-iqtisodiy kashfiyotlar, tajribiy ishlab chiqarish, ishlab chiqarishni tayyorlash, seriyali ishlab chiqarish, yangiliklarning ekspluatatsiyasi va eskirish.

Har bir bosqich masalalarining mahsus hajmi, ularning yechilishini mahsus usullari, qatnashuvchilarning malakasi va tayyorgarlik darajasi hamda tarkibi, mehnat predmeti va vositalarining yig'indisi, moddiy va moliyaviy resurslar, ijro etuvchi uyushmalarning turli xil shakli va ularning faoliyatini boshqarishi bilan xarakterlanadi.

Bosqichlarning mahsusligi maqsadlarning xarakter va tuzilmasini hamda prognozashtirish masalalarini va ularni yechish usullarini belgilab beradi.

Fundamental va qidiruv izlanishlar – oldin noma'lum bo'lgan tabiat qonunlarini kashf etishga, jamiyat va inson ongini bilishga yo'naltirilgan bo'ladi va tabiiy ilmiy hamda jamoa jarayonlarning rivojlanish qonunlarini sistemalashtirish, o'rganish va aniqlashni ko'zda tutadi.

Amaliy izlanishlar – o'z ichiga konkret sohadagi qidiruv izlanishlar natijalaridan amaliy foydalanish yo'llarini va ijtimoiy-iqtisodiy samarasini, texnik imkoniyatlarini o'rganishni oladi.

Texnik-iqtisodiy kashfiyotlar – yangi va mukammallashgan buyumlarni, inshootlarni, mehnat unumdorligini o'sishiga, materiallar harakatini qisqarishiga, tabiiy resurslarni ratsional ishlatishga sezilarli ta'sir qiluvchi boshqaruvning tizim va jarayonlarini ta'minlashga imkon

beruvchi prospektiv konstruktorlik, texnologik, projekt va iqtisodiy kashfiyotlarni tanlashni ko'zda tutadi.

Tajribiy ishlab chiqarish – buyumlarni birinchi nusxasini va uning original ko'rinishini, ularning texnik vazifasiga mos kelishini va sifatini sinovdan o'tkazish maqsadida ishlab chiqarilishi.

Ishlab chiqarishni tayyorlash – ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalaridagi ishlab chiqarish korxonalarining qurilishini va ob'ektlarning rekonstruksiyasining eng muhimlarini tanlash va asoslashning, mehnat va material resurslarning taqsimlashni, investitsiyalarni ta'minlashni, amaldagi korxonalarni rekonstruksiyalarini va yangilarni tezroq ko'rishni o'z ichiga oladi.

Seriyali ishlab chiqarish – mehnat unumdorligini sezilarli oshiruvchi yangi texnika, texnologiya, materiallarni kiritish, materiallar, energiyani tejash, mehnatni yaxshiroq tashkil etish, asosiy fondlarni ishlatish, ishlab chiqarilgan mahsulotning sifatini oshirishni ko'zda tutadi.

Ekspluatatsiya bosqichida – yangi texnika ishlab chiqarish yoki shaxsiy iste'molga o'tadi. Ma'naviy va jismoniy eskirgan buyumlar seriyali ishlab chiqarish ekspluatatsiyadan olinadi shu bilan yangilikning hayot sikli tugatiladi. ITT ning zamonaviy sharoitlari "izlanish-kashfiyot" siklining vaqtini qisqartiradi hamda yangiliklarning butun hayot siklini ham. Shu bilan birga material, moliya, hom-ashyo resurslarni cheklash, yaratilgan ishlab chiqarish vositalarning ekspluatatsiya muddatini oshirish masalasini oldinga suradi.

Innovatsion sikl bosqichida yechiladigan masalalarning tahlili ularning ko'p xilligini aniqlab berdi. Ular nafaqat maqsadlari bilan balki faoliyat natijalarining ko'rsatkichlari xarakterlari bilan farqlanadi. Tahlildan aniqlasa bo'ladiki, mavjud jarayonlarning shakllanishi, tuzilishi va ularning matematik modellashtirish imkoniyati birinchi bosqichdan oxirgi bosqich tomonga o'sib boradi. Xuddi shu yo'nalishda kashf qilinayotgan yangiliklarni qo'llash bo'yicha qabul qilingan qarorni aniqlanishi oshadi. Shu bilan birga shuni hisobga olish kerakki, prognozlarni usullarini tanlash paytida prognozning chuqurligi katta ahamiyatga ega bo'ladi. Agar prognozashtirilayotgan jarayon evalyutsion deb faraz qilsak, unda statistik va shakllangan usullarni ishlatilishi to'g'ri bo'ladi. Agar prognozashtirish jarayonida notekisliklar mavjud bo'lsa, unda shu sakrashlarni aniqlash va uni amalga oshirish vaqtini baholash uchun ekspert usullarini qo'llash zarur.

Fundamental va amaliy izlanishlarni prognozlash – tizimli tahlil va sintezni qo'llash, ekspert baholar usuli, ssenariy yozish, "maqsad

daraxti”ni tuzish yo’li bilan ishlab chiqariladi. Bu muammolar tuzilmasini o’tkazish, maqsadli ketma-ketlikni topish, miqdor baholashning variantlarini olishga, izlanishlarning eng yaxshi yo’nalishini tanlashga imkon beradi.

Texnik-iqtisodiy kashfiyotlar bosqichida prognozlashtirish paytida – tarmoqlararo balans usullari qo’llaniladi, “xarajat - chiqarish” va boshqalar.

Yangi mahsulotning iqtisodiy va texnik ko’rsatkichlarining prognozi – ekstrapolyatsiya usullarining kombinatsiyasi, patent xujjatlashtirishning tahlili, ilmiy-texnik axborot, ekspert baholash usuli asosida amalga oshiriladi.

Tajribiy ishlab chiqarish, ishlab chiqarishni tayyorlash, seriyali ishlab chiqarish va ekspluatatsiya bosqichlarida ekspert baholash, omilli tahlil, imitatsion usullar qo’llaniladi. Prognozlarda muhim rolni yiriklashgan balans hisoblarning tizimi o’ynaydi.

18.6. ITT rivojlanishini prognoz baholanishi.

Ilm va texnika rivojlanishining bosh yo’nalishlari deganda, ilmiy-texnologik rivojlanishga va mamlakat rivojlanishining uzoq muddatli va joriy ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlariga o’z hissasini qo’shuvchi izlanish va kashfiyotlarning sohasi tushuniladi.

O’zbekiston hukumati bilan ilm va texnika rivojlanishining quyidagi bosh yo’nalishlari tasdiqlangan:

- 1) Fundamental izlanishlar;
- 2) Axborot texnologiyalar va elektronika;
- 3) Ishlab chiqarish texnologiyalar;
- 4) Yangi materiallar va kimyoviy mahsulotlar;
- 5) Tirik tizim texnologiyalari;
- 6) Transport;
- 7) Yoqilg’i va energetika;
- 8) Ekologiya va tabiatdan foydalanish.

Undan tashqari har bir yo’nalish texnologiyalar darajasida konkretlashtirilgan. Natijada bir necha yuz texnologiyalardan 70 tasi O’zbekiston iqtisodiyoti uchun eng muhim bo’lgan texnologiyalar tanlab olingan.

Aynan shu bosh yo’nalishlar, jahon tajribasi ko’rsatishicha, XXI asr boshida iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar asosi bo’lgan yangi texnologik bazani shakllantirishda magistral hisoblanadi.

Shuni aytib o'tish kerakki, 70 ta kritik texnologiyalardan 17 tasi O'zbekiston ilmida jahondagi darajasidan ustun turadi:

- aviatsion va kosmik texnika;
- atom energetikasi;
- oqsil preparat va komponentlari;
- biomoshlangan preparatlar;
- biomuhandislik asosidagi biotexnologiya;
- katalizatorlar;
- keramik materiallar va nokeramika;
- membranalar;
- rekombinant vaksinalar;
- eng qattiq materiallar;
- ekstremal sharoitlarda insonni himoyalash va hayotni ta'minlash tizimlari;
- sun'iy intellekt va virtual reallik tizimlari;
- nutq, tekst va ko'rinishlarni aniqlash sistemalari;
- immunokorreksiya texnologiyalari;
- tabiiy-texnogen muhitning monitoring texnologiyasi;
- ekosistemalar iqlimining rivojlanishi va gidrogeologik hamda resurs o'zgarishlarni rivojlanishni prognozashtirishning texnologiyalari;

Ilm rivojlanishining bu yo'nalishlari O'zbekiston hukumati qarorlariga binoan birinchi navbatda moliyalashtiriladi va rivojlantiriladi. Shunday qilib, quyidagi bosh yo'nalishlarni amalga oshirishning muhim sharti bo'lib, u ilmiy muhitni yetarli darajada moliyalashtirish shartidir.

Moliya resurslarining vujudga kelishini iqtisodiyotning barqarorlashuvi va qat'iy iqtisodiy o'sishni ta'minotsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Undan tashqari ilmiy-texnik potensialni oshirish va saqlashni, asbob-uskunalarining o'z vaqtida yangilanishini, texnologik tizimlar va asbob-uskunalarining sifatini belgilab beruvchi mashinasozlikning material-texnik bazasini rivojlantirishni ta'minlash zarur. Faqatgina ko'rsatilgan shartlarni amalga oshirish natijasida mamlakatimizda ITT rivojlanishining prognoz baholari ijobiy bo'lishi mumkin.

Qisqacha xulosalar.

Ilmiy-texnikaviy taraqqiyot – bu xo'jalik hayotidagi yangi bilim va erishilgan yutuqlarni ochish va ulardan foydalanishning uzilmas va og'ir jarayonidir.

Ilmiy-texnika inqilobi - bu ilmning, ishlab chiqarishning asosiy omili bo'lgan bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylanishi asosida ishlab chiqarish kuchlarining tubdan sifatli o'zgarishidir.

ITTning ishlab chiqarish jarayoniga bo'lgan ta'sirining umumiy ko'rinishi bu ekstensiv va intensiv o'sish o'rtasidagi nisbatni ikkinchisining xisobiga o'zgarishidir.

ITTning asosiy natijasi bu – ishlab chiqarishda shakllanadigan va moddiylashadigan iqtisodiy samaraning oshishidir.

Davlatning ilmiy-texnikaviy siyosatini shu davlatning ilmiy va ilmiy-texnik faoliyatiga bo'lgan munosabatni ifodalaydi hamda ilm, texnika va ilmiy-texnik yutuqlarini amalga oshirish sohasida mamlakatni xukumat organlarining faoliyatini shakli, yo'nalishi va maqsadlarini aniqlab beradi.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti innovatsion bosqichlarni bosib o'tadi. Innovatsion sikl bosqichida yechiladigan masalalarning taxlili ularning ko'p xilligini aniqlab beradi. Ular nafaqat maqsadlari bilan balki, faoliyat natijalarining ko'rsatkichlari bilan ham xarakterlanadi. Taxlil natijalari ko'rsatadiki, mavjud jarayonlarning shakllanishi, tuzilishi, ularni matematik modellashtirish imkoniyati birinchi bosqichdan oxirgi bosqich tomonga o'sib boradi.

Yangi maxsulotni iqtisodiy va texnik ko'rsatkichlarning prognozi-ekstrapolyatsiya usullarining kombinatsiyasi, ilmiy-texnik axborot, ekspert baxolash usuli asosida amalga oshiriladi.

Moliya resurslarining vujudga kelishini iqtisodiyotning barqarorlashuvi va qat'iy iqtisodiy o'sishni ta'minotsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu bilan birga ilmiy-texnik potensialni oshirish va saqlashni, asbob-uskunalarining o'z vaqtida yangilanishini, texnologik tizimlar va asbob-uskunalarining sifatini belgilab beruvchi mashinasozlikni material-texnik bazasini rivojlantirishni ta'minlash zarur. Yuqorida keltirilgan shartlarni bajarilishigina mamlakatda ITT rivojlanishining prognoz baholarini ijobiy bo'lishini ta'minlaydi.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Ilmiy-texnika taraqqiyoti tushunchasini izohlang?
2. Innovatsiya so'zini ma'nosini izohlang?
3. Ilmiy-texnik taraqqiyoti o'z rivojida necha bosqichni ?
4. Siz ilmiy-texnika inqilobini qanday tushunasiz?
5. Oxirgi 10 yilliklarda sanoat inqilobini qanday belgilari shakllandi?

6. Ekstensiv va intensiv o'sishni ilmiy-texnika taraqqiyotiga qanday ta'siri shakllandi?
7. Texnik iqtisodiy kashfiyotlarni tushuntiring?
8. Seriyali ishlab chiqarishni qanday tushunasiz?
9. Fundamental va amaliy izlanishlar haqida fikringiz?
10. ITT rivojlanishining bosh yo'nalishlari nimadan iborat?

Asosiy adabiyotlar

1. I.A.Karimov Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari-T.: O'zbekiston, 56 b.
2. Abdullaev A.M., Abdurahmanov O.K., Zokirova N.K. Prognozirovaniye i modelirovaniye natsionalnoy ekonomiki. Uchebnik. - T.: Fan va texnologiya, 2007. - 576 s.
3. Abdullaev A.M., Irmatov M.M., Haydarov M.T., Ashurova D.S. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni prognozlashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2006. - 249 b.
4. Irmatov M.M., Haydarov M.T. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning prognozlashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004.
5. Li A.N. Maqalliy tuzilmalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni prognoz qilish. O'quv qo'llanma. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamharmasi nashriyoti. - T.: 2004.

XIX BOB. IQTISODIY O'SISHHI PROGNOZLASHTIRISH.

19.1. Iqtisodiy o'sish, mohiyati, turlari.

Milliy ehtiyojlar uzluksiz qondirilishi uchun iqtisodiyot doimo o'sib borilishi talab etiladi .chunki faqat shu yo'l bilangina kishilar iste'moliga zarur bo'lgan tovar va xizmatlar ko'plab va xilma –xil yaratiladi.

Iqtisodiy o'sish- bu iqtisodiyotning rivojlanishi, ya'ni xayotiy ne'matlar bo'lgan tovar va xizmatlarning ishlab chiqarilishining ko'payib borishidir. Iqtisodiy o'sishni ragbatlantirish, iqtisodiyotning istiqbolli tarmoqlari va ishlab chiqarishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash shakllari va usullari xaqidagi masalalar xozirgi zamon iqtisodiyot fanining o'ta bahstalab muammolaridan biri xisoblanadi. Ayniqsa, bu muammolar rivojlanayotgan va o'tish davri iqtisodiyotini boshidan kechirayotgan mamlakatlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu soxada fikrlar doirasi juda keng bo'lib, davlat aralashuvini cheklashdan tortib (Polsha va Sharqiy Yevropa mamlakatlari tajribalariga suyanadiganlar), to bozor "tanazzulini" bartaraf etishda, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va xorijiy mamlakatlar o'rtasidagi tafovutni qisqartirishda davlatning o'rni beqiyos ekanligini (Xitoy, Chili va Sharqiy Osiyo mamlakatlari tajribasiga urgub beradiganlar) ta'kidlovchilar ham bor.

Iqtisodiy o'sish ishlab chiqarishning rivojlanishi bo'lar ekan, bunga ta'sir etuvchi kuchlar ishlab chiqarish omillaridan boshqa narsa bo'lishi mumkin emas. Shu sababli bu resurslarning miqdori, sifati va ularning naqadar samarali ishlatilishi bogliq bo'ladi, chunki resurslar ishlab chiqarish omillariga aylanadi. Resurslar ko'payganda tovarlar va xizmatlar oldingidan ko'proq yaratiladi.

Biroq, resurslar cheklanganligidan, ularni to'xtovsiz ko'paytirib bo'lmaydi. Shu sababli resurslardan tejamli foydalanib iqtisodiyotni o'stirish zaruratga aylanadi.

Iqtisodiy o'sish yuz berishi uchun bozor talabiga muvofiq tovar va xizmatlarni yaratish kerak bo'ladi . biz bilamizki ,iqtisodiy o'sish Yaim ko'payishini anglatadi . Yaim esa tovar va xizmatlarning bozordagi qiymati , agar ular sotilmasa bozor qiymati yuzaga kelmaydi. Shu sababli bozorbop tovar va xizmatlarni yaratish iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Resurslar kamyob bo'lganidan , ulardan samarali foydalanish iqtisodiy o'sishning asosiy shartiga aylanadi.

Iqtisodiy o'sishni o'sish sur'atiga(dinamikasiga) qarab milliy iqtisodiyotni darajasi xamda resurslarni chegaralanganlik muammolari taxlil etiladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda bu tushunchaga alohida talqin berilmagan.

Ba'zi iqtisodchilar(Makkonnell, Bryu) iqtisodiy o'sishni 2 xil usul bilan hisoblash mumkin, ya'ni:

1. yalpi milliy mahsulotni umumiy o'sishini hisoblash orqali(yoki sof milliy mahsulotni);

2. yuqorida hisoblangan ko'rsatkichlarni aholi jon boshiga taqsimlash orqali hisoblanadi deydlar.

Boshqa iqtisodchilar esa, iqtisodiy o'sish bu- ishlab chiqarish omillari va mahsulotni miqdoriy o'sishgina emas balki sifat jihatini ham o'z ichiga oladi- deydlar.

Iqtisodiy o'sishni 3 xil ko'rinishi farqlanadi: ekstensiv, intensiv va aralash(haqiqiy).

1. Ekstensiv o'sish - bu milliy mahsulotni qo'shimcha ishlab chiqarish omillarni ta'sir ettirish yordamida o'stirishdir.

2. Intensiv o'sish - bu milliy mahsulotni texnika, texnologiyalarni takomillashtirish natijasida o'sishini ta'minlashdir.

Xaqiqiy hayotda u yoki bu tipdagi o'sishlar alohida holda bo'lmay, balki bir biriga chambarchas boglanganlar.

3. Aralash(haqiqiy) o'sish- bu ishlab chiqarish quvvatlarini foydalanilayotgan ishlab chiqarish omillarini miqdory hajmini o'sishi hamda texnika, texnologiyalarni takomillashtirish natijasidagi o'sishidir.

Iqtisodiy o'sish- bu iqtisodiy rivojlanishi tashkil etuvchisidir. U Yammni miqdoriy tomonidan o'sishidir.

Makrodarajada Yamm ni o'sish sur'ati, aholi jon boshiga Yamm ni taqsimotini yillik o'sish sur'ati, Yamm ni yillik o'sishini keltirish mumkin.

$$\text{Yammning yillik o'sish surati} = (\text{YaMM2} - \text{YaMM1}) * 100;$$

Yammni aholi jon boshiga taqsimotini yillik o'sish surati

Yammning yillik qo'shimcha o'sish surati / Aholi soni;

$$\text{Yammning yillik o'sishi} = (\text{Yamm2} / \text{Yamm1}) * 100;$$

Yuqoridagilardan qaysi ko'rsatkich zarurligi to'grisida fikrlar yuradi.

Mumkin bo'lgan variantlar:

a) yuqori o'sish sur'ati;

b) nol xolidagi o'sish;

- c) manfiy o'sish sur'ati;
- d) optimal o'sish sur'ati.

Bu ko'rsatkichlarni ko'rib chiqamiz. Birinchi qarashda, yuqori o'sish sur'ati asosiyroqdek ko'rinadi. Bu holda birinchidan mahsulotni sifatini hisobga olish zarur. Ikkinchidan mahsulotni qo'shimcha o'sishida uni tuzilishini hisobga olish zarur.

Iqtisodiy o'sishda nolli o'sish sur'ati material ta'minotini kamaytirsa, bu bilan ishlab chiqarish omillariga sarf harajatni kamaytirsa, bu yomon emas. Manfiy o'sish- bu milliy iqtisodiyotdagi krizisdan darak beradi. Optimal o'sish- juda yuqori ham emas, juda past ham emas, balki makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlaydi.

19.2. Iqtisodiy o'sishni tavsiflovchi mezonlar.

Agar tabiiy boylik e'tibordan qochirilsa, hozirgi paytdagi iqtisodiy o'sish omillari quyidagilardan iborat bo'ladi;

1. Ishlab chiqarishdagi jismoniy kapital sanalgan mashina-uskunalarining texnikaviy darajasi, ularning yuqori unum bera olishi. agar mashina –uskunalar qanchalik mukammal bo'lsa, shunchalik tovar va xizmatlar ko'p yaratiladi.

2. Inson kapitalining sifat darajasi. Inson kapitali bu ishlovchilarning bilim darajasi, ishlash mahorati va tajribasidir. inson kapitali jismoniy kapitaldan farqliroq moddiy shaklga ega emas, uni bilan ko'rib yoki qo'l bilan ushlab bo'lmaydi, u insonni jismida mujassamlashgan bo'ladi, inson tirik ekan unda saqlanib qoladi. bu kapital amalda kishilarning mehnat saviyasida ifoda etiladi. eng mukammal texnika ham insonni ish bermaydi, qayerda ish kuchi sifatli bo'lsa, shu yerda texnida yaxshi natija beradi.

3. Ishlab chiqarishning texnologik usullari. Bu muayyan bozor sharoitida har qanday usullar bilan tovar va xizmatlarni yaratib, ularni o'z vaqtida bozorga yetkazishni talab qiladi. Texnologik innovatsiya (yangilanish) qanchalik tez borsa, boshqa shart-sharoitlar o'zgarmagan taqdirda ishlab chiqarish shunchalik tez o'sadi, chunki mehnat unumdorligi yuksalib, vaqt birligida yaratilgan tovar va xizmatlar ko'payadi. Milliy iqtisodiyot darajasi texnologik innovatsiyaga to'g'ri mutanosiblikda bo'ladi.

4. Investitsiyalar miqdori tarkibi. Ishlab chiqarish investitsiyasi- bu ishlab chiqarishni kengaytirish uchun yuborilgan moddiy va pul mablaglaridir. Iqtisodiy o'sish investitsiya miqdoriga tug'ri mutanosiblikda

buladi. Biroq, bu investitsiya yangi texnologiyalarga va kerakli sohalarga yuborilganda yuz beradi. Investitsiya kapitalning jamgarilishini bildiradi va bu YaIM muayyan qismini qaytadan ishlab chiqarishga joylashtirilganda yuz beradi. Investitsiyaning Yaimdagi hissasi investitsiya normasi deb ataladi. Agar Yaim 560 mlrd. dollar bo'lib, investitsiya miqdori 112 mlrd. dollar bo'lsa, investitsiya normasi 20% bo'ladi, chunki $112/560 \times 100 \approx 20\%$ hosil bo'ladi.

5. Ta'lim darajasi. Iqtisodiy o'sish yuz berishi uchun moddiy va inson kapitalining mukammalligi bir-biriga mos bo'lishi talab qilinadi. Buning uchun ishlab chiqarishning texnologik darajasiga ish kuchining sifati mos tushishi kerak, aks holda yangi texnologiyadan unumli foydalanib bo'lmaydi. Shu o'rinda ta'lim darajasini ko'tarish iqtisodiy o'sish omiliga aylanadi. Ta'lim darajasi kishilarning bilim olish vaqti nechoglik uzun bo'lishiga va eng muhimi olingan bilimning chuqur bo'lishiga bogliq bo'ladi. A+Sh da bir yil mobaynida olingan bilim keyinchalik shu o'qigan kishining ish haqissini 10% oshiradi, chunki bu unumdorlikning oshishiga olib keladi. Bilimdonlar qanchalik ko'p bo'lsa, shunchalik ilmiy kashfiyot va texnologik ixtiro ko'p bo'ladi.

6. Iqtisodiy erkinlik darajasi. Bu bozor kuchlarining erkin amal qilinishi va iqtisodiyotga ta'sirini bildiradi. Erkinlikning poydevorini xususiy mulk tashkil etadi. Shu bois mulkning daxlsizligini, uning o'z egasi manfaati yo'lida ishlatilishini qonunchilik asosida ta'minlash iqtisodiy o'sishning sharti hisoblanadi. Shu sababli mulkiy huquq himoya qilingan bo'lishi zarurat hisoblanadi. Mulk sohibi undan o'z bilganicha erkin foydalanib, daromad chiqarib olishi kerak. Shundagina u tashabbus ko'rsatib iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi.

7. Iqtisodiyotning ochiqligi. Bu milliy iqtisodiyotni o'zgalar uchun ochiq bo'lishini, bu yerga tashqaridan resurslarning erkin kirib kelishini, eksport va importning kengayib borishini anglatadi. Ochiq iqtisodiyot sharoitida resurslar, jumladan chet el kapitali ishlab chiqarishning kerakli sohalariga yuborilib, ular rivojini tezlashtiradi, bu bilan Yaim ning ko'payib borishini ta'minlaydi. Ochiq iqtisodiyot tashqi savdoning afzalligidan foydalanishga sharoit yaratadi. Shu sababli suv yo'li bilan jahon bozoriga chiqa oladigan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishga erishish nisbatan yengil bo'ladi.

8. Xalqaro bozordagi holat. Bu tashqi bozor kon-yunkturasi bo'lib, bu yerda narxlarni pasayib va oshib turishi eksporti katta mamlakatlardagi iqtisodiy o'sishga ta'sir etadi. Eksport tovarlari narxi oshsa Yaim hajmi ortadi. Bordi-yu ular pasaysa Yaim hajmi ham qisqaradi. Masalan, 2003-

2006 yillarda jahon bozorida neft narxining shiddat bilan o'sishi uni eksport qiluvchi mamlakatlar iqtisodiy o'sishiga katta hissa qo'shdi.

9. Mamlakatdagi demografik vaziyat. Iqtisodiy o'sish jon boshiga hisoblangan Yaim ning ko'payishini bildirar ekan, bu aholining soniga ham bogliq bo'ladi. Yaim jon boshiga ortib borishi zarur. Agar aholi 2% o'sib ishlab chiqarish 5% o'ssa, jon boshiga Yaim 3% ga ortadi. Aholii o'sishining sustlashuvi iqtisodiy o'sishga ko'mak bersa, uning tez o'sishi aks natijaga keltiradi. Shu bois iqtisodiy o'sishga erishish uchun aholining o'sishi tartiblanib turishi talab qilinadi.

Iqtisodiy o'sishning omillari bir xil amal qilmaydi, shu vajdan ular iqtisodiyotga har xil hissa qo'shadi. Ularning aksariyat qismi mehnat unumdorligini oshirish orqali iqtisodiyotni rivojlantiradi.

Iqtisodiy o'sish samaradorligi- bu o'sishga qanday sarflar bilan erishilganligi bo'lib, Yaim o'sishini sarflar o'sishi bilan taqqoslash orqali aniqlanadi.

Samaradorlikni aniqlashda, sarflar va natijalar taqqoslanadi. Bu qanday sarf evaziga qanday natija olinganligini anglatadi. Muayyan paytda sarflar samaradorlikka har xil yo'nalishda ta'sir etishi mumkin. O'zbekistonda ham axolining farovonligi yuqori emas. O'ni oshirib rivojlangan mamlakatlardagidek farovon hayotga erishish uchun samaradorlikni muttasil ko'tarish zarur.

19.3 . Ishlab chiqarish funksiyasi – iqtisodiy o'sishni prognozashtirish modeli sifatida.

Ishlab chiqarish funksiyasi – bu, iqtisodiy-matematik tenglama bo'lib, ishlab chiqarish o'sishi bilan harajat o'sishining o'rtasidagi bo'liqliqni ifodalaydi. Matematik ishlab chiqarish funksiyasi turli xil shakillarda bo'lishi mumkin.

Ishlab chiqarish natijalari chiziqli bog'lanishga o'xshagan 1 tadan 8 tagacha murakkab ishlab chiqarish funksiyalar bir necha omillarga bog'langan darajali funksiyalardir.

Birgina iqtisodiy o'sishning omillari modellari ishlab chiqarish ob'ektini prognozlashning sistemasiga, uning hajmiga bo'g'liq bo'lgan dinamikasiga va boshqa biror omilning dinamikasiga asoslangan.

Iqtisodiy o'sishga ko'p omillar ta'sir etadi, shulardan asosiylari: taklif omili, talab omili va taqsimot omili.

Taklif omillariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Tabiiy resurslarning miqdori va sifati (yer, qazilma boyliklari, ob-havo va boshqalar): tabiiy sharoit qancha yaxshi bo'lsa, mamlakat iqtisodiy o'sishiga shuncha imkoniyatlar yuqori bo'ladi;

- Mehnatga layoqatli aholining miqdori va sifati; bunda bogliqlik tugridan-tugri bo'lishi mumkin;

- Asosiy kapitalning mavjudligi;

- Mahsulot ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi texnologiyalar darajasi.

Talab omillariga jamiyatning yalpi talabini mahsulot ishlab chiqarish orqali o'stiruvchi o'sishni ragbatlantiruvchi omillar kiradi:


- Ish haqi qancha yuqori bo'lsa, talab shuncha yuqori;

- Davlatning fiskal siyosatida- soliqlar qancha yuqori bo'lsa, ish haqi shuncha past, shu bilan birga, talab qancha past bo'lsa, iqtisodiy o'sish yuqori;

- Jamgarmaga nisbatan aholi moyilligi ham haqiqiy talab hisoblanadi, bu degani iqtisodiy o'sishdir.

Omillar ta'siriga qarab iqtisodiy o'sish modellari tuziladi. Ularning 2 xil ko'rinishi mavjud, ya'ni 2 omilli va ko'p omilli. Ko'p omilli model barcha omillarni o'sishiga ta'sir qiladi. Barcha omillar ta'sirini umumiy holdagi ifodasi ishlab chiqarishi funksiyasini egri chieigi ko'rinishidagi ifodalanishidir. Bu funksiya turli omillarni variantlar ko'rinishida mahsulotlar ishlab chiqarishdir. Taklifga ta'sir etuvchi turli omillar ta'sirining o'sishi ishlab chiqarish funksiyasini o'ngga yoki chapga surilishiga sabab bo'ladi(miqdorning o'sishi, resurslar sifatini yaxshilanishi va ilmiy texnika progressi)(chizmaga qarang).

Investitsiya tovarlari



Chizma. Ishlab chiqarish funksiyasini egri chizigi- ko'p omilli iqtisodiy o'sish modeli.

Ikki omilli model faqat mehnat va kapitaldan tashkil topadi. Amerika iqtisodchisi Denisonni fikriga ko'ra 2/3 maxsuloti o'sishi mehnat

unumdorligi hisobiga(kapital hisobiga); 1/3- hissasi esa mehnat harajatlari(mehnat) o'sishi hisobiga bo'ladi. 2 omilli modelni tuzishda 2 xil variantdan foydalanish mumkin: 1-xil variantda ITP(ilmiy texnika progressi) hisobga olinmaydi; 2- variantda- ITP hisobga olinadi.

Agar ITP ta'sir etmasa, sekinlik bilan kapital jamgarishda oxirgi mahsulot hissasi kamayib boradi, bu holat iqtisodiy o'sishni pasaytiradi. ITP dan foydalanilganda kapital va mehnatni hissasi o'sganligini, bu esa investitsiya kirib kelishini ko'paytiradi. \bar{b} \bar{b}

Ishlab chiqarish funksiyasi shaklidagi model: $Y = a_0 K^\alpha L^\beta$

Iqtisodiyotda eng ko'p tarqalgan.

\bar{b} va \bar{b} miqdorni o'zgarishiga qarab iqtisodiy o'sishni 3 turi mavjud:

Agar $(\bar{b} + \bar{b}) < 1$ bo'lganda milliy mahsulot(daromad) ishlab chiqarish omillari(kapital va mehnat) mutanosib ravishda o'sadi, umumiy iqtisodiy samaradorlik o'zgarishsiz qoladi, ishlab chiqarish faqat ekstensiv kengayib, kapitalning past samaradorligi mehnat resurslari oshishi hisobiga qoplanadi.

Agar $(\bar{b} + \bar{b}) > 1$ bo'lsa, ishlab chiqarish omillari n-marta oshganda, ishlab chiqarish (n)-martadan ko'proq oshadi, ya'ni ishlab chiqarishning o'sishi omillar umumiy harajatini aks ettiradi.

Birinchi holatda $\bar{b} > \bar{b}$ va o'sish fondlarni tejaydi, ikkinchisida $\bar{b} < \bar{b}$ va o'sish mehnati tejaydi.

Agar $(\bar{b} + \bar{b}) < 1$ bo'lsa, ishlab chiqarish o'sishi ishlab chiqarish omillari o'sishiga nisbatan sekinroqdir. Bunda umumiy samaradorlik pasayadi.

Ishlab chiqarish funksiyasi $(\bar{b}q\bar{b})q1$ bo'lgan holatni tasvirlash Kobb-Duglas funksiyasi deb ataladi.

Iqtisodiy o'sishni prognozlashtirish ekonometrik modeli quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$y_t = a_0 X_1^{21} X_2^{22} X_3^{23}$$

Ko'rsatkichlar dinamikasi qatorining o'zgarish tendensiyasini izlash turli xil vaqtinchalik funksiyalar yordamida o'tkaziladi.

Kelajakda iqtisodiy rivojlanish sharoitlarini saqlab qolish uchun vaqtinchalik funksiyalar bilan ishlab chiqarish dinamikasini prognozashtirishda topilgan baholar yoki alohida omillar ekstropolyatsiya qilinadi. Ekstropolyatsiya modellarini 5 yildan 7 yilgacha qo'llanilishi ko'proq foydali va yaxshi natija beradi. Bu usullar uzoq muddatga qo'llanilganda aniqlik darajasi kamayadi

19.4. Iqtisodiy o'sishni prognozashtirishda makroiqtisodiy modellar.

Ko'rib chiqilgan modellar kelajak iqtisodiyotidagi funksional aloqalarni yetarlicha chuqur tushuntirishni talab qiladi. Lekin boshqa ko'rsatkichlar bilan aloqada bo'lmagan alohida ko'rsatkichlarni model tarkibiga kirish yoki kirmasligidan qat'i nazar prognozashtirish talab qilinadi.

Ko'rsatkichlar dinamikasi qatorining o'zgarish tendensiyasini izlash turli xil vaqtinchalik funksiyalar yordamida o'tkaziladi. Masalan, bunga oxirgi umumiy mahsulotni, fondlar qiymatini va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin.

Kelajakda iqtisodiy rivojlanish sharoitlarini saqlab qolish uchun vaqtinchalik funksiyalar bilan ishlab chiqarish dinamikasini prognozashtirishda topilgan baholar yoki alohida omillar ekstropolyatsiya qilinishi mumkin.

Oxirgi mahsulot dinamikasining ko'rsatkichlari

Yillar Vaktinchalik funksiya tenglamalari.

$$t_1 65,7 \text{ chiziqli } y = 40,2 + 10,8t \quad R = 0,56$$

$$t_1 72,2 \text{ darajali } y = 33,8 * t^{0,67} \quad R = 0,49$$

$$t_1 78,0 \text{ ko'rsatkichli } y = 68,616071'$$

$$t_1 288,5 \text{ parabola } y = 61,9 + 5,04t + 0,30t^2 \quad R = 0,761$$

$$\text{ko'p o'zgaruvchanli 3-darajali } y = 54,5 + 8,68t + 0,15t^2 + 0,01t^3 \quad R = 0,763$$

Ma'lum bo'ldiki, ekstropolatsiya modellarning 5 yildan 7 yilgacha qo'llanilishi ko'proq foydali va yaxshi natijalar beradi. Takror ishlab chiqarish sharoitlari o'zgarish bilan bu usullar uzoq muddatga qo'llanilganda aniqlik darajasi kamayadi. Strategik nuqtai nazaridan bu prognozashtirishning real jarayonlarini orqaga surish chora - tadbirlari kabi dispersiyaning o'sishini anglatadi. Bunday usullarning biri MGUA va korrelyatsion analiz usullari bo'lib, bu usullarda ularning shart - sharoitlari kuzatilishi shart.

Qisqacha xulosalar.

Iqtisodiy usish deganda ishlab chiqarish kulamining xal qilinishi, maxsulot ishlab chiqarish va milliy daromadning usishi tushuniladi.

Iqtisodiy usishning omillik modellarining moxiyati maxsulot ishlab chiqarish sur'ati bilan xajmi orasidagi miqdoriy aloqani aniqlashdan iborat.

Iqtisodiy o'sishning omillik modellari ishlab chiqarish ob'ektini prognozlash tizimini, uning xajmiga bog'liq bo'lgan dinmikasini aniqlab beradi.

Iqtisodiy o'sishni prognozashtirishda ko'p omillik ishlab chiqarish funksiyalari keng ko'lamda foydalaniladi. Ko'rsatkichlar dinamikasi qatorining o'zgarishi tendensiyasini izlash turli xil vaqt funksiyalar orasida o'tkaziladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Iqtisodiy o'sishning omilli nazariyasiq
2. Iqtisodiy o'sish turlariq
3. Iqtisodiy o'sish modellariq
4. Ishlab chiqarish funksiyasi va undan iqtisodiy o'sishni prognozlashda foydalanishq
5. Iqtisodiy o'sishning iqtisodiy modeliq
6. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni prognozlashq
7. O'sish omillarini prognozlashq
8. Qanday ko'p omillik iqtisodiy o'sish modellarni bilisizq

Asosiy adabiyotlar.

1. I.A.Karimov Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari-T.: O'zbekiston, 56 b.

2. Abdullaev A.M., Abdurahmanov O.K., Zokirova N.K. Prognozirovaniye i modelirovaniye nasiionalnoy ekonomiki. Uchebnik. - T.: Fan va texnologiya, 2007. - 576 s.

3. Abdullaev A.M., Irmatov M.M., Haydarov M.T., Ashurova D.S. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni prognozashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2006. - 249 b.

4. Irmatov M.M., Haydarov M.T. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning prognozashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004.

5. Li A.N. Maqalliy tuzilmalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni prognoz qilish. O'quv qo'llanma. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamharmasi nashriyoti. - T.: 2004.

TEST SAVOLLARIGA JAVOB BERING VA O'Z BILIMINGIZNI MUSTAHKAMLANG:

1. Sanoat korxonasi mahsuloti hajmiga kiradi:

A) ma'lum davr mobaynida ishlab chiqilgan tayyor mahsulotlar qiymati;

B) shu korxonada ishlab chiqarilgan va korxonaning o'z ichki ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulot qiymati;

V) chetga sotilgan yarim fabrikatlar qiymati;

G) kapital ta'mirlar bo'yicha bajarilgan sanoat xarakteridagi ishlar qiymati.

2. Prognozlash ko'lami bo'yicha ko'rsatilgan to'g'ri qatorni aniqlang:

A) makroiqtisodiy va tarkibiy;

B) tarmoq va regional, korxonalar;

V) xalq xo'jaligi majmualari prognozi + A, B.

G) A, B.

3. Engil sanoat tarmog'iga kiruvchi korxonalarni toping:

A) paxta tozalash, jun, trikotaj;

B) to'qimachilik, teri, mo'yna, poyabzal;

V) trikotaj, teri, mo'yna;

G) poyabzal, trikotaj, teri, jun ishlab chiqarish.

4. Davlatning ijtimoiy -iqtisodiy rivojlanishini prognozashtirish qaysi tamoyillarga asoslanadi:

A) strategik maqsad va vazifa, prognozninig uzluksizligi, echimlarni qabul qilishdagi kompleks yondoshuv, elastikligi, ilmiy asoslanganligi va nazorat.

B) strategik maqsad va vazifa, prognozninig egiluvchanligi kompleks yondoshuv, elastikligi, ilmiy asoslanganligi va nazorat.

V) maqsad va vazifasi, prognozashtirishning yo'naltirilganligi.

G) maqsad va vazifasi, prognozashtirishning yo'naltirilganligi, tashqi va ichki sharoitlarga ta'sirini hisobga olish.

5. Mahsulot rentabelligini qaysi birliklarda o'lchanadi:

A) so'mda;

B) tonnada, kilogrammda;

V) sutkada;

G) foizda.

6. Hududlarda sanoat korxonalarining samarali faoliyat yuritishiga ta'sir etuvchi salbiy omillar quyidagilar:

A) soliq yukining yuqoriligi, moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi;

B) mahalliy hokimiyat organlarining tadbirkorlar faoliyatiga asossiz aralashuvi, elektr energiya ta'minotidagi uzilishlar, ishlab chiqarish texnologiyalari va uskunalarning eskirganligi;

V) boshqaruv apparati va mutaxassis xodimlar malakasining pastligi;

G) barcha javoblar to'g'ri

7. Yoqilg'i tarmog'iga kiruvchi korxonalar tarkibi keltirilgan qatorni aniqlang:

A) Neft qazib olish, ko'mir ishlab chiqarish;

B) Neft qazib olish, neftni qayta ishlash, gaz, ko'mir ishlab chiqarish;

V) Neft qazib olish, mazut ishlab chiqarish, gaz, ko'mir ishlab chiqarish;

G) Neft qazib olish, neftni qayta ishlash, gaz.

8. Hudud miqyosida sanoat mahsuloti ishlab chiqarishdagi ijobiy tarkibiy siljishlar deganda tushuniladi:

A) sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning umumiy hajmida xususiy mulkka tegishli korxonalar ulushining ortishi;

B) ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmida qo'shilgan qiymat ulushi yuqori bo'lgan, tashqi va ichki bozorda raqobatdosh bo'lgan, tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarining hududdagi yalpi sanoat mahsulotida ulushining ortishi;

V) Hududda yalpi sanoat mahsulotida xom ashyo ishlab chiqaruvchi korxonalar ulushining kamayib, qayta ishlash korxonalar ulushining ortib borishi.

G) barcha javoblar to'o'ri.

9. Barcha sanoat va qishloq xo'jalik ishlab chiqarish, qurilish, transport, aloqa va madaniy-maishiy xizmat ko'rsatadigan korxonalar va tashkilotlarni qanday guruhlarga ajratish mumkin:

A) respublika, mintaqaviy;

B) respublika, munitsipial;

- V) respublika, mintaqaviy, federativ;
- G) respublika, mintaqaviy, munitsipial.

10. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognoz qilishni ishlab chiqishda quyidagilardan foydalanish talab etiladi:

A) makroiqtisodiy tahlil usullari, prognozning optimal variantlarini hisobga olishda ekonometrik tahlil, statistik axborotlarni zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda statistik tahlil usullariga asoslanish;

B) makroiqtisodiy tahlil usullari, prognozning optimal variantlarini hisobga olishda ekonometrik tahlil, statistik axborotlarni zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda statistik tahlil usullariga asoslanish, statistik tahlilning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari omili dinamikasiga ta'sirini ekspert baholash usuliga asoslanish;

V) makroiqtisodiy tahlil usullari, prognozning optimal variantlarini hisobga olishda ekonometrik tahlil qilish;

G) makroiqtisodiy tahlil usullari, prognozning optimal variantlarini hisobga olishda ekonometrik tahlil va iqtisodiy-matematik modellashtirish usullardan foydalanish; axborotlarni zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda statistik tahlil usullariga asoslanish.

11. Qisqa muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozlashtirish qanday hujjat va materiallarni o'z ichiga oladi:

A) ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni o'tgan davrning joriy yil yakunlari; ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni joriy yil prognozlari; umumlashtiruvchi moliyaviy balans; kelgusi yil uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognoz qilish muammolari, hukumatning siyosati yo'nalishlari asosida prognozlash asoslari; maqsadli programmalar tarkibi, kelgusi davr uchun davlat byudjetining moliyalashtirish asoslari;

davlat iste'moli uchun asosiy tovarlar hajmi va tarkibi; iqtisodiyotning davlat sektorini rivojlantirishni loyihalashtirish;

B) ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni joriy yil prognozlari; umumlashtiruvchi moliyaviy balans; kelgusi yil uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognoz qilish muammolari, hukumatning siyosati yo'nalishlari asosida prognozlash asoslari; maqsadli programmalar tarkibi, kelgusi davr uchun davlat byudjetining moliyalashtirish asoslari;

davlat iste'moli uchun asosiy tovarlar hajmi va tarkibi;

V) ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni joriy yil prognozlari; umumlashtiruvchi moliyaviy balans; hukumatning siyosati yo'nalishlari

asosida prognozlash asoslari; maqsadli programmalar tarkibi, kelgusi davr uchun davlat byudjetining moliyalashtirish asoslari;

G) davlat iste'moli uchun asosiy tovarlar hajmi va tarkibi; iqtisodiyotning davlat sektorini rivojlantirishni loyihalashtirish.

12. Uzoq muddatli prognozlash qancha davrni o'z ichiga oladi:

A) 5 yildan 10 yilgacha;

B) 20 yildan ko'p bo'lgan davrni o'z ichiga oladi;

V) 5 yilgacha;

G) 3 yildan 5 yilgacha.

13. Hududlarda kichik sanoat korxonalarini joylashtirish va rivojlantirish uchun qaysi moliyalashtirish manbalaridan foydalanish mumkin?

A) tadbirkorlarning shaxsiy jamg'armasidan va korxonalarining mablag'laridan;

B) tijorat banklari va byudjetdan tashqari jamg'armalarning kreditlaridan;

V) chet el investitsiyalari va kreditlaridan;

G) barcha javoblar to'g'ri.

14. Mahalliy xomashyo va resurslardan foydalanish asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish:

A) aholini ish bilan bandligini ta'minlash, daromadlarini oshirish, ichki bozordagi tovarlar bahosining tashqi bozorlardagi o'zgarishlarga ta'sirchanligini kamaytirish imkonini beradi;

B) chet eldan tayyor mahsulot va butlovchi qismlar keltirishni kamaytirish, valyuta zahiralarini tejash, mahsulot eksportini ko'paytirish imkonini beradi. Milliy valyutamizning almashuv kursi barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

V) Hududning resurs salohiyatini keng ishga solish, ichki bozorni mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan to'ldirish, qo'shilgan hissasi ko'p bo'lgan mahsulot ishlab chiqarishni o'stirish imkonini beradi;

G) barcha javoblar to'g'ri.

15. Stoxastik modellar bu:

A) iqtisodiy ob'ektlarni aniq vaqt ichidagi holatini yoritib beradi;

B) aniq iqtisodiy ob'ektning parametrlarini baholash va amaliy echimlarni qabul qilishdir;

V) iqtisodiyotni yaxlit ko'rinishda izohlab, YaIM, iste'mol, investitsiya, bandlik, foiz stavkasi kabi ko'rsatkichlar orasidagi o'zarobog'liqlikni yoritadi.

G) ko'rilayotgan tadqiqotga ehtimollar nazariyasi va matematik statistika instrumentlaridan foydalanishni tasodifiy ta'sirini yoritib beradi.

16. Markazlashtirilmagan investitsiyalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

A) Mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalar mablag'lari, tijorat banklari va horijiy tijorat banklarining kreditlari, jismoniy shaxslar, shu jumladan xorijiy jismoniy shaxslar mablag'lari va boshqa manbalar;

B) Mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalar mablag'lari, tijorat banklari kreditlari, jismoniy shaxslar mablag'lari va boshqa manbalar;

V) Mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalar mablag'lari, horijiy tijorat banklarining kreditlari, jismoniy shaxslar, shu jumladan xorijiy jismoniy shaxslar mablag'lari va boshqa manbalar.

G) Mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalar mablag'lari, tijorat banklari va horijiy tijorat banklarining kreditlari, jismoniy shaxslar, shu jumladan xorijiy jismoniy shaxslar mablag'lari va gonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa manbalar.

17. Kapital qo'yilmalardan foydalanishning asosiy shakllari quyidagilar hisoblanadi:

A) yangi qurilish, korxonani kengaytirish va qayta tiklash, ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish va texnik jihatdan qayta qurollantirish; harakatdagi quvvatlarni takomillashtirish;

B) yangi qurilish, korxonani kengaytirish va qayta tiklash, ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish va texnik jihatdan qayta qurollantirish;

V) yangi qurilish, qayta tiklash, ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish, harakatdagi quvvatlarni takomillashtirish;

G) yangi qurilish, harakatdagi quvvatlarni takomillashtirish.

18. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini o'rtacha yillik narxini aniqlash uchun:

A) amaldagi yalpi qiymatni fizik hajmda ishlab chiqilgan hajmiga nisbati bilan aniqlanadi;

B) amaldagi yalpi qiymatni ishlab chiqilgan hajmiga nisbati bilan aniqlanadi;

V) amaldagi ishlab chiqilgan hajmni yalpi qiymatga nisbati bilan aniqlanadi;

G) amaldagi ishlab chiqilgan hajmni bazis qiymatga nisbati bilan aniqlanadi.

19. Prognoz davr uchun hosil haqidagi manba sifatida quyidagilarni kiritish mumkin:

A) asosan davlatning buyurtmasi va o'simliklar yig'imi, chorvachilik, parrandachilik, qishloq xo'jalik korxonalarini, fermer xo'jaliklari haqidagi ma'lumotlar hisoblanadi.

B) davlatning buyurtmasi va fermer xo'jaliklari haqidagi ma'lumotlar hisoblanadi;

V) o'simliklar yig'imi, chorvachilik, parrandachilik, qishloq xo'jalik korxonalarini;

G) davlatning paxta bo'yicha buyurtmasi, chorvachilik, parrandachilik, qishloq xo'jalik korxonalarini, fermer xo'jaliklari haqidagi ma'lumotlar hisoblanadi.

20. Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozlashda kompleks usullarga quyidagilar kiradi:

A) mantiqiy (evristik usullar kiradi);

B) formal mantiq, analogiya, ekspert baholash va evristik usullarni birgalikda qo'llash;

V) formal mantiq, ekspert baholash va evristik usullar kiradi.

G) mantiqiy (evristik va modellashtirishni birgalikda qo'llash).

21. Tashqi savdoni hisobga olishning umumiy tizimida eksport sifatida hisobga olinmaydi:

A) Eksport bojxona tartibiga muvofiq olib chiqilgan tovarlar;

V) Bojxona hududida qayta ishlash uchun olib chiqilgan tovarlar;

S) Bojxona hududida qayta ishlash uchun olib kirilgan tovarlar;

D) O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqilgan va reeksport bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlar;

E) Bojsiz savdo magazinlariga joylashtirilgan o'zbek tovarlari.

22. Tashqi savdo hisobga olishning umumiy tizimida import sifatida hisobga olinmaydi:

A) Ichki iste'mol uchun olib kelingan tovarlar;

V) olib kirilgan va reimport bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlar;

- S) bojxona qayta ishlash rejimiga muvofiq ichki iste'molga olib kirilgan tovarlar;
- D) Egalari tomonidan davlat foydasiga voz kechilgan tovarlar;
- E) Bojsiz savdo magazinlariga joylashtirilgan o'zbek tovarlari.

23. Tovarlar hisobi eksport tovarlari uchun qanday narxlarda amalga oshiriladi?

- A) SIF narxlarda;
- V) FOB narxlarida;
- S) SIF va FOB narxlarda;
- D) to'g'ri javob yo'q;
- E) o'rtacha jahon narxlarida.

24. Tovarlar hisobi import tovarlari uchun qanday narxlarida amalga oshiriladi?

- A) SIF narxlarda;
- V) FOB narxlarida;
- S) SIF va FOB narxlarda;
- D) to'g'ri javob yo'q;
- E) o'rtacha jahon narxlarida.

25. Importning prognozi qanday omillarni e'tiborga olish kerak?

- A) import tovarlar joriy iste'moli;
- V) aholining to'lov qobiliyatli talabi dinamikasi;
- S) alohida tovalar bo'yicha ichki iste'molni qondirishda importning ulushi;
- D) importning samaradorligi;
- E) barcha javoblar to'g'ri.

26. Tovarlar, ishlar yoki xizmatlar eksportning iqtisodiy samarasi ko'rsatkichlari qaysi formula orqali aniqlanadi:

- A) $IS_{EKS} = X_{EKS} - A_{vf} + T_s$
- V) $IS_{EKS} = A_{vf} + T_s - X_{EKS}$
- S) $IS_{EKS} = A_{vf} - T_s - X_{EKS}$
- D) $IS_{EKS} = A_{vf} + T_s + X_{EKS}$
- E) $IS_{EKS} = T_s - X_{EKS} + A_{vf}$

27. Eksportning iqtisodiy samaradorligi qaysi formula orqali hisoblanadi:

- A) $S_{EKS} = (A_{vf} + V_s) / X_{im}$
- V) $S_{EKS} = (A_{vf} + V_s) \cdot X_{EKS}$
- S) $S_{EKS} = X_{EKS} / (A_{vf} + V_s)$
- D) $S_{EKS} = (A_{vf} + V_s) / X_{EKS}$
- E) to'g'ri javob yo'q.

28. Transport tarmog'ini prognoz qilishda temir yo'l transporti turi samarali, qaysiki:

- A) 50 km dan uzoq masofa uchun;
- V) 50 km uchun;
- S) 50 km gacha masofa uchun
- D) qurilish materiallari tashilganda;
- E) temir- biton materiallari tashilganda.

29. Avtomobil sanoatida yaratilgan bitta oshiqcha joy mos ravishda unga xizmat ko'rsatuvchi sohada qancha ish joyi yaratadi:

- A) qo'shimcha 10 kishi uchun;
- V) qo'shimcha 15 kishi uchun;
- S) qo'shimcha 20 kishi uchun;
- D) qo'shimcha 30 kishi uchun;
- E) qo'shimcha 7 kishi uchun.

30. Turizm sohasida yaratilgan bitta oshiqcha joy mos ravishda unga xizmat ko'rsatuvchi sohada qancha ish joyi yaratadi:

- A) qo'shimcha 10 kishi uchun;
- V) qo'shimcha 15 kishi uchun;
- S) qo'shimcha 20 kishi uchun;
- D) qo'shimcha 30 kishi uchun;
- E) qo'shimcha 7 kishi uchun.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. I.A.Karimov Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari-T.: O'zbekiston, 56 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2007 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. «Xalq so'zi», 2008 yil 9 fevral.
3. I.A. Karimov "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida "O'zbekiston"-1995.
4. Abdullaev A.M., Irmatov M.M., Haydarov M.T., Ashurova D.S. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni prognozlashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2006. - 249 b.
5. Irmatov M.M., Haydarov M.T. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning prognozlashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004.
6. Li A.N. Maqalliy tuzilmalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni prognoz qilish. O'quv qo'llanma. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamharmasi nashriyoti. - T.: 2004.
7. Воркуев Б.Л. Модели макроэкономика М.ТЕИС. 2004. 230с.
8. Т.А.Агапова, С.Ф.Серегина Макроэкономика тесты Учебное пособие изд «АСА» 2003. 357с.
9. Липшиц И.В. Экономика. Учебник для курсов ОМЕГА-Л М 2004 656с.
10. Н.Л.Шагас, Е.А.Туманова Макроэкономика – 2. Учебное пособие Выпуск новый Долгосрочный аспект М.ТЕИС 2004. Экономический факультет им М.В. Ломоносова МГУ 122с.
11. Тарасевич Л.С., П.И.Гребенников, А.И.Леусский Макроэкономика Учебник 5-е издание М. Юраёт 2004г. 654с.
12. Г.А.Куторшевский «Экономика» основы теории. Учебное пособие изд. «Экономика» 2004. 382с.
13. Под.редакций К.А.Хубиева Экономический рост и фактор развития современной России М. ТЕИС 2004. 726с.
14. Р.С. Вечканов, Г.Р. Вечканова Макроэкономика 2-изд. М. 2004. 376с.
15. Ефимова М.Р. и др. Практикум по общей теории статистика М. 2004.
16. Парсаданов Г.А.,Прогнозирование национальной экономики М., Высшая школа,2002. www.u-g.ru/catalog/details.phpqidk67661

17. Парсаданов Г.А., Егоров В.В., Прогнозирование национальной экономики. Учебное пособие М., 2001 1bir.com.ru/book-22152253.html

18. Ершова Т.Л. Рынок ценных бумаг, прогнозирование национальной экономики М., 2002 www.ivanova.as.ru/vin1251/economy/keop/ershova.html

19. Егоров В.В., Прогнозирование национальной экономики. Учебное пособие М., 2001 Co@libri

20. Методы, модели и систему прогнозирование регионального развития учебное пособие М. 2003

21. Гончарова Е.В. Прогнозирование национальной экономики. Учебное пособие М. 2003 www.iesmgus.com/national_economy.html

22. Прогнозирование и планирование в условиях рынка. Учебное пособие под редакцией Т.Г Морозовой, А.В. Пикулькина. М. «Юнити»-Дана 2000

Internet saytlari.

1. <http://www.press-service.uz>

2. <http://www.uza.uz>

3. <http://www.uzland.uz>

4. <http://eduworld.ru/referats/x2/x97640.html>

5. <http://glossary.bank24.ru/video/page.1>

IZOHLI LUG'AT

Akselerator (accelerator) - Iqtisodiyotda iste'molchilik sarf-xarajatlarning hajmi o'zgarishi bilan yuzaga keladigan kapital qo'yilmalari xajmini uzgarishini tavsif etuvchi ko'rsatgich. Akseleratsiya prinsipining mohiyati shundan iboratki, iqtisodiyotda iste'molchilik xarajatlari dinamikasi investitsiyalar hajmini dinamikasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi: iste'molchilik harajatlarining sezirarli o'sishi investitsion faolligini yuzaga keltiradi, rag'batlantiradi va aksincha.

Aktivlar (assets) - Iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining pul va moliyaviy mablag'lari, asosiy va aylanma fondlarining qiymati.

Amortizatsiya (depreciation) - foydalanish jarayonida asbob-uskunlar qiymatini eskirgan sayin mahsulot hisobiga o'tkazish jarayoni. Asosiy jamg'armalar iste'mol narxini to'la yoki qisman tiklash uchun amortizatsiya orqali amalga oshiriladigan narxini to'latishi zarur. Asosiy jamg'armalar sarfini qoplash uchun ularga ketgan sarflarini tayyorlanayotgan mahsulotga ketgan sarfni tayyorlanayotgan mahsulotga singdirib borish asosiy jamg'armalarning amortizatsiyasini tashkil etadi. Asosiy jamg'armalarning amortizatsiyasi mahsulot tannarxini o'z ichiga oladi, bu korxonalar, tashkilotlarga asosiy jamg'armalarning moddiy va ma'naviy sarfini qoplash uchun mahsulotlarni sotish orqali mablag'tulashlarga imkon beradi.

Tijorat bank (Commercial bank) - qo'yilmalar shaklidagi pul kapitallari va jamg'armalar hisobiga barcha tarmoq korxonalarini uchun universal bank harakatlarini amalga oshiruvchi kredit muassasasi. Tijorat banki kredit sistemasining yetakchi bo'g'inidir. Uning harakatlarida sanoat va savdo korxonalarini kreditlash asosiy o'rnini egallaydi. Bank, shuningdek, komission muomalarni ham olib boradi.

Markaziy bank (Central bank) - Mamlakatlarning jami kredit tizimiga rahbarlik qiladi, davlat pul-kredit siyosatini amalga oshiradi, pul va qimmatbaho qog'ozlar emissiyasini monopoliya huquqida amalga oshiradi.

To'lov balansi (balance of payment) - Bu shunday iqtisodiy tushunchaki, u orqali mamlakatlarning tashqi iqtisodiy munosabatlarining holatini, xalqaro miqyosida to'lovga qobilligini bilishi mumkin. To'lov balansi - bu shunday hujjatki, bunda mamlakatlarning xorijiy davlatlarga - ulashgan va xorijiy davlatlardan kelgan barcha to'lovlarni va tushumlarining haqiqatdagi summasi aks ettiradi. Shartnomalarda ko'zda tutilgan, ammo hali kelib tushmagan to'lovlar yoki tushumlar summasi o'z aksini topadi.

Ishsizlik (unemployment) - Aholi iqtisodiy faol qismining o'ziga ish topa olmasdan qolishi, mehnat rezerv armiyasiga aylanishi.

Ishsizlikning darajasi (unemployment rate) - Ishsizlarning umumiy soning ishchi kuchiga bo'lgan munosabati.

Ishsizlikning tabiiy darajasi (natural rate of unemployment)- real va potensial yalpi milliy mahsulotni o'sishi bir-biriga mos keladigan iqtisodiy rivojlanish davr oraliqlariga xos bo'lgan ishsizlik darajasi. U shuningdek iqtisodiy rivojlanishning haqiqiy va strukturaviy ishsizlik ko'rsatkichlarining yig'indisi sifatida hisoblanishi mumkin. Shuningdek NARU (natural rate of unemployment)-termini ishsizlikning o'smaydigan darajasi ko'rsatkich ham qo'llaniladi. Bu ko'rsatkich ijtimoiy jihatdan nisbatan neytral bo'lib inflyatsiyani turg'un, barqaror darajalari hamda real va potensial yalpi milliy mahsulot (YaMM) mos tushishi holatdagi ishsizlik darajasini aks ettiradi.

Friksion ishsizlik (frictional unemployment) - Bir ishdan boshqa bir ishga o'tish bilan bog'liq bo'lgan vaqtinchalik ishsizlik. Yashirin ishsizlik (hidden, latent, disguised) - ishlab chiqarish jarayonida ob'ektiv holda ishchilar sonini ham talab etadigan, lekin amalda ishlab chiqarishda ortiqcha bo'lgan ishchilar soni.

Tarkibiy ishsizlik (structural unemployment) - Iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishni, eskirgan tarmoq va kasblarni bartaraf etilishi, ishchi malakasi pastligi yoki umuman yo'qligi natijasida yuzaga keladigan majburiy ishsizlikning ko'rinishi.

Davlat byudjeti (state budget, local budget)-asosan davlat (viloyat, shahar, tuman, muassasa, tashkilot va boshqalar) ning ma'lum muddatdagi (yil, kvartal, oy) daromadlari va xarajatlarining pul hisobi.

Byudjet taqchilligi (budget deficit) - Davlat byudjetida xarajatlarning daromadlardan ustun bo'lishi byudjet taqchilligi deb ataladi.

Yalpi milliy mahsulot - YaMM (gross national product - GNP) - iste'molchilarning yil davomida mahsulot yaratish uchun qilgan xarajatlari qiymatini jamlash orqali, ya'ni, mahsulotni umumiy pul qiymati aniqlanishi orqali hisoblanadi. Hozirgi yalpi milliy mahsulotga davlatning tovarlar va xizmatlarni sotib olishga qilgan xarajatlari hamda xususiy investitsiyalar ham qo'shiladi. Daromadlarning, ya'ni, ish haqi, foiz, renta va foyda jamiyat tomonidan mahsulotlar uchun qilingan xarajatlar sifatida qaralib, ularni jamlash orqali hisoblanadi. Hozirgi vaqtda yalpi mahsulotni hisoblashda jamiyatda iqtisodiy o'sishi aniqlanadi, yalpi va xususiy investitsiya tushunchalarni qo'llanmoqdaki, bunda ular yil davomida qurilgan uylar, fabrika, zavod, mashinalar ifoda etadi.

Nominal YaMM (nominal GNP) - joriy narxlarda aks ettirilgan yalpi milliy mahsulot.

Real YaMM (real GNP) - Solishtirma doimiy narxlar orqali aks ettirilgan YaMM. U joriy narxlarda hisoblangan YaMMni narxlarning o'zgarishi ko'rsatkichi (inflyatsiya darajasi) hisobiga to'g'rilash yo'li bilan hisoblanadi.

Potensial YaMM (potential GNP) - mavjud sarmoya resurslari va ishchi kuchi hisobiga erishishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish hajmi.

YaMM darajalardagi farqlar (GNP gap) - potensial va real YaMMni darajalar orasidagi farq.

Tashqi dunyo - shu mamlakatni tashqi iqtisodiy aloqalar olib boruvchi iqtisodiy agentlar bilan birlashtiruvchi institutsional sektor.

Alternativ variantlardan tanlov (tradeoff) - tanlab olingan variantni alternativ variantdan voz kechish evaziga amalga oshirilishini taqozo etuvchi qarorni qabul qilish zarurati. Makroiqtisodiy terminlar doirasida iqtisodiy terminlar siyosatni chora-tadbirlarini ishlab chiqish jarayonida u yoki bu g'oyalarni tanlov-muammolarini belgilash uchun ishlatiladi. Masalan, ishsizlikning o'sishi va inflyatsiya jadalligi, foydaning o'sishi yoki ish xaqining olishi orasidagi tanlov muammosi.

Devalvatsiya (devaluation) - mamlakat savdo va to'lov balansining keskin yomonlashuvi, valyuta kursining pasayishi bilan bog'liq holda milliy pul birligi qiymatining rasmiy tartibda pasaytirilishi.

Pul bazasi - MO (monetary base) - Muomaladagi naqd pullar, kaccadagi korxonalarining pullari va milliy bankdagi tijorat bank rezervi.

Muomaladagi pullar (currency) - mamlakatning pul birligi va uning tipi (oltin, kumush, qog'oz): pulga tenglashtirilgan to'lov vositalari: pul hisob-kitoblarini taqozo etadigan xalqaro iqtisodiy ayirboshlash va boshqa aloqalarda qatnashadi.

Deflyatsiya (deflation) - inflyatsiya davrida chiqarilgan muomaladagi qog'oz pulni kamaytirish. Davlat tomonidan muomaladagi pul miqdorini kamaytirishga qaratilgan moliya va pul- kredit tadbirlarini qo'llash bilan amalga oshiriladi.

Depozitlar (deposits) - omonat asrab qo'yilgan: 1) bank va omonat kassalarga qo'yilgan omonatlar: 2) bank daftardagi yozuvchilar: 3) kredit muassasalariga saqlash uchun topshirilgan qimmatbaho qog'ozlar (aksiya va obligatsiya).

Talab etilugunga qadar saqlanadigan depozitlar (demand deposits) - bankdagi qo'yilmalarda talab etilgungina qadar saqlanadigan pul vositalari.

Dividend (dividend) - hissadorlik jamiyatlari foydasini bir qismi bo'lib, aksiyaning soni va turiga qarab har yili hissadorlar orasida taqsimlanadi.

Diskont (dicount) - markaziy bank tomonidan tijorat banklarga beriladigan qarzlarga qo'yiladigan foiz.

Daromad (income) - ishlab chiqarish natijasida tushgan pul (foyda).

Shaxsiy daromad (personal income) - Jismoniy shaxslarning soliq to'lagunga qadar daromadi.

Milliy daromad (national income) - milliy ishlab chiqarishda olinadigan daromad, yoki iqtisodiyotning barcha turdagi daromadining bahosi.

Daromadning mavjud miqdori (disposable income) - sarf xarajatlar va jamg'armalar uchun ishlatish maqsadida iqtisodiy sektorlarning qo'lida mavjud bo'lgan daromadlar. Daromadlar va to'g'ri soliqlar orasida farq bilan aniqlanadi.

Faktor daromad (factor incomte) - ishchi kuchi kapital mulk, ishlab chiqarish omillarining qo'llanishi natijasida yuzaga keladigan daromad.

Qarzlar - "zayomlar" (borrowing) - ma'lum bir muddatga qaytarib olish sharti bilan berilgan mablag'lar. Qarzlar quyidagicha bo'lishi mumkin: foizsiz tijorat shaklidagi qarzlar, imtiyozli qarzlar hamda ichki va tashqi qarzlar. Iqtisodiy siyosatda qarzlar quyidagi holatlarda foydalaniladi: jismoniy: yuridik shaxslar qarzlari ichki qarzlarga kiradi.

Aholining bandligi (employees) - ijtimoiy ishlab chiqarishni fuqarolik sektorida band bo'lgan va mamlakat qonunchiligi tomonidan aniqlangan normalarga mos ravishda hisobga olinadigan mehnatga layoqatli yoshdagi aholi.

Jami band aholi (employees) - band bo'lgan aholi va harbiy xizmatchilar.

Bandlik darajasi (rate of employees) - bandlarni umumiy sonini mehnatga layoqatlash yoshdagi aholiga nisbati.

Ish haqi (wage , nominal) - pul, qiymat shaklidagi ish haqi.

Real ish haqi (real wage)- narxlar o'zgarishi darajasi hisobiga tuzatish kiritilgan nominal ish xaqi (yoki nominal ish haqidan narxlar o'zgarishi darajasini hisobga olingani).

Import (import) - mamlakat ichki bozorlarida sotish uchun chet el mollarini, kapitalini va texnologiyasini olib kelish. Import xalqaro mehnat taqsimoti natijasidir. U xalq xo'jaligi, vaqtni tejash, xalq ehtiyojini qondirish vazifalarini muvaffaqiyat bilan hal qilishga ko'maklashadi.

Investitsiya (investment) - ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga uzoq muddatli kapital kiritish. Uning moliyaviy va real turlari mavjud.

Narxlar indeksi (price index) - ikki har xil vaqt oralig'ida tovar va xizmatlarga narxning muvozanatini o'zgarishini aks ettiruvchi ko'rsatkich.

Iste'mol narxlar indeksi (consumer price index) - o'rtacha oila tomonidan odatda iste'mol qilinadigan tovar va xizmatlar narxining bazis davriga nisbatan o'zgarishini o'rtacha darajasini aks ettiradigan ko'rsatkich, inflyatsiya ko'rsatkichi sifatida ishlatiladi.

Ishlab chiqaruvchilar narxlarining indeksi (producer price index) - bazis davri oralig'ida xom-ashyo materiallar va oraliq tovarlari narxini o'zgarishini o'rtacha darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkich. YaIMni maksimal darajada detallashtirilgan komponentlari narxini solishtirma narxlarga o'tkazishda ishlatiladi.

Indekslar- YaIM deflyatorlari (GNP deflators) - YaIM ko'rsatkilarini solishtirma narxlarda aks ettirish uchun ishlatiladigan indekslar guruhi, bularga narxlarni agregat indeksi, YaIM deflyatori narxlari indeksi, iste'molchi narxlar indeksi, shunigdek, maxsus tashkil qilingan indekslar kiradi.

YaIMni deflyatori narxlar indeksi (GNP implicit price deflator) - joriy narxlardagi YaIMni solishtirma narxlardagi YaIMga nisbatan tafsiflovchi ko'rsatkich yoki boshqacha qilib aytganda nominal YaIMni real YaIMga nisbati.

Indeksatsiya (indexation) - iqtisodiyotdagi narxlarni o'rtacha darajasini o'zgarishiga bog'liq ravishda ish xaqi va boshqa daromadlarni tuzatish, kelishtirish tizimi.

Inflyatsiya (inflation) - pulning kadsizlanishi, muomiladagi pulning kadsizlanishi, pul massasining tovarlar massasidan ustunligi natijasida tovar bilan ta'minlanmagan pullarning paydo bo'lishi. Inflyatsiya tovar bahosining ochiqchasiga va yashirin ravishda oshib ketishiga olib keladi.

Inflyatsiya darajasi (rate of inflation) - ma'lum vaqt ichida (oy yil) narx darajasi foiz o'zgarishi.

Kutilayotgan inflyatsiya darajasi (expected rate of inflation) - mavjud ijtimoiy iqtisodiy axborotlar, ma'lumotlar asosida alohida shaxs va korxonalar tomonidan kutiladigan bo'lg'usi davrdagi inflyatsiya darajasi.

Giperinflyatsiya (hyper-inflation) - haddan tashqari inflyatsiya, narxning shuddat bilan o'sishi, pul kadrining g'oyat tez pasayishi, pul topishga intilshning minimal darajaga kelishi bilan xarakterlanadi.

Bartaraf etilgan inflyatsiya - boshqariladigan yoki tabiiy, qo'yilgan narxlarni boshqarishga bo'lgan iqtisodiyot doirasida inflyatsion jarayonlarning o'ziga xos ko'rinishi. Direktiv tarzda belgilangan narxlar darajasi saqlangan holda inflyatsiya muomiladagi pul miqdorini ko'payishi va uni sotib olish qobiliyatini kadsizlanishi orqali namoyon bo'ladi. Bundan tashqari shularning natijasida, ta'siri ostida keskin talabni oshib borishi hamda tovar va xizmatlarning defitsitini o'sib borishi, aholini vaqtinchalik qondirilgan talabini ko'paytirish orqali namoyon bo'ladi.

Doimiy, davomiy inflyatsiya (chronic inflation) - nisbatan yuqori yoki past inflyatsiya darajasi uzoq muddat davomida ushlab turiladigan iqtisodiy vaziyat. Barkarorlikka erishgunga qadar davomli yuqori inflyatsiya darajasiga xos bo'lgan mamlakatlarga misol qilib, Braziliya, Isroil, Meksika, Peru Argentinani keltirish mumkin.

Narxlar korrektirovkasi (price adjustment)- bozor vaziyati o'zgarishiga narxlarning moslashuv jarayoni.

Qarz berish (crediting)- pul yoki tovarlarni qaytarish sharti bilan ma'lum muddatga berish (qarz ishlatilgani uchun oldindan kelishilgan foizlar tushuniladi).

Tijorat krediti (comercial credit) - qisqa muddatli qarz (1 yil muddatgacha beriladi) sotib olinadigan tovarlariga to'lash uchun pul qarzi ko'rinishda beriladi.

Bank krediti (banking credit) - daromad (%) ko'rinishida olish maqsadida bank tomonidan qarzga pul berish.

Iste'mol krediti (consumer credit) - markaziy bank tomonidan barqarorlik davrida qo'llaniladigan pul siyosatining vositasi (instrumenti). U banklar tomonidan berilishi mumkin bo'lgan ichki kredit maksimal miqdorining rasmiy ravishda belgilanishi taqozo etadi.

Likvidlik (lequidity) - turli korxonalar, birlashmalar, firmalar va banklarning o'z qarzini to'lay olish yoki boshqa majburiyatlarini bajara olish imkoniyati.

Makroiqtisodiyot (macroeconomics) - barqarorlashtirish, bir-birlik milliy valyutamizni musahkamlash, kapital qurish dasturi, iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan yangilash yo'lini davom etirish rejasini yoki mulkdorlar sinfini yangilash, qonunchilik yoki huquqiy tarkibni mustahkamlash.

Soliqlar (taxes) - milliy daromadni taqsimlash jarayonida uning bir qismini davlat ixtiyoriga olish shaklidir. Soliq byudjet va byudjetdan tashqari pul fondlarini tashkil etishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Kadsizlanish (depreciation) - milliy valyutaning narxi chet el valyutalarining bahosidan kamayishi.

Valyuta kursi - mamlakat pul birligining boshqa mamlakat pul birligida ifodalangan bahosi.

Nominal almashuv kursi (nominal exchange rate) - milliy valyuta va chet el valyutalari birliklarini odatda mavjud bo'lgan nisbati. Ushbu nisbat ham qat'iy belgilangan, ham chayqalib turuvchi asosda amalga oshirilishi mumkin.

Real almashuv kursi (real exchange rate) - ikkala mamlakatdagi narxlar darajasining o'zaro nisbati, munosabatini hisobga oluvchi almashuv kursi. Solishtiralayotgan mamlakatlardagi nominal almashuv kursini narxlari indekslarini o'zaro nisbatiga bo'lishi orqali hosil bo'ladi.

O'zgaruvchan almashuv kursi (flexible exchange rate) - ichki muvozonatni tiklash maqsadida mamlakat almashuv kursiga ega bo'ladigan xalqaro hisob-kitoblar tizimi.

Belgilangan almashuv kursi (fixed exchange rate) - milliy valyutaning chet el valyutalariga nisbatan an'anaviy tarzda belgilanadigan va o'zgarmas bo'ladigan tizim.

Asosiy fondlar va ularning bahosi (capital stock) - moliyasi turli xo'jalik sub'ektlari va fuqarolarning pul mablag'ini aniq bir maqsad yo'lida birgalashtirish va ishlatishni bildiradi.

Byudjet soliq siyosati (fiscal policy) - byudjet siyosatida davlat o'z istagi bilan byudjet xarajatlari va daromadlarini shakillantirgan xolda 3 xil byudjet siyosati yuritadi. Byudjet xarajatlari, transfer xarajatlari shaklidagi xarajatlar. Daromadlar esa uch manbadan kelishi mumkin: soliqlardan, xazina tomonidan, chiqarilmagan qimmatbaho qog'ozlarning sotilishidan va byudjet tomonidan ma'lum qismi markaz tomonidan banki emmissiyasi hisobiga yopilishidan. Shunga ko'ra davlat xarajatlar va daromadlarni boshqarish orqali byudjet siyosati yuritiladi.

Soliq siyosati - soliq siyosati rivojlantirish uchun kapital qo'yilmalarni moliyalashtirishda "majburiy jamg'armalar" tashkil qiluvchi asosiy omillardan biridir.

Paritet (parity) - tenglik, teng huquqli, teng vakillik asoslarida biron bir iqtisodiy (siyosiy) harakatda ishtirok etish.

Iste'mol (consumption) - kishilarning iqtisodiy talablarini qondirish jarayonida ijtimoiy mahsulotdan foydalanish, ijtimoiy ishlab-chiqarish jarayoning oxirgi fazasi.

Ist'emol xarajatlari - makroiqtisodiyotda iste'mol xarajalari uy xo'jalik xarajatlari, qurilish xarajatlarini qamrab oladi.

Davlat iste'moli - mahsulot va xizmatlarga ketgan davlat iste'moli xarajatlari, xususiyl sektorida ishlab chiqilgan.

Oraliq iste'mol (intermediate consumption) - ishlab chiqarishni bir bosqichida ishlab chiqarilgan mahsulotlarini ishlab chiqarishni boshqa bosqichida mehnat predmetlari sifatida ishlatilishi.

Ortiqcha taklif (excess supply) - mavjud narxlarda tovar va xizmatlarning taklifi ularga bo'lgan talabdan ustun bo'ladigan iqtisodiy vaziyat. Shuningdek, ortiqcha ishlab chiqarishi deb ham ataladi.

Jami taklif (aggregate supply) - mamlakatda ishlab chiqilgan hamma tovar va xizmatlarni jami qiymati, shuningdek, milliy mahsulot deb ham ataladi.

Foyda (profit) - qo'shimcha mahsulotning pul shakli: korxonalar, tarmoqlar va butun xalq xo'jaligi ishlab chiqarish xo'jalik faoliyatining umumlashtiruvchi ko'rsatkich. Korxonaning moliyaviy ahvoli, iqtisodiy rag'batlantirish fondini shakillantirish imkoniyatlari, byudjet va yuqori turuvchi organlar bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi foyda hajmiga bog'liq.

Xususiy lashtirish (privatization) - davlat mulkini, iqtisodiyotdagi davlat sektorini xususiy lashtirishi. Xususiy lashtirish davlat mulki monopoliyasini tugatish, erkin sohibkorlik tashabbusiga yo'l ochish, bozor iqtisodiyoti rag'batlantirish maqsadida amalga oshiriladi.

Mehnat umumdorligi (labour productivity) - mehnatning mahsulotligini, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini ifodalovchi umumlashma ko'rsatkichlardan biri.

Ishlab chiqarish funksiyasi (production function) - mahsulot ishlab chiqarish uchun mazkur korxonaga zurrur bo'lgan barcha kishilar va mehnat qurollari harakatlarining majmui.

Foiz (interest) - daromad, o'z mulkining boshqa jismoniy va huquqiy shaxslarga foydalanishga berib va shundan foyda olish.

Foiz stavkasi (interest rate) - kredit yoki qarz stavkasi kapitali evaziga to'lovni foiz ko'rsatkichi. Odatda, qarzga olingan pul belgisini bir-birligiga to'g'ri keladigan yillik to'lovni aks ettiradi.

Nominal foiz stavkasi (nominal interest rate) - ma'lum davr ichida (oy, yil) qarzga olingan pul birligiga to'langan pul miqdori. Depozit schyotlarda va qimmatli qog'ozlarda aktivlarni nominal qiymati o'simtasi belgilanishiga foiz stavkalari deyiladi.

Real foiz stavkasi (real interest rate) - ma'lum davr ichida depozit schyotlaridagi va qimmatli qog'ozlaridagi aktivlarni real qiymati o'sishi yuz beradigan foiz stavkasi: nominal foiz stavkasidan shu davr oralig'ida kutilayotgan nominal foiz stavkasi.

Ishchi kuchi (labour force) - odamlarning mehnat qobiliyati, hayot ne'matlarini ishlab chiqarish jarayonida u ishga soladigan jami jismoniy va ma'naviy kuchlar.

Ishchi kuchi hissasi (labour force rate) – odamlarning mehnat qobiliyati, hayot ne'matlarini ishlab chiqarish jarayonida u ishga soladigan jami jismoniy va ma'naviy kuchlar.

Ish vaqti (hours of work) - ishlab chiqarishda band bo'lgan aholining ishlagan vaqt hajmi.

Ish vaqtining umumiy soatlar soni (total hours of work) - o'rtacha statistik ishlovchi band bo'lgan ish vaqtini o'rtacha soatlar soni.

Bozor munosabati (market clearing) - bozordagi talab va takliflarning miqdoran va tarkibiy jihatdan bir-biriga muvofiq kelishi. Agar shunday muvofiqlik bo'lmasa, bozor muvozanati izdan chiqqan bo'ladi.

Sarf-xarajat balansi (spending balance) - makroiqtisodiyotda YaIM ni ishlab chiqarishga ketgan jami xarajatlari va yaratilgan yalpi milliy mahsuloti oxirgi iste'mol maqsadida ishlatilishi orasidagi balans.

Ratsional kutishlar (rational expectations) - ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'zlarida mavjud bo'lgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy ma'lumotlar asosida eng ratsional tarzda o'z iqtisodiy xulq atvorini rejalashtiradilar deb ta'kidlovchi nazariya.

Bank rezervlari (reservers) - bankda saqlanayotgan naqd pullarni, markaziy bankda saqlanayotgan foizsiz depozitlarni o'z ichiga oladi.

Revolvatsiya (revaluation) - mamlakat pul birligi rasmiy kursini chet el valyutalariga nisbatan oshirish.

Iqtisodiy o'sish - real milliy daromadning yoki real milliy daromadni (mahsulotni) aholi jon boshiga o'sishi sifatida aniqlash mumkin.

Import qilishga moyilik (propensity to import) - daromadda importga qaratilgan xarajatlarning hisssasi.

Investitsiyalarga bo'lgan moyillik (propensity to invest) - iste'mol xarajatlarning daromaddagi hisssasi.

Iste'mol qilishga moyillik (propensity to consume) - iste'mol xarajatlarining daromaddagi hisssasi.

Jamg'armaga moyillik (propensity to save) - daromadda jamg'arma hisssasi qanchani tashkil etishi.

Mulk (property) - qiymatga ega bo'lib, biron bir shaxsga narsasiga qarashli bo'ladi.

Pasayishi (recession) - iqtisodiy aktivlikning pasayishi bo'lib o'sishi bilan xarakterlanadi.

Pulga bo'lgan talab (demand for money) - mamlakat aholisi jamg'arish va iste'mol qilish, oldi-sotdi va har xil iqtisodiy bitimlar tuzish uchun egaliq qilmoqchi bo'lgan miqdori. Iste'mol, foiz stavkasi, operatsion xarajatlar va boshqa funksiyalar bilan ifodalanadi.

Ortiqcha talab (excess demand) - mavjud narxlar holatida tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talab takliflardan ustun bo'ladigan iqtisodiy vaziyat. Shunigdek defitsit deb ham ataladi.

Jami talab (aggregate demand) - mamlakatni real sotib olish qobiliyatini aks ettiruvchi ko'rsatkich. Jami xarajatlar deb ham ataladi. Unga davlatning iste'mol xarajatlari, xususiy sektor iste'moli, jami invenstitsiyalar va eksport-import xarajatlar savdosi kiradi.

Solishtirma afzallik (comparative advantages) - ayrim iqtisodiy agentlarning tovar va xizmatlarni kamroq xarajatlar evaziga ishlab chiqarish xususiyati. Makrodarajada solishtirma afzalliklar prinsipi ishlab chiqarish va eksportni samarali strukturasi shakllantirish uchun qo'llaniladi.

Subsidiya (subsidy) - davlat byudjeti hisobidan korxonalar, tashkilotlar va xorijiy davlatlarga beriladigan mablag'. Subsidiya bozor iqtisodiyotini tartibga solish vositasi hisoblanadi.

Uzoq muddat davomida ishlatuvchi tovarlar (durable goods) - iste'molchilarga uzoq vaqt xizmat qiladigan (1 yildan kam) tovarlar. Uzoq vaqt xizmat qiladigan tovarlarga avtomobil, xolodilniklar va boshqa maishiy xizmat turlari kiradi.

Ichki iste'mol uchun mo'ljalangan tovarlar (nontraded goods) - tashqi bozorda sotishga mo'ljallanmagan, ichki iste'mol uchun ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar

Savdo balansi (merchandise trade balance) - bunda eksport va importdan keladigan tushumlar va to'lovlar o'z aksini topadi. Savdo bitimida ko'zda tutilgan, ammo joriy davrda amalga oshirilmaydigan to'lovlar va tushumlar balansda o'z aksini topmaydi.

Savdo balansining difitsiti (trade deficit) - hisob davrini oxiriga kelib import bo'yicha qilingan jami xarajatlarni eksport daromadlardan ustun kelish vaziyatigacha iqtisodiy templarning o'sishi bilan xarakterlanadi.

Savdo balansini ijobiy saldosi (trade surplus) - hisobot davrining oxiriga kelib eksport bo'yicha jami daromadlar import bo'yicha xarajatlardan ustun kelishi vaziyati.

Transfert to'lovlari (transfer payment) - o'tkazma to'lovlar, ya'ni davlat byudjetidan aholiga va xususiy tadbirlarga beriladigan to'lovlar.

Filips egri chizig'i (Phillips curve) - inflyatsiya darajasi dinamikasi va ishsizlik darajasi dinamikasi yoki real YaIMni potensialidan og'ishi orasidagi o'zaro bog'liqlikni tafsiflaydi va grafikga ifodalab beradi.

Baho, narx (prise) - tovar qiymatning pul orqali ifodalashi. Mahsulot ishlab chiqarish uchun O'zbekistondagi xarajatlarni va foydani ko'rsatadi.

Asosiy narx (base price) - xalq xo'jaligini rivojlantirish va statistik hisob olib borishda, indekslarni hisoblash va to'lashgacha hisoblangan narx.

Ishlab chiqaruvchilar narxi (producers price) - o'z ichiga tovar va xizmatning bazis narxini, soliqlarni qamrab oladi va subsidiyalar olib tashlanadi.

Bozor narxi (market price) - iqtisodiyotda jami talablarning o'zgarmas holda qoluvchi narxlar.

Qimmatbaho qog'ozlar (securities) - uning egasiga qandaydir kapital yoki mol-mulkka egalik qilishining huquqini tasdiqlovchi va foiz dividend ko'rinishda daromad keltiruvchi xujjatdir.

Sanoat sikli (business cycle) - hozirgi davr iborasida iqtisodiyotni doimiy bo'lmagan holda qaytarib turuvchi iqtisodiyotni turli rivojlanish bosqichlari. Umumiy ishbilarmonlik faolligini oshishi va tushumlaridan, pasayishlaridan iborat.

Cof milliy mahsulot (net product) - makroiqtisodiy ko'rsatkich bo'lib, u YaIMni va amortizatsiya ajratmalarni jami miqdorini ayirmasi hisoblanadi.

Yopiq iqtisodiyot (closed economy) - tashqi iqtisodiy bozorda keng savdo- iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo'lmaydigan iqtisodiyot.

Ochiq iqtisodiyot (open economy) - tashqi iqtisodiy bozorda keng savdo- iqtisodiy va moliyaviy aloqalarga ega bo'lgan iqtisod.

Kapital eksporti - tijorat maqsadida amalga oshirish.

Eksport (export) - tashqi bozorda tovarlar, xizmatlar va kapitallarni realizatsiya qilish maqsadida chetga chiqarish.

Tovar eksport qilish - ichki ishlab chiqargan mahsulotlarni chetga sotish hamda xorijdagi sheriklarga ishlab chiqarish va talab xarakteriga ega bo'lgan xizmatlarni ko'rsatish.

Shaxs sarmoyasi - kapital sifatida yondashuv ikki tomonlama xususiyatga ega bo'ladi. Uning salbiy tomoni shundan iboratki, bunday qarashlarni sotsial muammolar va mehnatdan kapital tomonidan ekspluatatsiya qilishi haqidagi fikrlarga ulanib ketishiga olib keladi. Bu yerda kapital mehnatni ekpluatatsiya qilar ekan, u holda inson kapitali ham mehnatni ekspluatatsiya qilish haqidagi fikrlarni keltirib chiqarishga urinib

ketishadi. Insonga kapital sifatida yondashuvning ijobiy tomoni shundan iboratki, bunday yondashuv resurslardan samarali foydalanishni va ularning oqilona taqsimlanishini ta'minlaydi.

ILOVALAR

1- ilova

	O'l. bir.	O'rtacha yillik narxi Ming so'm	2006		2007		
			Fizik hajmda ishlab chiqish	Yalpi qiymat(amaldagi narxlarda) Mln.so'm	Fizik hajmda ishlab chiqish	Yalpi Qiymat(2006 y. taqqoslama narxlarda) Mln.so'm	2007 yilda 2006 yilga nisbatan
		2=4 us/3 us.	3	4	5	6=2us*5us	2=4 us/3us.

**O'zbekiston turizm xizmatlari bozorida erishilgan natijalar ko'rsatkichlari
va ularning korrelyatsiyasi jadvali.**

	Daromad	Xarajat	Sof foyda	Xizmat ko'rsatildi							
				Jami		Jo'natildi			Qabul qilindi		
				so'm	so'm	kishi	kishi \ kun	Jami	Xorijga	O'zbekist	Jami
1996	1584294800	1206966100	377328700	436611	1136100	150526	91779	58747	286085	16584	120237
1997	3344524600	2826181000	518343600	566258	1952100	174417	115528	58889	391841	241987	149854
1998	4059567300	3709517200	350050100	572555	1405800	179354	97645	81709	393201	260979	132222
1999	3415489100	3117731800	297757300	587192	1401000	133790	56531	77259	453402	261968	191434
2000	6115274900	5759897000	355377900	609469	1324500	161615	50820	110795	447854	260020	187834
2001	9286732000	8233244600	1053487400	548541	1313600	129470	44212	85258	419071	215090	203981
2002	8557825173	8193651830	364173343,2	554364	1112200	217184	50766	166418	337180	173537	163643
2003	15572453400	15136041143	436412257	549800	1116500						
2004	8814516900	8361132416	453384484,4	564550	1125400						

188

Korrelyatsiya

	Daromad	Xarajat	Sof foyda	Jami xizmat ko'rsatildi kishi	Jami xizmat ko'rsatildi kishig'kun	Jami jo'natildi	Xorijga	O'zbekist on bo'yicha	Jami qabul	Xorijdan	O'zbekistondan
Daromad	1										
Xarajat	0,998661408	1									
Sof foyda	0,283197498	0,233211724	1								
Jami xizmat ko'rsatildi kishi	0,204511419	0,211064446	-0,068664016	1							
Jami xizmat ko'rsatildi	-0,466421548	-0,478556435	0,104490261	0,316808404	1						
Jami jo'o'natildi	0,193706175	0,244890604	-0,425619376	0,106113877	-0,055687465	1					
Xorijga	-0,728424048	-0,741329764	-0,25907462	-0,301494972	0,61183287	0,18049471	1				
O'zbekis	0,707440554	0,758356429	-0,145863013	0,313658702	-0,508193355	0,66705243	-0,61237525	1			
Jami qabul	0,239737419	0,237745425	0,149880917	0,867356674	0,364711929	-0,40283852	-0,36785643	-0,045155573	1		
Xorijdan	-0,14695633	-0,14183325	-0,132283636	0,794606132	0,549828871	-0,27403108	0,076590059	-0,278270745	0,868565658	1	
O'zbekistondan	0,648380936	0,637870449	0,458412978	0,604492061	-0,029027033	-0,40550535	-0,79938784	0,279564893	0,759376306	0,337122048	1

189

O'zbekiston Respublikasida 2006 yilda xizmatlar va servis sohasini rivojlantirish mintaqaviy dasturining maqsadli parametrlarining bajarilishi

Mintaqalar	YaMM xizmat ulushi (%da)		Umumiy xizmatlar			Shu jumladan:											
	reja	xaqiqatda	reja	Xaqiqatda		Savdo xizmati			Transport xizmati			Aloqa va axborot xizmati			Moliya va bank xizmati		
				mlrd. So'm	o'sish %da	reja	xaqiqatda		reja	xaqiqatda		reja	xaqiqatda		reja	xaqiqatda	
							mlrd. So'm	o'sish %da		mlrd. So'm	o'sish %da		mlrd. So'm	o'sish %da		mlrd. So'm	o'sish %da
O'zbekiston Respublikasida (YaIM)	39	39,3	113,2	9344,2	115	113,5	7095,5	114	110	578,9	112,5	120	221,6	138	111,8	9295,8	2,5 marta
Shu jumladan:																	
Qoraqalpog'iston Viloyatlar:	51,2	50,6	115	236,9	109,3	101,5	186	107,4	103	6,6	92,3	109,4	6,0	134,0	111,8	88,0	131,0
Andijon	33,1	33,7	103,1	800,6	112,8	103,1	591,8	110,6	104,9	39,7	71,5	116,2	17,7	180,0	111,8	83,4	46,9
Buxoro	30,6	30,8	111,3	492	112,5	111,2	375,7	112,1	105	29,4	81,0	105,3	7,1	107,0	102	41,7	77,7
Jizzax	34,8	38,1	108,3	197	112,5	105	155,7	111,9	106	7,6	114,3	107	2,9	121,4	130,8	348,1	806,2
Qashkadaryo	30	30	110	536,7	113,6	107	434,7	111	107,3	20,9	108,7	111,5	8,5	2,5 marta	108,1	210,0	135,5
Navoiy	27,2	23,2	114,5	284,4	120,7	113	224,6	122,5	117,5	6,4	136,0	119	7,6	129,0	118	56,5	218,1
Namangan	36,9	36,2	125	515,6	115,6	113,5	409,4	113,7	110	20,6	95,0	115	11,7	171,0	110,1	553,0	42,4
Samarkand	34,9	35	116	683,9	114,1	105	500,4	110,1	112	42,5	134,5	120	21,0	134,0	111,8	235,2	47,4
Surxondaryo	32,1	33,2	117	474,8	121,2	115	403,9	123	118	15,4	114,0	115	4,7	130,0	105	150,1	68,0
Sirdaryo	30,5	30	111,6	138,6	114,9	115,7	108,5	111,7	108	2,5	110,5	103,2	5,0	150,0	100,4	46,3	30,0
Toshkent	30,7	26,4	113,2	026,9	110,4	113,5	799,8	109,8	110	15,9	80,0	121	10,0	133,0	127	214,1	24,1
Farg'ona	34,5	34,5	117	883,4	112,4	104,7	718,1	110,6	109,8	18,7	100,0	121	11,6	150,0	122	67,2	42,7
Xorazm	33,9	32,9	106	387,8	124,3	103	287,3	122,4	114	13,8	154,1	121	11,3	158,0	108	41,8	41,3
Toshkent sh.	60,9	60,9	129,7	2626,8	117,5	134,7	1899,6	118,2	104,8	196,7	101,0	119	96,5	127,0	102,8	7160,4	7122,1

Mintaqalar	Shu jumladan:														
	reja	Turistik-ekskursion xizmatlar		Mexmonxonalar xizmati			Kommunal-maishiy xizmatlar			Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish			Boshqa xizmatlar		
		Xaqiqatda		reja	xaqiqatda		reja	Xaqiqatda		reja	Xaqiqatda		Reja	Xaqiqatda	
		mlrd. So'm	o'sish %da		mlrd. So'm	o'sish %da		mlrd. So'm	o'sish %da		mlrd. So'm	o'sish %da		mlrd. So'm	o'sish %da
O'zbekiston Respublikasida (YaIM)	115	9,1	100	115	25,2	117	112	565,5	120,3	116	39,4	117	111,7	764,4	134
Shu jumladan:															
Qoraqalpog'iston Viloyatlar:	105	0,02	0	106	0,12	142	115	19,0	120,0	113	0,5	115	124,1	17,2	1,4 marta
Andijon	112,3	0,6	38	112,9	0,1	1,7 marta	112	52,2	115,0	106,4	6,3	106,3	112	82,8	1,8 marta
Buxoro	100,1	0,5	95	113	1,5	90	106	38,8	120,0	102,5	6,9	103,9	108,3	116,7	1,8 marta
Jizzax	107	0,2	0	104	0,1	125	108,1	17,2	120,0	105	0,5	108	108	8,4	110
Qashkadaryo	105,5	0,02	76	110	0,1	2,5 marta	121	34,0	130,0	115	0,5	116	111,7	26,3	1,3 marta
Navoiy	111	0,02	0	105,4	0,4	78	120,1	18,4	114,0	115,7	1,2	108	108,5	21,6	110
Namangan	125	0,01	13	115	0,1	132	119	41,7	124,5	116	0,9	110	111,7	103,1	1,6 marta
Samarkand	115	0,5	35	110	2,3	132	108,9	48,7	130,0	116	10	118	112	44,1	1,3 marta
Surxondaryo	112	0,02	19 marta	117	1,6	15 marta	111	21,2	120,0	122	1,1	125	125	20,4	127
Sirdaryo		0,001	0	110,5	0,1	95	103	10,8	118,0	106	0,2	106	113,3	4,3	120
Toshkent	117	0,3	57	115	0,2	132	112	46,1	130,0	116	0,02	122	111,7	50,3	1,5 marta
Farg'ona	108	2,5	2,8 marta	109	3,1	130	115	67,5	127,5	129	3,5	133	126	54,9	1,3 marta
Xorazm	112	0,3	34 marta	128	0,05	85	114	30,8	123,0	123	1,1	116	114	19,9	105
Toshkent sh.	117	4,1	90	111,3	15,4	109	112	119,2	102,0	114	6,7	114	124,2	195,4	1,3 marta

Tarmoqlar bo'yicha yalpi hududiy mahsulot prognozining tarkibiy tuzilishi

	Baza(hisobot) davri uchun YaHM, mlrd.so'm.	Prognozlash tirilayotgan yil			YaHMning prognoz baholanishi, mlrd. So'm.
		sur'at(fizik hajmi indeksi %)	Baza davri narxlaridagi YaHM, mlrd.so'm.	Deflyator, %	
1	2	3	4	5	6

Yalpi hududiy mahsulot-hammasi*

yig'indi

yig'indi

ust.6/ ust.4Y100 (satr2: satr8)

(satr2: satr8)

ust.4/ust.2Y100 (satr2: satr8)

Shu jumladan:

Sanoat

Qishloq xo'jaligi

Transport va aloqa

Qurilish

Savdo va umumiy ovqatlanish

Boshqa tarmoqlar, jumladan xizmat ko'rsatuvchi

Mahsulotlarga soliqlar

*Yig'ma jadval alohida tarmoqlar bo'yicha hisoblangan mahsulotlar hamda soliqlar hisob-kitobi bo'yicha to'ldiriladi

Pulli xizmatlar prognozi

Mintaqalar	2008 yil		2009 yil		2010 yil prognozi	
	Temp	amaldagi narx	Temp	amaldagi narx	Temp	amaldagi narx
O'zbekiston Respublikasi	120,6	3681,9	116,8	4300,5	123,0	5291,0
Qoraqalpog'iston	116,5	87,3	117,0	102,1	266,0	271,6
Andijon	119,2	329,9	111,4	367,6	110,0	404,3
Buxoro	110,8	184,3	111,2	204,9	113,5	232,6
Jizzax	135,4	68,6	115,0	78,9	112,0	88,4
Qashkadaryo	127,5	194,6	125,0	243,2	125,0	304,0
Navoiy	120,3	100,0	118,0	118,0	119,0	140,4
Namangan	126,1	189,9	124,0	235,5	125,0	294,4
Samarkand	120,0	315,2	117,5	370,4	117,7	436,0
Surxondaryo	113,1	104,7	121,8	127,6	122,5	156,3
Sirdaryo	118,3	51,5	117,1	60,3	115,8	69,8
Toshkent	126,2	231,1	124,1	286,8	125,0	358,5
Farg'ona	122,1	280,6	119,5	335,3	117,4	393,6
Xorazm	114,4	143,0	122,2	174,7	123,5	215,8
Toshkent sh.	119,1	1088,0	113	1229,4	120	1475,3

Sanoat mahsuloti prognozi

Mintaqalar	2008 yil		2009 yil		2010 yil prognozi	
	Temp	Taqqos- lama narx	Temp	Taqqos- lama narx	Temp	Taqqos- lama narx
O'zbekiston Respublikasi	112,7	20640,7	109,3	22560,2	112,5	25380,3
Qoraqalpog'iston	112,5	252,2	109,0	274,9	112,4	309,0
Andijon	123,4	2636,7	112,5	2967,1	113,4	3365,4
Buxoro	107,0	849,3	111,0	942,7	111,7	1052,7
Jizzax	109,0	263,9	109,3	288,4	108,5	312,9
Qashkadaryo	118,9	2683,8	115,0	3086,4	115,0	3549,0
Navoiy	103,0	2457,7	105,3	2586,7	106,3	2748,4
Namangan	115,2	382,0	113,1	432,2	114,6	495,4
Samarkand	124,2	841,2	112,6	947,2	112,6	1066,5
Surxondaryo	111,8	332,5	116,0	385,7	118,0	455,1
Sirdaryo	105,1	203,6	109,8	223,5	111,2	248,6
Toshkent	100,3	2795,4	112,8	3153,2	112,8	3556,8
Farg'ona	102,8	1902,6	107,1	2037,7	112,2	2286,4
Xorazm	110,3	318,1	106,0	337,2	111,7	376,6
Toshkent sh.	136,8	3018,9	110,6	3338,5	110,2	3680,5

Ulgurji savdo aylanmasi prognozi

Mintaqalar	2008 yil		2009 yil		2010 yil prognoz	
	Temp	Taqqos- lama narx	Temp	Taqqos- lama narx	Temp	Taqqos- lama narx
O'zbekiston Respublikasi	117,2	11091,8	114,9	12746,6	115,9	14775,1
Qoraqalpog'iston	119,1	296,0	114,5	338,9	112,5	381,2
Andijon	117,2	894,0	112,0	1001,3	112,0	1121,4
Buxoro	121,0	617,2	115,0	709,8	116,0	823,4
Jizzax	118,4	247,8	114,8	284,5	111,0	315,8
Qashkadaryo	115,1	633,1	115,0	728,0	113,5	826,3
Navoiy	121,1	387,0	118,0	456,7	122,0	557,2
Namangan	116,8	684,0	116,5	796,8	117,5	936,3
Samarkand	118,0	779,0	116,7	909,1	116,5	1059,1
Surxondaryo	113,3	621,7	114,0	708,7	122,5	868,2
Sirdaryo	122,8	186,9	112,5	210,3	113,5	238,6
Toshkent	124,3	1242,4	114,0	1416,3	117,0	1657,1
Farg'ona	120,1	1153,0	114,5	1320,1	117,0	1544,6
Xorazm	114,9	457,6	115,5	528,6	115,0	607,9
Toshkent sh.	113,4	2902,1	115,0	3337,5	115,0	3838,1

Iste'mol tovarlari prognozi

Mintaqalar	2008 yil		2009 yil		2010 yil prognoz	
	Temp	Taqqos-lama narx	Temp	Taqqos-lama narx	Temp	Taqqos-lama narx
O'zbekiston Respublikasi	117,7	6252,7	115,4	7215,6	116,4	8400,9
Qoraqalpog'iston	115,2	80,2	109,6	87,9	109,8	96,5
Andijon	122,2	1958,7	117,4	2299,6	118,8	2731,9
Buxoro	106,9	331,9	108,8	361,1	109,7	396,2
Jizzax	116,0	136,0	109,3	148,6	110,5	164,2
Qashkadaryo	117,3	230,0	118,8	273,3	119,7	327,1
Navoiy	115,2	121,7	104,8	127,5	105,5	134,5
Namangan	116,3	214,1	116,5	249,4	117,0	291,8
Samarqand	124,5	597,1	110,0	656,8	110,0	722,5
Surxondaryo	112,6	118,8	113,5	134,8	114,4	154,2
Sirdaryo	117,8	85,4	110,5	94,4	110,6	104,4
Toshkent	111,3	613,9	122,0	749,0	121,3	908,5
Farg'ona	106,0	543,3	110,0	597,6	111,7	667,5
Xorazm	108,9	132,6	113,5	150,5	117,0	176,1
Toshkent sh.	123,6	1091,3	118,0	1287,7	118,7	1528,5

YaHM mintaqa bo'yicha prognozi³

	2008 yil					2009 yil				
	temp	Taqqos lama narx	Amal-dagi narx (mlrd. so'm)	Deflyator	Jamiga nisbatan %da	temp	Taqqos lama narx	Amal-dagi narx (mlrd. so'm)	Deflyator	Jamiga nisbatan %da
Qoraqalpog'iston Respublikasi										
Yalpi hududiy mahsulot	108,3	816,7	984,7	120,6	100,0	109,6	1079,4	1299,1	120,4	100,0
Sanoat	107,0	67,0	82,8	123,6	8,4	105,0	86,9	109,0	125,4	8,4
Qishloq xo'jaligi	100,1	205,0	220,6	107,6	22,4	105,4	232,5	267,9	115,2	20,6
transport va aloqa	135,6	62,4	71,7	114,9	7,3	115,2	82,6	96,7	117,1	7,4
Qurilish	115,0	70,2	82,2	117,2	8,3	112,0	92,1	112,6	122,3	8,7
Savdo va umumiy ovqatlanish	120,2	54,7	61,8	113,0	6,3	116,0	71,7	86,4	120,5	6,6
Boshqa xizmatlar	106,8	323,2	413,8	128,0	42,0	110,6	457,7	563,8	123,2	43,4
Sof soliqlar	107,9	34,3	51,8	151,0	5,3	108,0	55,9	62,7	112,0	4,8
Xizmatlar – jami (ishlab chiqarishsiz)	111,7	440,2	547,3	124,3	55,6	111,8	611,9	746,9	122,1	57,5
Xizmatlar – jami (ishlab chiqarishni hisobga olganda)	111,7	462,4	574,9	124,3	58,4	111,8	642,8	784,6	122,1	60,4

³ Jadval O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi ma'lumoti asosida tuzilgan

**YaHM mintaqa
bo'yicha prognozi ⁴**

	2008 yil					2009 yil				
	temp	Taqqosl ama narx	Amal- dagi narx (mlrd. so'm)	Def- lyator	Jamiga nisba- tan %da	temp	Taqqosl ama narx	Amal- dagi narx (mlrd. so'm)	Def- lyator	Jamiga nisba- tan %da
Andijon viloyati										
Yalpi hududiy mahsulot	114,0	2102,3	2550,6	121,3	100,0	109,5	2791,7	3125,7	112,0	100,0
Sanoat	118,7	650,8	787,5	114,2	30,9	108,0	850,5	986,6	116,0	31,6
Qishloq xo'jaligi	109,3	564,8	650,5	109,0	25,5	104,5	679,8	720,6	106,0	23,1
transport va aloqa	133,2	130,7	152,7	111,0	6,0	118,0	180,2	200,4	111,2	6,4
Qurilish	116,5	80,2	98,6	112,8	3,9	112,0	110,4	116,0	105,0	3,7
Savdo va umumiy ovqatlanish	116,5	162,4	171,1	109,8	6,7	112,0	191,6	208,1	108,6	6,7
Boshqa xizmatlar	108,3	444,4	609,8	117,0	23,9	113,4	691,5	802,2	116,0	25,7
Sof soliqlar	110,9	69,1	80,4	112,0	3,2	109,0	87,6	92,0	105,0	2,9
Xizmatlar – jami (ishlab chiqarishsiz)	113,8	737,4	933,6	126,6	36,6	113,9	1063,3	1210,6	113,9	38,7
Xizmatlar – jami (ishlab chiqarishni hisobga olganda)	113,8	796,0	1007,7	126,6	39,5	113,9	1147,7	1306,7	113,9	41,8

⁴ Jadval O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi ma'lumoti asosida tuzilgan

198

**YaHM mintaqa
bo'yicha prognozi ⁵**

	2008 yil					2009 yil				
	temp	Taqqo slama narx	Amal- dagi narx (mlrd. so'm)	Def- lyator	Jamiga nisba- tan %da	temp	Taqqo slama narx	Amal- dagi narx (mlrd. so'm)	Def- lyator	Jamiga nisba- tan %da
Buxoro viloyati										
Yalpi hududiy mahsulot	105,7	1667,1	2069,4	124,1	100,0	108,0	2234,6	2614,8	117,0	100,0
Sanoat	102,7	213,7	272,2	122,0	13,2	104,8	285,3	350,3	122,8	13,4
Qishloq xo'jaligi	101,9	525,1	620,6	117,2	30,0	105,5	654,7	747,1	114,1	28,6
transport va aloqa	118,3	97,4	114,0	123,5	5,5	115,0	131,1	153,4	117,0	5,9
Qurilish	100,4	170,5	210,5	124,5	10,2	108,0	227,3	272,8	120,0	10,4
Savdo va umumiy ovqatlanish	118,9	111,1	118,5	115,0	5,7	115,0	136,3	160,1	117,5	6,1
Boshqa xizmatlar	109,7	339,0	442,4	125,8	21,4	111,5	493,3	596,9	121,0	22,8
Sof soliqlar	105,4	210,4	291,2	115,0	14,1	105,3	306,6	334,2	109,0	12,8
Xizmatlar – jami (ishlab chiqarishsiz)	112,9	547,4	674,9	123,3	32,6	112,7	760,7	910,4	119,7	34,8
Xizmatlar – jami (ishlab chiqarishni hisobga olganda)	112,9	602,9	743,4	123,3	35,9	112,7	837,9	1002,8	119,7	38,4

⁵ Jadval O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi ma'lumoti asosida tuzilgan

199

YaHM mintaqa bo'yicha prognozi ⁶

	2008 yil					2009 yil				
	temp	Taqqoslama narx	Amaldagi narx (mlrd. so'm)	Deflyator	Jamiga nisbatan %da	temp	Taqqoslama narx	Amaldagi narx (mlrd. so'm)	Deflyator	Jamiga nisbatan %da
Jizzax Viloyati										
Yalpi hududiy mahsulot	108,3	847,8	977,1	115,3	100,0	108,2	1057,6	1256,1	118,8	100,0
Sanoat	104,5	65,0	80,7	121,0	8,3	105,0	84,7	105,1	124,0	8,4
Qishloq xo'jaligi	104,2	399,9	409,3	116,0	41,9	106,0	433,9	503,3	116,0	40,1
transport va aloqa	121,6	55,6	65,0	119,0	6,7	113,5	73,8	87,6	118,7	7,0
Qurilish	132,2	59,1	68,7	117,0	7,0	113,2	77,8	90,6	116,5	7,2
Savdo va umumiy ovqatlanish	113,8	44,7	52,6	124,3	5,4	110,0	57,9	70,8	122,3	5,6
Boshqa xizmatlar	107,8	198,9	251,3	124,0	25,7	109,9	276,2	341,1	123,5	27,2
Sof soliqlar	110,5	24,6	49,5	112,0	5,1	108,0	53,5	57,7	108,0	4,6
Xizmatlar – jami (ishlab chiqarishsiz)	110,9	299,1	368,9	123,3	37,8	110,5	407,8	499,4	122,5	39,8
Xizmatlar – jami (ishlab chiqarishni hisobga olganda)	110,9	325,3	401,2	123,3	41,1	110,5	443,5	543,1	122,5	43,2

⁶ Jadval O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi ma'lumoti asosida tuzilgan

200

YaHM mintaqa bo'yicha prognozi ⁷

	2008 yil					2009 yil				
	temp	Taqqoslama narx	Amaldagi narx (mlrd. so'm)	Deflyator	Jamiga nisbatan %da	temp	Taqqoslama narx	Amaldagi narx (mlrd. so'm)	Deflyator	Jamiga nisbatan %da
Qashqadaryo viloyati										
Yalpi hududiy mahsulot	111,7	2390,3	2831,6	118,5	100,0	109,5	3101,9	3650,6	117,7	100,0
Sanoat	114,1	759,9	949,7	125,0	33,5	108,0	1025,7	1246,2	121,5	34,1
Qishloq xo'jaligi	106,4	626,5	643,3	102,7	22,7	105,0	675,5	756,5	112,0	20,7
transport va aloqa	123,2	108,5	126,2	116,3	4,5	115,0	145,1	171,3	118,0	4,7
Qurilish	114,2	199,2	230,3	115,6	8,1	120,1	276,6	318,1	115,0	8,7
Savdo va umumiy ovqatlanish	115,1	120,4	130,0	108,0	4,6	117,0	152,1	178,0	117,0	4,9
Boshqa xizmatlar	111,4	421,9	556,0	131,8	19,6	111,0	617,2	752,9	122,0	20,6
Sof soliqlar	110,5	153,9	196,1	127,4	6,9	107,0	209,8	227,7	108,5	6,2
Xizmatlar – jami (ishlab chiqarishsiz)	113,9	650,8	812,2	124,8	28,7	112,6	914,4	1102,1	120,5	30,2
Xizmatlar – jami (ishlab chiqarishni hisobga olganda)	113,9	740,0	923,6	124,8	32,6	112,6	1039,8	1253,3	120,5	34,3

⁷ Jadval O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi ma'lumoti asosida tuzilgan

201

YaHM mintaqa bo'yicha prognozi ⁸

	2008 yil					2009 yil				
	temp	Taqqos lama narx	Amal-dagi narx (mlrd. so'm)	Deflyator	Jamiga nisbatan %da	temp	Taqqos lama narx	Amal-dagi narx (mlrd. so'm)	Deflyator	Jamiga nisbatan %da
Navoiy viloyati										
Yalpi hududiy mahsulot	108,1	1817,3	2125,4	117,0	100,0	107,7	2288,0	2695,9	117,8	100,0
Sanoat	102,2	846,4	1025,3	121,1	48,2	104,2	1068,4	1282,0	120,0	47,6
Qishloq xo'jaligi	105,1	264,6	303,4	114,6	14,3	104,5	317,1	361,4	114,0	13,4
transport va aloqa	129,5	112,3	134,4	119,7	6,3	113,0	151,9	180,4	118,8	6,7
Qurilish	105,7	135,4	154,7	114,3	7,3	117,0	181,0	204,5	113,0	7,6
Savdo va umumiy ovqatlanish	124,9	85,2	89,7	105,3	4,2	116,0	104,1	120,7	116,0	4,5
Boshqa xizmatlar	119,5	307,4	349,1	113,6	16,4	112,3	392,0	466,5	119,0	17,3
Sof soliqlar	108,3	66,1	-68,8	104,1	3,2	107,0	73,6	80,2	109,0	3,0
Xizmatlar – jami (ishlab chiqarishsiz)	122,5	504,8	573,2	113,5	27,0	113,0	648,0	767,7	118,5	28,5
Xizmatlar – jami (ishlab chiqarishni hisobga olganda)	122,5	569,3	646,4	113,5	30,4	113,0	730,7	865,6	118,5	32,1

⁸ Jadval O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi ma'lumoti asosida tuzilgan

202

YaHM mintaqa bo'yicha prognozi ⁹

	2008 yil					2009 yil				
	temp	Taqqos lama narx	Amal-dagi narx (mlrd. so'm)	Deflyator	Jamiga nisbatan %da	temp	Taqqos lama narx	Amal-dagi narx (mlrd. so'm)	Deflyator	Jamiga nisbatan %da
Namangan viloyati										
Yalpi hududiy mahsulot	112,3	1173,4	1426,0	121,5	100,0	109,5	1560,8	1806,5	□□□□□□10	100,0
Sanoat	109,0	90,9	106,0	116,6	7,4	108,0	114,5	136,2	119,0	7,5
Qishloq xo'jaligi	106,0	428,0	527,2	123,2	37,0	105,5	556,2	628,5	113,0	34,8
transport va aloqa	145,9	105,6	123,0	116,4	8,6	113,0	139,0	158,4	114,0	8,8
Qurilish	116,8	90,9	104,1	114,6	7,3	115,7	120,4	140,1	116,3	7,8
Savdo va umumiy ovqatlanish	115,6	121,0	130,7	108,0	9,2	118,5	154,9	182,0	117,5	10,1
Boshqa xizmatlar	111,0	271,6	344,9	127,0	24,2	110,0	379,4	459,1	121,0	25,4
Sof soliqlar	112,1	65,4	90,1	137,9	6,3	107,0	96,4	102,2	106,0	5,7
Xizmatlar – jami (ishlab chiqarishsiz)	118,1	498,3	598,6	120,1	42,0	112,5	673,3	799,5	118,7	44,3
Xizmatlar – jami (ishlab chiqarishni hisobga olganda)	118,1	528,9	635,4	120,1	44,6	112,5	714,6	848,6	118,7	47,0

⁹ Jadval O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi ma'lumoti asosida tuzilgan

203

**YaHM mintaqa
bo'yicha prognozi ¹⁰**

	2008 yil					2009 yil				
	temp	Taqqos lama narx	Amal- dagi narx (mlrd. so'm)	Def- lyator	Jamiga nisba- tan %da	temp	Taqqos lama narx	Amal- dagi narx (mlrd. so'm)	Def- lyator	Jamiga nisba- tan %da
Samarqand viloyati						108,8	2604,7	3018,2	115,9	100,0
Yalpi hududiy mahsulot	108,3	1915,5	2393,3	124,9	100,0	109,0	367,2	437,0	119,0	14,5
Sanoat	117,6	219,6	336,9	153,4	14,1	105,5	1015,6	1140,6	112,3	37,8
Qishloq xo'jaligi	102,7	828,7	962,7	116,2	40,2	114,8	167,0	192,1	115,0	6,4
transport va aloqa	116,5	125,7	145,5	115,7	6,1	114,0	140,6	163,1	116,0	5,4
Qurilish	116,0	103,9	123,3	118,6	5,2	115,2	191,9	224,6	117,0	7,4
Savdo va umumiy ovqatlanish	115,3	145,2	166,6	114,8	7,0	110,0	604,1	731,0	121,0	24,2
Boshqa xizmatlar	109,3	417,9	549,2	131,4	22,9	108,3	118,2	130,0	110,0	4,3
Sof soliqlar	108,2	74,5	109,1	146,3	4,6					
						111,8	963,1	1147,6	119,2	38,0
Xizmatlar – jami (ishlab chiqarishsiz)	111,8	688,7	861,3	125,1	36,0	111,8	1040,9	1240,4	119,2	41,1
Xizmatlar – jami (ishlab chiqarishni hisobga olganda)	111,8	744,4	930,9	125,1	38,9	108,8	2604,7	3018,2	115,9	100,0

¹⁰ Jadval O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi ma'lumoti asosida tuzilgan

204

**YaHM mintaqa
bo'yicha prognozi ¹¹**

	2008 yil					2009 yil				
	temp	Taqqos lama narx	Amal- dagi narx (mlrd. so'm)	Def- lyator	Jamiga nisba- tan %da	temp	Taqqos lama narx	Amal- dagi narx (mlrd. so'm)	Def- lyator	Jamiga nisba- tan %da
Surxandaryo viloyati										
Yalpi hududiy mahsulot	107,4	1119,1	1354,1	121,0	100,0	109,9	1488,0	1682,2	113,0	
Sanoat	108,5	82,5	□□□□	133,2	8,1	109,0	119,7	147,2	123,0	
Qishloq xo'jaligi	101,2	480,1	585,6	122,0	43,2	106,0	620,7	676,6	109,0	
transport va aloqa	128,5	128,2	152,1	118,6	11,2	119,0	181,0	206,3	114,0	
Qurilish	121,1	84,8	93,6	110,4	6,9	109,7	102,7	120,1	117,0	
Savdo va umumiy ovqatlanish	112,1	102,5	117,6	114,8	8,7	118,0	138,8	159,6	115,0	
Boshqa xizmatlar	103,5	190,2	245,2	128,9	18,2	110,5	270,9	314,3	116,0	
Sof soliqlar	108,2	50,9	50,2	98,7	3,7	108,0	54,2	58,0	107,0	
Xizmatlar – jami (ishlab chiqarishsiz)	112,2	420,9	514,9	122,3	38,0	114,7	590,7	680,2	115,2	
Xizmatlar – jami (ishlab chiqarishni hisobga olganda)	112,2	461,8	564,9	122,3	41,7	114,7	648,0	746,2	115,2	

¹¹ Jadval O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi ma'lumoti asosida tuzilgan

205

YaHM mintaqa bo'yicha prognozi	2008 yil					2009 yil				
	temp	Taqqos lama narx	Amaldagi narx (mlrd. so'm)	Def- lyator	Jamiga nisba- tan %da	temp	Taqqos lama narx	Amal- dagi narx (mlrd. so'm)	Def- lyator	Jamiga nisba- tan %da
Sirdaryo viloyati										
Yalpi hududiy mahsulot	108,9	527,9	634,6	120,2	100,0	109,1	692,1	783,9	113,3	100,0
Sanoat	101,9	49,7	66,5	133,7	10,5	106,0	70,5	84,2	119,4	10,7
Qishloq xo'jaligi	106,5	226,5	263,4	116,3	41,5	105,8	278,7	306,5	110,0	39,1
transport va aloqa	129,7	41,0	46,7	113,9	7,4	116,0	54,2	60,2	111,2	7,7
Qurilish	117,5	35,1	33,8	96,2	5,3	114,4	38,7	42,1	109,0	5,4
Savdo va umumiy ovqatlanish	122,3	35,0	40,6	116,1	6,4	113,5	46,1	50,0	108,6	6,4
Boshqa xizmatlar	103,3	101,1	139,6	138,0	22,0	112,1	156,5	190,9	122,0	24,4
Sof soliqlar	111,7	39,4	44,0	111,6	6,9	107,9	47,5	49,8	105,0	6,4
Xizmatlar – jami (ishlab chiqarishsiz)	112,0	177,1	226,9	128,1	35,8	113,2	256,7	301,2	117,3	38,4
Xizmatlar – jami (ishlab chiqarishni hisobga olganda)	112,0	194,1	248,7	128,1	39,2	113,2	281,4	330,1	117,3	42,1

206

**YaHM mintaqa
bo'yicha prognozi ¹²**

	2008 yil					2009 yil				
	temp	Taqqos lama narx	Amaldagi narx (mlrd. so'm)	Def- lyator	Jamiga nisba- tan %da	temp	Taqqos lama narx	Amal- dagi narx (mlrd. so'm)	Def- lyator	Jamiga nisba- tan %da
Toshkent viloyati										
Yalpi hududiy mahsulot	104,7	3080,5	3459,6	112,3	100,0	108,0	3736,7	4267,3	114,2	100,0
Sanoat	96,2	1005,6	1036,8	117,3	30,0	106,0	1099,0	1302,3	118,5	30,5
Qishloq xo'jaligi	106,1	825,4	862,1	116,5	24,9	105,0	905,2	1018,4	112,5	23,9
transport va aloqa	118,3	390,3	473,4	125,8	13,7	112,0	530,2	588,5	111,0	13,8
Qurilish	110,6	119,9	142,2	120,3	4,1	108,0	153,6	175,1	114,0	4,1
Savdo va umumiy ovqatlanish	118,9	250,3	269,8	112,0	7,8	117,0	315,7	353,5	112,0	8,3
Boshqa xizmatlar	102,0	279,1	395,7	113,2	11,4	110,0	435,3	504,9	116,0	11,8
Sof soliqlar	107,0	210,0	279,6	140,0	8,1	106,5	297,8	324,6	109,0	7,6
Xizmatlar – jami (ishlab chiqarishsiz)	113,0	919,6	1138,9	123,8	32,9	112,5	1281,1	1447,0	112,9	33,9
Xizmatlar – jami (ishlab chiqarishni hisobga olganda)	113,0	996,9	1234,6	123,8	35,7	112,5	1388,8	1568,5	112,9	36,8

¹² Jadval O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi ma'lumoti asosida tuzilgan

**YaHM mintaq
bo'yicha prognozi ¹³**

	2008 yil					2009 yil				
	temp	Taqqos lama narx	Amaldagi narx (mlrd. so'm)	Def- lyator	Jamiga nisba- tan %da	temp	Taqqos lama narx	Amal- dagi narx (mlrd. so'm)	Def- lyator	Jamiga nisba- tan %da
Farg'ona viloyati										
Yalpi hududiy mahsulot	106,0	2356,3	2853,5	121,1	100,0	107,4	3063,4	3522,9	115,0	100,0
Sanoat	98,0	551,6	691,9	125,4	24,2	104,0	719,6	856,3	119,0	24,3
Qishloq xo'jaligi	105,1	572,7	603,1	105,3	21,1	104,5	630,2	705,9	112,0	20,0
transport va aloqa	127,6	187,4	222,2	118,5	7,8	118,0	262,2	296,8	113,2	8,4
Qurilish	117,3	105,8	128,4	121,4	4,5	113,1	145,2	164,8	113,5	4,7
Savdo va umumiy ovqatlanish	116,6	215,5	218,0	101,2	7,6	116,0	252,9	288,3	114,0	8,2
Boshqa xizmatlar	103,8	426,2	554,3	130,1	19,4	107,5	595,9	703,1	118,0	20,0
Sof soliqlar	104,9	297,1	435,6	146,6	15,3	105,0	457,4	507,7	111,0	14,4
Xizmatlar – jami (ishlab chiqarishsiz)	111,7	829,1	994,5	119,9	34,9	111,7	1110,9	1288,2	116,0	36,6
Xizmatlar – jami (ishlab chiqarishni hisobga olganda)	111,7	876,6	1051,5	119,9	36,8	115,1	1210,2	1362,0	112,5	38,7

¹³ Jadval O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi ma'lumoti asosida tuzilgan

208

**YaHM mintaq
bo'yicha prognozi ¹⁴**

	2008 yil					2009 yil				
	temp	Taqqos lama narx	Amaldagi narx (mlrd. so'm)	Def- lyator	Jamiga nisba- tan %da	temp	Taqqos lama narx	Amal- dagi narx (mlrd. so'm)	Def- lyator	Jamiga nisba- tan %da
Xorazm viloyati										
Yalpi hududiy mahsulot	107,6	1080,3	1236,1	114,4	100,0	108,1	1335,9	1538,4	115,2	100,0
Sanoat	104,9	85,7	93,5	109,1	7,6	103,0	96,3	115,6	120,0	7,5
Qishloq xo'jaligi	102,8	427,8	465,8	108,9	37,7	105,0	489,1	547,8	112,0	35,6
transport va aloqa	125,8	98,0	114,3	116,6	9,2	113,0	129,2	146,6	113,5	9,5
Qurilish	103,2	74,8	93,9	125,5	7,6	108,0	101,4	119,7	118,0	7,8
Savdo va umumiy ovqatlanish	119,4	82,4	90,7	110,1	7,3	116,0	105,2	116,8	111,0	7,6
Boshqa xizmatlar	108,6	263,4	333,3	126,6	27,0	110,2	367,3	440,8	120,0	28,7
Sof soliqlar	109,7	48,3	44,6	92,4	3,6	106,4	47,5	51,3	108,0	3,3
Xizmatlar – jami (ishlab chiqarishsiz)	114,0	443,7	538,3	121,3	43,5	111,8	601,7	704,1	117,0	45,8
Xizmatlar – jami (ishlab chiqarishni hisobga olganda)	114,0	478,9	580,9	121,3	47,0	111,8	649,3	759,9	117,0	49,4

¹⁴ Jadval O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi ma'lumoti asosida tuzilgan

209

**YaHM mintaq
bo'yicha prognozi ¹⁵**

	2008 yil					2009 yil				
	temp	Taqqos lama narx	Amaldagi narx (mlrd. so'm)	Def- lyator	Jamiga nisba- tan %da	temp	Taqqos lama narx	Amal- dagi narx (mlrd. so'm)	Def- lyator	Jamiga nisba- tan %da
Toshkent shahri										
Yalpi hududiy mahsulot	118,6	4933,0	6235,1	126,4	100,0	108,8	6785,9	8147,8	120,1	100,0
Sanoat	127,0	749,0	980,4	130,9	15,7	106,0	1039,2	1247,1	120,0	15,3
Qishloq xo'jaligi	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
transport va aloqa	136,8	934,1	1029,4	110,2	16,5	110,0	1132,3	1290,9	114,0	15,8
Qurilish	105,1	362,6	473,3	130,5	7,6	115,5	546,7	666,9	122,0	8,2
Savdo va umumiy ovqatlanish	117,2	632,2	695,6	110,0	11,2	118,0	820,8	927,5	113,0	11,4
Boshqa xizmatlar	112,1	1730,6	2425,1	140,1	38,9	106,5	2582,7	3228,4	125,0	39,6
Sof soliqlar	114,5	524,5	631,3	120,4	10,1	105,2	664,1	787,0	118,5	9,7
Xizmatlar – jami (ishlab chiqarishsiz)	119,2	3296,8	4150,1	125,9	66,6	109,3	4535,9	5446,8	120,1	66,9
Xizmatlar – jami (ishlab chiqarishni hisobga olganda)	119,2	3353,2	4221,0	125,9	67,7	110,5	4664,2	5539,9	118,8	68,0

¹⁵ Jadval O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi ma'lumoti asosida tuzilgan

210

**YaHM mintaq
bo'yicha prognozi ¹⁶**

	2008 yil					2009 yil				
	temp	Taqqos lama narx	Amaldagi narx (mlrd. so'm)	Def- lyator	Jamiga nisba- tan %da	temp	Taqqos lama narx	Amal- dagi narx (mlrd. so'm)	Def- lyator	Jamiga nisba- tan %da
O'zbekiston Respublikasi YaIM										
Yalpi hududiy mahsulot	109,0	30709,1	36839,4	120,0	100,0	108,1	39813,9	46978,1	118,0	100,0
Sanoat	106,8	7216,8	8227,1	114,0	22,3	105,3	8662,4	10394,8	120,0	22,1
Qishloq xo'jaligi	104,5	6384,0	7134,6	111,8	19,4	105,0	7491,3	8674,9	115,8	18,5
Transport va aloqa	116,7	3649,8	4685,2	128,4	12,7	111,2	5211,4	6097,3	117,0	13,0
Qurilish	108,3	1667,0	2046,1	122,7	5,6	115,0	2353,0	2717,7	115,5	5,8
Savdo va umumiy ovqatlanish	114,4	3017,1	3368,3	111,6	9,1	115,4	3887,0	4450,6	114,5	9,5
Boshqa xizmatlar	109,9	5860,2	7935,0	135,4	21,5	108,3	8593,6	10221,2	118,9	21,8
Sof soliqlar	108,6	2914,3	3443,1	118,1	9,3	105,0	3615,2	4421,4	122,3	9,4
Xizmatlar – jami (ishlab chiqarishsiz)	112,9	12527,1	15988,5	127,6	43,4	110,7	17692,0	20769,2	117,4	44,2
Xizmatlar – jami (ishlab chiqarishni hisobga olganda)	112,9	13522,8	17348,5	128,3	47,1	110,9	19239,5	22594,7	117,4	48,1

¹⁶ Jadval O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi ma'lumoti asosida tuzilgan

211

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. IQTISODIYOTDA PROGNOZLASHTIRISHNING MOHIYATI VA O'RNI.....	5
1.1. Prognozlash tarixi va uning bozor munosabatlaridaqi o'rni.....	5
1.2. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni prognozashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	8
1.3. Prognozlashning asosiy yo'nalishlari.....	8
Qisqacha xulosalar.....	9
Nazorat uchun savollar.....	9
II BOB. IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI PROGNOZLASHTIRISH METODOLOGIYASI VA USULLAR.....	11
2.1. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozashtirish tizimlari.....	11
2.2. Uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozashtirish uslubiyati asoslari.....	11
2.3. O'rta muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozashtirish uslubiyati asoslari.....	12
2.4. Qisqa muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozashtirish uslubiyati asoslari.....	12
Qisqacha xulosalar.....	13
Nazorat uchun savollar.....	13
III BOB. IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI PROGNOZLASHTIRISHNI TASHKIL ETISH TARTIBI VA YO'NALISHLARI.....	15
3.1. Davlat va mintaqa miqyosida prognozashtirish va uni tashkil etish tartibi.	15
3.2. Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozashtirish tizimi va uning aloqadorligi.....	16
Qisqacha xulosalar.....	18
Nazorat chun savollar.....	18
IV BOB. MINTAQALARNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI PROGNOZLASHTIRISH MAQSADI VA VAZIFALARI.....	20
4.1. Mintaqaviy xo'jalik va mintaqaviy iqtisodiyot.....	20
4.2. Mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni prognozlash uslubiyati.....	21
Qisqacha xulosalar.....	23
Nazorat uchun savollar.....	24
V BOB. IQTISODIY PROGNOZLASH MODELLARI.....	25
5.1. Iqtisodiy -ijtimoiy prognozlash masalalarining mohiyati.....	25
5.2. Iqtisodiy- ijtimoiy prognoz modellarini turlari.....	26
5.3. Tarmoqlararo dinamik balans modeli.....	27
5.4. Iqtisodiy variatsiyalar.....	28
5.5. Makroiqtisodiy prognozlash modellari.....	31
5.6. Iqtisodiyotda qo'llaniladigan optimallashtirish modellari.....	32
Qisqacha xulosalar.....	33

Nazorat uchun savollar.....	34
VI BOB. MINTAQA SANOATI KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASHTIRISHNING USLUBIY ASOSLARI.....	35
6.1. Sanoat tarmoqlari tarkibi.....	35
6.2. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlari.....	36
Qisqacha xulosalar.....	41
Nazorat uchun savollar.....	41
VII BOB. MINTAQADA QISHLOQ XO'JALIGI RIVOJLANISHI KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASHTIRISH USULLARI.....	42
7.1. Asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlari ko'rsatkichlari va qishloq xo'jalik mahsulotlari hajmi.....	42
7.2. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining fizik hajmi indeksini hisoblashni prognozlash.....	43
7.3. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini holati taxlili.....	44
Qisqacha xulosalar.....	49
Nazorat uchun savollar.....	50
VIII BOB. KAPITAL QO'YILMALAR HAJMINI PROGNOZLASH USLUBIYOTI.....	51
8.1. Kapital qo'yilmalar tushunchasi.....	51
8.2. Mintaqaning kapital qo'yilmalar manbalari tuzilmasi.....	52
8.3. Kapital qo'yilmalar bo'yicha sur'atlarni prognozlash.....	53
8.4. Kapital qo'yilmalar hajmini prognozlash.....	54
Qisqacha xulosalar.....	56
Nazorat uchun savollar.....	57
IX BOB. QURILISH TARMOQINI TAHLIL QILISH VA PRONoz QILISH.....	58
9.1. Hududdagi qurilish ishlari bajarilishining tuzilishi.....	58
9.2. Qurilish ishlari sur'atlari bo'yicha tahlili.....	61
9.3. Qurilish ishlari hajmining tahlili.....	63
9.4. Ijtimoiy soha ob'ektlari qurilishining tahlili.....	65
9.5. Monitoringni shakllantirish talablari ko'rsatkichlari.....	65
Qisqacha xulosalar.....	66
Nazorat uchun savollar.....	66
X BOB. TRANSPORT VA ALOQA TARMOQLARINI PROGNOZLASHTIRISH.....	68
10.1. Transport tarmoqlarini prognozashtirish ko'rsatkichlari.....	68
10.2. Transport tarmoqida ekonometrik prognozlash bosqichlari.....	69
10.3. Aloqa va axborotlash tizimini prognozlash uslubiyati.....	72
Qisqacha xulosalar.....	74
Nazorat uchun savollar.....	74
XI BOB. XIZMAT KO'RSATISH SOHASINING RIVOJLANISH SUR'ATLARINI PROGNOZLASH.....	75
11.1. Xizmat ko'rsatish sohasining tarkibi.....	75

11.2. Xizmat ko'rsatishni iqtisodiy prognozlashning asosiy yo'nalishlari.....	77
11.3. Aholiga ko'rsatilayotgan maishiy xizmatlarni qisoblash va prognozlash usullari.....	77
11.4. Xizmat ko'rsatish sohasini prognozlashda axborot bazasiga qo'yiladigan talablar.....	84
11.5. Xizmat ko'rsatish soqalarining tuzilishi.....	86
Qisqacha xulosalar.....	89
Nazorat uchun savollar.....	89
XI I BOB. MINTAQALARDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASH TIRISHNING USLUBIY ASOSLARI.....	91
12.1. Tashqi iqtisodiy faoliyatni shakllantirishdagi asosiy ko'rsatkichlar.....	91
12.2. Tashqi iqtisodiy faoliyatning prognoz ko'rsatkichlari.....	92
Qisqacha xulosa.....	93
Nazorat uchun savollar.....	94
XIII BOB. MINTAQADA DEMOGRAFIK O'SISH VA AHOLI BANDLIGINI PROGNOZLASH TIRISH ASOSLARI.....	95
13.1. Demografik o'sish ko'rsatkichlari.....	95
13.2. Aholi tarkibini hamda sonining dinamikasini ifodalovchi ijtimoiy demografik ko'rsatkichlar.....	97
13.3. Mehnat bozorlarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari.....	100
13.4. Mintaqada demografik o'sishni prognozlash.....	108
13.5. Mehnat bozorini prognozlash ko'rsatkichlari.....	110
Qisqacha xulosalar.....	113
Nazorat uchun savollar.....	114
XIV BOB. AHOLI TURMUSH DARAJASINING KO'TARILISHI VA IJTIMOY RIVOJLANISHNI PROGNOZLASH.....	115
14.1. Aholi turmush darajasini ko'tarilishi va ijtimoiy rivojlanishni prognozlash tizimlari.....	115
14.2. Aholi ehtiyojini va chakana tovar ayirboshlashni prognozlash.....	116
14.3. Madaniyatni taraqqiy ettirishni prognozlash.....	117
Qisqacha xulosalar.....	118
Nazorat uchun savollar.....	119
XV BOB. MINTAQADA SOG'LIQNI SAQLASH VA TA'LIM TARMOQLARI KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASH TIRISHNING USLUBIY ASOSLARI.....	120
15.1. Soqliqni saqlash tizimini prognozlash ko'rsatkichlari.....	120
15.2. Ta'lim tizimining prognoz ko'rsatkichlari.....	120
Qisqacha xulosalar.....	125
Nazorat uchun savollar.....	125
XVI BOB. YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI PROGNOZ QILISH.....	127
16.1. Joriy va taqqoslama narxlarda yalpi qududiy maqsulotni hisoblash.....	127
16.2. YaHMni qisoblashda tarmoqlarni prognozlash yo'llari.....	127
16.3. Mahsulotlarga solinadigan soliqlar.....	135

Qisqacha xulosalar.....	136
Nazorat uchun savollar.....	136
XVII BOB. EKONOMETRIK MODELLAR.....	138
17.1. Ekonometrik modellarga oid umumiy tushunchalar.....	138
17.2. Ishlab chiqarish funksiyalarining asosiy xarakteristikasi.....	138
17.3. Iqtisodiy o'sishni ekonometrik modeli.....	139
17.4. Umumiy talabni prognozlash.....	142
Qisqacha xulosalar.....	143
Nazorat uchun savollar.....	143
XVIII BOB ILMIY-TEXNIKAVIY TARAQQIYOTNI	
PROGNOZLASHTIRISH.....	145
18.1. ITTning mohiyati va davriyligi.....	145
18.2. ITTning prognozashtirish konsepsiyasi.....	145
18.3. ITTni turli rivojlanish bosqichlardagi vazifalari.....	147
18.4. ITTni prognozlash usullari.....	148
18.5. ITTni rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari.....	149
18.6. ITT rivojlanishini prognoz baholanishi.....	151
Qisqacha xulosalar.....	152
Nazorat uchun savollar.....	153
XIX BOB. IQTISODIY O'SISHHI PROGNOZLASHTIRISH.....	155
19.1. Iqtisodiy o'sish, mohiyati, turlari.....	155
19.2. Iqtisodiy o'sishni tavsiflovchi mezonlar.....	157
19.3. Ishlab chiqarish funksiyasi – iqtisodiy o'sishni prognozashtirish modeli sifatida.....	159
19.4. Iqtisodiy o'sishni prognozashtirishda makroiqtisodiy modellar.....	162
Qisqacha xulosalar.....	163
Nazorat uchun savollar.....	163
TEST SAVOLLARIGA JAVOB BERING VA O'Z BILIMINGIZNI	
MUSTAHKAMLANG.....	165
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	173
IZOHLI LUG'AT.....	175
ILOVALAR.....	187
MUNDARIJA.....	212

**B.B. BERKINOV, D.S. ASHUROVA,
M.K. ABDULLAEVA, G.E. ZAHIDOV**

**MINTAQALARNI
IJTIMOIY–IQTISODIY
RIVOJLANISHINI PROGNOZLASH**

(O'quv qullanma)

Muharrir:	Alyoxina Z.
Musahhin:	Oripov I.
Texnik muharrir:	Bekchanov R.A.
Kompyuterda sahifalovchi:	Ataxanov F.A.

Bosishga ruhsat etildi: 25.10.2010 yil. Qog'oz bichimi 60x84, 1/16.

“Timis New Roman” garniturasida. Hajmi 13,5 sh.b.t.

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti bosmaxonasida chop etildi.

100003. Toshkent. O'zbekiston shoh ko'chasi, 24-uy.

